

ISLOM KARIMOV


**ONA YURTIMIZ
BAXT-U IQBOLI VA BUYUK
KELAJAGI YO'LIDA
XIZMAT QILISH -
ENG OLIY SAODATDIR**

«O'ZBEKISTON» NASHR
TASHKENT



ISLOM KARIMOV

**ONA YURTIMIZ
BAXT-U IQBOLI VA BUYUK
KELAJAGI YO'LIDA
XIZMAT QILISH -
ENG OLIY SAODATDIR**



TOSHKENT - «O'ZBEKISTON» - 2015

UO'K: 323(575.1)
KBK 66.3(50')
K25

ISBN 978-9943-28-369-5

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2015

SO‘ZBOSHI O‘RNIDA

Hurmatli kitobxon!

Ma'lumki, 2015-yil 29-mart kuni yurtimizda ulkan siyosiy voqea – O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylov bo'lib o'tdi. Bu haqda so'z yuritganda, avvalo, har tomonlama yuqori saviyada, muqobillik asosida o'tgan bu saylov mamlakatimizni demokratik rivojlantirish yo'lida yana bir muhim, hal qiluvchi bosqich bo'lib, xalqimizning o'z kuchi va salohiyatiga bo'lgan ishonchi naqadar mustahkam ekani, uning siyosiy-huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi, Vatanimizning bugungi va ertangi taqdiri uchun daxldorlik hissi tobora ortib borayotganini amalda yaqqol namoyon etganini ta'kidlash lozim.

Konstitutsiyamiz, milliy va xalqaro huquq normalari, demokratik tamoyillar asosida, ochiqlik va oshkoralik, tenglik va xolislik prinsiplariga to'la muvofiq ravishda o'tkazilgan ushbu saylovda saylovchilarning 90,39 foizi Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Islom Abdug'aniyevich Karimovga ovoz berdi.

Bunday yorqin g'alaba, hech shubhasiz, Islom Karimovning davlat rahbari sifatida O'zbekistonning mustaqilligini ta'minlash, uni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik maqsad va vazifalarini hal etish borasidagi beqiyos xizmatlari, yurtimizda amalga

oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning xalqimiz tomonidan yuksak e'tirof etilgani va yakdillik bilan qo'llab-quvvatlanganidan dalolat beradi.

Bu haqiqatni saylov jarayonida kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan nufuzli xalqaro tashkilotlar, ko'plab xorijiy davlatlarning vakillari ham keng e'tirof etganini alohida qayd etish zarur.

Haqiqatan ham, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlari izchil davom ettirilayotgan, eng muhimi, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodimiz mutlaqo yangicha insoniy sifat ko'rsatkichlari bilan maydonga chiqayotgan, yuksak marralarga intilib yashash uning hayot mazmuni, fuqarolik pozitsiyasiga aylanib borayotgan bir paytda, bugungi XXI asr – globalashuv davri oldimizga tobora o'tkir va dolzarb vazifalar qo'yayotgan bir sharoitda o'tgan bu saylov O'zbekistonning keyingi yillardagi taraqqiyot natijalarini chuqur sarhisob qilib, istiqbol rejalarini belgilab olish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga o'tkazilgan saylovda Islom Karimov tomonidan, boshqa nomzodlar singari, keng miqyosdagi targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilgani jamoatchiligimizga yaxshi ma'lum.

Davlatimiz rahbarining nisbatan qisqa vaqt – 2–3 oy davomida yigirmadan ziyod uchrashuv va anjumanlarda, jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari bilan uchrashuvlarda, ikkala palataning qo'shma majlisida, Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqti-

sodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining yig'ilishida, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining VII syezdida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar saylovchilari vakillari bilan uchrashuvlarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimidagi nutq va ma'ruzalarida, shuningdek, 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan uchrashuvda mustaqillik yillarida bosib o'tgan taraqqiyot yo'limizni teran tahlil qilib, yaqin va olis kelgusida oldimizda turgan vazifalarni ham strategik, ham taktik jihatdan atroflicha asoslab berganini ta'kidlash zarur.

Shu o'rinda bir fikrni aytib o'tish joiz. Eng muhim siyosiy, huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy masalalarni o'ziga qamrab olgan bu qadar yirik hajmdagi analitik materiallar va ma'lumotlarni qisqa vaqt mobaynida ishlab, umumlashtirib, ularning har birini yurakdan o'tkazgan holda, chuqur tahlil qilish, ta'sirchan shaklda tinglovchilarga, saylovchilarga yetkazish, tabiiyki, juda katta g'ayrat-shijoat, bilim va tajriba, keng miqyosdagi tafakkur va intellektual salohiyatni talab etadi.

Ana shu nutq va ma'ruzalar bilan batafsil tanishar ekanmiz, biz o'z oldimizga qo'ygan yuksak vazifalar, ya'ni zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar

qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishini ta'minlash, aholimizning hayot darajasi va sifatini oshirish, O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga qaratilgan uzoq va davomli maqsadlarimiz, ularni amalga oshirish yo'llari bugungi va ertangi kun nuqtai nazaridan teran tahlil qilingani va yaqin kelajakdagi ustuvor, dasturiy yo'nalishlar aniq va ravshan belgilab berilganiga amin bo'lamiz.

Bunga ishonch hosil qilish uchun davlatimiz rahbarining ushbu kitobdan o'rin olgan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining VII syezdidagi ma'ruzasi bilan tanishish kifoya deb o'ylaymiz.

Prezidentimizning ayrim uchrashuv va majlislardagi nutqlari matbuotda e'lon qilinganidan va risola shaklida chop etilganidan hurmatli o'quvchilar xabardor, albatta. Ayni paytda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar saylovchilari vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlardagi ma'ruzalar nashr etilmasdan, ular haqida ommaviy axborot vositalarida qisqacha axborotlar berildi, xolos.

Davlatimiz va jamiyatimizning hozirgi va kelgusi hayotiga bevosita daxldor bo'lgan muhim konseptual fikrlar, g'oya va qarashlar ilgari surilgan, biz uchun yangi tariximizning ajralmas bir qismi bo'lib qoladigan ana shu nutq va ma'ruzalarni atroflicha o'rganish, tahlil qilish, keng jamoatchilikka, avvalambor, yoshlarimizga yetkazish dolzarb ahamiyatga egadir. Shu bois, ularning katta ijtimoiy mohiyati, ilmiy-nazariy qimmatini va ahamiyatini inobatga olgan holda, nash-

riyotimiz tomonidan ulardagi eng muhim, dasturiy g'oyalar alohida to'plam sifatida tayyorlanib, e'tiboringizga havola etilmoqda.

Ushbu kitobda davlatimiz rahbarining mamlatimizni siyosiy va iqtisodiy rivojlantirish, jumladan, ijtimoiy sohalar – ta'lim-tarbiya, ilm-u fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va san'at, sport tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, jamiyatimizda ayollar, keksalar va yoshlarning o'rni, ularga yanada qulay sharoit va imkoniyatlar yaratish bilan bog'liq masalalar; har bir hudud va mintaqa bo'yicha yaqin va o'rta istiqbolga mo'ljallangan rejalar, ustuvor loyihalar; qadimiy va yangi tariximiz haqida, sobiq sovetlar tuzumi mohiyatini fosh etadigan misollar, bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida bu tuzumni tiklashga bo'layotgan harakatlar haqidagi fikr-mulohazalari, O'zbekistonning tashqi siyosat konsepsiyasi to'g'risidagi qarashlari har tomonlama puxta asoslangan holda bayon qilingan.

Mazkur to'plamning bosh g'oyasini quyidagi so'zlarda mujassam bo'lgan eng muhim o'zak fikr tashkil etadi: **«Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, «Kecha kim edig-u bugun kim bo'ldik?» degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtda «Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralarni egallashimiz kerak?» degan savol ustida o'ylashimiz, nafaqat o'ylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim».**

Ana shunday yondashuv asosida mamlakatimizning mustaqillik yillarida bosib o'tgan tarixiy yo'li teran tahlil qilinib, bu hayotiy savollarga chuqur va haqqoniy javoblar berilgani kitobning qimmatini yanada oshiradi.

Davlatimiz rahbarining saylovoldi uchrashuvlaridagi ma'ruzalarida keyingi 7 yil davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida amalga oshirilgan tub o'zgarishlar va ularning mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar bilan uzviy bog'liq holda qilingan qiyosiy tahlili, har qaysi hududning kelgusi rivojini belgilab beradigan asosiy istiqbol rejalari aniq fakt va raqamlarda aks ettiriladi.

Misollarga murojaat qiladigan bo'lsak, hozirgi vaqtda yurtimizning turli hududlarida amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan ulkan loyihalar – bu Surg'il koni negizida Ustyurt gaz-kimyó majmuasini barpo etish bo'ladimi, «Sho'rtangazkimyo» kompleksi yoki Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi, «Samavto» korxonasi, «Angren», «Navoiy», «Jizzax» maxsus industrial zonalari bo'ladimi, Buxoro yoki Farg'ona neftni qayta ishlash zavodlari, «Jeneral motors – O'zbekiston» yoki MDH hududida noyob bo'lgan Toshkent viloyatidagi avtomobil dvigatellari ishlab chiqaradigan zamonaviy zavodlar bo'ladimi, Pitnak shahrida barpo etilgan zamonaviy yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan korxonasi bo'ladimi, Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasi, «Angren – Pop» elektrlashtirilgan temiryo'li yoki poytaxtimizdagi yangi-yangi ishlab chiqarish quvvatlari bo'ladimi – bularning barchasi

nafaqat bir hudud, balki butun mamlakatimiz miqyosidagi yirik loyihalar ekaniga alohida urg'u beriladi.

Shu o'rinda Prezidentimizning nutq va ma'ruzalarida zikr etilgan ayrim xarakterli raqamlarni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, Qashqadaryo viloyatida vohaning mavjud industrial salohiyatini yanada yuksaltirish maqsadida hozirgi vaqtda faqat neft-gaz, neft-kimyoy sanoatining o'zida qiymati salkam 10 milliard dollarga teng bo'lgan 17 ta loyiha amalga oshirilmoqda. 2020-yilgacha viloyatda ayni shu sohada yana 11 milliard dollarlik 31 ta yangi loyiha joriy etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasida esa kelgusi besh yilda faqat sanoat sohasining o'zida 500 ga yaqin yirik loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Bir vaqtlar – o'tgan asrning 90-yillarida yurtimizda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 14,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, mana shunday keng ko'lamlilik amaliy ishlarimiz hisobidan bugungi kunda bu ko'rsatkich 25 foizni tashkil etmoqda.

Mamlakatimiz bo'yicha kelgusi besh yilda rizq-ro'zimiz manbai bo'lgan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga 1 trillion 860 milliard so'm, irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish uchun esa 3 trillion 144 milliard so'm va 584 million dollarlik xorijiy investitsiyalarni yo'naltirish ko'zda tutilmoqda.

Yoki shaharlarimizni kompleks qayta qurish bo'yicha qabul qilingan dasturlarning ijrosini oladigan bo'lsak, bugungi kunda Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Urganch,

Nukus, Qarshi, Shahrisabz, Termiz, Jizzax, Guliston va boshqa ko'plab shaharlarimizning qiyofasi tubdan o'zgarib borayotganiga ma'ruzalarda alohida e'tibor qaratiladi.

Mustaqillik davrida O'zbekiston iqtisodiyoti 5 karradan ziyod o'sgani, mamlakatimiz aholisi 10,5 millionga ko'paygani holda, uning daromadlari qariyb 9 barobar oshgani, odamlarimizning o'rtacha yoshi 67 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar o'rtasida esa 75,8 yoshga uzaygani singari beqiyos yutuq va natijalarimiz bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak arziydi, albatta.

Ayniqsa, keyingi o'n yil davomida jahondagi sanoqli davlatlar qatorida yalpi ichki mahsulotimiz 8 foizdan kam bo'lmagan sur'atlarda o'sayotgani va 2015-yilda ham shunday natija kutilayotgani chindan ham xalqaro jamoatchilikning, yaqin va uzoq yon-atrofimizdagi qo'shni mamlakatlarning hayrati va havasini uyg'otmoqda.

Shu o'rinda nufuzli xalqaro ekspert tashkilotlari va reyting kompaniyalari tomonidan o'tkazilayotgan ayrim tadqiqotlar haqidagi ba'zi bir ma'lumotlarni keltirib o'tish joiz, deb o'ylaymiz.

Yaqinda Shveysariyada Jahon iqtisodiy forumi – «World Economic Forum» iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan mamlakatlar reytingini e'lon qildi. Jahon bankining «Global iqtisodiy taraqqiyot» prognozi asosida tayyorlangan mazkur ma'lumotda 2014-yildan 2017-yilgacha bo'lgan davrda yillik o'sish darajasi eng yuqori bo'lgan davlatlar orasida O'zbekiston 5-o'rinda qayd etilgani albatta ko'p narsadan dalolat beradi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo'naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10–12 foizini tashkil etayotgani va bu sohaning davlat budjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ziyod ekani, bunday ko'rsatkichlarni dunyoning boshqa davlatlarida kamdan kam uchratish mumkinligi bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, UNICEF, UNESCO va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

So'nggi yillarda «Moody's», «Standard & Poor's» hamda «Fitch Ratings» xalqaro reyting agentliklari yurtimizning barcha tijorat banklariga ularning barqaror o'sish sur'atlariga erishayotganini tasdiqlaydigan reyting baholarini taqdim etmoqda.

Ma'lumki, aholining turmush sharoitini yaxshilash, hayotdan rozi bo'lib yashashiga erishish bugungi zamonaviy davlatchilik taraqqiyotidagi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Yaqinda ayni shu ko'rsatkichlar bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'magida AQSHning Kolumbiya universiteti sotsiologlari tomonidan ijtimoiy so'rov va tadqiqotlar o'tkazilib, shu asosda «Butunjahon baxt indeksi»ning («World Happiness Index») yangi reytingi e'lon qilindi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ushbu ro'yxatda O'zbekiston 158 mamlakat orasida 44-pog'onada, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar orasida esa birinchi o'rinda qayd etildi. Aytish joizki, bundan ikki yil avval mazkur ro'yxatda mamlakatimiz 60-o'rinni band etgan edi.

Buyuk Britaniyaning nufuzli «Economist» jurnalining e'tirof etishicha, Vatanimiz poytaxti – azim

Toshkent shahri obodligi va yashash uchun qulayligi jihatidan dunyo reytingida 140 ta shahar orasida 58-o'rinni egallaydi.

AQSHning «The Huffington Post» nashri tomonidan Samarqand shahri «Dunyoning albatta borib ko'rish kerak bo'lgan 50 shahri» ro'yxatiga kiritilgani va bunday e'tirofga erishishda ham MDH mamlakatlari o'rtasida O'zbekiston yagona ekani e'tiborga sazovordir.

Albatta, xalqaro miqyosda yuksak e'tirof etilayotgan bunday yutuq va natijalarga xalqimiz o'z-o'zidan, osonlikcha erishayotgani yo'q. Bularning barchasi zamirida, avvalo, o'z vaqtida to'g'ri tanlangan, «o'zbek modeli» deb nom olgan, xalqimiz manfaatlariga to'la javob beradigan milliy taraqqiyot strategiyasi, el-yurtimizning fidokorona mehnati hal qiluvchi omil va mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilayotgani hech kimga sir emas.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan uchrashuvlarda O'zbekistonning taraqqiyot yo'li, mamlakatimizda uzoqni ko'zlab olib borilayotgan xalqchil siyosatning mazmun-mohiyati davlatimiz rahbari tomonidan hayotiy misollar asosida yana bir bor teran tahlil qilib berildi.

Shu o'rinda, mustaqillik yillarida biz bosib o'tgan g'oyat og'ir va murakkab yo'lning tub ma'no-mazmuni, bugun biz erishayotgan yutuqlarning hayotiy zamini haqida yaqqol tasavvur beradigan quyidagi bir misolga e'tibor qaratishni zarur deb bilamiz.

«Bir paytlar ba'zi viloyat va tuman rahbarlarimiz, biz – agrar respublika, deb maqtanib yurardi, – deya

ta'kidlaydi Islom Karimov Buxoro viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashuvda. – Ular nimani o'ylagan – men bilmadim. Umrbod SSSR tarkibida bo'lamiz, deb o'ylaganmi?

Bu odamlar ozgina fikrlab ko'rsa bo'lardiki, suv, yer yetishmasa, xalqimiz ko'payib borayotgan bo'lsa, faqat g'alla, paxta, sabzavot yetishtirish bilan mamlakatimizning taraqqiyotini ta'minlash mumkinmidi?

Mana, sizlarga yana bitta raqam: 1991-yilda mamlakatimiz aholisi 20 million 500 ming kishi edi. Mustaqillik yillarida xalqimiz 1,5 karra o'sdi – 31 millionga yetdi.

Aytinglar, 1,5 barobar ko'paygan aholini eski sharoitda oladigan hosil – paxta, g'alla hisobidan boqib bo'larmidi? O'sha paytda biz taxminan 5–6 million tonna bug'doyni chetdan olib kelar edik. Shunday vaqtlar bo'lganki, bir hafta-o'n kunlik unimiz qolgan edi.

Bir tasavvur qilaylik, qaysi davlat, qaysi xalq buni o'z boshidan o'tkazgan? Ana shunday muammolar qarshisida yolg'iz qolgan paytimizda kim bizni qutqardi? Birinchi navbatda, o'zimiz. Chidadik, lekin hech kimdan qarz bo'lmadik.

Bugungi kunda O'zbekistonning chet mamlakatlardan qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 15 foizdan oshmaydi. Vaholanki, ba'zi davlatlarda bu ko'rsatkich 150 foizdan ham ortiqni tashkil qiladi, ular bo'ynidagi qarzidan qanday qutulishni ham bilmay yuribdi».

Mamlakatimiz rahbari saylovoldi uchrashuvlaridagi har bir chiqishida bugun, dunyo miqyosida globalashuv va raqobat tobora kuchayib, ziddiyat va qarama-qarshiliklar keskinlashib borayotgan bir vaziyatda biz faqat erishgan yutuqlarimizga mahliyo bo'lmasdan, dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, kundan kunga oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, davr bilan hamqadam bo'lishimiz zarur va shart ekanini qayta-qayta uqtiradi.

«Biz hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmasligini, albatta, yaxshi anglaymiz, – deydi Islom Karimov. – Agarki biz XXI asrda, tobora avj olayotgan globalashuv jarayonlari, Internet va intellektual taraqqiyot hal qiluvchi rol o'ynayotgan bir davrda yashayotganimizni hisobga oladigan bo'lsak, hayotimiz naqadar shiddatli sur'atlar bilan o'zgarib borayotganini, ayniqsa, chuqur his qilamiz.

Ana shunday sharoitda erishgan natijalarimizga mahliyo bo'lmasdan, havolanish kayfiyatiga berilmasdan, shu paytga qadar bosib o'tgan yo'limiz – bu oldimizda turgan murakkab va og'ir yo'lning faqat bir qismi ekanini o'zimizga aniq tasavvur etishimiz kerak.

Bugungi kunda bizni o'rab turgan dunyo qanchalik tez o'zgarib borayotgani, yaqin va uzoq atrofimizda turli mojaro va qon to'kishlar davom etayotgani, terrorizm, ekstremizm va narkotrafik

xavfi ortib, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari yanada chuqurlashib borayotgani haqida ortiqcha gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman. Albatta, bularning barchasi har birimizni tashvishga solmasdan qo'ymaydi va bizdan jahonda yuzaga kelayotgan vaziyatni sergaklik bilan baholashni talab qiladi».

Saylovoldi uchrashuvlarida mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohot va modernizatsiya jarayonlari doirasida barcha mintaqalarimizni zamon talablari asosida, mutanosib holda taraqqiy ettirish, aholi farovonligini yanada oshirish, odamlarimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Har qaysi hududning o'ziga xos sharoiti va imkoniyatlaridan kelib chiqib, barcha sohalar bo'yicha yaqin va uzoq kelajakka mo'ljallangan ustuvor vazifalar, ularni amalga oshirish yo'llari aniq-ravshan belgilab berildi.

Bo'lib o'tgan samimiy muloqot va uchrashuvlarning asosiy mavzusi bo'lgan muhim masala – saylov va demokratiya bo'yicha davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan fikrlar, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Ma'lumki, mazkur tushunchalar dunyo tafakkur tarixidagi eng qadimiy va eng ko'p muhokama qilinadigan masalalar bo'lib, bir qarashda bu mavzuda aytilmagan gap, yoritilmagan muammoning o'zi qolmagandek tuyulishi mumkin. Lekin, xalqimiz ko'p yillar davomida mustamlakachilik zulmi ostida, og'ir iqtisodiy muammolar girdobida qolib ketgani uchun bu tushunchalar bizning milliy qadriyatlarimiz, tafak-

kur va tasavvurlarimiz bilan bevosita bog'liq holda tahlil qilinmay kelgani ham ayni haqiqat.

Islom Karimov saylov va demokratiya haqida so'z yuritar ekan, milliy-ijtimoiy tafakkurdagi ana shu bo'shliqni to'ldirib, bu boradagi ko'pgina masalalarning ham ilmiy-nazariy, ham uslubiy-amaliy yechimini bayon qiladi. Ayni shu asnoda ilgari surilgan ba'zi teran fikrlarni mazkur tushunchalarning aniq ta'rifi, ta'bir joiz bo'lsa, xalqona ifodasi sifatida qabul qilish mumkin.

«Saylov – bu biz qurayotgan huquqiy demokratik davlatning uzviy bir qismi, fuqarolarning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishining asosiy shaklidir».

«Sodda qilib aytganda, saylov – bu, avvalo, erkin tanlash huquqi demakdir».

«Saylov – bu demokratiya degani, demokratiya – bu saylov deganidir. Haqiqatan ham, demokratiyaning hayotda ustuvor bo'lishi uchun qachon eng qulay imkoniyat paydo bo'ladi? Aynan xolis, muqobil saylov o'tkazishda».

«Demokratiyaning o'ziga xos ko'plab ijobiy jihatlari bor, albatta. Lekin uni o'yinga aylantirib, katta minbarlardan turib, «demokratiya, demokratiya» deb ko'ksiga urib gapirish, aslini olganda, xalq manfaatlarini niqob qilib, o'z manfaatlarini ko'zlashdan boshqa narsa emasligini ham ko'p ko'rganmiz.

Demokratiyani qandaydir dogmaga, qotib qolgan yagona bir mezonga aylantirish, uni boshqa


davlatlarga, ularning milliy sharoiti va o'ziga xosligini hisobga olmasdan, umumiy qoida sifatida tiqishtirish – mutlaqo noto'g'ri.

Biz shuni yaxshi anglashimiz kerakki, demokratiya hech qachon bir xil shakl yoki mazmunda bo'lmaydi. Demokratiya degani – bu hamisha o'zgarib turadigan hayot tarzi, jamiyat tizimining rivoji bilan uzviy bog'liq.

Demokratiya – inson, jamiyat, davlat degan uch subyekt o'zaro bir-birini to'ldiradigan, bir-birini boyitib, kerak bo'lsa, nazorat qilib turadigan tizim demakdir. Bu har qaysi insonning jamiyat bilan, jamiyatning esa davlat bilan munosabatini, ular o'rtasidagi muvozanatni anglatadi».

Bunday fikr va qarashlar xalqaro miqyosda XXI asrning eng kuchli siyosiy liderlaridan biri sifatida e'tirof etilgan davlat arbobi tomonidan aytilayotganini inobatga oladigan bo'lsak, o'ylaymizki, ularning ahamiyati yanada oshadi.

Ta'kidlash joizki, Prezidentimizning saylovoldi uchrashuvlaridagi chiqishlari yana bir o'ta muhim masala – Vatanimiz mustaqilligi biz uchun eng buyuk ne'mat, ulkan imkoniyatlar manbai ekanini chuqur anglab, uni bundan buyon ham har tomonlama mustahkamlash, xalqimizning tinch-osoyishta hayoti, sarhadlarimiz daxlsizligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan har qanday xavf-xatardan ogoh bo'lib yashashga, dunyoga ochiq ko'z bilan qarab, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajrata olishga da'vat etishi bilan alohida e'tiborga sazovordir.



Ayniqsa, kitob muallifi tomonidan bayon qilingan, yaqin tariximiz haqidagi bevosita o'zi guvoh bo'lgan, qalbidan, yuragidan o'tkazgan hayajon va iztirobga to'la voqealar, sobiq sovet tuzumini ich-ichidan chuqur biladigan inson sifatida bu zo'ravon tuzumning soxta va g'ayriinsoniy g'oyalari, yovuz kirdikorlarini fosh etishga qaratilgan, aniq faktlarga asoslangan haqqoniy fikrlari nihoyatda ahamiyatlidir. Bugungi kunda post-sovet hududidagi ayrim mamlakatlarda ko'zga tashlanayotgan, SSSRni qayta tiklash borasidagi turli urinishlar tagi puch da'volardan iborat ekani, xalqimiz endi hech qachon eski, mustabid davrga qaytmasligini tushunish, anglashda ular g'oyat dolzarb mazmun kasb etadi.

Shu o'rinda ana shunday fikrlardan ayrim misollar keltirib o'tish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

«Ilgari ham, hozir ham SSSRni yoqlab chiqayotganlarning birorta gapiga ishonib bo'lmaydi, – deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Qashqadaryo viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashuvda. – Biz bir paytlar ko'klarga ko'tarib, muk tushib sig'ingan Lenin bobo, Stalin bobo va boshqa «bobo»larimiz aslida hammasi qallob va jallob bo'lib chiqdi. Mana, sizga haqiqat. Masalan, Leninni dunyo xalqlarining dohiysi, xaloskori deb pionerlik, komsomollik paytimizda ashulalar aytganmiz. Men hozirgi yosh o'g'il-qizlarimizni ko'rib xursand bo'lamanki, ular bunday yolg'on gaplardan mutlaqo uzoq bo'lib voyaga yetmoqda. O'sha zamonda endi maktabga borgan bola avval

«oktabryat» nishonini taqardi. O'zingiz o'ylang, 6–7 yoshga kirgan bola nimani biladi? Bu yoshda bola faqat oftobni, ochilgan gullarni, umuman, atrofidagi olamni ko'rib xursand bo'ladi. Onasini ko'rsa, bayram bo'lsa, quvonadi.

U paytlar shunday vaziyatlar ham bo'lardiki, bir marta to'yib ovqatlanishning o'zi baxt hisoblanardi. Men yoshligimda bularning barchasini boshimdan o'tkazganman. Hatto, shunday bo'lganki, maktabda bir necha bor dars payti ochlikdan holsizlanib uxlab qolganman. Bunday holatlar o'sha zamonlarni ko'rgan odamlarning ko'pchiligiga begona bo'lmasa kerak. Men aniq bilaman, sizlar ham yoshligingizda ayni shunday qiyinchiliklarni boshingizdan o'tkazgansiz. Ya'ni, hammamizning taqdirimiz o'xshash bo'lgan. O'sha davrlarda ertalab och-nahor turib, darsga chopardik, kuch-quvvat ham shunga yarasha bo'lardi.

Bir so'z bilan aytganda, biz shunday og'ir zamonlarda yashaganmiz, ko'pgina nohaqliklarni o'z ko'zimiz bilan ko'rganmiz. Siyosat boshqa-yu, hayot boshqa edi. Turli qalin kitoblarni chiqarib, shiorlar, ashulalarni to'qib, hammani soxta g'oyalarga ishontirish oddiy hol edi. Komsomol bo'lmasang, partiyaga kirmaysan, partiyaga kirmasang, hech qanday vazifada ishlay olmaysan, degan qarash hukmron edi.

Yana bir mudhish narsa shuki, 30-yillarda quloqlashtirish siyosati olib borilib, ming-minglab odamlarning mol-u mulki, uy-joylari tortib olingan,

o'zlari esa uzoq va sovuq o'lkalarga surgun qilingan, bu tuzumdan norozi bo'lgan odamlarning bolalariga «xalq dushmanining farzandi» degan tamg'a bosilgan. Umuman, sovet tuzumi va mafkurasi millionlab odamlarni mayib qilgan, ularning taqdirida ayanchli iz qoldirgan. Ularning qancha-qanchasi adolatni, yorug' kunlarni ko'rmasdan, bu dunyodan o'tib ketgan.

Mana, endi SSSR degan davlat yo'q bo'lib ketdi. Kimdir bundan xursand bo'lsa, yana kimdir, afsuski, o'sha davrlarni qo'msab yashayapti. Aslida, imperiyalar, zo'ravonlik bilan tuzilgan davlatlar hech qachon uzoq yashamaydi. Bu – tarix haqiqati».

Haqiqatan ham, bu fikrlarning naqadar haqqoniy va chuqur ilmiy, tarixiy asosga ega ekanini bugun hammamiz dunyoda yuz berayotgan voqea va hodisalar misolida ko'rib, kuzatmoqdamiz.

Faylasuflar «tarix qaytarilmaydi», deydilar. Lekin, afsuski, tarix ba'zan qaytarilganida fars – maynavozchilik ko'rinishida yoki fojia tarzida takrorlanishi mumkin ekanini bugun jahonning ayrim hududlarida sodir bo'layotgan ayanchli va qonli voqealar yaqqol ko'rsatib turibdi.

Siyosatshunoslar fuqarolarning hayotga munosabati, kayfiyatini davlat boshqaruvining samaradorligini ko'rsatadigan eng muhim barometr sifatida ta'riflashlari bejiz emas. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bir savol tug'iladi.

Xo'sh, bugungi kunda sovet davrini qo'msash qanday mamlakatlarda kuzatilmoqda? Avvalo, davlat

va jamiyat boshqaruvini to'g'ri yo'lga qo'ya olmagan, davlat xalq manfaatlarini, uning orzu-intilishlaridan uzoq bo'lib yashaydigan, islohotlar shunchaki islohot uchun, nomigagina, chalakam-chatti olib borilayotgan va samara bermayotgan mamlakatlarda emasmi?

Yaqin o'tmishda, mustabid tuzum davrida boshimizdan kechirgan og'ir kunlar haqida Yurtboshimizning yana bir fikriga e'tibor beraylik:

«Yurtimizda 90-yillarda yuzaga kelgan muammoning ildizi sobiq tuzum davriga, paxta yakkahokimligi halokatli tus olgan, paxta yetishtirish eng katta maqsad sanalib, hatto, odamlarning hayoti va salomatligidan ustun turgan o'sha mustabid zamonga borib taqaladi.

Xalqimiz o'sha paytda chidab bo'lmaydigan shunday azob va uqubatlarga giriftor etilgan ediki, buni so'z bilan ifodalashning o'zi qiyin. Dalada ishlab yurgan odamlarning ustidan samolyotdan zaharli dorilar sepilgani, qancha-qancha bolalar sariq kasalligi va boshqa dardlarga yo'liqqani bu zalda o'tirganlarning hali esidan chiqqani yo'q.

Haqiqat, tarix haqiqati bolalarimiz uchun suv va havodek zarur. Tarix haqiqatini to'laligicha keyingi avlodga yetkazish har bir insonning kelajak oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi.

O'sha mash'um kunlarni ko'rgan kishilar, faxriylarimiz hayot ekanidan foydalanib, bu borada ko'proq ma'lumot to'plash, ularni tizimlashtirish ustida ishlaydigan olim va mutaxassislar bo'lsa, men bunday tashabbuskor odamlarni shu muqaddas

zaminni sevgan vatanparvar, yurtparvarlar deb qabul qilaman va ularni qo'llab-quvvatlashga doim tayyorman.

Insonning tabiati shundayki, vaqt o'tishi bilan yomon voqealar uning esidan chiqadi. Bir tomondan qaraganda, bu – to'g'ri. Chunki inson boshidan kechirgan baxtsizliklarni, ezilgan kunlarini eslashni xohlamaydi. Lekin yaxshi kunlar, obod va farovon hayotning qadriga yetish uchun inson ba'zi-ba'zida ortga nazar tashlab turishi ham kerak. Tarixdan saboq chiqarib yashashi lozim.

Men, avvalambor, yoshlarimizga qarata aytmoqchiman: o'qing, tarixni o'rganing, tarixini, o'tmishini bilgan odam kelajakda adashmaydi».

Davlatimiz rahbari bu haqda kuyunib gapirar ekan, nafaqat yaqin tariximiz, balki o'tmishimizning boshqa davrlari haqida ham haqqoniy fikrlarni bildiradi, tariximizda ro'y bergan achchiq haqiqatlardan barchamizni yana bir bor ogoh etadi:

«Tariximizdagi og'riqli davrlardan ham xulosa chiqarib yashashimiz kerak. Ertaga bizning o'rnimizga keladigan yoshlar ana shu tarix haqiqati bilan qurollanishi lozim. Chunki hech bir sohada hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodgina buyuk davlat barpo etishi mumkin. Nega deganda, buyuk davlatni qurish uchun ma'rifatli, tarixni biladigan, undan saboq chiqara oladigan odamlar kerak.

Avvalambor, Vatanini jonidan aziz ko'rgan Amir Temur bobomizning bizga qoldirgan nasihatlarini

yuragimizga, qon-qonimizga, suyak-suyagimizga mustahkam jo qilishimiz lozim va bolalarimizni ham shu ruhda tarbiyalashimiz darkor».

Chindan ham, bir haqiqatni barchamiz tan olishimiz kerak. Bugungi kunda nafaqat yoshlarimiz, ayni paytda, yoshi ulug' yurtdoshlarimizning ham aksariyati yaqin tariximiz haqida to'laqonli tasavvurga ega emas.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, saylovoldi uchrashuvlarida o'tgan asrning 80-yillari oxirida sobiq Markazning O'zbekistonda «paxta ishi», «o'zbeklar ishi» degan tuhmat va bo'htonlar bilan amalga oshirgan ommaviy qatag'onlari haqida Islom Karimov tomonidan bildirilgan haqqoniy fikrlar har bir yurtdoshimizni hayajonga solmasdan qo'ymaydi.

Andijon viloyatidagi yig'ilishda bayon qilingan mana bu xotiralarga e'tibor bering:

«Sobiq SSSR davrida O'zbekistonga nisbatan Markaz tomonidan olib borilgan zo'ravonlik siyosati, xalqimizni kamsitish, uning ehtiyojlarini menimaslik, yurtimizda paxta yakkahokimligi avjiga chiqib, iqtisodiy holatimiz va hayotimiz jar yoqasiga kelib qolgani, norozilik lovullab yonib ketadigan darajada keskinlashib borgani hech kimga sir emas.

Faraz qilishning o'zi ham qiyin bo'lgan 6 million tonna paxta yetishtirish planini bo'ynimizga bo'yinturuqdek osib qo'yib, uni bajarish uchun faqatgina tomlarimizga paxta ekish qolganini aytmaysizmi?

Haqiqatan ham, paxta yakkahokimligi shu qadar avjga chiqqan ediki, mana shu Andijon viloyatidek aholi zich yashaydigan hududda ekin maydonlari-ning 88 foizini g'ozga egallab olgan edi. O'sha mash'um kunlarni sizlarning ko'pchiligingiz yaxshi eslaysiz, albatta.

Bunday siyosat sovet davlatining o'zi qanday nohaq, zulmga asoslangan va mustabid tuzum bo'lganini yana bir bor ko'rsatdi. Men o'sha davrni nafaqat oddiy odam, balki rahbar sifatida o'z boshimdan o'tkazganman. Shuning uchun bu tuzumning barcha illatlarini yaxshi bilaman.

Bu davr yurtimiz uchun nihoyatda og'ir, Markazdan tashlangan «desantchi»lar, turli soxta mafkurachilar – ularning ichida, afsuski, o'zimizdan chiqqanlari ham bor edi – ko'p ziyon yetkazib, o'zbek xalqini poraxo'rlikda, qo'shib yozishda ayblab, har xil tuhmat va bo'htonlar yog'dirayotgan bir davr edi.

Albatta, o'sha paytda jazoga tortilgan odamlar orasida mansabga, boylikka berilib, nopok ishlarga yo'l qo'ygan shaxslar ham bo'lgan. Guruch kurmaksiz bo'lmaydi, deganlaridek, hayot bor ekan, halol, insofli, diyonatli odamlar bilan bir qatorda, ba'zi qo'li egri, ishi qing'ir, faqat o'z rohatini o'ylab yashaydigan kimsalar, afsuski, hamma xalqlarda ham uchrab turadi. Buni hech kim inkor etolmaydi. Lekin ana shunday nobop odamlarni deb butun bir xalqni qoralash, uning sha'nini, g'ururini oyoqosti qilish, eng oddiy in-

soniy haq-huquqlarini toptash, o'zingiz ayting, qaysi qonun-qoidaga to'g'ri keladi? Ayniqsa, tun-u kun umrini dalada o'tkazib, mehnatdan boshqa narsani bilmagan, shu zaminni zamin qilgan oddiy dehqonlar, brigadir va zvenochilar, suvchi va mexanizatorlarni paxtani qo'shib yozish, kimgadir pora berish yoki pora olish degan, odamning aqliga sig'maydigan gunohlarda ayblab, ularni sudsiz-so'roqsiz bola-chaqasi, oilasidan ajratib, qamab qo'ysa, bunday nohaqlikka chidab bo'ladimi o'zi?

Biz «paxta ishi» deganda, uning mudhish oqibatlarini haqida gapirganda, avvalo, ana shunday ming-minglab oddiy, begunoh odamlarni, ularning boshiga tushgan fojialarni tushunamiz va sun'iy ravishda o'ylab topilgan bu kampaniyani xalqimizga, yurtimizga nisbatan olib borilgan ommaviy qatag'onning bir ko'rinishi deb baholaymiz.

Bunday zulm va xo'rlikni andijonliklar ham ko'p tortgan. Chunki o'sha paytda Andijon viloyati O'zbekistonda eng ko'p paxta yetishtiradigan viloyat hisoblanar edi. Tabiiyki, «desantchi»lar shuni bahona qilib, viloyatning boshiga ham ko'p tashvishlar solganini sizlar yaxshi bilasiz, albatta.

...O'zingiz ayting, azizlarim, 1989-yilning may oyida Farg'onada, Quvasoyda bo'lib o'tgan qonli voqealarga nima sabab bo'lgan edi? Ana shunday adolatsiz siyosat emasmi?

Buni qarangki, o'sha paytdagi respublika rahbari bo'lgan odam bu voqealarga katta minbardan turib baho berar ekan, bu bir tarelka qulupnay ustida

bo'lib o'tgan janjal, bezovta bo'lishga ham arzi-
maydi, xotirjam bo'linglar, hammasi joyida, degan
yolg'on gaplar bilan haqiqatni yashirib, butun
dunyoga sharmanda bo'lgan edi.

Aslida esa yurtimizda vaziyat jar yoqasiga kelib
qolgan, odamlarning sabr kosasi to'lgan, ularning
turmush sharoiti juda og'ir edi. Buni yashash dara-
jasi bo'yicha O'zbekiston o'n beshta respublika
ichida eng pastki o'rinlarga tushib qolgani, uch-
to'rttalab oila katalakdek hovlilarda tiqilib yasha-
gani, ishsizlik, onalar va bolalar o'limi keskin oshib
ketgani ham tasdiqlaydi.

Ana shunday adolatsiz sharoitda azaldan chi-
damli xalqimizning ham toqati toq bo'ldiki, endi
uni ushlab, to'xtatib turadigan kuchning o'zi yo'q
edi. Shunday o'ta murakkab, tahlikali, takror
aytaman, kichik bir uchqun chiqsa, hammayoq
lovullab yonib ketadigan bir vaziyatda men
O'zbekiston rahbari sifatida ish boshlashimga
to'g'ri kelgan edi.

O'zimning hayot tajribamdan kelib chiqib ayta-
manki, bu dunyoda yomonlikni ko'rmagan odam
yaxshilikning qadrini bilmaydi. Qiynalmagan
odam haqiqiy baxt nima ekanini to'liq anglab
yetmaydi».

Ma'ruzalarda xalqimiz boshidan kechirgan yaqin
tariximizdan yana shunday ko'plab misollar keltirila-
diki, ular bilan tanishgan odam bu voqealarni xuddiki
kino lentasi kabi ko'z oldidan o'tkazgandek, shu og'ir
hayotni qaytadan kechirgandek bo'ladi.

Muhtaram Yurtboshimiz bildirgan bu fikrlar, avvalo, fakt sifatida noyobligi, ya'ni boshqa manbalarda uchramasligi bilan g'oyat muhim bo'lsa, ikkinchidan, ular mustaqilligimiz va milliy davlatchiligimizning asoschisi, hayotning juda ko'p mashaqqatli sinovlarini boshidan o'tkazgan, shu sinovlarda toblangan, Vatanimiz ozodligi va obodligi uchun hayotini bag'ishlagan inson, ulkan davlat arbobi tomonidan aytilgani bilan yanada beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning mamlakatimiz o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi arafasida va undan keyingi dastlabki oylarda olib borgan jo'shqin va serqirra siyosiy-ijtimoiy faoliyati «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobida atroflicha aks ettirilgan. Bu kitob bilan tanishgan har bir odam muallifning O'zbekistonning taqdiri va kelajagini hal etadigan eng muhim masalalarni miridan sirigacha puxta o'rgangani va o'ta og'ir muammolarning yechimiga ulkan donishmandlik va jasorat bilan yondashganiga guvoh bo'lamiz.

Bo'lib o'tgan saylovoldi uchrashuvlarida davlatimiz rahbarining ko'p yillar davomida yechilmasdan, hayotimiz rivojiga g'ov-to'siq bo'lib kelgan turli muammolar va ularni hal etishga alohida e'tibor berganini kuzatish mumkin. Buning tasdig'i Prezidentimizning Toshkent shahar saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvda bildirgan fikrlarida yaqqol namoyon bo'lganini ko'ramiz.

«Eski shahar bundan 15–20 yil ilgari qay ahvolda bo'lganini hammamiz yaxshi eslaymiz. Yozda chang-

tuproq, qishda loy-botqoq bo'lib yotadigan tor ko'chalar, tabiiy gaz, toza ichimlik suvidan, kanalizatsiya kabi qulayliklardan mahrum, pastqam uylar Toshkentning qoq markazida eski mustabid sho'ro tuzumi siyosatining asorati sifatida, shahrimiz husnidagi dog' bo'lib turar edi.

Yillar davomida qancha-qancha rahbarlar o'zgardi, avlodlar almashdi, lekin Eski shaharda istiqomat qilgan xalqimizga nisbatan mensimasdan qarash o'zgarmay, barchamiz uchun «qiyomat qazimiz» bo'lib qolaverdi.

Mustaqillikka qadar Eski shahar aholisining 17 foizi tabiiy gaz, qariyb 18 foizi esa toza ichimlik suvidan, deyarli barchasi kanalizatsiya, telefon singari zamonaviy qulayliklardan bebahra edi.

Sovet davrida hamma Toshkentni «Sharq darvozasi» der edi-yu, lekin, afsuski, bu darvozaning kaliti boshqa qo'llarda edi. Ochig'ini aytganda, shahar bedarvoza bo'lib qolgandi. Shuning uchun mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab bu murakkab muammoni yechish, odamlarning og'irini yengil qilish masalasini ustuvor vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydik va ulkan ishlarni amalga oshirdik».

Prezidentimiz o'z xalqini sevish, uning tarixi, madaniyati bilan faxrlanib, g'ururlanib yashash haqida fikr yuritar ekan, ayni paytda, o'tmishda el-yurtimizga nisbatan uyushtirilgan zulm va zo'ravonlik, qatag'on va tazyiqlar uchun biron-bir xalq yoki millat emas, aksincha, faqat zo'ravon tuzum aybdor ekanini

unutmaslikni ta'kidlab, bu borada biryoqlama qarash va aqidalarga, shovinizm, millatchilik kabi xavfli illatlarga berilib ketish nomaqbul ekanidan ogohlantiradi:

«Biz alamzada emasmiz, kechagi hayotdan norozi bo'lib, kimgadir qandaydir talab qo'yishdan ham yiroqmiz. Kimlardir bir vaqtlar yurtimizdan ulkan boyliklarni olib ketgan bo'lsa, mayli, boylik topiladi. Ammo shuni bilib qo'yinglar, bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimiz, yoshlarimizdir».

O'zbekistonda Prezident Islom Karimov rahbarligida olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı ishlar barchamizga yaxshi ma'lum. Ana shu ishlarning uzviy davomi sifatida oldimizda turgan dolzarb maqsad-vazifalar saylovoldi tadbirlarida keng yoritilib, tahlil etib berilgan.

Eng muhimi, bu vazifalarning barchasi mamlatimizni yangi bosqichda taraqqiy ettirishga qaratilgan strategik dasturning ajralmas bir qismi hisoblanib, ularning birini bajarmasdan turib, ikkinchisini ado etib bo'lmaydi.

Ayni shunday qarash yosh avlod tarbiyasida markaziy o'rinda turishi, eng asosiysi, hayotga kirib kelayotgan farzandlarimizga nafaqat sharoit va imkoniyatlar yaratib berish, ayni paytda, ularni shu aziz Vatanga munosib farzand bo'lishga da'vat etish, «Mening davrim keladi, deb emas, aksincha, o'z davrim, o'z kelajagimni o'zim yarataman», deb yashashga o'rgatish hayot talabi

ekaniga ushbu ma'ruzalarda alohida e'tibor qarattildi.

«Bugungi uchrashuvimizda men yoshlarimizga qarab aytmoqchiman: agarki qachon biz xohlagan zamon kelsa, ana o'shanda murodimizga yetamiz, degan fikr bilan bemalol yuradigan bo'lsak, bilib qo'yinglar, bunday zamon hech qachon o'z-o'zidan kelmaydi, – deydi Yurtboshimiz yoshlarga murojaat qilib. – O'zimiz istagan zamon uchun kurashish, kerak bo'lsa, o'zimizni, butun borlig'imizni berishimiz lozim. Shunday intilish bilan yashasak, nafaqat o'z hayotimiz, balki kelajak avlodlarimiz hayotini, ularning ertangi yorug' kunini o'zimiz, o'z qo'limiz bilan barpo etgan bo'lamiz».

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda ayni shu borada amalga oshirilayotgan tarixiy ishlar tufayli hayotimizning ma'no-mazmuni, ongimiz, dunyo qarashimiz tubdan o'zgarimoqda. Yoshlarimiz bilan birga barchamiz ham o'sib-ulg'ayib, mutlaqo yangi odamlarga – mustaqil yurt egalariga aylanmoqdamiz. Bunday tub o'zgarishlar mohiyatini anglash uchun kechagi va bugungi kunimizni qiyoslash, taqqoslash kifoya.

«Hozirgi kunda yurtimizning qaysi shahar yoki qishlog'iga bormang, eng muhtasham, eng ko'rkam binolar bu maktablar, litsey va kollejlari, madaniyat, san'at va sport maskanlari emasmi?

Ilgari bunday imoratlar qayerda edi? Biz, aytaylik, kimnidir hayratda qoldirmoqchi bo'lsak, mehmonlarni qayerga olib borar edik? Qoramollar boqiladigan fermaga. Shuncha sigirimiz bor va

ulardan yiliga buncha sut olinadi, deb maqtanar edik. Bugun biz nima bilan maqtanyapmiz, maqtanish obyekti va subyekti kim bo'ldi? Bizning ta'lim-tarbiya maskanlarimiz va ularda o'qiyotgan bolalarimiz emasmi?

Ayni shu yo'lni tanlaganimiz eng to'g'ri, tarixiy qadam bo'ldi. Chunki bizning ertangi kunimizni kim quradi – bolalarimiz quradi, indingi kunimizni kim quradi – nevaralarimiz quradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, eng to'g'ri yo'l – ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, yanada mustahkamlash yo'lidir. Biz bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz. Yangi-yangi maktablar qurish, zamonaviy o'quv laboratoriyalarini tashkil etish, kollejlarni bitirib chiqayotgan bolalarimizni to'liq ish bilan ta'minlash masalalari doimo e'tiborimiz markazida turadi».

Yana bir diqqatga sazovor jihati shundaki, Islom Karimov har qaysi viloyat yoshlarining yutuqlarini ayni ular yashayotgan hudud yutuqlariga, ularning oldida turgan vazifalarni esa ular tug'ilib voyaga yetgan voha, shahar va albatta, mamlakat taraqqiyotiga oid vazifalarga bog'liq holda tahlil qiladi. Bunday dialektik qarash, hech shubhasiz, yosh avlodni o'z tug'ilib o'sgan yurti bilan birga, butun O'zbekistonning taqdiri va kelajagini o'z taqdiri va kelajagi deb bilishga undashi, ularning qalbida ona Vatanga farzandlik mehri va sadoqatini kuchaytirishga xizmat qilishi tabiiydir.

Bu fikrni quyidagi misol ham tasdiqlaydi:

«Yoshlar haqida men boshqa viloyatlarda ham ko‘p gapiraman. Bugun Toshkent viloyatining yoshlariga qarata, bolalarim, siz shunday bir zamonda yashayapsizki, o‘zingizni ko‘rsatishingiz, bor imkoniyat va salohiyatingizni ishga solishingiz mumkin, deb aytdiqchiman. O‘zingiz qarang, sizlarning bugun har qadamda tashabbus ko‘rsatishingiz uchun qanday imkoniyatlar yaratilgan. Ya‘ni, sizning qalbingizda o‘z yurtini sevish, shu yurt uchun yonib yashash tuyg‘usi boshqacha bo‘lib, bu – sizlarning baxtingiz, desak, to‘g‘ri bo‘ladi».

Muhtaram Prezidentimizning saylovoldi dasturidan o‘rin olgan yana bir ustuvor vazifa – O‘zbekistonning tashqi siyosati bilan bog‘liq masalalar xususida joylarda bo‘lib o‘tgan ochiq muloqot va uchrashuvlarda xalqimizning yuragida, ko‘nglida bo‘lgan, uning tinchlik va omonlikda kechirayotgan kundalik turmushi, ezgu orzu-niyatlariga to‘la javob beradigan muhim fikr va g‘oyalar bildirildi.

«Biz uzoq va yaqin atrofimizdagi barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Eng muhimi, hech qanday harbiy blokka qo‘shilmaymiz, O‘zbekiston hududida chet el harbiy bazalarining joylashuviga, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz tashqarisida bo‘lishiga yo‘l qo‘ymasligimiz zarur, deb hisoblaymiz.

Uzoq va yaqin atrofimizda vujudga kelayotgan bugungi murakkab vaziyatda aynan shunday yo‘lni, shunday siyosatni biz uchun eng to‘g‘ri va eng ma‘qul deb bilamiz».

Tabiiyki, bu so‘zlar yurtimizda yashayotgan barcha insonlar, avvalambor ota-onalarning qalbidagi o‘y-fikrlarni ifoda qilib, ularning yuragida farzandlari taqdiri, Vatanimiz kelajagi uchun ishonch va g‘urur tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Prezidentimizning saylovoldi uchrashuvlaridagi nutq va ma‘ruzalarida bayon qilingan ustuvor yo‘nalishlar, dolzarb fikr va g‘oyalar haqida, ularning bugungi va ertangi taraqqiyotimiz uchun naqadar ulkan ahamiyatga ega ekani xususida, albatta, uzoq so‘z yuritish mumkin. Eng muhimi, ularning barchasi xalqimiz, Vatanimiz taqdiri va istiqboliga bevosita daxldor ekani, taraqqiyotimizning yangi ufqlarini belgilab berishi bilan e‘tiborimizni tortadi, qalbimiz va ongimizga muhrlanib qoladi.

Yana bir muhim tomoni shundaki, ushbu kitobda chuqur ma‘noli, teran hayotiy falsafa bilan yo‘g‘rilgan shunday yorqin, ta‘sirchan fikr-mulohazalar borki, ularni hech ikkilanmasdan hikmatli iboralar, aforizm sifatida qabul qilish mumkin.

Hurmatli kitobxon, quyida keltirilayotgan ba‘zi misollar bilan tanishib, o‘zingiz ham bu fikrga ishonch hosil qilasiz, deb o‘ylaymiz:

«Biz uchun yagona mafkura – bu O‘zbekistonning taraqqiyoti, O‘zbekistonning ravnaqi, O‘zbekistonning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligidir».

«Mustaqillikka, siyosiy mustaqillikka erishish uchun, avvalambor, iqtisodiy mustaqillikka erishish kerak. O'zini boshqa birovlariga ipsiz bog'lab bermaslik kerak».

«Birovning qo'liga va yuziga qarab yashaydigan inson va davlatning ozodligi butun bo'lmaydi, mustaqilligi to'liq bo'lmaydi. Hayotning shafqatsiz qonuni shu: faqat o'z kuch-qudratiga ishongan xalqgina o'z murod-maqсадiga yetadi».

«Bu dunyoda quruq gapga emas, avvalo, har tomonlama ishonchli, sinalgan, hayotning haqiqiy sinovidan o'tgan odamlarga ishonish kerak».

«Hayotda maqsadga erishish hech qachon oson bo'lmagan. Ey, bizga shu ham bo'laveradi, degan fikr bilan yashaydigan odam, bilib qo'yinglar, ham-mamizning dushmanimizdir».

«Ezgu maqsadlarimizga yetish uchun bugun belni qattiq bog'lab mehnat qilmasak, o'zimizni qiynamasak, ertaga hayot bizni qiynaydi. Bu beshafqat haqiqatni hech qachon unutmazlik zarur».

Albatta, muhtaram Prezidentimizning saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutq va ma'ruzalaridan olingan bunday iqtiboslarni yana ko'plab keltirish mumkin.



Joylarda bo'lib o'tgan bu uchrashuvlar faqat tayyor ma'ruza matnlari bilan cheklanmagani, faqat monolog bo'lib qolmasdan, jonli va samimiy muloqotlar shaklida ikki-uch soatlab davom etgani, xalq bilan, jamoatchilik bilan chinakam ma'rifiy suhbatlarga aylanib ketgani ayniqsa e'tiborlidir.

Ushbu kitobni mutolaa qilar ekanmiz, Islom Karimovning mustaqil o'zbek davlatining asoschisi, dunyo miqyosida tan olingan yirik davlat va siyosat arbobi bo'lib shakllanishi va maydonga chiqishida uning siyosiy tafakkuri, notiqlik mahorati naqadar katta ahamiyat kasb etganiga ishonch hosil qilamiz. Har bir masalaga milliy manfaat va yana bir bor milliy manfaat nuqtai nazaridan, konstruktiv va kreativ asosda yondashish, qiyosiy-tahliliy, faktik va analitik fikrlash, tarix, zamon va kelajakni o'zaro bog'liq bir butun dialektik hodisa sifatida ko'rish, idrok eta olish, har qanday masalada jo'shqin bahs va muloqotga tayyorlik – bularning barchasi kitob muallifining siyosiy uslubiga xos bo'lgan yorqin xususiyatlardir. Mamlakatimiz rahbari yoshi, millati, e'tiqodi va kasb-u koridan qat'i nazar, turli kishilar bilan muloqotda bo'lar ekan, ularning barchasi uchun tushunarli bo'lgan oddiy va sodda so'z va iboralarni ishlatadi. Ammo mushohada miqyosining kengligi, maqsadning aniqligi, mantiqning kuchliligi, nutqning haroratli va ta'sirchanligi, yurtimizdagi har bir insonning hayoti va taqdiriga bevosita daxldor ekani bilan bu chiqishlar ming-minglab odamlar yuragida, qalbida aks sado beradi.

Mazkur to'plam bilan tanishgan kitobxon undan o'rin olgan barcha fikr-mulohazalarni o'zaro uzviy bog'lab turadigan asosiy fazilat – bu Vatanimiz istiqloliga fidoyilik, shu zamin, shu xalqning farovonligi va baxt-u iqboli, yorug' kelajagi uchun har qanday sinov va mashaqqatlarga tayyor turish, shu ulug' maqsadlarga



erishishni oliy saodat, o'z hayotining mazmuni deb biladigan insonning – betakror shaxs, ulkan davlat arbobining bezovta va bedor qalbi, yurak harorati, keng tafakkuri, mustahkam iroda va e'tiqodi ekaniga amin bo'ladi.

Ishonamizki, milliy tafakkurimiz xazinasiga bebaho hissa bo'lib qo'shiladigan, bugungi va ertangi hayotimizning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini o'zida mujassam etgan ushbu kitob biz uchun nafaqat yangi va yaqin tariximizning hali biz to'la anglab yetmagan ko'plab qirralarini yana bir bor kashf etishga asos bo'ladi, ayni paytda, jamiyatimizning taraqqiyot falsafasini, mamlakatimiz va xalqimiz kelajagi, uning ravnaqini belgilab beradigan muhim dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.



**BIZNING MAQSADIMIZ –
ERKIN VA FAROVON, DEMOKRATIK
HAYOT QURISH**

*(Tadbirkorlar va ishbiarmonlar
harakati – O‘zbekiston liberal-
demokratik partiyasining
VII syezdidagi ma’ruza)*



Handwritten text at the top of the page, possibly a title or header, which is mostly illegible due to fading.

Main body of handwritten text, consisting of several lines of cursive script. The text is significantly faded and difficult to decipher.

Handwritten text centered on the page, possibly a signature or a specific note. The text is also faded and illegible.



Hurmatli syezd qatnashchilari!

Muhtaram vatandoshlar!

Avvalambor, bugun O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi syezdining delegatlari va faollari bilan uchrashib, siz, azizlarni sog'-omon, yaxshi kayfiyatda ko'rishdan, barchangizga o'zimning chuqur hurmatim va samimiy tilaklarimni bildirishdan xursandman.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga meni nomzod etib ko'rsatganingiz uchun siz, azizlarimga, O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi a'zolariga, bu tashabbusni qo'llab-quvvatlagan barcha yurtdoshlarimga chin qalbimdan minnatdorlik bildirish men uchun katta baxtdir.

Menga bildirilgan bunday yuksak ishonch va mas'uliyat, hech shubhasiz, katta sharafdir.

2003-yilda tashkil etilgan bu partiya o'zining oldiga qo'ygan maqsad va dasturlari, amaliy tashabbus va harakatlari bilan, doimo xalqimiz g'am-tashvishlarini, muammolarini yechishda, el-yurtimiz farovonligini yanada oshirish yo'lida o'ziga tobora katta obro'-e'tibor qozonmoqda.

Bu haqiqatni 2014-yil 21-dekabrda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy kengashlariga bo'lib o'tgan saylov natijalari ham yaqqol tasdiqladi. Saylovda partiya nomzodlaridan 52 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanib, mazkur qonun chiqaruvchi organda eng ko'p o'rin-

ni qo'lga kiritganining o'zi, hech shubhasiz, ushbu partiya erishgan marralarning amaliy namoyoni, desam, har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

Hozirgi vaqtda partiyaning 240 mingdan ziyod a'zosi bo'lib, ular, asosan, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik harakati vakillari, ya'ni o'rta sinf sifatida Vatanimiz kuch-qudratiga, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligiga, xalqimiz farovonligiga katta hissa qo'shib, O'zbekistonning hal qiluvchi kuchiga aylanmoqda, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Bugungi kunda dunyodagi ko'pgina taraqqiy topgan, barqaror va badavlat yashayotgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, avvalo, o'zining xususiy mulkiga ega bo'lgan shaxs va bunday shaxslardan iborat toifa qo'lga kiritgan boylikni yanada ko'paytirishga intiladi. Shu asnoda o'zining, oilasining turmush farovonligini oshirib borish bilan birga, davlat va jamiyat zimmasidagi ko'plab vazifalarni bajarishda ham faol ishtirok etadi. Kerak bo'lsa, ko'pgina masalalarda boshqalarga o'rnak va namuna ko'rsatadi.

Eng muhimi – buni ham takror va takror aytishga to'g'ri keladi – mulkdorlar sinfi o'z yurtida tinchlik va osoyishtalik, erkin faoliyat yuritish muhitini saqlash va mustahkamlash uchun astoydil jon kuydiradi. Chunki hammamizga yaxshi ma'lum – faqatgina osuda hayot, tinch va osoyishta vaziyatdagina o'z ishini boshlash, tadbirkorlik, xususiy biznesni rivojlantirib, erkin yashash va daromad, boylik topish mumkin.

Yana bir muhim masala – xalqimizning tarixiy-ma'naviy o'ziga xosligi, azaliy qadriyat va an'analari-

miz, el-yurtimiz hayotida asrlar davomida shakllanib kelayotgan ijtimoiy adolat tamoyillarining o'zi biz qurayotgan yangi jamiyatda o'ta boylar ham, o'ta kambag'allar ham bo'lmasligini taqozo etadi.

Bugungi kunda bu talab milliy davlatchilik barpo etish borasidagi siyosatimizning muhim poydevoriga aylanganini ko'p-ko'p misollarda ko'rish mumkin.

Biz o'rta sinf deganda, yon-atrofimizdagi ayrim davlatlardagi kabi turli nopok, korrupsiya yo'llari bilan behisob mol-dunyo orttirgan o'ta boylarni emas, balki o'zining halol mehnati, aql-zakovati, kuch-g'ayrati bilan daromad topayotgan million-million tadbirkor va ishbiarmonlarni tasavvur qilamiz.

Biz o'rta sinf deganda, o'zining, farzandlarining taqdiri va kelajagini shu zamin bilan uzviy bog'lagan, shu yurtda ozod, erkin va farovon hayot kechirish, shu yurtni ravnaq toptirish maqsadida ter to'kib mehnat qilayotgan insonlarni ko'z oldimizga keltiramiz.

Bu insonlar, avvalo, el-yurtimizning kuch-qudrati va boyliklarini bunyod etayotgan tadbirkor va ishbiarmonlar, fermerlik harakati va kichik biznes, xizmat ko'rsatish sohasi vakillari, bir so'z bilan aytganda, moddiy va intellektual mulk egalari.

O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining tashkil qilinishi va siyosat maydonida paydo bo'lishidan ko'zda tutilgan maqsad ham, birinchi navbatda, tez o'zgarib borayotgan zamon talablarini hisobga olgan holda, ana shunday mulkdorlar, ya'ni nima uchun va kim uchun mehnat qilayotganini chuqur anglaydigan

insonlarni yagona ezgu maqsadni amalga oshirish yo'lida birlashtirishdan iborat edi.

Bu haqiqatni hech qachon esimizdan, xayolimizdan chiqarmasdan, mulkdorlar o'rtasida shakllangan munosabatlarni yanada mustahkamlash va yangi bosqichga ko'tarish – partiyaning kundalik ustuvor vazifasiga aylanishi darkor.

Aziz do'stlar!

Biz bugun mustaqil davlat va jamiyat qurish, xalqimiz uchun hech kimdan kam bo'lmagan farovon hayot barpo etish yo'lida tarixan qisqa davrda haqiqatan ham o'n yillarga, balki asrlarga teng keladigan yo'lni – masofani bosib o'tdik, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

O'z vaqtida, bizning taqdirimiz hal bo'layotgan o'ta og'ir va xatarli bir zamonda, turli xomxayollardan voz kechib, bizga ko'rsatilgan tazyiq va zo'ravonliklarga qaramasdan, bugungi kunda dunyoda taraqqiyotning «o'zbek modeli» deb tan olingan, demokratik davlat, erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirish, xalqimizning hayot darajasini munosib bosqichga ko'tarish bo'yicha chuqur o'ylangan rivojlanish yo'limizni qat'iy belgilab olganimiz, hech shubhasiz, **tom ma'noda tarixiy yutug'imiz bo'ldi.**

Islohotlarning mashhur besh tamoyiliga asoslangan bu taraqqiyot modeli, avvalo, biz tanlagan tadrijiy – evolutsion yo'l naqadar to'g'ri va samarali ekanini bugun hayotimizning o'zi amalda isbotlab bermoqda.

O'zbekiston tarixan qisqa muddatda bir vaqtlar iqtisodiyoti biryoqlama rivojlangan, asosan, paxta

xomashyosi yetkazib berishga moslashgan, paxta yakka-hokimligi halokatli tus olgan, sobiq SSSR tarkibida aholining hayot darajasini ifodalaydigan ko'rsatkichlar bo'yicha eng orqa o'rinda, jar yoqasida turgan qashshoq o'lkadan bugungi kunda tez va barqaror sur'atlar bilan, avvalo, zamonaviy tarmoqlar hisobidan rivoj topayotgan, xalqaro maydonda o'ziga munosib o'rin egallayotgan mamlakatga aylanib borayotgani ko'pgina yaqin va uzoq qo'shnilarimizni hayratda qoldirmoqda.

Haqiqatan ham, bir o'ylab ko'rganda – biz kecha kim edig-u bugun kim bo'ldik, degan savolni o'zimizga berib, kechagi hayotimizni bugungi hayotimiz bilan qiyoslaganda, sodir bo'layotgan tub o'zgarishlarning asl ma'no-mazmuniga yetib borgandagina ko'p narsa bizga yaqqol ayon bo'ladi.

O'zligimizni anglab, yurtimizning, taqdirimizning tom ma'noda egasi bo'lib, erkin va ozod hayot kechirishning haqiqiy ahamiyati va mohiyatini chuqur tushunib olgan zahmatkash, mard va matonatli xalqimizning fidokorona mehnati bilan amalga oshirilayotgan olamshumul ishlar, mamlakatimiz, shahar va qishloqlarimizning qiyofasi tubdan o'zgargani, hayotimiz tobora farovon bo'lib borayotganini sezmaslik, ko'rmaslik va kuzatmaslikning o'zi qiyin, deb o'ylayman.

Bunday ulkan yutuq va marralarning asosiy omili va mezonini biz, avvalo, odamlarimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi tobora o'zgarib, ularning siyosiy faolligi, huquqiy madaniyati, fuqarolik saviyasi va burchi yuksalib borayotganida ko'ramiz. Eng muhimi, eski,

o'zini oqlamagan tizimning qolip va aqidalaridan xoli bo'lgan, mustaqil fikrlaydigan, chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan bellashuvga tayyor, Vatanimizning ertangi kuni uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan kuch – yoshlarimiz maydonga chiqayotganida bu haqiqatni yaqqol anglamoqdamiz.

Ayni shular hisobidan biz duch kelgan og'ir sinov va muammolarga, jahon miqyosidagi global iqtisodiy inqiroz davom etayotganiga qaramasdan, dunyoning sanoqli davlatlari qatorida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillik o'sish sur'atlari so'nggi 10 yil davomida 8 foizdan ziyod bo'lib kelmoqda. Joriy yilimizda ham, inshoolo, bundan kam bo'lmaydi.

Mustaqil taraqqiyot yillarida O'zbekistonimizning iqtisodiyoti 5 karradan ko'proq, aholi daromadlari jon boshiga o'rtacha 8,7 barobar o'sganini, mamlakatimiz aholisi shu davrda 1,5 marta ko'payib, 2015-yilning boshida 31 million 500 ming kishini tashkil etganini inobatga oladigan bo'lsak, ochig'ini aytganda, biz erishgan yutuqlarni ba'zan odamlar tasavvur qilishi ham qiyin bo'lmoqda.

Mamlakatimizning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 15 foizdan oshmasligi, ichki qarzimiz, ya'ni aholimiz oldida qarzimiz umuman yo'qligi, eksport hajmi, oltin-valuta zaxiralarimiz barqaror sur'atlar bilan ko'payib borayotgani barchamizni, albatta, quvontiradi.

Hurmatli do'stlar!

Biz hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmasligini, albatta, yaxshi anglaymiz. Agarki biz XXI asrda, tobora

avj olayotgan globalashuv jarayonlari, Internet va intellektual taraqqiyot hal qiluvchi rol o'ynayotgan bir davrda yashayotganimizni hisobga oladigan bo'lsak, hayotimiz naqadar shiddatli sur'atlar bilan o'zgarib borayotganini, ayniqsa, chuqur his qilamiz.

Ana shunday sharoitda erishgan natijalarimizga mahliyo bo'lmasdan, havolanish kayfiyatiga berilmasdan, shu paytga qadar bosib o'tgan yo'limiz – bu oldimizda turgan murakkab va og'ir yo'lning faqat bir qismi ekanini o'zimizga aniq tasavvur etishimiz kerak.

Bugungi kunda bizni o'rab turgan dunyo qanchalik tez o'zgarib borayotgani, yaqin va uzoq atrofigimizda turli mojaro va qon to'kishlar davom etayotgani, terrorizm, ekstremizm va narkotrafik xavfi ortib, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari yanada chuqurlashib borayotgani haqida ortiqcha gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman. Albatta, bularning barchasi bizning har birimizni tashvishga solmasdan qo'ymaydi va bizdan jahonda yuzaga kelayotgan vaziyatni sergaklik bilan baholashni talab qiladi.

Bu o'rinda gap, birinchi navbatda, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishni davom ettirish va chuqurlashtirishga qaratilgan e'tibor va sa'y-harakatlarimizni aslo kamaytirmaslik haqida bormoqda.

Ayni shu vaziyat va holatlarni inobatga olib, oldimizda turgan eng dolzarb va ustuvor vazifalar haqida gapirganda: **avvalo, biz uchun 2015-yilda va undan keyingi davrda eng ustuvor vazifa – bu**

tarkibiy o'zgarishlar siyosatini olib borish, sanoatni diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish hisobidan iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishni ta'minlashdan iboratdir.

O'z oldimizga qo'ygan bu maqsadga erishish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, iqtisodiyotimizning real sektorida eskirgan asbob-uskunalar va texnologik qoloqlikka barham berish kabi prinsipial masalalarni hal qilish, shuningdek, ochiq aytish kerak, islohotlarni amalga oshirishda, birinchi navbatda, mulkdorlik masalasida chala-yarim ishlarga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiyotni boshqarishda ma'muriy buyruqbozlik usullarining qoldiqlarini butunlay bartaraf etish zarur.

Barchamiz bir haqiqatni yaxshi tushunib olishimiz shart. Ya'ni, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirmasdan, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, mahsulotlarimizni tashqi bozorlarga olib chiqish bo'yicha eksport dasturini jadal rivojlantirish, valuta daromadlari tushumini ta'minlash va mamlakatimizda yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish quvvatlari va ish o'rinlarini yaratish haqida gapirishning o'zi mumkin emas.

Birinchi navbatda, jahon bozorida yuqori darajadagi raqobatga dosh bera oladigan va kelgusi davrda mamlakatimizda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoqlarni

jadal rivojlantirish va aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash lozim.

Iqtisodiyoti, avvalo, xomashyo va yarimtayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga asoslangan davlatning ertangi kuni gumon bo'lishi barchamizga ma'lum.

O'zbekiston jahon bozorida xomashyo resurslari, masalan, paxta va boshqa xomashyo turlarining bahosi keskin tushib ketgan vaziyatlarni o'z misolida ko'p bor ko'rgan, boshidan kechirgan.

Shu bilan birga, agar ana shu paxta xomashyosining o'zini to'qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida yanada chuqur qayta ishlashni ta'minlab, chetga bo'yalgan ip-kalava, trikotaj polotno va matolar sotadigan bo'lsak, keyinchalik tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va dizaynni o'zlashtirib olsak, katta samaradorlikka erishishimiz mumkin.

Ana shu birgina misol asosida bizda hali-beri ishga solinmagan qancha-qancha imkoniyatlar borligiga ishonch hosil qilish qiyin emas, deb o'ylayman.

Bu o'rinda, **avvalambor**, dastlabki xomashyo va yarimtayyor mahsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish haqida so'z bormoqda. Buning uchun neft-gaz, neft kimyosi va kimyo, yengil va elektrotexnika sanoati kabi tarmoqlarda va, shuningdek, jahon bozorida, ichki va mintaqaviy bozorlarda talab katta bo'lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, elektronika va maishiy elektr texnikasi, maishiy kimyo tovarlari, qurilish va

pardozlash mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarida yangi majmualar, ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish dolzarb vazifalarimiz qatoriga kiradi.

Ikkinchidan. Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o'sishi va istiqboli, aholining hayot darajasi va sifatini belgilab berishga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor vazifa – bu xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik rivoji yo'lidagi barcha g'ov va to'siqlarni olib tashlash va bu sohaga to'liq erkinlik berishdan iborat.

Ta'kidlash kerakki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda xususiy mulk va investitsiyalarning me'yoriy-huquqiy asosini yaratish va ularning daxlsizligini himoya qilish, xususiy mulkdorlar uchun zarur shart-sharoit va kafolatlar tug'dirib berish bo'yicha ko'p ish qilindi.

Qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo-sotiq, xizmat ko'rsatish sohasi kabi ko'pgina tarmoqlar va uy-joy fondi, iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan sohalar deyarli to'liq xususiy mulk shakliga o'tkazildi.

Bugungi kunda hayotning o'zi, mamlakatimizda xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik faoliyatining amaliyoti aynan mana shunday mulk shaklining davlat mulkiga nisbatan har tomonlama ustunligini ishonchli tarzda isbotlab bermoqda. Xususiy korxonalarda sidqidildan mehnat qilishga undaydigan omillar va shaxsiy manfaatdorlik darajasi va eng asosiysi, o'zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining yakuniy natijasi uchun mas'uliyat hissi butunlay boshqacha ekani, ayniqsa, e'tiborlidir.

Xususiy sektorda mablag'lardan tobora samarali foydalanilmoqda. Bu sohada yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishni ta'minlashga bo'lgan qiziqish va intilish ancha kuchli bo'lib, ishlab chiqarishning imkon qadar ko'proq daromad olish kabi pirovard moliyaviy natijalari ham sezilarli ravishda yuqoridir.

Aynan kichik biznes, xususiy tadbirkorlikka xos bo'lgan ana shunday tub va ustun jihatlar, shuningdek, mustaqillik yillarida yaratilgan rag'batlantiruvchi omillar, imtiyoz va preferensiyalar ushbu sohaning O'zbekistondagi jadal taraqqiyotini belgilab bermoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 56 foizi ana shu sohaga to'g'ri kelayotgani va ish bilan band aholining 75 foizi mazkur tarmoqda mehnat qilayotgani bu fikrni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Ming afsuski, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida hali-hamon turli ma'muriy g'ov va to'siqlar saqlanib qolmoqda. Eng yomoni, mansabdorlar tomonidan bu soha vakillarining qonuniy manfaat va huquqlari buzilayotgani bilan bog'liq ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Bunday holatlarni tag-tugi bilan bartaraf etish, mulk huquqining kuchli yuridik norma va kafolatlari tizimini shakllantirishimiz va shu asosda davlatimizning iqtisodiy va ijtimoiy tayanchiga aylanadigan xususiy mulkdorlarning keng qatlamini yaratishga erishmog'imiz zarur.

Xususiy tadbirkorlar uchun resurslarni ochiq birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini kengaytirish

hisobidan xomashyo resurslaridan foydalanish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish, uni yanada soddalashtirish, ochiq-oshkora bo'lishini ta'minlash lozim.

Bu borada xususiy mulkdorlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishda sud organlari rolini oshirish, davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik va moliyaviy faoliyatlariga noqonuniy aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida amalda hanuzgacha saqlanib qolayotgan muammolarni qayd etgan holda, ayni vaqtda, keyingi yillarda tadbirkorlarimizni har tomonlama rag'batlantirish uchun yetarli darajada ko'p ish qilinganini ta'kidlash lozim. Ana shu ishlarning davomi sifatida mamlakatimizda biznesning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun soliq yukini kamaytirish, imkon darajasida barcha zarur sharoit va kafolatlarni yaratish kerak.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus jamg'arma tashkil etilganidan xabaringiz bor, albatta.

Ushbu jamg'arma yordamida eksportga mahsulot yetkazib berish bo'yicha xorijiy sheriklar bilan 1 milliard 250 million dollardan ziyod hajmdagi shartnomalar imzolangan bo'lib, o'tgan yili, birinchi navbatda, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermer

xo'jaliklari sohasida 840 million dollardan ziyod miqdordagi tovarlar eksporti amalga oshirildi.

Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirishni bevosita elektron shaklda amalga oshirmoqda. 2014-yilda tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 9 trillion so'mdan ortiq yoki 2013-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p kreditlar ajratildi.

2015-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlar uchun daromad solig'i stavkasi 25 foizdan 15 foizga, qurilish sohasidagi korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga tushirildi.

Imtiyoz va preferensiyalarning ushbu ro'yxatini yana davom ettirish mumkin.

Uchinchidan. Bugun O'zbekistonda iqtisodiyotda ham, faoliyatimizning boshqa sohalarida ham **davlatning ishtirokini tanqidiy qayta ko'rib chiqadigan vaqt keldi.**

Davlatning ishtiroki, avvalambor, elektr energetikasi, transport va ishlab chiqarish infratuzilmasi singari davlat ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlayotgan, tabiiy monopoliyalarga asoslangan sohalarda saqlab qolinishi kerak.

Boshqacha aytganda, davlatning iqtisodiyotimizdagi ulushi iqtisodiy va strategik asoslangan darajaga qadar qisqartirilishi va bu haqiqiy raqobat muhitini ta'minlashi hamda taqsimotga asoslangan ma'muriy buyruqbozlik tizimining o'z umrini o'tab bo'lgan illatlaridan xalos bo'lishga olib kelishi lozim.

Shu munosabat bilan xo'jalik faoliyatida davlat ulushini tubdan qisqartirish bo'yicha maxsus dasturni qabul qilish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Ushbu dasturda samarasiz davlat korxonalarini tugatib, ularni, jumladan, ochiq va oshkora savdolar orqali tegishli investitsiya majburiyatlari bilan «nob» qiymatida sotish orqali to'liq xususiy mulk shakliga o'tkazish darkor.

Korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalarimizning faoliyati samaradorligini tanqidiy baholash dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Bu, birinchi navbatda, aksiya paketlariga davlat egalik qilayotgan aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyatiga taalluqlidir. Bunday jamiyatlarda, aksiyadorlar, ayniqsa, minoritariylar, kam hajmdagi aksiyalarga egaligi va aksiyalar paketlarining tarqoqligi tufayli boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonidan amalda chetda qolmoqda.

Bugun, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan aksiyadorlik kompaniyalarining tajribasidan foydalanish holda, mahalliy sarmoyadorlar qatorida xorijiy aksiyadorlar ham aksiya egalari bo'ladigan vaqt keldi.

Ishonchim komilki, aksiyadorlik jamiyatlarini ayni shunday asosda tashkil etish bizning manfaatlarimizga ko'proq mos keladi.

To'rtinchidan. Ekologik muammolar chuqurlashib borayotgan, suv va yer resurslari cheklangan bizning sharoitimizda irrigatsiya va melioratsiya ishlarini davom ettirish, yerlarning unumdorligi va hosildorligini yanada

oshirish, ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, eng yangi agrotexnologiyalarni joriy etish – aynan shu yo‘nalishlar qishloq xo‘jaligini isloh etishning hal qiluvchi masalalari bo‘lib, ular doimo bizning e‘tiborimiz markazida bo‘lib keldi va shunday bo‘lib qoladi.

Ana shunday dolzarb vazifalarning barchasini kompleks ravishda hal etish uchun biz qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning kelgusi 5 yilga mo‘ljallangan dasturini ishlab chiqishga kirishdik. Bu dastur agrar tarmoqdagi tarkibiy o‘zgarishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish va, shuningdek, mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlashni ko‘zda tutadi.

Shu borada oldimizda miqyosi va ko‘lamiga ko‘ra qanday ulkan ishlar turgani va buning uchun qanday katta mablag‘lar talab etilishini biz o‘zimizga yaxshi tasavvur qilamiz. Bu masalada hayotning o‘zi bir haqiqatni tasdiqlab, isbotlab bermoqdaki, qishloq xo‘jaligi hisobidan mablag‘larni tejash mutlaqo yaramaydi va biz hech qachon bunga yo‘l qo‘ymaymiz.

Agarki biz bundan 5 yil oldin yerlarning meliorativ holatini, birinchi navbatda, mamlakatimizning davlat budjeti hisobidan tubdan yaxshilashga kirishmasak – qani, aytinglar, bugungi kunda qishloq xo‘jaligi qanday ahvolga tushib qolgan bo‘lard?

Hammamizga ayonki, barcha qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining samaradorligi, bizning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligimiz, nafaqat qishloq ahli,

balki butun xalqimizning moddiy farovonligi, oxir-oqibatda esa bozorlarimizda non va oziq-ovqat mahsulotlarining narxi qanday bo'lishi, avvalambor, bebaho boyligimiz bo'lgan yerlarning unumdorligi, ularning holatini doimiy ravishda yaxshilab borish bilan chambarchas bog'liq.

Bugungi kunda amalga oshirgan chora-tadbirlarimiz natijasida 1 million 700 ming gektar sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga erishdik.

Sizot suvlari eng og'ir darajada, ya'ni 2 metrgacha yuzada joylashgan yerlar qariyb 500 ming gektarga, kuchli sho'rlangan yerlar esa 100 ming gektarga qisqardi.

Melioratsiya ishlari amalga oshirilgan ekin maydonlarida paxta hosildorligi gektariga o'rtacha 2–3 sentner, boshoqli don ekinlari bo'yicha esa 3–4 sentnerga oshgani bu borada erishgan eng muhim natijamizdir.

E'tiboringizni yana bir muhim masalaga, ya'ni hozirgi kunda paxta ekiladigan yerlarni optimallashtirish va boshoqli don ekinlari, sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilik uchun ajratilgan maydonlarni kengaytirish hisobidan ekin maydonlari tarkibini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan qishloq xo'jaligi islohotlarining samaradorligiga qaratmoqchiman.

Bu haqda gapirganda, Andijon, Kosonsoy, Chortoq, O'rta Chirchiq, O'zbekiston va Buvayda tumanlarida paxta ekin maydonlari qisqartirilganini, Asaka, Yangiyo'l va Jomboy tumanlarida esa paxta ekishdan butunlay voz kechilganini qayd etish joiz.

Paxtadan bo'shagan jami 30 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerda bog' va uzumzorlar tashkil etilib, boshoqli don, sabzavot va kartoshkadan mo'l hosil yetishtirilmoqda.

Buning natijasida 2012–2014-yillarda paxta xom-ashyosi tayyorlashning barqaror hajmi saqlangan holda, sabzavot yetishtirish – 16,3 foizga, poliz mahsulotlari – 16,6 foizga, meva yetishtirish esa – 21 foizga ko'paydi.

Beshinchidan. Qishloq xo'jaligimizning, hech mubolag'asiz aytish mumkinki, butun mamlatimizning taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib kirgan fermerlik harakati yangi tariximizda o'chmas iz bo'lib qolajak desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

Bugungi kunda umumxalq boyligi bo'lmish yerni ijaraga olgan, bu yerga o'z mulki va xizmatini qo'shgan, zamonaviy texnikaga ega bo'lgan **fermer xo'jaliklari – nafaqat qishloq xo'jaligimizning asosiy mahsulotini ishlab chiqaradigan, balki qishloqning kelajagini, taraqqiyotini o'z mas'uliyatiga olgan ijtimoiy-siyosiy harakatdir.**

Shuni ta'kidlash zarurki, hozirgi sharoitda zamonaviy fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish, qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan, katta vazifalar va mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan ko'ptarmoqli xo'jaliklarga aylanib bormoqda.

Eski dehqon va fermerlar uyushmasi O'zbekiston fermerlar kengashiga, joylarda esa viloyat va tuman

fermerlar kengashlariga aylantirildi. Bu haqda soʻz borganda, hozirgi vaqtda fermer xoʻjaliklarining rivojlanishi va ularning faoliyatida yuzaga keladigan muammolarga toʻgʻridan toʻgʻri bogʻliq boʻlgan biron-bir masala Fermerlar kengashining bevosita ishtirokisiz amalda hal etilmasligini qayd etish lozim.

Fermerlar kengashlari fermerlik harakati, qishloqlarning rivojlanishi va qishloq aholisining farovonligi oʻsishi uchun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olishga qodir boʻlgan qudratli ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib borishi muqarrar. Loʻnda qilib aytadigan boʻlsak, katta istiqbolga ega boʻlgan, hozirgi vaqtda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining 90–92 foizini ishlab chiqarayotgan fermer xoʻjaliklari mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi istiqomat qilayotgan qishloqlarimizning bugungi va ertangi farovonligini yanada oshirishni oʻz nazoratiga olishi zarur, deb oʻylayman.

Xalqimizning hayot sifati va darajasini oshirish, jumladan, eng muhim ijtimoiy dasturlar doirasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ishlar, oldimizda turgan keng koʻlamli vazifalar haqida barchamiz yaxshi xabardormiz.

Faqat joriy yilning oʻzida 353 ta umumtaʼlim maktabini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital taʼmirlash, shuningdek, 147 ta kasb-hunar kolleji va akademik litseyda qariyb 400 milliard soʻm hajmidagi kapital taʼmirlash ishlarini amalga oshirish koʻzda tutilmoqda.

2020-yilgacha esa 500 ta umumtaʼlim maktabini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital taʼmirlash,

jumladan, 101 ta yangi maktab barpo etish va 810 ta kasb-hunar kolleji va akademik litseylarni kapital ta'mirlash rejalashtirilmoqda.

Tibbiyot sohasida 2015-yilda 98 million dollar hajmidagi mablag' hisobidan 83 ta tibbiyot muassasini, 2020-yilgacha esa – 180 million dollardan ziyod mablag' evaziga 230 ta tibbiyot muassasini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash nazarda tutilmoqda.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurish ishlarini davom ettirishga alohida e'tibor qaratiladi, 2015–2016-yillarda 2 milliard 100 million dollar qiymatidagi 25 mingta uy-joy bunyod etish mo'ljallanmoqda. Buning uchun Osiyo taraqqiyot banki hamda Islom taraqqiyot bankining mablag'lari jalb qilinishi belgilanmoqda.

Qishloq infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida faqat tabiiy gaz va elektr tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun 2020-yilgacha 530 million dollar, telekommunikatsiyalar tarmog'ini kengaytirish uchun esa – 136 million dollar miqdorida mablag' yo'naltirish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Oltinchidan. Mahalliy lashtirish va import o'r-nini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish dasturini amalga oshirish – hozirgi bosqichda eng ustuvor vazifalarimiz qatorida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu dasturni amalga oshirishning naqadar ulkan samara keltirishiga birgina fakt misolida ishonch hosil qilish mumkin. Ya'ni, biz bu dasturni joriy qilishga

kirishgan 2000-yilning o'zidayoq ilgari chetdan olib kelinadigan mahsulotlarni O'zbekistonda ishlab chiqarishni boshlagan edik.

2000-yildan buyon mamlakatimizda import o'rni bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 220 barobardan ziyod oshgani ham mahalliyashtirish va import o'rni bosishga qaratilgan ishlarimizning qanday katta samara berayotganini ko'rsatadi.

Mahalliyashtirish va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulkan imkoniyatlarga ega ekanini barchamiz yaxshi bilamiz.

Hozirgi paytda mahalliyashtirilgan korxonalar nafaqat ichki bozorni to'ldirmoqda, balki ular eksport bozoriga ham chiqmoqda. 2014-yilda umumiy qiymati 1 milliard dollardan ortiq hajmda 550 turdagi mahalliyashtirilgan mahsulot eksport qilindi.

Yurtimizda biz uchun butunlay yangi bo'lgan avtomobil sanoatining tashkil etilgani import o'rni bosish bo'yicha olib borilgan oqilona siyosatning yorqin dalili hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 27 ta rusumdagi yuk va yengil avtomobillar, avtobuslar, minivenlar hamda 15 turdagi zamonaviy qishloq xo'jalik texnikalari ishlab chiqarilmoqda.

Ana shu tarmoqlarning barchasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar har yili 4 milliard dollardan ziyod hajmdagi import tovarlar o'rnini bosish imkonini bermoqda.

Ushbu strategiyani yanada rivojlantirish maqsadida 2015–2019-yillarga mo'ljallangan yangi Mahalliy-

lashtirish dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dasturda umumiy qiymati 5 milliard dollardan ziyod 600 dan ortiq loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Yettinchidan. Bugungi kunda taraqqiyot, tub tarkibiy o'zgarishlar, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatdoshligini ta'minlashning muhim sharti investitsiya jarayonlari bilan bog'liq ekani haqida ortiqcha gapirib o'tirishning hojati yo'q, deb o'ylayman.

Faqat iqtisodiyotga investitsiya kiritish jarayoni uzluksiz davom etayotgan sohalardagina barqaror iqtisodiy yuksalish, iqtisodiyotning diversifikatsiya qilinishi va texnologik salohiyatning o'sishi kuza-tilmoqda. Va aksincha, investitsiya hajmi kamay-ganda iqtisodiy o'sishning barcha ko'rsatkichlari pasayib, sanoat va boshqa tarmoqlarda orqaga ketish boshlanadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston taraqqiyoti uchun yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi **190 milliard dollardan oshdi va bu mablag'ning 65 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi.**

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish doirasida keng ko'lamli zamonaviy, yuqori texnologiyalarga asoslan-gan loyihalar amalga oshirildi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi, Qo'n-g'irot soda zavodi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar za-vodi, o'nlab zamonaviy to'qimachilik komplekslari, meva-sabzavot va go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlaydigan va oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlaydigan

yuzlab korxonalar, eng ilg'or bug'-gaz va gaz turbinali texnologiyalarni joriy etgan holda ishlab chiqarish quvvatlari modernizatsiya qilingani ana shunday yirik loyihalar qatoriga kiradi.

Birgina 2014-yilda Investitsiya dasturini amalga oshirish doirasida 14 milliard 600 million dollar miqdoridagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi va bu boradagi ko'rsatkich 2013-yilga nisbatan 11 foizga o'sdi. Ushbu mablag'larning 3 milliard dollardan ortig'i xorijiy investitsiyalardir.

Bugun qurilayotgan zamonaviy korxonalar qatorida Surg'il koni bazasida Janubiy Koreyaning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda umumiy qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasining barpo etilayotgani xorijiy sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikning yorqin namunasidir.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosida amalga oshirilayotgan ushbu loyiha texnologik darajasi, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi va qurilish ko'lami bo'yicha o'ta noyob hisoblanadi va jahon gaz-kimyo tarmog'idagi eng yaxshi loyiha sifatida haqli ravishda ko'plab mukofotlarga sazovor bo'ldi.

Tub tarkibiy o'zgarishlar, strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlari sezilarli ravishda yordam ko'rsatmoqda. O'zbekistonda ushbu institutlar tomonidan yo'naltirilgan kreditlar hajmi bugungi kunda 8 milliard dollardan ziyodni tashkil etmoqda.

Investitsiya siyosati haqida gapirganda, shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishga ham katta miqdorda investitsiya sarflamoqda. Misol uchun, faqat 2000-yildan 2014-yilgacha bo'lgan davrda irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish, yirik va o'ta muhim suv xo'jaligi obyektlari faoliyati xavfsizligini va ulardan ishonchli tarzda foydalanish kafolatlarini oshirish uchun qariyb 1 milliard 300 million dollar hajmidagi mablag' yo'naltirildi. Bu mablag'ning 335 million dollari Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya institutlari hisobidan jalb etildi.

2015-yilda irrigatsiya tarmoqlarini yanada rivojlantirish maqsadida 390 million 600 ming dollar hajmidagi markazlashtirilgan kapital qo'yilmalarni o'zlashtirish ko'zda tutilgan. Umuman olganda, 2020-yilgacha irrigatsiya tarmoqlarini yanada yaxshilashga markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobidan 1 milliard 480 million dollar, jumladan, qiymati 1 milliard 100 million dollarga teng imtiyozli chet el kreditlarini yo'naltirish mo'ljallanmoqda.

Investitsiya siyosatini amalga oshirishda infratuzilmani rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda qariyb 2 ming kilometr avtomobil yo'llari, xususan, O'zbekiston milliy avtomagistrali tarkibiga kiradigan 1,5 ming kilometr uzunlikdagi yo'l tarmoqlari qurildi va rekonstruksiya qilindi.

Temiryo'l sohasida 342 kilometr uzunlikdagi yangi «Navoiy – Uchquduq – Nukus – Sultonuvaystog'» va 223 kilometrlik «Toshguzar – Boysun – Qumqo'rg'on»

tarmoqlari barpo etildi, 550 kilometr dan ziyod temiryo'li liniyalari elektrlashtirildi. Ayni paytda, yangi «Angren – Pop» elektrlashtirilgan temiryo'li va tog'li hududlar orqali o'tadigan 19 kilometr dan ziyod uzunlikdagi tunnel qurilishi nihoyasiga yetkazilmoqda.

Sakkizinchidan. Aholi bandligini ta'minlash, birinchi navbatda, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotimizning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Avvalambor, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kasanachilik va xizmat ko'rsatish sohasini, ayniqsa, qishloq joylarda yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash dasturlarini amalga oshirish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish hisobidan keyingi paytda O'zbekistonda yiliga qariyb 1 millionta ish o'rni yaratilmoqda. Shuning 60 foizdan ko'prog'i qishloq joylarda tashkil etilayotgani, ayniqsa, ahamiyatlidir.

To'qqizinchidan. Aholi hayot darajasi va sifatini yanada izchil oshirib borish masalasi bizning doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda.

Bu borada shuni qayd etish lozimki, so'nggi yillarda mamlakatimiz davlat budjetining 59–60 foizga yaqini ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda. Faqat o'tgan 2014-yilning o'zida ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi 23,2 foiz, aholining real daromadlari 10,2 foizga ko'paydi.

Aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda ushbu ko'rsatkich mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki yillaridagi 10,6 foizdan 52 foizga oshganini ta'kidlash lozim va bunday katta yutuq, albatta, barchamizga mamnuniyat bag'ishlaydi.

Eng ko'p va eng kam daromad oladigan aholi o'rtasidagi farq 2000-yildagi 53,3 barobardan bugungi kunda 7,8 barobarga tushdi. Ya'ni, boshqacha qilib aytganda, jamiyatimizning o'ta boylar va o'ta kambag'allarga keskin tabaqalanib ketishiga yo'l qo'y-maslik siyosatini amalga oshirganimiz o'z natijasini bermoqda.

Hozirgi kunda O'zbekistondagi har ikkinchi oila yurtimizda ishlab chiqarilgan shaxsiy avtomobilga ega. Deyarli har bir oilada kundalik zaruratga aylangan mobil telefon, noutbuk, sun'iy yo'ldosh orqali ko'rsatadigan va kabelli televideniye, muzlatish kameralari va zamonaviy oshxona anjomlari kabi yangi, yuqori texnologiyalarga asoslangan jihozlar paydo bo'ldi.

Mamlakatimizda uy-joy bilan ta'minlanish darajasi, jon boshiga hisoblaganda, 12,4 kvadrat metrdan 15,4 kvadrat metrga oshdi. Uy-joy fondining deyarli hammasi xususiy mulk shakliga o'tkazildi.

Aholining to'lov qobiliyati va iste'mol talabining ortib borayotgani ish haqi va pensiyalarning iste'mol narxlari o'sishiga nisbatan jadal oshishini ta'minlamoqda.

Masalan, 2000-yilda o'rtacha ish haqiga o'rtacha iste'mol savatining yarmini, ya'ni 50 foizini xarid qilish mumkin bo'lgan bo'lsa, 2014-yilda bu ko'rsatkich tegishli iste'mol savatining 4,26 barobarini tashkil

qilgani, ya'ni 2 barobardan ko'proq oshganining o'zi ko'p narsadan dalolat beradi.

Hurmatli syezd ishtirokchilari!

Bugungi kunda dunyoda ro'y berayotgan keskinlik, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o'z ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning tobora avj olib borayotgani, hamon davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va uning oqibatlari, radikalizm, terrorizm va ekstremizmning yanada faollashayotgani, jahon bozorlaridagi beqaror vaziyat bizni tashvishga solmasdan qo'ymaydi, albatta.

O'zbekistonning bu boradagi prinsip va pozitsiyalari jahon hamjamiyatiga yaxshi ma'lum. Xavfsizligimiz asosini tashkil etadigan mazkur prinsip va pozitsiyalar 2012-yilda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi konstitutsiyaviy qonunda mustahkamlab qo'yilgan.

Fursatdan foydalanib, yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman: **biz uzoq va yaqin atrofimizdagi barcha davlatlar, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Eng muhimi, hech qanday harbiy blokka qo'shilmaymiz, O'zbekiston hududida chet el harbiy bazalarining joylashuviga, harbiy xizmatchilarimizning mamlakatimiz tashqarisida bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur, deb hisoblaymiz.**

Uzoq va yaqin atrofimizda vujudga kelayotgan bugungi murakkab vaziyatda aynan shunday yo'lni, shunday siyosatni biz uchun eng to'g'ri va eng ma'qul deb bilamiz.

Aziz vatandoshlarim, qadrdonlarim!

Biz oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarimiz – demokratik va fuqarolik jamiyati, barqaror sur'atlar bilan taraqqiy topayotgan iqtisodiyot, tinch-osoyishta, badavlat hayot barpo etish, xalqaro maydonda davlatimizga obro'-e'tibor va hurmat qozonish – bularning barchasi, albatta, qisqa davrda erishadigan, yetib boradigan qoyalar – marralar emas.

Buni hammamiz chuqur tushunamiz.

Lekin shu haqiqatni tan olgan holda, shu bilan birga, ta'kidlash kerakki, el-yurtimizga in'om etgan shunday omil va mezonlar borki, ular o'z ta'siri, kuch-quvvatini mustaqillik yillarida mamlakatimiz qo'lga kiritgan, boshqalar asrlar davomida erishadigan, dunyo hamjamiyatini hayratda qoldirayotgan yutuq va marralarda yaqqol namoyon etmoqda, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

Yana bir muhim fikrni bildirishni zarur, deb hisoblayman.



Bugun O'zbekiston deb atalmish qo'rg'onimiz tarixan qisqa davrda poydevori mustahkam, davr talabiga javob beradigan zamonaviy davlatga aylanib borayotgani, eng asosiysi, avvalo, odamlarimizning dunyoqarashi, fikri-zikri, siyosiy va huquqiy madaniyati tobora yuksalib borayotgani bu borada hal qiluvchi omillardan biri ekanini hammamiz yaxshi anglamoqdamiz.

Takror-takror aytishga to'g'ri keladi – faqatgina xalqimizning mardligi va matonati, jonkuyarligi va qat'iyati, eng muhimi, kelajagimizni qurishda ertangi kunga bo'lgan yuksak ishonchi oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishda ulkan va qudratli zamin bo'lishiga aminman.



Mana shunday oliyjanob, bag'rikeng xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan, fidoyilik bilan xizmat qilish – barchamiz uchun eng yuksak sharaf, oliy saodatdir.

Muhtaram do'stlar!

Sizlarga yana bir bor o'zimning yuksak hurmat va ehtiromimni, samimiy tilaklarimni izhor etib, barchangizga sog'lik-omonlik, baxt va omad, oilalaringizga tinchlik-xotirjamlik, qut-baraka tilayman.



**MUSTAQILLIK – TOG‘DEK
TAYANCHIMIZ, QUDRATLI
ZAMINIMIZDIR**



Faint, illegible text at the top of the page, possibly bleed-through from the reverse side.

ATSTAGILIK - JOODER
KAVAYIYHIALS QUMIATIL
SABIMMSIB

1
2
3
4
5
6
7
8
9
10
11
12
13
14
15
16
17
18
19
20
21
22
23
24
25
26
27
28
29
30
31
32
33
34
35
36
37
38
39
40
41
42
43
44
45
46
47
48
49
50

Biz o'tgan asrning 90-yillarida, eng og'ir va tahlikali bir sharoitda ortiqcha hissiyotlarga berilmasdan, chetdan bo'lgan turli tazyiqlar va soxta va'dalarga uchmasdan, O'zbekistonimiz uchun yakka-yu yagona to'g'ri, ya'ni tadrijiy, bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini tanlab olganimiz, uzoqni ko'zlab, yetti o'lchab, bir kesgan holda, puxta o'ylangan vazmin siyosat olib borganimizni bugun hayotning o'zi qayta-qayta isbotlab bermoqda.

Aynan ana shunday to'g'ri yo'lni tanlaganimiz tufayli mustaqillikni mustahkamlash, Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, rivojlangan demokratik davlatlar safidan munosib o'rin egallash, xalqimiz va kelgusi avlodlarimiz uchun hech kimdan kam bo'lmagan hayot sharoitlarini yaratish, O'zbekistonimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirish bo'yicha ulkan, aytish mumkinki, asrlarga teng bo'lgan yo'lni bosib o'tdik.

Yangi hayot, yangi jamiyat qurish yo'lida biz ilgari hech qachon duch kelmagan, tajribamizda uchramagan o'ta og'ir va mashaqqatli yo'lni bosib o'tishimizga to'g'ri keldi.

Hech shubhasiz, bu borada qanday muammo va sinovlarni, qiyinchilik va to'siqlarni yengishga to'g'ri kelgan bo'lmasin, qanday suronli va to'fonli kunlarni boshimizdan kechirgan bo'lmaylik, xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlagan va dadil qadamlar bilan borayotgan yo'limizdan, o'z oldimizga qo'ygan

buyuk maqsadlarimizdan qaytmadik va hech qachon qaytmaymiz, desam, o'ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo'shilasiz.

Mana shunday o'ta tahlikali vaziyatda barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, belni mahkam bog'lab, qanday og'ir bo'lmasin, o'z yo'limizda qat'iyat bilan davom etganimiz, chet mamlakatlardan taklif qilinayotgan sarmoyalarni el-yurtimiz manfaatini ko'zda tutib, chuqur o'ylab ishlatganimiz, takror aytishim kerak, biz uchun eng to'g'ri yo'l bo'ldi. Shu tariqa biz nafaqat siyosiy, avvalo, iqtisodiy mustaqilligimizni saqlashga va mustahkamlashga erishdik.

* * *

Yillar, asrlar sinovida toblangan, ko'pni ko'rgan, bugun erkinlik havosidan nafas olib yashayotgan, o'z qadr-qimmatini, insoniy sha'nini, ne-ne ulug' zotlarning vorislari ekanini, o'zligini anglagan, milliy g'urur va iftixorini tiklagan, xalqaro maydonda o'ziga munosib o'rin egallab borayotgan, o'z kuchi va ertangi kuniga ishongan, o'z yurti, o'z farzandlarining kelajagi farovon bo'lishiga intilayotgan bizning xalqimizni hech qanday kuch to'xtatolmaydi.

* * *

Albatta, sobiq sovet davrida bizni o'zgartirishga turli harakatlar ham bo'lgan. Lekin xalq qachon xalq bo'ladi – agarko o'zining tarixini bilsa. Xalq qachon xalq bo'ladi – agarko bir-biriga mehrli, mehr-oqibatli bo'lsa. Ana shunda bu el haqiqiy xalq bo'ladi. Eng muhimi, ertangi qurayotgan tizim, ertangi qurayotgan

hayot barchani qiziqtiradigan bo'lsa. Shu yurtda yashaydigan barcha insonlar bir musht bo'lib, o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilsa, buni xalq deydi. O'z-o'zicha tarqoq bo'lib, bizga baribir, deb yurganlar hech qachon xalqni ifoda qilolmaydi.

* * *

Yutuqlarimiz haqida gapirilganda, birinchi navbatda, katta-katta raqamlar keltiriladi. Ko'pchilik, ayniqsa, iqtisodchilar shunga o'rganib qolgan. Lekin raqam va ko'rsatkichlar, qanchalik salmoqli bo'lmasin, biz erishgan marralarning mohiyati va ahamiyatini to'la ochib bera olmaydi.

Kimki mustaqillik yillarida O'zbekiston qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarni ko'rmoqchi bo'lsa, avvalo odamlarning, xalqimizning yuziga, ko'ziga qarasin. Maktab, litsey va kollejlarda ta'lim-tarbiya olayotgan bolalarning chehrasiga boqsin.

* * *

Mustaqillik biz uchun avvalo o'zligimizni anglash, insoniy qadrimizni, urf-odat va qadriyatlarimizni, muqaddas islom dinimizni, buyuk ajdodlarimiz, aziz-avliyo va allomalarimizning tabarruk nomlari va merosini, g'urur va iftixorimizni tiklash, yosh avlodimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kabi beqiyos imkoniyatlar ochib berganini alohida ta'kidlash zarur.

Aynan mustaqillik iqtisodiy hayotimizda sobiq Markazdan turib rejalashtirilgan eskicha ma'muriy-

buyruqbozlik tizimidan, biryoqlama rivojlangan nochor iqtisodiyotdan voz kechib, erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, xususiy mulkni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan qat'iy islohotlarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratib berdi.

* * *

Mustaqil O'zbekistonni kim himoya qiladi – faqat o'zimiz, eng ishonchli himoyachimiz – bu o'zimizning xalqimiz.

* * *

Bir paytlar o'ta qoloq, biryoqlama rivojlangan, paxta yakkahokimligi xavfli darajaga ko'tarilgan, ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan jar yoqasiga kelib qolgan respublikalardan biri bo'lgan O'zbekistonimiz tarixan qisqa davrda zamonaviy rivojlangan mustaqil davlatlar qatoriga ko'tarilayotgani bugun barcha-barchani hayratda qoldirmoqda.

* * *

Mustaqillik yillarida maqsad qilib qo'ygan marralarni, avvalo, eng taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga ko'tarilish, farovon va badavlat hayot kechirish, xalqaro maydonda o'zimizga munosib o'rin egallash yo'lida qo'lga kiritgan yutuqlarni sarhisob qilish uchun «Kecha kim edig-u bugun kim bo'ldik?» degan savolga xolisona javob bergandagina ko'p narsa biz uchun ayon bo'ladi.

* * *

Xalqimizda «Yetti o'lchab, bir kes» degan maqol bor. Bu – bir ishga qo'l urishdan avval oqibatini yaxshilab o'ylab ko'rish kerak, degani. Agarki 90-yillarda biz ham shoshma-shosharlik bilan ish tutganimizda hozir nima bo'lardi? Holbuki, o'sha vaqtlarda bor-yo'g'i bir hafta-o'n kunlik unimiz qolgan edi. Yigirma yarim millionlik xalqni boqish eng katta muammoga aylangan edi. Agar o'sha paytda biz ham kimlarningdir soxta va'dalariga uchib, yer osti va yer usti boyliklarimizni garovga qo'yib, qarz ko'taraverganimizda bugun holimiz ne kechardi?

Havoyi gaplar bilan «Biz mustaqil bo'ldik», deb ko'kragini kerib, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lish uchun harakat qilish o'rniga boshqa davlatlarning pinjiga kirgan ba'zi mamlakatlar bugun qanday ahvolda tushib qolganini o'zingiz ko'ryapsiz. Ayrimlari qarzga botib qolgani va undan qutulishga hech qachon kuch-quvvati yetmasligini ham yaxshi bilasiz.

* * *

Biz mustaqillik davrida nimalarga erishganimizni, hayotimiz naqadar o'zgarib, yuksalib borayotganini o'zimizga aniq tasavvur qilmasdan turib, bugungi kunda barcha jabhalarda qo'lga kiritayotgan ulkan natijalarimizning mohiyati va ahamiyatini, ularning qadr-qimmatini tushunish, anglab yetishning o'zi qiyin, deb o'ylayman.

Biz o'z oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlar yo'lida o'tgan yillar mobaynida erishgan va jahon tan olgan yutuq va marralar – o'zligimizni anglash, insoniy

sha'nimiz, g'urur-iftixorimiz, tariximiz, muqaddas din-u diyonatimizni tiklash, milliy demokratik davlat qurish, iqtisodiyotimizni yangi asosda tashkil etish, aholining hayot darajasi va sifatini oshirish borasidagi keng ko'lamlı ishlarimizni, butun mamlakatimizning qiyofasi tobora ochilib, obod bo'lib borayotganini ko'z o'ngimizdan o'tkazadigan bo'lsak, qani, ayting, istiqlolga erishmasdan turib, bunday yuksak natijalarga yetib borishimiz mumkinmıdi?

Bunga javob bitta: yo'q va aslo yo'q.

* * *

Mustaqillikka, siyosiy mustaqillikka erishish uchun, avvalambor, iqtisodiy mustaqillikka erishish kerak. O'zini boshqa birovlarğa ipsiz bog'lab bermaslik kerak.

* * *

Sobiq SSSR parchalanib ketganidan keyin, mana, oradan o'n yillar o'tdi. Zamonning o'zi hammasini joy-joyiga qo'ydi. Ya'ni, hayotning o'zi haqiqatga ko'zimizni keng ochib qarashga majbur qildi. Mustaqil bo'lish uchun ba'zi davlatlar kabi faqat uni e'lon qilishning o'zi yetarli emasligi isbotlandi.

* * *

Birovga bog'lanib qolib, faqat boshqalarning buyrug'ini bajarib yuradigan bo'lsa, qulog'igacha qarzga botgan bo'lsa, aytinglar, buni mustaqillik deb bo'ladimi?

Hech kim dunyoda bekordan bekorga qarz bermaydi. O'zining siyosiy yoki boshqa talablarini qo'yadi.

Birovning qo'liga va yuziga qarab yashaydigan inson va davlatning ozodligi butun bo'lmaydi, mustaqilligi to'liq bo'lmaydi. Hayotning shafqatsiz qonuni shu: faqat o'z kuch-qudratiga ishongan xalqgina o'z murod-maqсадiga yetadi.

* * *

Vatanparvarlik – bu shunday nozik, teran bir tuyg'uki, u faqat ona suti bilan kirishi va jon bilan chiqishi mumkin.

* * *

O'zbekiston – mustaqil davlat. Endi xalqimiz hech qachon kimgadir qul bo'lishga rozi bo'lmaydi va kimningdir buyrug'ini bajarib yuradigan zamonga hech qachon qaytmaydi. Ozodlik, erkinlik havosidan bir bor to'yib nafas olgan odam hech qachon qullikka ko'nmaydi, qullikka qaytmaydi.

* * *

Bu dunyoda har bir inson, har bir oila o'zining muqaddas orzu va niyatlariga yetish uchun yashaydi. Agar har bir oila o'z niyati yo'lida bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsa, albatta, unga erishadi. Bugun xalqimiz ana shunday ezgu niyatlar bilan yashayapti. Biz shu yo'lda doimo kurashishimiz, qolaversa, bu kurashning amaliy tomondan yanada foydali bo'lishiga harakat qilishimiz kerak.


* * *

O'zbekiston mustaqillikka erishganiga yaqinda 24 yil bo'ladi. Mustaqillik kuni – Vatanimiz tarixida,

xalqimiz hayotida abadiy muhrlanib qolgan qutlug' sana. Yurtimizda tug'ilgan, endi 5 yoshga to'lgan bolalar ham «Men – O'zbekiston fuqarosiman!» deb, faxrlanib, g'ururlanib gapiradi. Kimki mamlakatimizga kelsa, bu haqiqatning tasdig'ini har qadamda ko'rishi mumkin. Lekin bunday darajaga erishish har qaysi xalqning o'ziga, uning harakatiga bog'liq. Buni tushunish kerak. Tushunish uchun esa odam shunday g'oya bilan, ya'ni mustaqillik g'oyasi bilan, g'urur-iftixor bilan yashashi kerak.

* * *

O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu zamin oddiy yurt emas, Ollohning nazari tushgan yurt. Faqat barchamiz ertalab pok bo'lib, Yaratganimizdan so'rashimiz kerak. El-yurtimizni o'z panohida qanday asrab kelayotgan bo'lsa, bundan keyin ham marhamatini bizdan darig' tutmasin, eng muhimi, yo'limizni doimo ochib bersin, barcha yutuqlarimizda o'zi madadkor bo'lsin!



**KIM EDIG-U KIM BO‘LDIK?
ERTAGA KIM BO‘LISHIMIZ,
QANDAY YANGI MARRALARNI
EGALLASHIMIZ KERAK?**

Faint, illegible text at the top of the page, possibly bleed-through from the reverse side.

THE HISTORY OF THE

ROYAL SOCIETY OF LONDON

Faint, illegible text in the middle section of the page, likely bleed-through.

1
2
3
4
5
6
7
8
9
10
11
12
13
14
15
16
17
18
19
20
21
22
23
24
25
26
27
28
29
30
31
32
33
34
35
36
37
38
39
40
41
42
43
44
45
46
47
48
49
50



Mamlakatimiz erishgan yutuqlarning tub mohiyatiga yetib borish uchun bugungi hayotni kechagi hayot bilan solishtirib ko'rish kerak. Shundan keyin odam bugungi hayotning qadriga yetadi. Yurtimizdagi mislsiz o'zgarishlarni o'z hayoti, oilasi, qishlog'i, maktabi, ishxonasi misolida ko'rgan kishiga o'tgan kunlar bilan bugungi kunning farqi hamda afzalliklari to'g'risida tashviqot yurgizishga hojat qolmaydi.

O'ylaymanki, «Yashasin sovet davlati, yashasin kommunistik partiya» degan gaplar quruq safsata bo'lganini ongli yashaydigan xalqimiz bugun yaxshi biladi. Sovet davrida bizga xuddiki ikkinchi sort odamlar sifatida qaralgani bu zalda o'tirganlarning esidan chiqmagan bo'lsa kerak. Markazdan bir guruh «desantchi»lar yuborilib, adolatsiz tuzum tufayli o'zi shundoq ham nochor yashayotgan xalqimiz poraxo'rga, «pripiskachi»ga chiqarilganini unutib ham, kechirib ham bo'lmaydi.

* * *

Qoraqalpog'iston yoki Xorazmda bitta bolalar bog'chasi qurish uchun ham Markazdan ruxsat olish kerak edi. Moskvadagi katta-katta idoralarning eshigida sarg'ayib, ularning qosh-qovog'iga qarab yashashga mahkum etilgan edik. Bizning yurtimizdan olib chiqib ketilayotgan yerosti va yerusti boyliklarimizni hisoblanglar, bizdan olayotganlaring qancha-yu, bizga berayotganlaring nega buncha kam, desangiz, sizni millatchiga chiqarishar edi.

Sobiq SSSR davrida O'zbekistonga nisbatan Markaz tomonidan olib borilgan zo'ravonlik siyosati, xalqimizni kamsitish, uning ehtiyojlarini mensimaslik, yurtimizda paxta yakkahokimligi avjiga chiqib, iqtisodiy holatimiz va hayotimiz jar yoqasiga kelib qolgani, norozilik lovullab yonib ketadigan darajada keskinlashib borgani hech kimga sir emas.

Faraz qilishning o'zi ham qiyin bo'lgan 6 million tonna paxta yetishtirish planini bo'ynimizga bo'yinturuqdek osib qo'yib, uni bajarish uchun faqatgina tomlarimizga paxta ekish qolganini aytmaysizmi?

Haqiqatan ham, paxta yakkahokimligi shu qadar avjga chiqqan ediki, mana shu Andijon viloyatidek aholi zich yashaydigan hududda ekin maydonlarining 88 foizini g'o'za egallab olgan edi. O'sha mash'um kunlarni sizlarning ko'pchiligingiz yaxshi eslaysiz, albatta.

Bunday siyosat sovet davlatining o'zi qanday nohaq, zulmga asoslangan va mustabid bo'lganini yana bir bor ko'rsatdi. Men o'sha davrni nafaqat oddiy odam, balki rahbar sifatida o'z boshimdan o'tkazganman. Shuning uchun bu tuzumning barcha illatlarini yaxshi bilaman.

Bu davr yurtimiz uchun nihoyatda og'ir, Markazdan tashlangan «desantchi»lar, turli soxta mafkurachilar – ularning ichida, afsuski, o'zimizdan chiqqanlari ham bor edi – ko'p ziyon yetkazib, o'zbek xalqini poraxo'rlikda, qo'shib yozishda ayblab, har xil tuhmat va bo'htonlar yog'dirayotgan bir davr edi.

Albatta, o'sha paytda jazoga tortilgan odamlar orasida mansabga, boylikka berilib, nopok ishlarga yo'l qo'ygan shaxslar ham bo'lgan. Guruch kurmaksiz bo'lmaydi,

deganlaridek, hayot bor ekan, halol, insofli, diyonatli odamlar bilan bir qatorda, ba'zi qo'li egri, ishi qing'ir, faqat o'z rohatini o'ylab yashaydigan kimsalar, afsuski, hamma xalqlarda ham uchrab turadi. Buni hech kim inkor etolmaydi. Lekin ana shunday nobop odamlarni deb butun bir xalqni qoralash, uning sha'nini, g'ururini oyoqosti qilish, eng oddiy insoniy haq-huquqlarini toptash, o'zingiz ayting, qaysi qonun-qoidaga to'g'ri keladi? Ayniqsa, tun-u kun umrini dalada o'tkazib, mehnatdan boshqa narsani bilmagan, shu zaminni zamin qilgan oddiy dehqonlar, brigadir va zvenochilar, suvchi va mexanizatorlarni paxtani qo'shib yozish, kimgadir pora berish yoki pora olish degan, odamning aqliga sig'maydigan gunohlarda ayblab, ularni sudsiz-so'roqsiz bola-chaqasi, oilasidan ajratib, qamab qo'ysa, bunday nohaqlikka chidab bo'ladimi o'zi?

Biz «paxta ishi» deganda, uning mudhish oqibatlarini haqida gapirganda, avvalo, ana shunday ming-minglab oddiy, begunoh odamlarni, ularning boshiga tushgan fojialarni tushunamiz va sun'iy ravishda o'ylab topilgan bu kampaniyani xalqimizga, yurtimizga nisbatan olib borilgan ommaviy qatag'onning bir ko'rinishi deb baholaymiz.

Bunday zulm va xo'rlikni andijonliklar ham ko'p tortgan. Chunki o'sha paytda Andijon viloyati O'zbekistonda eng ko'p paxta yetishtiradigan viloyat hisoblanar edi. Tabiiyki, «desantchi»lar shuni bahona qilib, viloyatning boshiga ham ko'p tashvishlar solganini sizlar yaxshi bilasiz, albatta.

Ana shunday o'ta qaltis vaziyatda menga Qashqadaryoni boshqarish vazifasi topshirildi. Aslida meni

bu vazifaga yuborishdan maqsad boshqacha bo'lgan. Ya'ni, bu odam ishni eplolmaydi, baribir, bu og'ir viloyatni boshqarish, vaziyatni o'nglashga uning kuchi yetmaydi. Shundan keyin uning o'zini aybdor qilib, ishdan olamiz, kerak bo'lsa, Sibirga jo'natamiz, degan yovuz niyat bo'lgan. Chunki Qashqadaryo viloyatida bu lavozimda men kelgunimcha ham birtorta odam ko'p ishlamagan va hech kim yaxshilik bilan ishdan ketmagan.

O'sha paytda Qashqadaryo bo'yicha uch mingga yaqin odam jinoiy javobgarlikka tortilgan edi. Ularning oilasi, bola-chaqasi, har birining kamida 10 tadan yaqin qarindoshi borligini hisobga oladigan bo'lsak, viloyatda 300 ming kishi «desantchi»lardan zulm ko'rgani ayon bo'ladi. Demak, shuncha odam hayotdan, rasmiy hokimiyatdan norozi edi. Ana shunday ayanchli sharoitda viloyatga birinchi rahbar bo'lib kelgan inson, avvalo, nima haqida o'ylashi kerak edi?

O'zingiz ayting, azizlarim, 1989-yilning may oyida Farg'onada, Quvasoyda bo'lib o'tgan qonli voqealarga nima sabab bo'lgan edi? Ana shunday adolatsiz siyosat emasmi?

Buni qarangki, o'sha paytdagi respublika rahbari bo'lgan odam bu voqealarga katta minbardan turib baho berar ekan, bu bir tarelka qulupnay ustida bo'lib o'tgan janjal, bezovta bo'lishga ham arzimaydi, xotirjam bo'linglar, hammasi joyida, degan yolg'on gaplar bilan haqiqatni yashirib, butun dunyoga sharmanda bo'lgan edi.

Aslida esa yurtimizda vaziyat jar yoqasiga kelib qolgan, odamlarning sabr kosasi to'lgan, ularning tur-

mush sharoiti juda og'ir edi. Buni yashash darajasi bo'yicha O'zbekiston o'n beshta respublika ichida eng pastki o'rinlarga tushib qolgani, uch-to'rttalab oila katalakdek hovlilarda tiqilib yashagani, ishsizlik, onalar va bolalar o'limi keskin oshib ketgani ham tasdiqlaydi.

Ana shunday adolatsiz sharoitda azaldan chidamli xalqimizning ham toqati toq bo'ldiki, endi uni ushlab, to'xtatib turadigan kuchning o'zi yo'q edi. Shunday o'ta murakkab, tahlikali, takror aytaman, kichik bir uchqun chiqsa, hammayoq lovullab yonib ketadigan bir vaziyatda men O'zbekiston rahbari sifatida ish boshlashimga to'g'ri kelgan edi.

O'zimning hayot tajribamdan kelib chiqib aytamanki, bu dunyoda yomonlikni ko'rmagan odam yaxshilikning qadrini bilmaydi. Qiynalmagan odam haqiqiy baxt nima ekanini to'liq anglab yetmaydi.

* * *

Bir paytlar ba'zi viloyat va tuman rahbarlarimiz biz agrar respublikamiz, deb maqtanib yurardi. Ular nimani o'ylagan – men bilmadim. Umrbod SSSR tarkibida bo'lamiz, deb o'ylaganmi?

Bu odamlar ozgina fikrlab ko'rsa bo'lardiki, suv, yer yetishmasa, xalqimiz ko'payib borayotgan bo'lsa, faqat g'alla, paxta, sabzavot yetishtirish bilan mamlakatimizning taraqqiyotini ta'minlash mumkinmidi?

Mana, sizlarga yana bitta raqam. 1991-yilda mamlakatimiz aholisi 20 million 500 ming kishi edi. Mustaqillik yillarida xalqimiz 1,5 karra o'sdi – 31 millionga yetdi.

Aytinglar, 1,5 barobar ko'paygan aholini eski sharoitda oladigan hosil – paxta, g'alla hisobidan boqib

bo'larmidi? O'sha paytda biz taxminan 5–6 million tonna bug'doyni chetdan olib kelar edik. Shunday vaqtlar bo'lganki, bir hafta-o'n kunlik unimiz qolgan edi.

Bir tasavvur qilaylik, qaysi davlat, qaysi xalq buni o'z boshidan o'tkazgan? Ana shunday muammolar qarshisida yolg'iz qolgan paytimizda kim bizni qutqardi? Birinchi navbatda, o'zimiz. Chidadik, lekin hech kimdan qarz bo'lmadik.

Bugungi kunda O'zbekistonning chet mamlakatlardan qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 15 foizdan oshmaydi. Vaholanki, ba'zi davlatlarda bu ko'rsatkich 150 foizdan ham ortiqni tashkil qiladi, ular bo'ynidagi qarzidan qanday qutulishni ham bilmay yuribdi.

* * *

Biz eski adolatsiz tuzumga boshqa hech qachon qaytmaymiz. O'zimiz tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'lidan qat'iyat bilan boramiz. Nega deganda, xalqimiz sobiq tuzum davrida qancha zulm ko'rganini, qancha-qancha odam qatag'on qilinganini esidan chiqargani yo'q.

* * *

Hayotda maqsadga erishish hech qachon oson bo'lmagan. Ey, bizga shu bo'laveradi, degan fikr bilan yashaydigan odam, bilib qo'yinglar, hammamizning dushmanimizdir. O'zbek xalqi hamisha o'z oldiga buyuk maqsadlarni qo'yib yashagan va ezgu orzu-umidlariga erishish yo'lida hech qachon o'z yo'lidan qaytmagan. Shuning uchun bizning yurtimiz sivilizatsiya o'choqlaridan biriga aylangan, shuning

uchun yurtimizdan ko'plab ulug' alloma va mutafakkirlar, xorazmiylar, beruniylar, farg'oniylar, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy singari buyuk siymolar yetishib chiqqan.

2014-yilning may oyida Samarqand shahrida o'tkazilgan «O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati» mavzusidagi xalqaro konferensiyaga kelgan ishtirokchilar xalqimizning buyuk dahosiga, bemisl ilmiy, ma'naviy va madaniy merosiga qoyil qolib, bizga havas bilan qarashini yashirib o'tirmadi. Ular shu paytga qadar bizning yurtimizni yaxshi bilmaganidan afsusda ekanini bildirdi.

Nega deganda, biz ilgari sobiq Ittifoq tarkibida edik, biz dunyoga, dunyo bizga yopiq edi. O'sha davrda O'zbekistonga mehmon bo'lib keladigan odamlarni qayerga olib borishni ham Markaz hal qilar edi. Mehmonlar asosan ba'zi tarixiy obidalarimizni tomosha qilish, zaminimizda yetishtirilgan ne'matlarni tatib ko'rish bilan cheklanardi, xolos. Boy tariximiz, ulug' mutafakkirlarimiz haqida lom-mim deyilmas edi. O'zbekistonning sovet davrida qanday yutuqqa erishganini ko'rsatish uchun mehmonlar mol boqiladigan fermaga olib borilardi.

Bugun xorijlik mehmonlar, avvalo, farzandlarimiz ta'lim-tarbiya olayotgan maktab, litsey va kollej, madaniyat va sport maskanlariga bormoqda. Ular yoshlarimizga yaratib berilayotgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishmoqda. Shu o'rinda yana bir bor takrorlashni istardim: yosh avlod – bizning kelajagimiz,

ularga har tomonlama puxta ta'lim-tarbiya bersak, Vatanimizning kelajagini, uning kelgusi taraqqiyoti va ravnaqini ta'minlagan bo'lamiz. Bolalarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lsa, bizning boshqa armonimiz qolmaydi.

* * *

Biz o'z mustaqil yo'limizni 1991-yilda qat'iy tanlab oldik. Endi bizni kechagi mustabid hayot bilan bog'laydigan hech qanday ko'priq qolmadi.

* * *

Mustaqillikni qo'lga kiritish ostonasida turgan damlarimizni o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, butun O'zbekistonni, kerak bo'lsa, O'rta Osiyoni portlatib-yondirib yuborishi mumkin bo'lgan, sobiq Ittifoqni larzaga solgan, «Farg'ona fojiasi» deb nom olgan mash'um voqealarni xayolimizga keltiraylik.

Ayni shu kunlarda Toshkent viloyatining Bo'ka, Parkent tumanlarida ham vaziyat izdan chiqib ketish darajasiga yetganini, o'ylaymanki, ko'pchilik shu zalda o'tirganlar yaxshi biladi.

O'sha paytlarda sobiq Markaz tomonidan bizga qarshi qancha-qancha uydirmalar, tuhmat va bo'htonlar yog'dirilgani, hatto xalqimizga millatchi deb nom berishga urinishlar bo'lganini ko'pchilik hamon yaxshi eslaydi.

Haqiqatda esa, o'sha vaqtda respublikamizga nisbatan mutlaqo zo'ravonlik siyosatining olib borilishi, xalqimizni kamsitish, uning ehtiyojlarini mensimaslik, qashshoqlik, bedodlik, yurtimizda, jumladan,

Toshkent viloyatida paxta yakkahokimligi avjiga chiqib, iqtisodiy vaziyat tobora keskinlashib borayotgani, odamlar o'zining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan norozi bo'lib, sabr kosasining to'lib-toshgani bu voqealarning asosiy, asl sababi bo'lgan edi.

Toshkent viloyatida ham bir hovlida beshtadan oila yashaganini men shaxsan o'zim ko'rganman. Bunday hovlilarda yashash, ayniqsa qariyalar uchun juda azob edi. Tasavvur qilasizmi, ular ertalab turib qayerda tahorat olishni bilmasdan qiynalardi. Eshigini ochsa, ostonasigacha paxta ekilgan.

Paxta dalalariga qanday zaharli dorilar sepilganini aytmaysizmi? Odamlarimiz, bolalarimiz va ayollarimizning turli kasalliklarga chalinishiga, birinchi navbatda, samolyotdan sepilgan ana shu dorilar sabab bo'lmaganmidi?

* * *

Hali sovet kommunistik tuzumi o'z hukmronligini o'tkazib turgan 1989-yilni o'zimizga bir tasavvur qilaylik. Ayni ana shu kunlarda nafaqat Farg'ona vodiysi, balki boshqa viloyatlarning ba'zi tumanlarida ham vaziyat juda keskin edi.

Hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, ana shunday g'oyat murakkab va tahlikali kunlarda tobora kuchayib, alanga olib borayotgan bu fojining tag-tomiriga yetib bormasdan, asl sabablarini ochib, oshkor qilib bermasdan turib, bu o'ta xavfli voqealarni aslo to'xtatib bo'lmas edi.

Men 1989-yil 23-iyunda O'zbekiston rahbari bo'lib saylangan bo'lsam, 25-iyunda Farg'onaga kelganimni

yaxshi eslayman. Obkom binosiga kiraverishda qarasam, 3 ta harbiy desantchi turibdi. Ularni ko'rgan odam qo'rqadi. Farg'ona ko'chalarida patrullar yurganini gapirsam, bugungi yoshlarga bu balki kinodek tuyuladi. Lekin bularning hammasi haqiqat.

Keyin Qo'qonga o'tdim. Yo'lda raykomga kirsam, uning binosi bo'm-bo'sh, hech kim yo'q. Mas'ul odamlarni zo'rg'a izlab topdik. Nima bo'lyapti, deb savol bersak, hammasi jim. Bironta odam o'sha paytda nima bo'layotganini tushuntirib berolmadi. Hammada tushkunlik, qo'rquv, xavotir.

Shu narsa ayonki, o'shanda barcha voqealarning ildizi – Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan chambarchas bog'liq edi. Yuzaga kelgan qaltis vaziyatni bartaraf etish uchun, eng avvalo, viloyatda, umuman vodiylarida yangi ish o'rinlarini yaratish, bir so'z bilan aytganda, odamlarga ta'minot va daromad manbaini topib berish zarur edi. Farg'onada to'planib qolgan muammolarni zudlik bilan yechish uchun Toshkentda maxsus guruh tuzildi va unga belgilangan muddatda barcha shahar va qishloqlar, ayniqsa, inqiroz holati sezilayotgan barcha hududlarni chuqur o'rganib, joylardagi ahvolni tahlil qilish orqali amaliy taklif va xulosalar tayyorlash vazifasi topshirildi. 1989-yilning iyul oyiga qadar Farg'ona viloyati aholisining hayot darajasini oshirish, mehnatga yaroqli aholining bandligini ta'minlash bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

80-yillarning oxirida viloyat aholisining daromadi qanday past bo'lganini bugun tasavvur ham qilolmaymiz. Masalan, o'shanda pensioner va kol-

xozchilar qo'liga har oyda 42 so'm pul olgan. Biz o'shanda aql-idrok, vijdon va mas'uliyat bilan ish tutdik, deb o'ylayman. Kam ta'minlangan oilalarni, daromadi past bo'lgan aholi qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, boshlang'ich sinf o'quvchilarini, xasta, homilador ayollarni bepul nonushta bilan ta'minlash, keksalar, pensionerlarning imtiyozi va pensiyasini oshirish, talabalarga qo'shimcha stipendiya tayinlash yuzasidan shoshilinch ravishda amaliy chora-tadbirlar ko'rildi.

Paxta va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxini qayta ko'rib chiqish, qishloq aholisining daromadini izchil oshirish bo'yicha qat'iyat bilan ish olib borildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 1989-yilning o'zida respublika paxtakorlariga 400 million so'mlik qo'shimcha haq to'landi. Paxta yakkahokimligiga barham berish, paxta xomashyosini tayyorlashni barqarorlashtirish masalasi o'sha davrda birinchi darajali vazifaga aylangan edi. Bu tadbirlarning hammasi respublika aholisiga, eng avvalo, qishloq ahliga juda ma'qul bo'ldi. Shaxsiy yordamchi xo'jaliklar uchun va yakka tartibdagi uy-joy qurish uchun berilayotgan yerlarning ko'paytirilishi, shu maqsadlar uchun ssudalarning va qurilish materiallarini sotishning ko'payishi yuzaga kelgan tang vaziyatni bartaraf etishda muhim omil bo'ldi.

O'sha yillari O'zbekiston bo'yicha 2,5 million oilaga jami 700 ming gektar sug'oriladigan yer qo'shimcha tomorqa sifatida berilgani, hech shubhasiz, qishloqlarimizda ijtimoiy muammolarni yechish, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolishda ulkan tarixiy qadam bo'lgan edi.

Qiyoslash uchun birgina misolni, ya'ni sovet hokimiyati 70 yil hukmronlik qilgan davrda O'zbekistonda qishloq aholisiga hammasi bo'lib 300 ming gektarga yaqin yer tomorqa sifatida berilganini keltirish kifoya.

Farg'ona fojiasining sabablarini o'rganish jarayonida yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, bu yerdagi ayrim rahbarlar xalqning dardini tinglash, muammosini hal qilish o'rniga, soya-salqin kabinetlarining eshiklarini mahkam yopib olgan edi. Odamlar o'z rahbarlariga muammolarini ayta olmas, rahbarlarning ham to'planib qolgan murakkab masalalar yechimi bo'yicha xalqqa aytadigan gapi yo'q edi.

Afsuski, ko'pgina amaldor shaxslar, jumladan, voqealar o't-olovdek chaqnab ketgan Toshloq rayonidagi ana shunday mansabdor shaxslar qonun-qoidalamni buzib, ochiq-oydin poraxo'rlik qilishgan. Ular o'zlariga, qarindosh-urug'lariga yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkalari ajratib, katta miqdorda ssudalar olishgan. Lekin yer va qarz olishga muhtoj bo'lgan 400 nafar oddiy mehnatkashga rad javobi berilgan. Sotish uchun 319 ta avtomashina ajratilganda, shulardan 236 tasi rayonda yashamaydigan, hatto boshqa respublikalarda yashaydigan kishilarga noqonuniy tarzda taqsimlangan. Gazlashtirish, suv ta'minoti, ishga joylashtirish masalalariga yillar mobaynida umuman e'tibor qaratilmagan edi.

Biz yillar davomida to'planib qolgan muammolarga, eng avvalo, adolatsizlikka barham berish bo'yicha ham ta'sirchan amaliy choralar ko'rgan edik. Va o'shanda barcha o'tkir masalalar joylarda hal bo'lganini, ayniqsa Farg'ona ahli yaxshi eslaydi, deb o'ylayman.

* * *

Tarix haqiqati shuki, imperiya degan tuzum hech qachon ko'p yashamaydi. Nega deganda, imperiya hamisha zulmga asoslanadi.

* * *

Eski shahar bundan 15–20 yil ilgari qay ahvolda bo'lganini hammamiz yaxshi eslaymiz. Yozda chang-tuproq, qishda loy-botqoq bo'lib yotadigan tor ko'chalar, tabiiy gaz, toza ichimlik suvidan, kanalizatsiya kabi qulayliklardan mahrum, pastqam uylar Toshkentning qoq markazida eski mustabid sho'ro tuzumi siyosatining asorati sifatida, shahrimiz husnidagi dog' bo'lib turar edi.

Yillar davomida qancha-qancha rahbarlar o'zgardi, avlodlar almashdi, lekin Eski shaharda istiqomat qilgan xalqimizga nisbatan mensimasdan qarash o'zgarmay, barchamiz uchun «qiyomat qarzimiz» bo'lib qolaverdi.

Mustaqillikka qadar Eski shahar aholisining 17 foizi tabiiy gaz, qariyb 18 foizi esa toza ichimlik suvidan, deyarli barchasi kanalizatsiya, telefon singari zamonaviy qulayliklardan bebahra edi.

Sovet davrida hamma Toshkentni «Sharq darvozasi» der edi-yu, lekin, afsuski, bu darvozaning kaliti boshqa qo'llarda edi. Ochig'ini aytganda, shahar bedarvoza bo'lib qolgandi. Shuning uchun mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab bu murakkab muammoni yechish, odamlarning og'irini yengil qilish masalasini ustuvor vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydik va ulkan ishlarni amalga oshirdik.

Avvalo, Eski shahar hududida yangi gaz va suv tarmoqlari barpo etildi, eskilari esa kapital ta'mirlandi.

Bugungi kunda Eski shahar hududida bunyod etilgan har tomonlama obod ko'chalar, shinam va ko'rkam binolar, maktab va poliklinikalar, mahalla guzarlari, ayniqsa, Eski Jo'va bozori, Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i, Bolalar ijodiyoti markazi, Milliy liboslar galereyasi Eski shahar qiyofasini tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yubordi.

Eski shahardagi keng ko'lamli ishlar kelgusida ham davom ettiriladi.

2015-yilda Toshkent shahrining Eski shahar qismida qulay va shinam, zamonaviy uy-joylar barpo etish bo'yicha qabul qilingan Prezident qarori asosida birgina joriy yilning iyul oyida Nurafshon ko'chasi bo'ylab beshta besh qavatli uy-joy qurilib, jami 162 ta oila yangi kvartiralar bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari, 2015-yilning oxiriga qadar Eski shahar hududida yana o'nta ko'p qavatli uy qurib foydalanishga topshirilishi ko'zda tutilmoqda.

Umuman olganda, ushbu hududda istiqomat qilib kelayotgan aholining mana shunday yangi uylarga ko'chib o'tishi hisobidan bo'shab qolgan yer maydonlarida kelgusida, ya'ni olti-yetti yil davomida 160 ta ko'p qavatli uy bosqichma-bosqich barpo etilib, jami 4 ming 130 ta oila alohida kvartira bilan ta'minlanadi, inshoollo.

* * *

1991-yil 18-avgust kuni o'zini Davlat favqulodda holat qo'mitasi – GKCHP deb atagan bir guruh siyosiy avantyuristlar davlat to'ntarishini amalga oshirishga

urindi. Ularning asosiy maqsadi – eski, mustabid, tugab borayotgan sovet tuzumini aslo o‘zgartirmasdan saqlab qolish edi. SSSR vitse-prezidenti G. Yanayev, Ministrlar Sovetining raisi V. Pavlov, KGB raisi V. Kryuchkov, mudofaa vaziri D. Yazov, ichki ishlar vaziri B. Pugo va boshqa yuksak lavozimdagi mas’ul partiya va davlat arboblari M. Gorbachyov boshchiligidagi qonuniy hokimiyatni ag‘darib, butun Ittifoq hududida GKCHPning farmoyish va ko‘rsatmalari amal qilishi haqida qarorlar qabul qilib, barcha respublikalar, viloyat va tumanlarda ularning so‘zsiz ijro etilishini talab qilishdi.

GKCHPning murojaati 19-avgust kuni e‘lon qilindi. Men o‘sha paytda, ya’ni 1991-yil 17–19-avgust kunlari O‘zbekiston delegatsiyasi rahbari bo‘lib Hindistonga borgan edim. Afsuski, GKCHPning noqonuniy qarorlarini qo‘llab-quvvatlagan ayrim respublika rahbarlari O‘zbekiston SSRning barcha viloyatlari va Qoraqalpog‘iston ASSRga O‘zbekiston SSR hududida GKCHP faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida ko‘rsatma yuborgan ekan. Ular GKCHP a‘zolari yana sovet tuzumini joyiga qaytaradi, deb o‘ylashgan.

GKCHP e‘lon qilinganini Agrada eshitib, 19-avgust kuni zudlik bilan Toshkentga qaytdim. Toshkent aeroportida meni rasmiy kishilardan tashqari Turkiston harbiy okrugi bosh qo‘mondoni hamda Markazdan kelgan uch nafar general kutib oldi. Bu o‘sha paytdagi mavjud rasmiy protokol qoidalariga zid bo‘lib, siyosiy ma’noga ega edi. Qarasam, barchasining qovoqlari uyulgan, vajohati odamni seskantiradi. Men aeroportdan to‘g‘ri hukumat binosiga kelib, kechqurun hukumat a‘zolari bilan uchrashdim va O‘zbekiston SSR hududida

GKCHPning qonunga zid qarorlarini bekor qilish haqida ko'rsatma berdim.

Ertasi kuni O'zbekiston SSR Oliy Kengashi rayosati, Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlis o'tkazdik. Unda men yana bir bor O'zbekiston, uning rahbariyati hech qachon birovning gapiga kirib ish tutmasligini, Markazdan, boshqa ba'zi bir respublikalardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da'vatlar, yo'l-yo'riqlar ko'rsatishga harakatlar bo'lmasin, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadimizdan qaytmasligimizni ma'lum qildim.

21-avgust kuni maxsus farmonga imzo chekdim. Unga binoan endi O'zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruv idoralari, korxonalar, tashkilot va muassasalarning qabul qilgan barcha qarorlari va ularning ijrosi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston SSR Prezidentining farmonlari va O'zbekiston SSR Oliy Kengashi bilan O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlariga so'zsiz mos kelishi shartligi belgilandi hamda GKCHPning SSSR Konstitutsiyasi va qonunlariga zid keladigan qonunlari hamda farmonlari haqiqiy emas, deb hisoblandi.

Men o'sha paytdayoq, O'zbekiston o'z yo'lini qat'iy tanlab olgan, endi hech kim hech qachon bizni bu yo'ldan qaytara olmaydi, deb aytganman va hozir ham shu prinsip asosida ishlab kelmoqdaman.

* * *

Bizning o'z aqlimiz, bilim va tajribamiz, xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olgan yo'limiz bor. Biz qaramlik va tutqunlikka qaytishga hech qachon rozi bo'lmaymiz.

Biz eski tuzumni tiklashga qaratilgan hech qanday ittifoqqa hech qachon kirmaymiz, mustabid sovet davriga aslo qaytmaymiz. Shaxsan men butun hayotimni, butun umrimni xalqimizning ozodligiga, Vatanimiz mustaqilligiga bag'ishladim va bu yo'ldan hech qachon qaytmayman.

* * *

Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, «Kecha kim edig-u bugun kim bo'ldik?» degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtda «Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marra-larni egallashimiz kerak?» degan savol ustida o'ylashimiz, nafaqat o'ylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim.

* * *

Biz kechirgan hayot oson o'tgani yo'q. Biz oldin o'tmagan katta maktabni o'tdik. Odamlarimiz, ularning dunyoqarashi, ong-u tafakkuri, siyosiy va ijtimoiy faolligi, hayotning ma'nosiga qarashi yon-atrofimizdagi vaziyat o'zgarishi bilan yaqqol o'zgarib borayotgani bugun har qadamda namoyon bo'lmoqda.

Xalqimizda «yer bilan osmoncha farq bor» degan gap bor. O'ylaymanki, bu haqda gapirganda ana shu


iborani ishlatsak, ayni o'rinli bo'ladi. Ya'ni, bugungi fuqarolarimiz, bugungi insonlarni 90-yillarga nisbatan qiyoslaydigan bo'lsak, ular o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor, desak, bu ham ayni haqiqat.

Shu haqda fikr yuritganda, biz, avvalambor, o'tgan davr mobaynida qanday qiyin, qanday og'ir bo'lmasin, qanday mashaqqatli sinovlarni boshimizdan kechirishga to'g'ri kelmasin, o'zimizning oriyatli, g'urur va iftixor bilan yashaydigan xalq ekanimizni, o'z tariximizni, kimning avlodlari ekanimizni esimizdan chiqarmadik. Va uzoqni ko'zlab oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun o'zimizni ayamadik, barcha-barcha tahdid va xavf-xatarlardan el-yurtimizni himoya qilishga doimo tayyor bo'lib turdik.

Aynan shuning hisobidan, ana shunday olijanob, o'xshashi yo'q xalqimiz borligi uchun O'zbekistonimiz bugungi kunda jahondagi kamdan kam davlatlar qatorida yuksak, barqaror sur'atlar bilan o'sib, odamlarning kundalik turmushi, hayoti har tomonlama obod va farovon bo'lib bormoqda. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, biz barchani hayratda qoldiradigan marralarni qo'lga kiritmoqdamiz va ertangi kunga katta ishonch bilan yashamoqdamiz.

* * *

Hech bir ishda shoshilmasdan, ayni paytda sustkashlikka yo'l qo'ymasdan, faqat va faqat o'zimizning kuchimizga ishonib, tayanib yashashimiz kerak. Ana shunda biz, albatta, o'z murod-maqsadimizga yetamiz.



**SAYLOV – DEMOKRATIYANING
OLIY SHAKLIDIR**

Handwritten text at the top of the page, possibly a title or header.

Handwritten text in the upper middle section of the page.

Handwritten text in the middle section of the page.

Handwritten text in the lower middle section of the page.

Handwritten text in the lower section of the page.

Handwritten text at the bottom of the page, possibly a signature or footer.

O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda muhrlab qo'yilgan qoidalar va umum-e'tirof etilgan xalqaro normalar asosida yaratilgan saylov tizimi yuksak demokratik talablarga javob beradi. Buning yaqqol tasdig'i yaqinda mamlakatimiz Parlamenti – Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga o'tkazilgan saylovlarda namoyon bo'lgani xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar vakillari tomonidan e'tirof etilganida ko'rish mumkin.

O'z-o'zidan ayonki, 2015-yil 29-mart kuni mamlakatimizda bo'lib o'tadigan Prezident saylovining demokratik davlatlarda qabul qilingan, e'tirof etilgan tizim bo'yicha, ya'ni, muqobillik asosida, xolislik, haqqoniylik tamoyillariga itoat qilgan holda o'tkazilishiga qarab, xalqimizning siyosiy va huquqiy sa-viyasiga, jamiyatimizning demokratik taraqqiyot yo'lidagi rivojiga, O'zbekistonimizning obro'-e'tibori va nufuziga baho beriladi. Buni hech xayolimizdan, xotiramizdan chiqarmasligimiz zarur.

Kimki bu saylovda qatnashadigan bo'lsa, uni quruq gaplar, yolg'on tashviqot bilan boshqa yo'lga burib bo'lmaydi. O'ylaymanki, har qaysi odam o'zining xohish-irodasi, vijdoni nimani buyursa, shunga qarab ovoz beradi. Shu nuqtai nazardan sizlarga qaratilgan faqat bitta iltimosim bor. U ham bo'lsa, saylov masalasida biz rioya qilishimiz kerak bo'lgan demokratik normalarga ba'zan bizga mayda bo'lib tuyuladigan ish deb qaramaslik kerak. Saylov jarayonida mayda

narsaning o'zi umuman bo'lmaydi – shu masalani o'zimizga chuqur tasavvur qilishimizni xohlardim.

Biz demokratik jamiyat qurish yo'lida O'zbekistonning obro'sini oshirishga bel bog'lagan ekanmiz, kichkina bo'lib tuyuladigan ishlarga ham katta e'tibor berib, hech qanday e'tirozga o'rin qoldirmasligimiz kerak. Xalqimiz, saylovchilarimiz kimni xohlasa, baribir shu nomzodni saylaydi, bizga hech kim xalaqit berolmaydi.

* * *

Mamlakatimiz parlamentiga bo'lib o'tgan saylovlar yurtimizda izchillik bilan olib borilayotgan, demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurish, bozor islohotlarini chuqurlashtirishga qaratilgan, Konstitutsiyamizda eng oliy qadriyat sifatida muhrlab qo'yilgan inson huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar jamiyatimizda keng qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatdi. Saylovlar mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish yo'lida yana bir muhim marra bo'ldi, milliy saylov tizimimizning noyoblighi va demokratik jihatdan yuksalganini namoyish etdi.

* * *

Biz eski adolatsiz tuzumga boshqa hech qachon qaytmaslik, o'zimiz tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'lidan qat'iyat bilan borish haqida gapirganda, buning asosiy sharti va garovini avvalo hayotimizda demokratik prinsiplarni yanada mustahkamlashda, erkin, ochiq-oshkora saylov tizimini joriy qilishda ko'ramiz.

Mustaqillik yillarida shakllangan, Konstitutsiyamiz va qonunlarimiz talablariga, umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga to'la mos bo'lgan bizning milliy saylov tizimimiz bunga to'la imkon beradi. Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga yaqinda o'tkazilgan saylov paytida buning yaqqol isbotini o'zimiz ko'rdik. Va buni dunyodagi tegishli xalqaro tashkilotlar vakillari – kuzatuvchilar ham tan olib, yuksak e'tirof etdi.

Shuni ta'kidlashimiz kerakki, saylov, erkin, demokratik saylov prinsiplari biz uchun fuqarolar huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning xohish-irodasini ifodalashning eng ishonchli va samarali usuli bo'lib qoladi va biz uning tamoyillariga hamisha sodiqmiz.

* * *

Saylov degani – tanlash deganidir. Biz sovet davridagi kabi saylovlar umuman qaytmasligini xohlaymiz. Shuning uchun biz saylovni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rar ekanmiz, ovoz berishga ongli yondashishimiz, uni haqqoniylik, erkinlik, ochiqlik, xolislik tamoyillari asosida o'tkazishimiz kerak. Odamlarga tanlash imkoniyatini, nomzodlarning dasturlarini solishtirib ko'rish imkoniyatini yaratib berishimiz kerak. Qolganini ularning o'zi hal qiladi.

* * *

Biz saylov kuni vijdonan kelib ovoz beramiz. Bugungi kunda odamlarimiz shunday erkin, o'z mustaqil fikriga egaki, endi ularni o'z fikri, o'z xohish-irodasidan qaytarib bo'lmaydi. Qancha gap, qancha tashviqot bo'lmasin, saylovga borgan odamning fikrini o'zgartirishga urinish – bu mutlaqo behuda ish.

Saylovchi kimga ovoz beradi? Menimcha, u, avvalo, o'zi bilan yonma-yon o'tirib gaplashishga, dardini, quvonchini baham ko'rishga tayyor bo'lgan odamga, nomzodga ovoz beradi. Bir so'z bilan aytganda, saylovchi uning sha'niga har xil qo'pol so'zlar bilan qattiq tegmaydigan, aksincha, uning qadrini, g'ururini hurmat qiladigan odamga ovoz beradi.

Ikkinchidan, saylovchi hayotda ham, siyosatda ham boshqalardan ko'ra uzoqroqni ko'radigan, chuqurroq o'ylaydigan odamni saylaydi. Chunki, kaltabin, ya'ni burnidan narini ko'rolmaydigan, manmanlikka berilgan odam rahbar bo'lsa, o'zini ham, boshqalarni ham qiynaydi. Oxir-oqibatda bundan o'zi zarar ko'radi. Bunday odamni almashtirish ham azob bo'ladi.

Uchinchidan, saylovchi ko'pni ko'rgan, hayotning past-u balandini tushunadigan odamni saylaydi.

Bu saylovning o'ta muhim ahamiyati shundaki, uni xolisona o'tkazishimizga qarab, barchamizning siyosiy va huquqiy saviyamizga, jamiyatimizning demokratik taraqqiyot yo'lidagi rivojlanishiga, O'zbekistonning obro'-e'tiboriga baho beriladi. Ayni shunday muhim masalani esimizdan chiqarmasligimizni istardim.

* * *

Demokratiyaning o'ziga xos ko'plab ijobiy jihatlari bor, albatta. Lekin uni o'yinga aylantirib, katta minbarlardan turib, «demokratiya, demokratiya» deb ko'ksiga urib gapirish, aslini olganda, xalq manfaatlarini niqob qilib, o'z manfaatlarini ko'zlashdan boshqa narsa emasligini ham ko'p ko'rganmiz. Demokratiyani

qandaydir dogmaga, qotib qolgan yagona bir mezonga aylantirish, uni boshqa davlatlarga, ularning milliy sharoiti va o'ziga xosligini hisobga olmasdan, umumiy qoida sifatida tiqishtirish – mutlaqo noto'g'ri.

Biz shuni yaxshi anglashimiz kerakki, demokratiya hech qachon bir xil shakl yoki mazmunda bo'lmaydi. Demokratiya degani – bu hamisha o'zgarib turadigan hayot tarzi, jamiyat tizimining rivoji bilan uzviy bog'liq.

Demokratiya – inson, jamiyat, davlat degan uch subyekt o'zaro bir-birini to'ldiradigan, bir-birini boyitib, kerak bo'lsa, nazorat qilib turadigan tizim demakdir. Bu har qaysi insonning jamiyat bilan, jamiyatning esa davlat bilan munosabatini, ular o'rtasidagi muvozanatni anglatadi.

* * *

Bir vaqtlar shunday bo'lganki – afsuski, bu kamchilik ba'zi joylarda hali-beri uchrab turadi – oila boshlig'i hamma pasportlarni to'plab, men sizlar uchun ham ovoz berib kelaman, deb to'rt-besh kishining xohishini bir o'zi hal qilgan. Men oilada eng kattasi bo'lsam, chizgan chizig'imdan kimdir chiqishi mumkinmi, degan kayfiyat bilan yashash hozir ham ayrim erkaklarda yo'q emas.

Barchamiz bir haqiqatni yaxshi anglab olishimiz shart. Bugungi kunda chet ellardan, xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchi bo'lib kelgan odamlar bu gaplarni tushunmaydi. Bu borada baho berishda ular bitta mezonga, ya'ni, Konstitutsiya va qonunlarga tayanadi. Kerak bo'lsa, saylov bo'yicha Birlashgan Millatlar

Tashkiloti tomonidan tasdiqlangan, umume'tirof etilgan xalqaro talab va me'yorlar borki, ularga qat'iy amal qilish kerak. Shu ma'noda, saylovda mayda narsaning o'zi yo'q. Bu bizning shaxsiy xohishimiz bilan bo'ladigan oddiy ish emas. Bu — davlatning, xalqning qiyofasi, siyosiy xohish-irodasini namoyon etadigan umummilliy tadbir.

Agar biz demokratik jamiyatda yashamoqchi bo'lsak, faqat qonunga, unda belgilab qo'yilgan qoida va me'yorlarga itoat qilishimiz kerak.

* * *

Xorazmda yoshulli degan juda go'zal va qadimiy bir so'z bor. Yoshullini faqat yoshi ulug' bo'lgani uchun emas, el-yurt o'rtasida obro'-e'tibori baland bo'lgani, boshqalarga nisbatan ko'proq narsani bilgani, ko'pni ko'rgani, bilimi va salohiyati yuqori bo'lgani uchun shunday hurmat qilishadi.

Yoshulli bo'lish juda yaxshi, lekin saylovda yoshullilarimiz boshqalar uchun ham qaror qabul qiladigan bo'lsa, chetdan qaraganda bu odamlarga g'alati tuyuladi. Shuning uchun hozir qanday zamonda, qanday mamlakatda, qanday yuksak maqsadlarga intilayotgan davlatda yashayotganimizni chuqur anglab olsak, ayni muddao bo'ladi.

* * *

Eski, o'zini oqlamagan, mustabid, kommunistik g'oya yakka hukmron bo'lgan zamonda saylovlar qanday rasmiyatchilik bilan, nomiga o'tkazilgani, mustamlaka tizimidagi nohaqlik, buyruqbozlik sharoii-

tida amalga oshirilgani haqida ko'pchilik xalqimiz yaxshi xabardordir.

* * *

Saylov – bu biz qurayotgan huquqiy demokratik davlatning uzviy bir qismi, fuqarolarning o'z xohish-irodasi erkin bildirishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishining asosiy shaklidir.

Sodda qilib aytganda, saylov – bu, avvalo, erkin tanlash huquqi demakdir. Agar biz saylovni muqobillik asosida o'tkazmasak, ya'ni, aytaylik, 2–4 ta nomzod orasidan bittasini tanlab olish huquqiga ega bo'lmasak, bunday saylovni o'zi haqiqiy saylov deb bo'ladimi?

Saylov – bu demokratiya degani, demokratiya – bu saylov deganidir. Haqiqatan ham, demokratiyaning hayotda ustuvor bo'lishi uchun qachon eng qulay imkoniyat paydo bo'ladi? Aynan xolis, muqobil saylov o'tkazishda.

Ma'lumki, sovet davrida saylovlar shunchaki rasmiyatchilik uchun, nomiga o'tkazilar edi. Ularning natijasi, ya'ni, kimlar, qancha ishchi, qancha kolxozchi, qancha ziyoli hokimiyat idoralariga saylanishi oldindan ma'lum edi.

Bu zalda o'tirgan katta yoshdagi insonlar, oqsoqollarimiz yaxshi biladi, saylov byulletenida faqat bitta nomzodning familiyasi bo'lardi. Holbuki, bitta uchastkadan faqat bitta nomzod qo'yilib, faqat uning o'zi saylansa, hech qanday tanlash imkoni, tanlash huquqi bo'lmasa, savol tug'iladi – buning nimasi saylov?

* * *

Afsuski, hayotda demokratiyani turlicha talqin qiladiganlar ham, undan siyosiy maqsadlar yo'lida niqob sifatida foydalanadiganlar ham uchrab turadi. O'zini «demokratiya dohiylari» deb da'vo qiladigan, boshqalarni o'z yo'rig'iga yurgizishni istaydiganlar ham bor.

Biz rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini o'rganishda davom etamiz, demokratik qadriyatlarga hamisha sodiqmiz. Shuning uchun demokratiya haqida gapirganda, biz, avvalambor, eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirish, eng muhimi, ular qo'lga kiritgan yutuqlarni o'zlashtirishni nazarda tutamiz. Inson huquqlarini ta'minlash, har qaysi odam uchun erkin, farovon hayot kechirish imkoniyatlarini yaratish yo'lida kimki turli yutuqlarga, natijalarga erishgan bo'lsa, biz ulardan o'rganishdan charchamaymiz.



TARIX – BAMISOLI KO‘ZGU

Handwritten text at the top of the page, possibly a header or introductory paragraph.

Main body of handwritten text, consisting of several lines of cursive script.

Lower section of handwritten text, continuing the narrative or list.

Tarixni unutgan xalq, jamiyat o'z yo'lini yo'qotadi.
Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo'q.

* * *

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, matematika, fizika, kimyo, sanoat, menejment – bularning hammasi kerak, albatta. Lekin, avvalambor tarixni bilish – bu hayotiy zarurat.

Hayotni bilish, biz qaysi asrda yashayotganimizni anglash – bu hammamizning burchimiz. Ya'ni, hayotdan oyog'i uzilgan, real voqelikdan uzoqlashgan odam hech qachon o'z maqsadlariga erisha olmaydi. Yerda yashaydigan odamning hayoti shu zamin, mana shu tuproq bilan bog'liq bo'lishi kerak, u shu tuproqni ko'ziga surib, uning ertangi kunini yanada obod qilishga harakat qilib yashashi zarur.

* * *

Bugun yurtimizda kechagi kunni eslamaydigan, ajdodlarini, bobolarini yodga olmaydigan odamning o'zi 'yo'q, desam, adashmagan bo'laman. Dunyo tarixida qudratli saltanat yaratgan Sohibqiron Amir Temur bobomiz, o'z aql-zakovati, ulkan ilmiy salohiyati bilan jahon tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimiz bilan kim faxrlanmaydi deysiz? O'tgan yili Samarqandda bo'lib o'tgan «O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida

roli va ahamiyati» mavzusidagi xalqaro konferensiyada dunyoning 50 mamlakatidan kelgan atoqli olimlar bu tarixiy merosni butun insoniyat manfaati yo'lida birgalikda o'rganish, uni targ'ib-u tashviq qilish, amaliy hayotda yanada keng qo'llash kerakligini alohida ta'kidlagani, aytinglar, hammamizga g'urur va iftixor bag'ishlamaydimi?

Biz ko'pincha bu borada ham kamtarlik qilamiz. Lekin mening tilagim, istagim shuki, bu haqda ko'proq gapirish, merosimizni ko'proq va chuqurroq o'rganish kerak. Buyuk ajdodlarimizni, ota-bobolarimizni eslash degani – bu o'zimizga tan berish deganidir. Men ana shunday fikrdaman. O'zimizga tan beradigan bo'lsak, avvalambor, bizdan oldin o'tgan ajdodlarimizga tan beraylik. Ular qanday insonlar edi, qanday hayot kechirgan, o'zidan qanday nom qoldirgan edi, degan savollar haqida o'ylash lozim. Shu o'rinda dog'istonlik mashhur shoir Rasul Hamzatovning, agar sen o'zingdan oldin o'tganlarni miltiq bilan otadigan bo'lsang, avlodlaring seni zambarakdan o'qqa tutadi, degan mazmundagi fikri yodimga tushdi. Bu gapda haqiqatan ham chuqur ma'no bor.

Shu borada yana bir fikrga e'tibor berishingizni istardim. Fashizmga qarshi jangga kirgan bizning ota-bobolarimiz qandaydir bir tepalik yoki qaysidir bir «ulug' dohiy» uchun jon bermagan. O'zbek o'g'lonlari, avvalambor, o'zi tug'ilgan shahar va qishloqni, o'z ona yurtini, o'z yaqinlarini, mehribon otasi va onasi, sevikli yori, jondan aziz farzandlarini ko'z oldiga keltirgan holda beomon jangga kirgan, shu muqaddas Vatanimiz uchun jonini fido qilgan.

* * *

Men Ikkinchi jahon urushida yovuz dushman bilan ro'baro' bo'lib, dahshatli jangga kirgan askarlarimiz o'sha lahzalarda nimani o'ylagan, ularning xayolidan qanday fikrlar, kechinmalar o'tgan ekan, deb o'zimga ko'p savol beraman, og'ir bo'lsa-da, ularning ruhiy holatini, o'y-xayollarini o'zimga tasavvur etishga harakat qilaman. Ana shunda «Qani endi, yurtimni, o'zimning azizlarimni yana bir bor ko'rsam, ularni bag'rimga bossam», deb o'ylagan o'g'lonlar ko'z o'ngimda gavdalanadi. Men aminmanki, ular aynan shunday o'ylagan, avvalambor, o'z yurtini eslab, aziz insonlarini yana bir marta ko'rsam, deb jon bergan.

* * *

Ilgari maktablarda O'zbekistonning haqiqiy tarixi o'rgatilmagan edi. O'tgan asrning 17-yilidan boshlab yozilgan tarix kitoblari yolg'on g'oyalar asosida yaratilgani sir emas.

Toshkent shahrida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyini ochganimizdan xabaringiz bor. Maqsad — odamlar haqiqiy tarixni bilsin. Lekin mana shu yaqin va uzoq tarix haqidagi haqiqatni yozishga, uni farzandlarimizga yetkazishga intiladigan fidoyi odamlar, afsuski, juda kam. Sovet davridagi zulm va qo'rquvga asoslangan mafkura, siyosatning ta'siri bizning qon-qonimizgacha singib ketgan, ichimizdagi qo'rquqlik hali ham, taassufki, to'liq barham topgani yo'q.

Kechagi tarix biz uchun hayot maktabi, bamisoli tiniq bir ko'zgu. Unga qarab saboq olamiz, xulosa chiqaramiz, kelajak yo'lini belgilaymiz.

* * *

Men har doim mustabid sovet tuzumi, o'sha zamonda xalqimiz boshidan kechirgan kunlar haqida ko'proq yozinglar, deb, tarixchi va yozuvchilarimizdan iltimos qilaman. O'sha davrda yashagan, uning barcha kirdikorlarini ich-ichidan bilgan ziyolilarimizning qanchasi otib tashlandi, qanchasi qamoqda o'lib ketdi. Ammo o'sha zamonni yoshlarimiz bilishi uchun bizga ko'proq kitoblar, darsliklar zarur.

Tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi.

Tarixni yozishda hech qachon o'ng tomonga ham, chap tomonga ham og'masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtai nazaridan yo'l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli og'u kabi insonni zaharlaydi, uning ong-u dunyoqarashini chalg'itadi.

* * *

Eski tuzum davrida biz o'z tariximizni bilmas edik. Ko'zimiz bamisoli ko'r edi. Butun olam yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga oladigan buyuk ajdodlarimizni tanimas edig-u, soxta «dohiy»lar hayotini — qachon, qayerda tug'ilgan, nima karomatlar ko'rsatgan — bilar edik, to'g'rirog'i, yodlab olgan edik. Ularni bobomiz, otamiz, deb sig'inar edik. Bu, aynan istibdod va qullik davri edi. Nafaqat moddiy jihatdan nochor edik, eng yomoni, or-nomusimiz toptalgan, qadriyat va an'analarimiz oyoqosti qilingan edi. Bir so'z bilan aytganda, qornimizga emas, qadrimizga yig'laydigan bir davr edi.

Algoritm, algebraga asos solgan Xorazmiy bobomizni bilmas edig-u, Pyotr Birinchini hammamiz bilishimiz shart edi.

Men Qashqadaryoda obkom sekretari bo'lib ishlaganda o'zbek xalqiga nisbatan qanday adolatsizlik qilingani, qancha-qancha odamlar bundan jabr ko'rganiga o'zim guvoh bo'lganman. Jizzaxda ham xuddi shunday voqealar bo'lgan. O'sha davrning haqiqiy qiyofasini bolalarimizga albatta yetkazishimiz kerak, ularning ko'zini haqiqatga ochib berishimiz kerak. Toki ular yaxshini yomondan, oqni qoradan ajrata oladigan, hamisha ogoh va sergak yashaydigan bo'lsin. Bu bizning eng katta burchimiz.

Hozirgi to'kinlik, serobchilik osmondan tushmaganini ham bolalarimizga tushuntirishimiz lozim.

* * *

O'zlikni anglash degani – bu o'z tariximizni, ming-ming yillik an'analarimizni bilish degani. Agarki har qaysi odam kechagi kunni yaxshi biladigan bo'lsa, hech qachon avvalgi xatosini yana takrorlamaydi.

O'zingiz eslang, bir vaqtlar, kommunistik mafkura zamonida milliy urf-odatlar, an'analarni rivojlantirish u yoqda tursin, hatto janozaga borish mumkin emas edi. Qarang, qanday og'ir zamon edi!

Bu haqiqatni bolalarimizga to'g'ri tushuntirib bersak, tarix bilan, haqiqat bilan qurollanib olsak, hayotimizni shunday to'g'ri yo'lga qo'yamizki, uning aniq manzillari barchaga ayon bo'ladi, butun xalqimizga kuchg'ayrat bag'ishlab turadi. Bu – erkin, ozod, tinch va barqaror, obod va farovon hayot demakdir.

* * *

Inson har qanday sharoitda ham o'zining o'tmishini bilmasa, xato qiladi.

Biz kechagi tariximizda ro'y bergan mudhish kunlar haqidagi ma'lumotlarni yosh avlodga o'z vaqtida yetkazsak, ularning ongida hech qachon bo'shliq paydo bo'lmaydi. Bo'shliq degani shuki, kimlardir doim uning o'rmini bir narsa bilan to'ldirish payida bo'ladi va qo'yib bersangiz, bunday «chaqqon»lar istagancha topiladi. O'zining egri niyatiga erishish uchun, kerak bo'lsa, katta pul ishlatadi, eng yomoni, muqaddas islom dinini buzib ko'rsatishga urinib, yoshlarimizni to'g'ri yo'ldan chalg'itishdan ham toymaydi.

* * *

Buyuk alloma va mutafakkirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqadigan joyda, avvalo, ilm-u ma'rifat, madaniyat va ma'naviyat o'choqlari rivojlangan bo'lishi kerak. Bo'm-bo'sh joyda hech qachon buyuk sivilizatsiya paydo bo'lmaydi. Jahon tarixi buni ko'p-ko'p misollarda isbotlab beradi.

* * *

«O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati» mavzusidagi xalqaro konferensiyani aynan Samarqand shahrida o'tkazganimiz bejiz emas. Xalqimizning buyuk tarixi, boy madaniyati, noyob ma'naviy merosi ana shu anjumanda Amerika, Yevropa qit'alari, Yaponiya, Xitoy kabi dunyoning 50 mamlakatidan kelgan atoqli

olimlar tomonidan yana bir bor e'tirof etilib, yuksak baholandi. Konferensiya ishtirokchilari tomonidan bu tarixiy merosni butun insoniyat manfaati yo'lida birgalikda o'rganish, uni targ'ib-u tashviq qilish, amaliy hayotda yanada kengroq qo'llash kerakligi alohida ta'kidlanganidan barchangiz, albatta, xabardorsiz.

Haqiqatan ham, bu meros butun dunyoning merosi, ya'ni, Vatanimiz zaminida yaratilgan bunday ilmiy, madaniy boyliklar nainki O'zbekistonning, balki butun insoniyatning boyligidir. Chet ellik mehmonlarimizning, «Inson dunyoning qayerida yashamasin, bu boyliklarni, bu allomalarni bilishi kerak. Shunday mutafakkirlarni voyaga yetkazgan xalq har qanday yuksak tahsinga sazovor va biz bu xalqdan ana shunday kashfiyotlarni yana kutishga haqlimiz», degan gaplari, aytinglar, hammamizga g'urur va iftixor bag'ishlamaydimi?

* * *

Men g'urur haqida ko'p gapiraman. Negaki, g'urur va iftixor bilan yashash o'zlikni asrash, bu dunyoda hech kimdan kam bo'lmasdan barchaga teng munosabatda bo'lish deganidir. Bunday hayot tarziga hamma ham erishavermaydi. O'zbek xalqining bag'rikenglik, mehr-oqibat, saxovatpeshalik kabi ko'plab chin insoniy fazilatlari qatorida yana shunday ulug' xususiyati borki, u hech qachon, hech kimning oldida bosh egmagan. Buyuk ajdodlarimizni, Amir Temur bobomizni eslang, ularning o'gitlariga quloq tuting. Har qaysi odam – u qanday yoshda bo'lmasin, qayerda va qaysi lavozimda ishlamasin – boshiga qandaydir

og'ir ish yoki tashvish tushganida, men kimman, qanday buyuk zotlarning avlodiman, degan savolni o'ziga bersa, to'g'ri yo'lni albatta topadi. Bu savolga javob tariqasida qalbida beixtiyor g'urur va iftixor tuyg'ulari paydo bo'ladi. Albatta, biz boy tariximiz, ulug' ajdodlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Tariximiz – bitmas-tuganmas xazina, biz uchun cheksiz g'urur manbai.

* * *

Yurtimizda 90-yillarda yuzaga kelgan muammo-ning ildizi sobiq tuzum davriga, paxta yakkahokimligi halokatli tus olgan, paxta yetishtirish eng katta maqsad sanalib, hatto odamlarning hayoti va salomatligidan ustun turgan o'sha mustabid zamonga borib taqaladi.

Xalqimiz o'sha paytda chidab bo'lmaydigan shunday azob va uqubatlarga giriftor etilgan ediki, buni so'z bilan ifodalashning o'zi qiyin. Dalada ishlab yurgan odamlarning ustidan samolyotdan zaharli dorilar sepilgani, qancha-qancha bolalar sariq kasalligi va boshqa dardlarga yo'liqqani bu zalda o'tirganlarning hali esidan chiqqani yo'q.

Haqiqat, tarix haqiqati bolalarimiz uchun suv va havodek zarur. Tarix haqiqatini to'laligicha keyingi avlodga yetkazish har bir insonning kelajak oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi.

O'sha mash'um kunlarni ko'rgan kishilar, faxriylarimiz hayot ekanidan foydalanib, bu borada ko'proq ma'lumot to'plash, ularni tizimlashtirish ustida ishlaydigan olim va mutaxassislar bo'lsa, men

bunday tashabbuskor odamlarni shu muqaddas zaminni sevgan vatanparvar, yurtparvarlar deb qabul qilaman va ularni qo'llab-quvvatlashga doim tayyorman.

Insonning tabiati shundayki, vaqt o'tishi bilan yomon voqealar esidan chiqadi. Bir tomondan qaraganda, bu – to'g'ri. Chunki inson boshidan kechirgan baxtsizliklarni, ezilgan kunlarini eslashni xohlamaydi. Lekin yaxshi kunlar, obod va farovon hayotning qadriga yetish uchun inson ba'zi-ba'zida ortga nazar tashlab turishi ham kerak. Tarixdan saboq chiqarib yashashi lozim.

Men, avvalambor, yoshlarimizga qarata aytmoqchiman: o'qing, tarixni o'rganing, tarixini, o'tmishini bilgan odam kelajakda adashmaydi.

* * *

Tariximizdagi og'riqli davrlardan ham xulosa chiqarib yashashimiz kerak. Ertaga bizning o'mimizga keladigan yoshlar ana shu tarix haqiqati bilan qurollanishi lozim. Chunki hech bir sohada hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodgina buyuk davlat barpo etishi mumkin. Nega deganda, buyuk davlat qurish uchun ma'rifatli, tarixni, hayotni chuqur biladigan, undan saboq chiqara oladigan odamlar kerak.

* * *

Avvalambor, Vatanini jonidan aziz ko'rgan Amir Temur bobomizning bizga qoldirgan nasihatlarini yuragimizga, qon-qonimizga, suyak-suyagimizga mustahkam jo qilishimiz kerak va bolalarimizni ham shu ruhda tarbiyalashimiz darkor.

* * *

Dunyoda hech narsa tasodifan paydo bo'lmaydi. Hammasining ildizi, tomirida albatta qandaydir bir asos, zamin bo'ladi.

Hech qachon bo'm-bo'sh joyda ulug' zotlar paydo bo'lmaydi. Agarki qaysidir mamlakatda bir yangi kashfiyot qilinibdi, noyob mutafakkir paydo bo'libdi, deb aytsa, bilib qo'yinglar, o'sha yerda qadimiy an'ana, ilmiy maktab bor. Ilmning, ijodning zamini bor joy albatta vaqti kelib ulug' olimlarni yetishtirib beradi. Bu, o'z navbatida, odamda milliy g'urur hissini uyg'otadi. Ming afsuski, biz buyuk insonlarni vaqt o'tganidan keyin, ular hayotdan ko'z yumganidan keyin tan olamiz. Holbuki, ularni tirikligida qadrlashimiz kerak.

* * *

O'tgan asrning 90-yillarida biz yangi hayot sari qanday qadam qo'ydik? Qanday tuzumdan voz kechdik? Bu tuzum nima uchun o'zini oqlamasdan, halokatga uchradi? Bu haqiqatni yoshlarimizga har tomonlama chuqur ochib berish lozim. Nega deganda, tarixiy voqealarning negizida nima borligini, ularning mohiyatini tushuntirish uchun uni yaxshi bilish kerak. Har qanday imperiya vaqti kelib albatta yo'q bo'ladi. SSSR ham, ertami-kechmi, bir kuni yo'q bo'lishi aniq edi. Bunday tuzumning hech qanday kelajagi yo'q edi.

Men ko'pgina chiqishlarimda tarixchilarga qarata, sizlar olim bo'lsangiz, tarixni, tarixiy voqealarning asl mohiyatini tushuntirib bering, deb aytaman. Bolalarimiz albatta, haqiqatni bilishi kerak. Vaqt o'tadi, zamon o'tadi, lekin haqiqat baribir qoladi.

* * *

Tarixni unutgan, undan to'g'ri saboq chiqarib yashamaydigan xalq doimo yo'lidan adashadi. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, degan gapning ma'nosi shunda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, yaqin o'tmishimizda ro'y bergan voqealarni odamlarning, ayniqsa, yoshlarning esiga solib turish kerak, deb o'ylayman.

* * *

Bu yerda o'tirganlarning ko'pchiligi yaxshi biladi, bir vaqtlar, ya'ni sovet tuzumi davrida yashaganimizda, qaysi xalqning tarixi uzoq, qaysi xalq endi-endi paydo bo'lyapti, degan turli masalalarda tortishuvlar bo'lardi. Bu borada tarixiy haqiqatga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan, ilmiy jihatdan xolis asoslanmagan, millatchilik, buyuk davlatchilik shovinizmining hidi kelib turadigan qarash va yondashuvlar zo'r berib odamlarning qulog'iga quyilar edi. Emishki, o'zbek xalqi Oktabr inqilobiga qadar savodsiz, madaniyatsiz bir xalq bo'lgan. Faqat sovet hukumatigina unga ilm o'rgatgan, madaniyatini ko'targan emish. Buning uchun biz kommunistik mafkuradan umrbod minnatdor bo'lib yashashimiz kerak ekan. Shu borada ortga qarab, ya'ni tarixga xolis nazar bilan boqib, bu borada bir xulosani aytmoqchi bo'lsak, bizni kamsitib yerga urmoqchi bo'lganlarga qarata atoqli shoirimiz G'afur G'ulom aytgan so'zlarni yana takrorlashni o'rinli deb bilaman. Ya'ni, sizlarning ajdodlaringiz, ota-bobolaringiz hali daraxtga osilib yurganida bizning xalqimiz, ajdodlarimiz insoniyat taraqqiyotiga bemisl hissa qo'shgan sivilizatsiyalarni yuzaga keltirganlar, olamshumul kashfiyotlar qilganlar.

Xorazmiylar, farg'oniylar, beruniylar, ibn sinolar ilm-fan rivojini belgilab bergan. Bu haqiqatni hech kim inkor eta olmaydi.

Birgina Xorazm tarixini olib qaraydigan bo'lsak, shu misolning o'zi ham kifoya qiladi. Xorazm Ma'mun akademiyasi ko'p narsadan dalolat beradi. Uni butun dunyo tan olgan, u yerda ne-ne buyuk olim va mutafakkirlar ilm-fan bilan mashg'ul bo'lgan. Biz mustaqillik yillarida shu akademiyani yangi asosda qayta tiklaganimiz, UNESCO bilan hamkorlikda uning 1000 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlaganimiz Vatanimizning yangi tarixidagi unutilmas voqealardan biri bo'ldi. Bularning hammasini inobatga oladigan bo'lsak, qani, aytinglar, bizning buyuk millat, ulug' xalq ekanimizni isbotlash uchun yana qanday dalil kerak?

Bu bilan g'ururlanishga, faxrlanishga barchamiz haqlimiz, albatta. Ayni paytda ajdodlarimizga munosib bo'lish, bu hayotda hech qachon bir joyda to'xtab qolmasdan, oldimizga katta maqsadlarni qo'yib, g'urur bilan yashashimiz lozim.

* * *

Ilgari ham, hozir ham sobiq mustabid tuzumni yoq-lab chiqayotganlarning birorta gapiga ishonib bo'l-maydi. Biz bir paytlar ko'klarga ko'tarib, muk tu-shib sig'ingan Lenin bobo, Stalin bobo va boshqa «bobo»larimiz haqiqatda hammasi qallob va jallod bo'lib chiqdi. Mana, sizga haqiqat. Masalan, Leninni dunyo xalqlarining dohiysi, xaloskori deb pionerlik, komsomollik paytimizda ashulalar aytganmiz. Men hozirgi yosh o'g'il-qizlarimizni ko'rib xursand bo'-

lamanki, ular bunday yolg'on gaplardan mutlaqo uzoq bo'lib voyaga yetmoqda. O'sha zamonda endi maktabga borgan bola avval «oktabryat» nishonini taqardi. O'zingiz o'ylang, 6–7 yoshga kirgan bola nimani biladi? Bu yoshda bola faqat oftobni, ochilgan gullarni, umuman, atrofidagi olamni ko'rib xursand bo'ladi. Onasini ko'rsa, bayram bo'lsa, quvonadi.


U paytlar shunday vaziyatlar ham bo'lardiki, bir marta to'yib ovqatlanishning o'zi baxt hisoblanardi. Men yoshligimda bularning barchasini boshimdan o'tkazganman. Hatto, shunday bo'lganki, maktabda bir necha bor dars payti ochlikdan holsizlanib, uxlab qolganman. Bunday holatlar o'sha zamonlarni ko'rgan odamlarning ko'pchiligiga begona bo'lmasa kerak. Men aniq bilaman, sizlar ham yoshligingizda ayni shunday qiyinchiliklarni boshingizdan o'tkazgansiz. Ya'ni, ham-mamizning taqdirimiz o'xshash bo'lgan. O'sha davrlarda ertalab och-nahor darsga chopardik, kuch-quvvat ham shunga yarasha bo'lardi.

Bir so'z bilan aytganda, biz shunday og'ir zamonlarda yashaganmiz, ko'pgina nohaqliklarni o'z ko'zimiz bilan ko'rganmiz. Siyosat boshqa-yu, hayot boshqa edi. Turli qalin kitoblarni chiqarib, shiorlar, ashulalarni to'qib, hammani soxta g'oyalarga ishontirish oddiy hol edi. Komsomol bo'lmasang partiyaga kirmaysan, partiyaga kirmasang hech qanday vazifada ishlay olmaysan, degan qarash hukmron edi.

Yana bir mudhish narsa shuki, 30-yillarda quloqlashtirish siyosati olib borilib, ming-minglab odamlarning mol-u mulki, uy-joylari tortib olingan, o'zlari esa uzoq va sovuq o'lkalarga surgun qilingan, bu

tuzumdan norozi bo'lgan odamlarning bolalariga «xalq dushmanining farzandi» degan tamg'a bosilgan. Umuman, sovet tuzumi va mafkurasi millionlab odamlarni mayib qilgan, ularning taqdirida ayanchli iz qoldirgan. Ularning qancha-qanchasi adolatni, yorug' kunlarni ko'rmasdan bu dunyodan o'tib ketgan.

Mana, endi SSSR degan davlat yo'q bo'lib ketdi. Kimdir bundan xursand bo'lsa, yana kimdir, afsuski, o'sha davrlarni qo'msab yashayapti. Aslida, imperiyalar, zo'ravonlik bilan tuzilgan davlatlar hech qachon uzoq yashamaydi. Bu – tarix haqiqati.



**«O‘ZBEK MODELI» – AMALDA
O‘ZINI OQLAGAN, YORUG‘
ISTIQBOLIMIZNI
BELGILAB BERGAN
TARAQQIYOT YO‘LI**

Faint, illegible text at the top of the page, possibly bleed-through from the reverse side.

0-28ER M...
0-21N O...
ESTRO...
BEG...
TARA...

Biz mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab o'z umrini o'tab bo'lgan eski mustabid sovet tuzumidan voz kechib, jahon tajribasini har tomonlama puxta o'rganish, umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglash, milliy urf-odat va an'analarimizni asrab-avaylash va yanada mustahkamlash asosida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etishga azm-u qaror qildik.

* * *

O'tgan davrda amalga oshirgan barcha ishlarimizni baholar ekanmiz, bugungi O'zbekistonning shakllanishidagi ikki bosqichni alohida ajratib ko'rsatish uchun barcha asoslarimiz bor: 1991-yildan 2000-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladigan birinchi bosqich – o'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlar davri.

Iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilish, aholi turmush darajasini muntazam oshirib borishni ta'minlashda 2001-yildan 2010-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich – mamlakatimizni faol demokratik yangilash, isloh etish va modernizatsiya qilish davri g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston iqtisodiyotini isloh etish, liberallashtirish va modernizatsiya etish, uning tarkibiy tuzilishini

diversifikatsiya qilish bo'yicha har tomonlama chuqur o'ylangan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan siyosatning amalga oshirilishi ana shu yillarning barchasini o'zaro bog'laydigan hal qiluvchi asos, o'zak – bo'g'in bo'lib xizmat qildi.

* * *

O'zbekistonda qabul qilingan, «o'zbek modeli» deb nom olgan, ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishning iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, qonun ustuvorligiga erishish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish kabi mashhur besh tamoyilga asoslangan o'ziga xos yo'li – bularning barchasi, ayniqsa 2008-yilda boshlangan va hanuz davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida o'zining nechog'lik to'g'ri va hayotiy ekanini isbotladi.

* * *

Faqatgina biz tanlagan bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish yo'li xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo'lgan, qonun ustuvorligini ta'minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar.

* * *

Demokratik jarayonlarni sun'iy ravishda tezlashtirish, shoshmashosharlik, turli inqilobiy to'ntarishlar

yo'li qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkinligini bugun hayotning o'zi isbotlab bermoqda.

* * *

O'z-o'zidan ayonki, tobora chuqurlashib borayotgan islohotlar natijasida erishiladigan o'ta muhim o'zgarishlar hech qachon bir kunda, kimningdir buyrug'i yoki xohishi hisobidan bo'lmaydi. Buning uchun albatta vaqt kerak, eng asosiysi – bu islohotlarning mazmuni va maqsadlarini jamiyatimiz, xalqimiz chuqur anglab olishi va qo'llab-quvvatlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

* * *

Agar biz shuncha vaqt, kuch-quvvat sarflab amalga oshirayotgan islohotlarimizning maqsadi va mazmunini xalqimiz tushunmasa, jamoatchiligimiz qo'llab-quvvatlamasa, bunday islohotlar quruq gapga aylanib qolishi hech gap emas.

* * *

Biz bugungi kunda hayotimizning biror-bir sohasini isloh qiladigan bo'lsak, avvalambor bundan ko'zlangan maqsad nimadan iborat ekanini, nima uchun bu o'zgarishni ertaga emas, aynan bugun amalga oshirishimiz zarurligini odamlarimizga sodda va aniq qilib tushuntirib berishimiz lozim.

* * *

Biz istiqlolimizning birinchi kunlaridanoq chetdan turib tiqishtirilgan «shok terapiyasi» usullaridan, bozor

iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan soxta tasavvurlardan voz kechdik, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan boshqaruvning bozor tizimiga o'tish jarayonida «Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay» va «Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun» kabi mashhur tamoyillarga amal qilib, tadrijiy yondashuvni, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanladik.

* * *

O'zbekistonda qabul qilingan iqtisodiy taraqqiyot modelining eng muhim xususiyati chetdan qarz olish siyosatining chuqur o'ylanganida, mamlakatimizni tashqi omillarga bog'lab qo'yishi mumkin bo'lgan qisqa muddatli spekulyativ kreditlardan voz kechishda namoyon bo'ldi.

* * *

Davlatimiz mustaqil taraqqiyotning dastlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizga uzoq muddatli xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun amalda qiyosi bo'lmagan shart-sharoit va kafolatlar yaratishga alohida e'tibor qaratdi, to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan ishonchli sherik sifatida o'zini ko'rsatdi.

* * *

Mustaqil taraqqiyotimiz davomida amalga oshirgan ishlarimizni tahlil qilar ekanmiz, biz tanlagan model, chuqur o'ylangan va izchil amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarning ustuvor

yoʻnalishlari yurtimizdagi siyosiy tizim, fuqarolik jamiyati, milliy iqtisodiyotimizning barqaror va jadal rivojlanishi, aholining hayot darajasi izchil oshib borishi uchun mustahkam va ishonchli poydevor yaratdi, deb taʼkidlashga barcha asoslarimiz bor.

* * *

Yurtimizda tub maʼmuriy islohotlar amalga oshirildi, davlat boshqaruvining tarmoqlar va hududlar boʻyicha prinsipial jihatdan mutlaqo yangi tuzilmasi shakllantirildi, joylarda hokimlik institutini joriy etish orqali mahalliy hokimiyat organlari qayta tashkil etildi, mahalliy oʻzini oʻzi boshqarishning noyob tizimi — mahalla instituti rivojlantirildi va mustahkamlandi.

* * *

Mamlakatimizda bozor infratuzilmasi institutlari yaratilib, bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan mutlaqo yangi moliya va ikki bosqichli zamonaviy bank tizimi shakllantirildi, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida chuqur islohotlar oʻtkazildi.

* * *

Istiqlol yillarida mulkchilikning tuzilishida tub oʻzgarishlar roʻy berdi, koʻpukladli iqtisodiyot amalda shakllanib, uning tarkibida xususiy mulk ustuvor rivojlandi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotida nafaqat hal qiluvchi oʻrin egalladi, ayni vaqtda bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan toʻldirish, odamlarning daromadlari va farovon-

ligi oshib borishining asosiy manbaiga, aholi bandligi o'sishining eng muhim omiliga aylandi.

* * *

Yurtimizda yoqilg'i-energetika va g'alla mustaqilligiga erishildi. Boy mineral xomashyo va qishloq xo'jaligi resurslarini tubdan qayta ishlashga asoslangan zamonaviy texnologiyalarni jalb etgan holda korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashning keng ko'lamli dasturlarini izchil amalga oshirish ta'minlanmoqda. Energetika, neft va gaz kimyosi, rangli metallurgiya, kimyo va to'qimachilik sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, farmatsevtika va mikrobiologiya, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatli va chuqur qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi iqtisodiyotimiz taraqqiyotining lokomotivi hisoblangan, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish tarmoqlari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

* * *

Biz shuni doimo yodda tutishimiz kerakki, hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi va erishgan natijalari bilan kifoyalanmasdan, dunyoda kechayotgan tub o'zgarishlar jarayonidagi o'z o'miga haqqoniy va tanqidiy baho beradigan, davrning tobora ortib borayotgan talablari va jahon bozorida kuchayib borayotgan raqobat kurashiga mos holda qadam tashlaydigan davlatgina birinchi navbatda muvaffaqiyat qozona oladi.

* * *

Mana shu o'tgan qariyb 24 yillik davrda, mustaqil yashayotgan yillarimizda bizning tarixiy qadamlarimiz, tanlagan yo'limiz har tomonlama tan olinib, O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rni mustahkamlanmoqda. Iqtisodiyot nuqtayi nazaridan qaraganda, ayniqsa keyingi 10 yilga yaqin vaqt mobaynida, dunyoda turli-turli inqirozlar davom etayotgan bir paytda, O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'ati 8 foizdan past bo'layotgani yo'q. Agarki boshqa raqamlarni olib kelmasdan, ayni shu raqamni aytadigan bo'lsak ham, ko'p narsa ayon bo'ladi.

* * *

Sobiq Ittifoq hududidagi boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, O'zbekistonda daromadlar darajasi bo'yicha aholining keskin tabaqalanish holati mavjud emasligini alohida ta'kidlash lozim.

Jahon tajribasida jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish va xavfsizlik darajasini baholashning asosiy mezoni sifatida Jini indeksidan keng foydalaniladi. Misol uchun, O'zbekistonda mustaqillik yillarida Jini indeksi ko'rsatkichi 0,40 dan 0,296 ga pasaydi. Bu natija, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyalariga binoan 0,35–0,37 miqdorida belgilangan xalqaro standartlar nuqtayi nazaridan qaraganda, aholimizning ijtimoiy farovonligi muttasil o'sib borayotganidan dalolat beradi.

* * *

Biz davlatning bosh islohotchilik rolini mustahkamlash yo'lidan boramiz. O'zbekistonda daromadlar

darajasi bo'yicha aholining keskin tabaqalanishining yo'qligi ham ana shu siyosatning natijasidir. Odamlarning hayot darajasi o'rtasida ana shunday muvozanatning bo'lishi — xalqning o'z hayotidan rozi bo'lib yashashi, mamlakat barqarorligining muhim omili hisoblanadi.

Xalq qachon norozi bo'ladi, jamiyatda qachon to'polonlar paydo bo'ladi? Agar o'ta boylar ko'payib, ularning boyligi ortaversa va kambag'allarning hayoti borgan sari nochorlashib ketsa. Bu borada O'zbekistondagi vaziyat mo'tadil ekanini odamlar ko'rib-bilib turibdi. Jamiyatda adolat buzilsa, boylar o'rtacha yashayotgan odamlarni yoki kambag'allarni o'ziga teng ko'rmasa, bunday davlatning umri uzoq bo'lmaydi. Keskin norozilik odamlarni ko'chaga chiqib, o'z talabini hokimiyat idoralari oldiga qo'yishga majbur qiladi. Nega deganda, bugun odamlarning ongi o'zgaryapti, endi hech kim qul bo'lib, qaram bo'lib yashashga rozi bo'lmaydi.

Shu ma'noda, yurtimizda o'rta sinf bo'lmish mulkdorlar sinfini shakllantirish el-yurtimiz barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti va kafolati, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi vakillari, o'qituvchi va shifokorlar, ilm-fan namoyandalari, ziyolilar o'rta sinfga mansub tabaqa hisoblanadi. Dunyoning eng qudratli davlati bo'lmish AQSHda ham o'rta sinf davlatning asosiy suyanchi va tayanchidir. Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarda ham taxminan 60–70 foiz aholi o'rta sinfga mansub. Jamiyatda o'rta sinf katta o'rin tutadigan bo'lsa, odamlar hayotdan rozi bo'lib yashaydi,

ularning o'rtasida o'zaro hamjihatlik, mehr-oqibat muhiti hukm suradi. Agar jamiyatdagi sinflar orasida tafovut katta bo'lib, ular bir-biridan norozi bo'lsa, ziddiyat va to'qnashuv yuz beradi. Bu masalaning ana shunday nozik tomonlarini hamisha e'tiborimiz markazida tutishimiz lozim.

* * *

Odamlarning daromadlari ortishi bilan oilalarning moddiy ahvoli ham sifat jihatdan o'zgarib bormoqda. Mustaqillik yillarida aholining televizorlar bilan, ayniqsa, mutlaqo yangi avlod televizorlari – plazma ekranli rangli televizorlar bilan ta'minlanishi 1,6 barobar, yengil avtomobillar bilan ta'minlanishi 3,5 marta oshgani ham oilalarimizning farovonligi yuksalib borayotganining yaqqol tasdig'idir.

Qisqa vaqt ichida hayotimizga, deyarli har bir oilaga eng zamonaviy mobil telefonlarning bir necha yangi avlodi, noutbuklar, tyunerlar, DVD pristavkalari, sun'iy yo'ldosh orqali faoliyat ko'rsatadigan va kabelli televideniye, duxovkali elektr pechlar, muzlatkich kameralar, suv isitish boylerlari va boshqa mutlaqo yangi, yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar kirib keldi. Bugun biz bu narsalarga unchalik e'tibor ham bermaymiz va ularni odatdagi buyumlar sifatida qabul qilamiz. Holbuki, yigirma yil avval bunday ashyolar haqida hech narsa bilmasdik, hozirgi kunda esa ularsiz hayotimizni tasavvur ham qilolmaymiz. Eng muhimi, ushbu mahsulotlarning aksariyatini mamlakatimiz korxonalarida o'zimiz ishlab chiqaryapmiz.

* * *

O'zbekistonning beshta ustuvor yo'nalish – tamoyildan iborat bo'lgan, dunyoda taraqqiyotning «o'zbek modeli» deb tan olingan rivojlanish yo'li har tomonlama to'g'ri yo'l ekanini o'tgan 24 yillik istiqloq tariximiz isbotladi. Biz katta yo'lga chiqib oldik va uning amaliy natijalaridan barchamiz har kuni bahramand bo'lmoqdamiz. Shuning uchun ishonchim komil: yurtimizda hech kim eski davrga qaytishni xohlamaydi. Biz xalqimizni qiynaydigan, turli ijtimoiy qatlamlarni hayotning tabiiy to'lqiniga tashlab, bozor o'zini o'zi boshqaradi, degan, «shok terapiyasi» kabi bema'ni usullardan voz kechdik. Mana, ko'rib turibsiz, biz tanlagan yo'l keskin ijtimoiy portlashlarsiz, aholi o'rtasida tabaqalanishlarsiz xalqimizga farovon va obod turmush olib kelmoqda. Kechagina bizga aql o'rgatayotganlar endi bizdan o'rganmoqda.

Biz erishgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlash uchun ertangi kunimiz, yorug' kelajagimiz, o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan yuksak marralarga yetish yo'lida chuqur o'ylangan taraqqiyot strategiyamizning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirmog'imiz zarur.

* * *

Biz sobiq SSSR barbod bo'lib, tarqalib ketganida eski tuzumdan, uning qoldiqlaridan butunlay voz kechib, o'ta og'ir va mashaqqatli sinovlardan o'tib, avvalo, o'z kuch-qudratimizga, «o'zbek modeli» deb nom olgan, bugungi kunda butun dunyo tan olgan strategiya va uzoqni ko'zlagan dasturimizga suyanib,

o'zimizga xos va o'zimizga mos yo'lni tanlab olganimiz, chindan ham, o'zini to'liq oqlagan tarixiy yo'l bo'ldi, desak, bu haqiqatni, o'ylaymanki, kimdir inkor etishi qiyin.

* * *

Biz o'zimizga xos, o'zimizga mos bo'lgan, «o'zbek modeli» degan nom bilan dunyoda e'tirof etilgan rivojlanish yo'limizni tanlab olganimiz, haqiqatan ham, tarixiy bir qadam bo'ldi, desam, hech qanday xato bo'lmaydi.

Biz tanlab olgan, mashhur besh prinsipga asoslangan tadrijiy, evolutsion taraqqiyot modeli naqadar haqqoniy va samarali ekanini biz barpo etayotgan yangi demokratik tizim misolida, iqtisodiyotimiz 5 barobardan ziyod oshib, aholimizning daromadlari qariyb 9 marta o'sgani, qishloq va shaharlarimiz qiyofasi mutlaqo o'zgarib, gullab-yashnab borayotganida, xalqimizning ertangi kunimizga ishonchi tobora oshib borayotganida ko'rish, kuzatish qiyin emas.

* * *

Surg'il koni negizida Janubiy Koreyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida qiymati 4 milliard 200 million dollarga teng bo'lgan zamonaviy Ustyurt gaz-kimyoy majmuasini barpo etish loyihasi 2012-yilda jahonda chet ellik sheriklar bilan hamkorlikda neft-gaz sohasida amalga oshirilayotgan eng yaxshi loyiha deb tan olindi.

Ushbu korxonada yiliga 4 milliard 500 million kub metr tabiiy gaz qayta ishlanib, 3 milliard 700 million

kub metr gaz olinishi, 390 ming tonna polietilen, 80 ming tonnadan ziyod polipropilen, 100 ming tonnadan ortiq piroliz benzini va boshqa qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarilishini nazarda tutadigan bo'lsak, uning el-yurtimiz hayotida qanday katta ahamiyatga ega ekani yaqqol ayon bo'ladi.

Bundan 25 yil oldin O'zbekistonda ana shunday o'ta zamonaviy sanoat korxonasi quriladi, desa, o'zingiz ayting, kim ishonardi? Bu korxonada yangi-yangi ufqlarni ochib berishiga shak-shubha yo'q.

* * *

Qoraqalpoq diyorida kelgusi besh yilda faqat sanoat sohasining o'zida yana 500 ga yaqin yirik loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Buning natijasida o'n mingga yaqin odamni ish bilan ta'minlash imkoni paydo bo'ladi.

Energetika sanoati haqida gapiradigan bo'lsak, Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasida 742 million dollar hajmidagi ikkita bug'-gaz qurilmasini o'rnatish bo'yicha ishlar boshlanganini qayd etish lozim.

Qoraqalpog'iston agrar respublikadan mamlakati-mizning eng zamonaviy texnologiyalarga ega bo'lgan, sanoati rivojlangan mintaqasiga aylanyapti, desam, ayni haqiqat bo'ladi.

Keyingi yillarda Qoraqalpog'istonda yengil sanoat tarmog'i jadal rivojlanib, yangi to'quvchilik quvvatlarining ishga tushirilishi, mavjud shunday korxonalarining modernizatsiya qilinishi natijasida paxta tolasini qayta ishlash hajmini salkam 10 barobar

ko'paytirishga erishdik. Eng muhimi, shuning hisobidan besh mingga yaqin xotin-qizlar doimiy ish bilan ta'minlandi.

* * *

Bugungi kunda dunyo bozoriga kirib borish, o'rin egallash g'oyat og'ir vazifa. Ammo bu qanchalik murakkab bo'lmasin, biz jahon bozorida o'zimizga munosib o'rin egallashimiz shart. Shu borada, avvalambor, yuksak texnologiyalarga asoslangan qo'shma korxonalarini, ya'ni xorijlik hamkorlarimiz bilan birgalikda yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil qilyapmiz va ayni shu yo'l bilan tashqi bozorga yo'l ochiladi. Qo'shma korxonalarining afzal tomoni shundaki, biz biror-bir mahsulotni ishlab chiqarishni mo'ljallash bilan birga, uni kelgusida qaysi bozorda sotishni ham aniqlab olyapmiz. Shu ma'noda, qo'shma korxonalar bizning ertangi kunimiz, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

* * *

Hammamiz yaxshi tushunamizki, aholining doimiy ish o'rni, daromad manbaiga ega bo'lishi har qanday jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovonlikning asosiy sharti va garovi hisoblanadi.

Shularning barchasini e'tiborga olgan holda, ishga tushiriladigan yangi korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini keng rivojlantirish hisobidan zamonaviy ish o'rinlarini ko'paytirish vazifasi doimo kun tartibida turishi, bu borada mutasaddi

rahbar va xodimlarning tashabbus va izlanuvchanligini, mas'uliyatini oshirishimiz shart.

* * *

Bir vaqtlar, Orol dengizining inqirozi oqibatida Qoraqalpog'istonda hamma narsa qurib ketyapti, odamlar o'z yurtidan ko'chib ketyapti, degan gaplar juda ko'payib, bu yerda yashayotgan aholining kayfiyatini ancha tushirib yuborgan, ko'pchilikning qo'li ishdan sovigan edi. Shu bois men bu yerdagi og'ir vaziyat, Orol dengizi halokatining salbiy ta'siri, ekologik holatning yomonlashganini bayon qilib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibiga murojaat maktubini jo'natgan edim. Ushbu hujjat BMTning Bosh Assambleyasida keng muhokama qilinib, bu borada maxsus qaror qabul qilindi. Mazkur xalqaro hujjatga binoan Orol muammosi, Qoraqalpog'iston muammosi – umumbashariy muammo, butun insoniyatning muammosi sifatida tan olindi. Ana shu sa'y-harakatlar tufayli hozirgi kunda bu yerga yo'naltirilayotgan katta-katta mablag'lar, investitsiyalar mintaqada yashayotgan aholining turmush sharoitini yaxshilashga, odamlarning ruhini ko'tarishga xizmat qilmoqda, desam, xato bo'lmaydi.

* * *

Zamon bilan doimo hamnafas bo'lib, yangilikka intilib yashaydigan Andijon ahli barcha soha va tarmoqlarda ibratli natijalarga erishmoqda. Sanoat sohasini modernizatsiya qilish hisobidan viloyatda

mahsulot ishlab chiqarish hajmi keyingi yetti yilda oʻrtacha uch marta oshgani ham shundan dalolat beradi.

Bu yerda faoliyat koʻrsatayotgan «Jeneral motors – Oʻzbekiston», «Andijon kabel», «Oʻz Avto-Austem», «Qoʻrgʻon teks» kabi yirik korxonalar nafaqat viloyat, kerak boʻlsa, mamlakatimiz iqtisodiyotining ham tayanch ustunlari hisoblanadi.

Ayniqsa, «Jeneral motors – Oʻzbekiston» avtomobil zavodi Oʻzbekiston sanoatining nainki lokomotivlaridan biri, ayni vaqtda faxri, desak, hech qanday mubolagʻa boʻlmaydi. Ana shu ulkan majmua mamlakatimiz uchun mutlaqo yangi tarmoq boʻlmish avtomobilsozlik sanoatining tamal toshini qoʻygan yirik zamonaviy korxonada sifatida tarixga kirganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Koʻpchilik shu zalda oʻtirganlar eslasa kerak. 1992-yili mazkur zavodni qurish harakatini boshlaganimizda, men Xudo xohlasa, uch yildan keyin shu korxonada oʻzimizning avtomobillarimiz chiqa boshlaydi, deb aytgan edim.

Yashirishning hojati yoʻq, oʻshanda ayrim bizni koʻrolmaydigan, mensimay qaraydigan kuchlar, ayniqsa, uzoq-yaqindagi muxoliflarimiz bunga ishonmagan, bizga shubha bilan qaragan edi. Bu gaplarning naqadar asossiz ekani, mustaqillik qoʻl-oyogʻi, ong-u tafakkuridagi kishanlardan xalos etgan oʻzbek xalqi nimalarga, qanday buyuk ishlarga qodir ekanini, avvalo, mana shu majmuaning mehnat jamoasi, Andijonning azmi qatʻiy, gʻururi baland odamlari isbotlab berdi.

Bugungi kunga qadar bu korxonada 2 million 400 ming avtomobil ishlab chiqarildi. Yiliga 250 ming yengil mashina tayyorlanmoqda. Hozirgi vaqtda yurtimizda har ikki oiladan bittasi yengil avtomobilga ega ekan, bularning asosiy qismi o'zimizda ishlab chiqarilgan mashinalar ekani, ayniqsa, e'tiborlidir. Bu yerda o'zimizning kollejarimiz, oliy o'quv yurtlarimizni bitirib, chet elda malaka oshirgan yoshlarimiz ilm-fanning so'nggi yutuqlariga asoslangan, murakkab texnika va texnologiyalarni mohirona boshqarmoqda.

Ular eng zamonaviy rusumdagi, nafaqat ichki bozorimizda, balki xalqaro bozorda ham talab katta bo'lgan 8 turdagi yengil mashinalarni ishlab chiqarayotgani, o'zingiz ayting, «Biz hech kimdan kam emasmiz va hech qachon kam bo'lmaymiz!» degan shiorimizning amaldagi yaqqol ifodasi emasmi?

* * *

Andijon viloyatida bugungi kunda 21 mingga yaqin kichik biznes subyekti faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 59 foizdan ziyod bo'lib, mehnat bilan band aholining 84 foizi, ya'ni 1 million 45 mingdan ortiq kishi ayni shu sohada ishlab daromad topmoqda.

Bunday ijobiy natijalarni e'tirof etgan holda, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularga har tomonlama yordam va ko'mak berish o'miga ularga qandaydir g'arazli ko'z bilan qarash, ularning yo'liga turli-tuman to'siq va g'ovlar qo'yish kabi muammolar borligini ham afsus bilan aytishga to'g'ri keladi.

Albatta, biz bunday noxush holatlarning oldini olish uchun qonunlarimizga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish, vazifada o'tirgan shaxslarning mas'uliyati va javobgarligini oshirish bo'yicha tegishli ishlarni olib bormoqdamiz.

Bu haqda gapirganda, Sohibqiron Amir Temur bobomiz aytganidek, «Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan afzal» ekanini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining nafaqat mustahkam tayanchi, balki kelajagi ekanini hech qachon unutmasligimiz zarur.

* * *

Hammamiz yaxshi tushunamizki, sog'liqni saqlash sohasidagi keng ko'lamlı ishlarimizning amaliy natijasini ko'rsatadigan katta-katta raqamlarni har bir tuman, shahar va qishloq bo'yicha ko'p-ko'p keltirish mumkin. Ayni vaqtda har bir raqam ortida qancha-qancha yurtdoshlarimizning salomatligi, ularning hayoti turgani, aynan shunday ishlarimizdan minglab odamlar shifo topib, oilasi bag'riga, jamoasiga qaytayotganini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, el-yurtimizni, aholimizni rozi qilishga qaratilgan bu ishlarning ahamiyatini baholash o'zi qiyin.

Shu sababli biz uchun bebaho boylik bo'lmish inson salomatligini mustahkamlash yo'lidagi ishlarimizni hech qachon susaytirmasdan, yanada qat'iyat bilan davom ettiramiz.

* * *

Biz erishgan yutuqlarimizni mustahkamlab, zamon bilan hamqadam bo'lib yashash uchun yangi marra- lar sari intilishimiz, taraqqiyot yo'lidan qat'iyat bilan borishimiz zarur.

Agar biz shu yo'ldan bormasak, tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan taraqqiyotning bir chekkasida qolib ketishimiz ham hech gap emas. Lekin, aytinglar, bu bizga yarashadimi? Yo'q, albatta. Yurtimiz, xalqimiz, mana shu qadimiy Buxoro ahli hech qachon, hech kimdan kam bo'lmagan va kam bo'lmaydi, desam, o'ylaymanki, barchangiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaysiz.

* * *

Iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirishdek o'ta muhim masalalarni hal etish, Buxoroning saxovatli za- minida mavjud bo'lgan tabiiy boyliklardan samarali foy- dalanish maqsadida mustaqillik yillarida viloyatda yirik Gaz uzatish kompressor stansiyasi, «KNAUF gips – Buxoro» qo'shma korxonasi, G'ijduvon temir-beton va Gazli neft qazib chiqarish korxonalari barpo etildi.

Bu haqda gapirganda, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi xususida alohida to'xtalib o'tish zarur, deb bilaman. Ushbu sanoat kompleksida 3 ming 600 nafardan ziyod yuqori malakali ishchi va muhandislar tomonidan yiliga 2 million 500 ming tonna neft qayta ishlanib, katta hajmdagi yoqilg'i-moylash mahsulotlari tayyorlanmoqda.

Agarki biz sovet davrida respublikamiz ehtiyojini ta'minlash uchun har yili 6–7 million tonna neft va neft mahsulotlarini chetdan keltirish va buning uchun

katta miqdordagi valuta mablag'larini sarflashga majbur bo'lganimizni o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, mana shu yirik sanoat kompleksini o'z vaqtida, uzoqni ko'zlab bunyod etganimiz mamlakatimizning yoqilg'i-energetika mustaqilligini ta'minlashda qanday beqiyos ahamiyatga ega bo'lganini anglash qiyin emas.

* * *

Davlatimiz tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun yaratib berilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanishda Buxoro viloyati ham ijobiy natijalarga erishmoqda. Buning tasdig'ini viloyatda ushbu sohaning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi qariyb 66 foizga yetgani, ish bilan band bo'lgan aholining salkam 78 foizi ayni shu sohada mehnat qilayotgani misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Bunday yutuqlarni e'tirof etgan holda, aytish kerakki, hozirgi vaqtda viloyatda ushbu tarmoq, ko'p joylarda bo'lganidek, asosan savdo-sotiq, xizmat va aloqa sohasida, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha rivoj topmoqda.

Ayni vaqtda biz sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda, farmakologiya va farmatsevtika, axborot-kommunikatsiya tizimi, biotexnologiya, muqobil energetika, turizm kabi ko'plab sohalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga yanada keng yo'l ochib berishimiz kerak.

Buning uchun Buxoro viloyatida barcha sharoit va imkoniyatlar – xomashyo ham, resurslar ham, insoniy va intellektual salohiyat ham yetarlidir.

* * *

Ochig'ini aytganda, bizda, O'zbekistonda konkurensiya, ya'ni raqobat degan narsa bormi, o'zi? Bo'lsa ham, ayrim sohalarda bor. Bugun biz kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni nimaning hisobidan rivojlantiryapmiz, himoyalayapmiz? Avvalo, bojxona stavkalari hisobidan. Umuman, O'zbekistonda biznes egalari bemalol ishlashi mumkin. Nega deganda, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlar bilan raqobatlashadigan tovarlarni chetdan olib kelishga, ya'ni, teng raqobat sharoitini yaratishga biz hanuzgacha o'tganimiz yo'q. Shunday sharoitni yaratib bersak, Xitoydan, Turkiyadan, boshqa mamlakatlardan keltirilgan mollar bilan bozorlarimiz shunday to'lib ketadiki, o'zimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, to'g'risi, raqobatlasha olmay qoladi. Shaxsan men bizda raqobat – konkurensiya bo'lishini xohlayman. Shunda bozorlarimizda eng xaridorgir, eng sifatli mahsulotlar yanada ko'payadi. Lekin, bunday raqobat uchun biz o'zimizda sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradigan mustahkam texnik, texnologik poydevor yaratishimiz kerak. Hozirgi kunda biz aynan shunga intilyapmiz. O'zbekcha aytganda, iqtisodiyotimizning beli ozgina baquvvat bo'lib olsin, undan keyin har qanday raqobatga bardosh beradigan bo'ladi.

* * *

Agar iqtisodiyotimizda davlat monopoliyasi kuchli bo'lgan eski davrdagi asoratlar hali-hamon to'la

barham topmaganini inobatga oladigan bo'lsak, xususiylashtirish masalasi mamlakatimiz, jumladan, Buxoro viloyati uchun ham qanday muhim amaliy ahamiyatga ega ekani ma'lum bo'ladi. Masalan, keyingi besh yilda zarar ko'rib va samarasiz ishlayotgan 73 ta davlat korxonasi xususiy yoki korporativ mulk shakliga o'tkazildi. Bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini oqilona qo'llash natijasida bu korxonalarining rentabelligi, ya'ni samara bilan ishlashi ta'minlandi.

Boshqacha aytganda, hayotning o'zi bu eng to'g'ri yo'l ekanini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham kelgusi besh yilda yana 72 ta shunday korxonani birja savdolari orqali «nol» qiymatida investorlarga sotib, xususiy yoki aksiyadorlik jamiyatlari shakliga o'tkazish mo'ljallanmoqda.

* * *

Biz O'zbekistonda investitsiya siyosatini olib borishda ba'zilarga o'xshab oson yo'lni qidirmadik. Ya'ni, chetdan qarz olishda yetti o'lchab, bir kesdik, ichki bozorni turli-tuman mollar bilan to'ldirishga zo'r berib, olingan kreditlarni, valuta mablag'larini ayrim davlatlarga o'xshab qisqa muddatda yeb bitirganimiz yo'q.

Biz, aksincha, eng og'ir, eng qiyin, lekin kelajagi bor yo'lni tanladik. Investitsiyalarni, avvalambor, iqtisodiyotimizni tubdan o'zgartirishga, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi zamonaviy sanoat korxonalarini barpo etishga yo'naltirdik. Va bugun

ana shunday uzoqni ko'zlagan ishlarimiz qanday yuksak samara berayotganini hammamiz ko'rib turibmiz.

* * *

Buxoro viloyati misolida oladigan bo'lsak, bu yerda keyingi yetti yilning o'zida 9 milliard 500 million dollar hajmida investitsiya kiritildi. Bu raqamlarni kimdir biladi, kimdir bilmaydi. Kelgusi besh yilda 7 milliard 800 million dollardan ortiq investitsiya jalb etish hisobidan bir qancha yirik loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Bugun hayot chindan ham juda tez o'zgaryapti. Bir faraz qiling, ilgari Buxoro viloyati uchun million dollar ajratiladi, desa, bu raqamlarning o'zi odamni hayratga solardi. Hozirgi kunda esa, Buxoro viloyatiga, aytaylik, kelgusi besh yilda qariyb 5 million dollar ajratish va uni shu yerda yangi korxonalar qurish, ularni modernizatsiya qilish uchun sarflash haqidagi gap bizga oddiy hol bo'lib tuyuladi. Sizlarga qaragam, mana, sizlar ham bu gapdan hayratda qolmayapsiz. Go'yo bularning hammasi o'z-o'zidan bo'layotgandek. Balki bunday kayfiyat sizlarning qadr-qimmatingiz, o'z kuchingizga bo'lgan ishonchingiz ortib borayotganidan dalolat berar, lekin, baribir, mana shunday imkoniyatlarning qadriga yetish, kechagi hayotni bugungi hayot bilan solishtirish kerak.

Buxoro viloyatida amalga oshiriladigan yirik investitsiya loyihalari haqida gapiradigan bo'lsak, quyidagi misollarga e'tibor berishingizni so'rardim.

Shu yilning o'zida Qandim va Shimoliy Shodi konlarida yiliga 2 milliard 200 million kub metr hajmida

gaz qazib olish bo'yicha amaliy ishlar boshlanadi. Ayni vaqtda biz bu yerda yangi zamonaviy kompleks, ya'ni Qandim gazni qayta ishlash majmuasini bunyod etishga kirishganimizni sizlarga ma'lum qilmoqchiman.

Shular qatorida 2018-yilda Qumli konida kompressor stansiyasi qurish, Uchqir konida gazdan propanbutan olish, gazni tozalash asosida oltingugurt ishlab chiqarish bo'yicha muhim loyihalar yakuniga yetkaziladi. 2019–2021-yillarda esa katta hajmdagi investitsiyalar hisobidan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi tubdan rekonstruksiya va modernizatsiya qilinadi.

* * *

Buxoro viloyatida o'tgan 2014-yilda 74 mingdan ziyod ish o'rni yaratilgani, eng muhimi, keyingi yillarda biz juda jiddiy ahamiyat berayotgan kollej bitiruvchilaridan 23 ming 600 nafarini zamonaviy ish o'rinlari bilan ta'minlaganimiz alohida e'tiborga loyiq. Nafaqat iqtisodiy, avvalambor, siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan bu vazifa, ya'ni odamlarning, ayniqsa, yoshlarning taqdirini, kelajagini hal qiladigan, ularni turli noma'qul, xatarli yo'llardan asraydigan bu masalaga e'tiborni yanada kuchaytirish, shu ishga mutasaddi bo'lgan rahbar va xizmatchilarning mas'uliyatini oshirish, bir so'z bilan aytganda, bu masala doimiy kun tartibida turishi zarur.

Ayni shu muammoning to'g'ri yechimini topish, har qaysi odamning kuch-imkoniyati va qobiliyatiga yarasha ish topib berish, shu orqali ularni daromad bilan ta'minlash hisobidan xalqimiz, avvalo, qishloqda

yashaydigan aholini hayotdan rozi qilish, ertangi kunga ishonchini mustahkamlash mumkin.

* * *

Barchamiz, avvalambor, katta-kichik rahbarlar bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim. Har qaysi oiladagi farovonlik, yurtdoshlarimizning hayotga bo'lgan munosabati, pirovard natijada butun jamiyatimizning barqarorligi, avvalo, odamlarimizning qanday ish bilan ta'minlangani, o'z mehnatiga yarasha munosib maosh olishiga bog'liqdir.

* * *

Aziz do'stlar, o'zingiz yaxshi tushunasiz, inson hayoti, uning sog'lig'i bebaho boylikdir. Bir odamni, birgina go'dakni og'ir kasallikdan asrab, hayotini saqlab qolishning o'zi shu sohaga sarflangan barcha-barcha mablag'larni to'la oqalaydigan, ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan eng ulug', eng savobli ishdir.

Biz nafaqat markazda, balki viloyat va tumanlarimizda ham sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, turli kasalliklarning oldini olish, onalar va bolalar salomatligini yaxshilash, inson umrini uzaytirishga qaratilgan bunday ezgu ishlarni davom ettirish uchun bundan buyon ham barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

* * *

Bugungi kunda demokratik, evolutsion taraqqiyot yo'lidan rivojlanish eng maqbul va samarali yo'l

ekanini hayotning o'zi isbotlamoqda. O'zbekiston ham ana shu yo'ldan bormoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish ham mana shu demokratiyaning muhim bir sharti bo'lib, demokratiyaning iqtisodiyotdagi ifodasi – bu bozor iqtisodiyoti. Bozor iqtisodiyoti – bu erkin bozor demakdir. Ya'ni, bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma narsani talab va taklif belgilaydi. Bu – bozorning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Iqtisodiyotda qachon inqiroz sodir bo'ladi? Qachonki, taklif oshib ketsa-yu, ehtiyoj kamaysa. Hozirgi global inqirozning ildizi ana shu masala bilan bog'liq. Bunday paytda ba'zi davlatlar qo'shimcha pul chiqarishga urinadi. Buning natijasida pulning qiymati, qadri pasayib ketadi. U oddiy qog'ozga aylanib qoladi.

Biz bu sohada dunyoda, yon-atrofimizda bo'layotgan o'zgarishlarni, albatta, bilishimiz zarur. O'zbekistonning mashhur besh tamoyilga asoslangan taraqqiyot yo'lini izchil davom ettirishimiz kerak... Biz ichki iqtisodiy siyosatimizda ham, tashqi iqtisodiy aloqalarimizda ham iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, uning mafkuradan xoliligini ta'minlash prinsipiga bundan buyon ham amal qilamiz.

* * *

Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish yuksak texnologiyalar, innovatsiyalarni talab qilishini biz o'zimizga yaxshi tasavvur qilamiz. Jahon tajribasi, yuksak darajada taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi

bu haqiqatni qayta-qayta isbotlamoqda. Misol uchun, AQSH, Xitoy, Yaponiya kabi davlatlar texnik va texnologik yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etish, yangi patentlar berish bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi.

Ana shu birgina misolning o'zi ham qaysi sohada bo'lmasin, hamisha yangilikka intilgan davlatlar taraqqiyotning eng cho'qqisida bo'lishini tasdiqlaydi. Bugun biz kimlar, qaysi mamlakatlar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar tashkil etishga intilmoqdamiz? Biz aynan yangilikka intiladigan, eng rivojlangan davlatlar bilan birga ishlashga harakat qilyapmiz.

Bugun shunday zamon keldiki, faqat bitta tarmoq hisobidan xalqni boqish, iqtisodiyotni rivojlantirish amrimahol. Faqat bir soha yoki tarmoqqa ishongan davlatning kelajagi shubha ostida qoladi. Agar, bir vaqtlardagi kabi, biz – agrar mamlakatmiz, deb, faqat paxta, g'alla yoki sabzavot yetishtirishga zo'r berib yashaydigan bo'lsak, bu – kaltabinlik bo'ladi. Bugungi kunda dunyo bozoridagi vaziyat, konyunktura shunday tez o'zgaryaptiki, biron narsani oldindan ko'rish, aytish o'zi murakkab bo'lib boryapti. Misol uchun, kecha paxta tolasining 1 tonnasi 2 ming 100 dollar baholangan bo'lsa, bugun uni 1 ming 200 dollardan sotish ham mushkul bo'lib qoldi. E'tibor bering, ikki yilda paxtaning narxi 900 dollarga tushib ketdi. Agar faqat paxtaga ishonib yuradigan bo'lsak, bu zararni nimaning hisobidan qoplaymiz? Bu masalaning qanday yechimi bor va uni kim yechadi?

Shu ma'noda, iqtisodiyotda biryoqlama siyosat olib borish, deylik, faqat qishloq xo'jaligiga bog'lanib qolish – xavfli holat.

* * *

Biz bundan ikki yil oldin viloyatning sanoat salohiyatini oshirish maqsadida «Jizzax» maxsus industrial zonasini tashkil etganimiz nafaqat Jizzax viloyati, balki butun mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ulkan qadam bo'ldi. Ushbu sanoat hududida qisqa muddatda zarur ishlab chiqarish tarmoqlari va infrazuzilmalari barpo etildi. Yaqin vaqt ichida bu yerda zamonaviy maishiy buyumlar, tikuv mashinalari, quyosh energiyasi uskunalari, energiya tejaydigan lampalar, mobil telefonlar, telekommunikatsiya tarmoqlari uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Eng asosiysi, bunday loyihalar kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarini bitirgan 750 nafardan ortiq yoshlarni ish bilan ta'minlash imkonini beradi.

Nafaqat iqtisodiy, kerak bo'lsa, ijtimoiy hayotimizning o'ta muhim belgisi, ko'rsatkichiga aylanib borayotgan ana shunday loyihalarni, avvalambor, viloyat yoshlarining bilim va malakasi, iste'dodi va mahorati, kuch-g'ayratiga tayanib amalga oshirayotganimiz o'g'il-qizlarimizning bugun biz orzu qilgan hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotganining yaqqol tasdig'idir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

* * *

Jahon tajribasi, mustaqillik yillaridagi o'z tajribamiz ko'rsatmoqdaki, aynan xususiy mulk insonda izlanish,

intilish va tashabbus uyg'otadi, erkin va badavlat yashash, shu tariqa mamlakat rivojiga hissa qo'shish uchun zamin tug'diradi.

* * *

Aytish kerakki, investitsiya masalasi – bu juda nozik masala. Bu borada oddiy, ayni paytda yechimi murakkab bo'lgan savollar ustida chuqur o'ylab ish olib borish lozim.

Mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab bizga mablag' berishga tayyor bo'lgan mamlakatlar ko'p bo'ldi. Lekin biz bu masalada hech qachon shoshilmadik, yetti o'lchab, bir kesdik.

Bu dunyo shundayki, birorta mamlakat boshqa davlatga bekordan bekorga, beg'araz pul, mablag' bermaydi. Avvalo, o'z manfaatini ko'zlaydi. Ayniqsa, biznes degani shunday nozik sohaki, foyda topishiga ko'zi yetmaydigan odam hech qachon bir joyga pul sarflamaydi.

O'zbekiston yer osti va yer usti boyliklarining ulkan zaxiralariga ega ekani hammaga yaxshi ma'lum. Bunga ko'z tikib, xaridor bo'lganlarning soni ham vaqtida juda ko'p edi. Lekin O'zbekistonning bu boradagi siyosati boshqalardan shu jihati bilan farq qildiki, bizga faqat mablag' emas, bizga zamonaviy texnologiyalar kerak, degan prinsip asosida siyosat olib bordik. Xorijlik hamkorlarimiz bilan shu yo'sinda muzokaralar qildik, otang yaxshi, onang yaxshi, deb ularni ko'ndirib, eng zamonaviy korxonalarni yurtimizga olib keldik.

Mana endi, ayni shunday oqilona siyosat olib borganimiz uchun, hech kimdan qarzimiz yo'q.

Biz xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikdagi loyihalarni chertib-chertib tanlaymiz, shundan keyin birgalikda ish olib boramiz.

* * *

Hammamiz yaxshi tushunamiz, kerak bo'lsa, har kuni matbuot, televizor orqali ko'ryapmiz, bugungi kunda ishsizlik masalasi butun dunyoda eng katta muammoga aylanib bormoqda. Hatto eng rivojlangan davlatlar, xususan, Yevropa mamlakatlarida ham buning ta'siri, alomatlari yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Yevropadagi yetakchi mamlakatlarda 8–9 foiz, ba'zilarida esa hatto 20 foizgacha odam ishsiz ekani kuzatilmoqda.

Shundan xulosa qilgan holda, biz bu borada muntazam ravishda ish olib borishimiz, odamlar uchun barqaror daromad manbai, munosib ish o'rinlarini yaratib berish masalasi doimiy e'tiborimiz markazida turishi zarur.

Bugungi kunda shu yo'lda xolisona xizmat qilib – bu o'z xususiy korxonasini ochib yoshlarni ishga olayotgan tadbirkorlar bo'ladimi, ularga kasb-hunar o'rgatayotgan ishbilarmonlar bo'ladimi, bu ishlarga bosh-qosh bo'layotgan mutasaddi rahbar va xodimlar bo'ladimi – bunday ezgu vazifaga munosib hissa qo'shayotgan barcha insonlarning har biriga rahmat aytishga va ularga kerakli yordamni berishga biz bundan buyon ham tayyormiz.

* * *

Kollejlarni bitirgan bolalarni ishga joylashtirish majburiyatini, mana, bugun davlatimiz o'z zimmasiga olyapti. Hozirgi kunda biz viloyat va tuman hokimlarining faoliyatiga ana shu masalani o'z hududida qanday hal qilayotganidan kelib chiqib baho beryapmiz. Yoshlarimizning barchasini teng ko'rish, ularning boy va kambag'alning bolasiga ajralib qolishiga yo'l qo'ymaslik, o'qishni bitirgach, har birini ishga joylashtirish davlat va jamiyatning, ota-onalar va hammamizning burchimiz.

* * *

Ma'lumki, Namangan zamini qadimdan to'qimachilik, poyabzal tikish, temirchilik, ganchkorlik, duradgorlik, o'ymakorlik bilan shug'ullanadigan mohir hunarmandlari, ustaxona va do'konlari bilan butun mintaqamizda mashhur bo'lgan. Ishbilarmonlik, tadbirkorlikning bunday noyob an'ana va sirlari Namangan ahlining qon-qonida bo'lib, avloddan avlodga o'tib kelayotganini hurmat bilan ta'kidlash o'rinlidir.

* * *

Namangan viloyatida ilgari davlat korxonasi va obykti hisoblangan, keyingi yillarda xususiy yoki korporativ mulk shakliga o'tkazilgan 70 ta korxonada rentabellik oshgan. Nega deganda, xususiy korxonalarida moddiy manfaatdorlik tuyg'usi, o'z mulki, o'z mehnatining pirovard natijasi uchun kuyunish hissi kuchli bo'lishi hammaga ma'lum. Shuning uchun ham

yaqin besh yilda yana 190 ta korxonada davlat ulushini kamaytirib, ularni xususiy tadbirkorlik subyektlariga berish mo'ljallanayotgan ekan, bu harakatni faqat qo'llab-quvvatlash kerak.

* * *

Bugungi kunda har qanday xalq va davlatning hayot va taraqqiyot darajasini ko'rsatadigan muhim omillardan biri – bu iqtisodiyotning qon tomiri bo'lgan zamonaviy transport-kommunikatsiya tarmoqlari ekani hech kimga sir emas.

Bu borada biz uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan «Angren – Pop» yo'nalishi bo'yicha yangi temiryo'l tarmog'ining foydalanishga topshirilishi yiliga 20 million tonnadan ortiq yuk tashish va tranzit hisobidan 140 million dollar mablag'ni tejash imkonini beradi.

Albatta, bu yo'lning strategik, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati haqida yana ko'p gapirish mumkin. Lekin eng muhimi, bu yo'l Farg'ona vodiysi, jumladan, Namangan viloyatidagi ming-minglab yurtdoshlarimizning uzoq'ini yaqin, og'irini yengil qilishga xizmat qiladi.

* * *

Bepoyon Qizilqum bag'ridagi qazilma boyliklarni – bu oltin, kumush, uran, temir yoki tabiiy gaz bo'ladimi, neft yoki mineral tuzlar bo'ladimi – bularning barchasini sanaydigan bo'lsak, ro'yxatning oxiri ko'rinmaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan rangli metallarning asosiy qismi, sementning 45 foizi, mineral o'g'itlarning 30 foizi, elektr energiya-

sining 16 foizi aynan Navoiy viloyati hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotimizning lokomotivi bo'lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinatining iqtisodiy salohiyatini saqlab qolish, uni el-yurtimiz manfaatlarini yo'lida ishlatish uchun mustaqillikning dastlabki yillarida – o'ta og'ir va murakkab davrda sizlar bilan birga qanday katta ishlarni amalga oshirganimizni, o'ylaymanki, ko'pchilik yaxshi biladi. Shular qatorida Navoiy azot zavodi, sement korxonasi, Zarafshon va Uchquduqdagi oltin, uran va boshqa yirik korxonalar haqida ham uzoq gapirish mumkin.

Navoiy viloyatining ulkan iqtisodiy va tranzit imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanish maqsadida xorijlik hamkorlarimiz bilan birgalikda, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi va xalqaro transport logistika markazini tashkil etganimiz, iqtisodiyotimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishda to'g'ri va samarali yo'l bo'lganini bugungi kunda hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda.

* * *

Bir paytlar O'zbekistonda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hammasi bo'lib 14 foizni tashkil qilardi. Bugungi kunda ushbu ko'rsatkich 25 foizni tashkil qilmoqda. Ya'ni, tarixan qisqa davrda biz sanoatning jadal sur'atlar bilan barqaror o'sishiga erishmoqdamiz.

Ana shu fikrlarning amaliy tasdig'ini Samarqand viloyati misolida ko'radigan bo'lsak, keyingi yillarda

bu yerda jahondagi nufuzli firma va kompaniyalar bilan hamkorlikda ichki bozorda ham, tashqi bozorda ham raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan 100 dan ziyod zamonaviy korxonalar tashkil etilganini ta'kidlash lozim.

Ayniqsa, Germaniyaning «MAN Auto» kompaniyasi bilan hamkorlikda Jomboy tumanida qurilgan yirik zavodda tayyorlanayotgan mashinalar ko'pchilikka yaxshi ma'lum. Yiliga 4 ming 600 ga yaqin yuk avtomobili va 1 ming 350 dan ortiq pritsep ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bu qo'shma korxonada bugungi kunda 600 nafarga yaqin yoshlar mehnat qilmoqda. O'zimizning bolalarimiz mana shunday murakkab texnologiyaga asoslangan korxonani mohirlik bilan boshqarib, yuksak sifatli zamonaviy mahsulot ishlab chiqarayotgani, shaxsan meni juda quvontiradi.

Samarqand shahridagi yana bir yirik avtomobil zavodi – «Samavto» korxonasida keyingi uch yilda modernizatsiya ishlari olib borilib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2008-yilga nisbatan 1,5 barobar oshirildi. Hozirgi kunda 1000 dan ziyod kishi mehnat qilayotgan bu zavodda besh xil rusumdagi avtobuslar, 8 turdagi yuk avtomobillari, 35 xil kuzovlar ishlab chiqarilmoqda.

Viloyatda ana shu ishlarni izchil davom ettirishga qaratilgan o'nlab loyihalarni amalga oshirish belgilanmoqda va tabiiyki, bularning barchasi Samarqandning iqtisodiy salohiyatini oshirishga, aholi turmushini farovon qilishga xizmat qiladi.

* * *

Azal-azaldan hunarmandlik, tadbirkorlik va uddaburonlik fazilatlari bilan nom qozongan, ishning negizini biladigan Samarqand ahli kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojida e'tiborga loyiq natijalarga erishmoqda. Bugungi kunda viloyatda 13 mingga yaqin kichik biznes subyekti faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 77 foizni tashkil etmoqda. Mehnat bilan band aholining 84 foizi, ya'ni 1 million 170 mingdan ziyod kishi ayni shu sohada mehnat qilayotganini alohida ta'kidlash lozim.

* * *

Investitsiya, chetdan qarz olish borasida bir maqolni olib kelsak, o'rinli bo'ladi: «Biror joyga kirishdan oldin chiqishni o'ylash kerak». Ya'ni, qarz olishdan oldin qaytarishni o'ylash zarur.

* * *

Biz Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib «Toshkent – Samarqand» yo'nalishida yuqori tezlikda harakatlana-digan «Talgo» poyezdi qatnovini yo'lga qo'ydik. Mana shu ulkan loyihaning o'zi odamlarga qulaylik yaratish, ularning vaqtini tejash, uzog'ini yaqin qilish bilan birga xalqimizning hayot darajasi qanchalik oshgani-ning yorqin namunasi bo'ldi, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz.

* * *

Sirdaryo viloyati sanoatidagi yirik korxonalar haqida gapirganda, avvalo, mamlakatimizda ishlab

chiqarilayotgan elektr quvvatining qariyb uchdan bir qismini yetkazib berayotgan Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasini tilga olish o'rinlidir. Keyingi yillarda ana shu yirik majmuada 60 million dollar investitsiya hisobidan ikkita energiya bloki modernizatsiya qilinishi uning ishlab chiqarish quvvatini oshirishga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Viloyatda sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishga yuqori texnologiyalarni joriy etish va import o'rmini bosadigan, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, Sirdaryoda «Jizzax» maxsus industrial zonasining hududiy filiali tashkil etilgani, viloyat iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan o'zgartirishga yangi qudratli turtki berdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

* * *

Mana, aholimiz soni tobora o'sib boryapti, ming-minglab farzandlarimiz hayotga kirib kelyapti, ularning talab va ehtiyojlari ham tobora ortib bormoqda. Lekin yerimiz, suv resurslarimiz ko'payayotgani yo'q. Shularning barchasini e'tiborga olgan holda, yangi-yangi sanoat korxonalarini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini keng rivojlantirish hisobidan zamonaviy ish o'rinlarini ko'paytirish vazifasi doimo kun tartibida turishi, bu borada mutasaddi rahbar va xodimlarning tashabbus va izlanuvchanligini, mas'uliyatini oshirishimiz shart.

* * *

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikning mustahkam tayanchi bo'lgan o'rta sinf sifatida maydonga chiqayotgani, hech shubhasiz, bizning eng katta yutug'imizdir. Lekin shu bilan birga, sir emaski, ba'zan tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish, ularning yo'liga turli sun'iy to'siqlar qo'yish bilan bog'liq holatlar, afsuski, hali-beri uchrab turibdi.

Bunday holatlarni tag-tubi bilan yo'qotish, ishbilarmonlik va tadbirkorlik uchun yanada keng yo'l ochib berish, davlatimiz tomonidan yaratib berilgan imkoniyat va imtiyozlarni amalda joriy etish uchun, avvalambor, vazifada o'tirgan mansabdorlar, huquq-tartibot va nazorat idoralarining mas'uliyatini oshirish zarur. Chunki bu nafaqat iqtisodiy, kerak bo'lsa, siyosiy masaladir.

* * *

Surxondaryoda amalga oshiriladigan yirik loyihalar haqida gapirganda, xalqaro standartlarga javob beradigan 336 kilometrlik avtomobil yo'llarini barpo etish, xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan «Qarshi – Termiz» avtomobil yo'lini rekonstruksiya qilish belgilanganini aytish lozim.

2017-yilda yana bir yirik loyiha – «Qarshi – Termiz» temiryo'l tarmog'ini elektrlashtirish nihoyasiga yetkaziladi va buning natijasida yuk tashish xarajatlari o'rtacha 20 foizga kamayib, yo'lovchi va yuk tashish tezligi 1,5 barobar oshadi.

* * *

Mamlakatimizning boshqa mintaqalari kabi Toshkent viloyatida ham mavjud katta iqtisodiy salohiyat, yer osti va yer usti boyliklaridan el-yurtimiz, avvalo, shu yerda yashayotgan insonlar manfaati yo'lida yanada samarali foydalanish, ana shu vazifalarni hal qilish uchun barcha imkoniyatdan foydalanib, zamonning o'zi talab qiladigan eng zamonaviy korxonalarini qurish, rivoj topgan davlatlarga o'xshab, avvalo, sanoat sohasini taraqqiy toptirish – bugungi kunda eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Bu yerda yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo va neft-kimyo, qurilish industriyasi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha iqtisodiyotimizning lokomotivi bo'lgan yirik ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga e'tibor berilmoqda.

Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Bekobod shahridagi O'zbekiston metallurgiya kombinati rekonstruksiya qilinganini, 40 dan ziyod turdagi mineral o'g'itlar va boshqa turdagi kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarishga moslashgan «Maksam-Chirchiq» korxonasi nafaqat mamlakatimizda, balki butun mintaqamizda o'z mahsulotlari bilan ma'lum va mashhur ekanini aytish lozim.

Amerika Qo'shma Shtatlarining dunyoda ko'zga ko'ringan «Jeneral motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda barpo etilgan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hududida noyob bo'lgan, avtomobil dvigatellari ishlab chiqaradigan zamonaviy zavod taraqqiyotimiz yo'lida,

avvalambor, minglab yoshlarimiz oldida yangi ufq va imkoniyatlarni ochib bergani bilan hurmatga sazovordir.

Mamlakatimizda barpo etilgan va barpo etilayotgan mana shunday zamonaviy korxonalarda O'zbekistonning kelajagi yaratilmoqda. Mana shunday korxonalar, mana shunday yoshlar bizning kelajakka katta ishonch bilan qarashimiz uchun mustahkam zamin tug'dirmoqda, desam, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Haqiqatan ham shunday. «Jeneral motors» bilan hamkorlikda qurgan zavodimizda bo'lganda, odam hayratda qoladi. Institutni bitirgan yosh yigitlar kompyuterlashtirilgan avtomatik liniyalarda ishlayapti. Bu ish sizlarni har tomonlama qiziqtiradimi, deb so'rasangiz, ular, hech ikkilanmasdan, bunday ish qiziqtirmasa, yana qanday ish qiziqtirishi mumkin, deb javob beradi. Biz yosh avlod tarbiyasida nimalarga erishganimizni shu misolning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi.

* * *

Toshkent viloyatida «Angren» maxsus industrial zonasini tashkil etganimiz nafaqat voha rivojida, balki butun sharqiy mintaqalarimiz taraqqiyotida ham muhim rol o'ynamoqda. Bugungi kunda ushbu maxsus industrial zonada xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda ko'pgina yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Men bu haqda uzoq gapirmasdan, faqat ularning bittasi haqida aytib o'tmoqchiman. Bu yengil avto-

mobillar va qishloq xo'jaligi texnikalari uchun shinalar va konveyer lenta ishlab chiqarishga qaratilgan, qiymati qariyb 184 million dollarga teng bo'lgan yirik loyiha bo'lib, hozirgi kunda uni amalga oshirish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar olib borayotganimiz, ayniqsa, katta ahamiyatga ega.

* * *

Aynan xususiy mulk insonda izlanish, intilish va tashabbus uyg'otadi, erkin va badavlat yashash, shu tariqa mamlakat rivojiga hissa qo'shish uchun zamin tug'diradi. Hayotning o'zi bu boradagi ishlarni yanada izchil davom ettirishni talab etmoqda. Shu ma'noda, kelgusi ikki yilda Toshkent viloyatida 254 ta korxonada davlat ulushi kamaytirilib, xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilishi qanday katta ahamiyatga ega ekanini, albatta, barchamiz yaxshi tushunamiz.

* * *

Toshkent vohasining saxovatli zaminida topilmaydigan tabiiy boylikning o'zi yo'q, desak, mubohlag'a bo'lmaydi. Viloyatda rivojlangan ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalar mavjud. Eng muhimi, bu yerdagi yuksak intellektual salohiyat, hayot sinovlarida toblangan, ishning negizini biladigan, mehnatkash insonlar bilan har qanday murakkab va ulkan loyihalarni amalga oshirish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 10 foizi, ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 45 foizi, po'lat va metall prokatning 100

foizi, rangli metallarning asosiy qismi aynan Toshkent viloyatining hissasiga to'g'ri kelayotgani ham bu yerda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun qanday qulay muhit yaratilganini tasdiqlaydi.

O'tgan davrda viloyat bo'yicha birgina yengil sanoat sohasida eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan 19 ta yangi quvvat ishga tushirilgani, 162 tadan ziyod yangi korxonalar tashkil etilib, 66 ta korxonalar esa modernizatsiya qilingani, eng asosiysi, 16 mingta yangi ish o'rni yaratilgani «Investitsiya – bu taraqqiyot garovi» degan haqiqatning amaliy ifodasi, desak, xato bo'lmaydi.

* * *

Tadbirkorlarga yaratib berilayotgan imtiyoz va keng imkoniyatlar natijasida Toshkent shahri aholisiga ko'rsatilayotgan xizmat turlari kengaymoqda. Ayniqsa, mobil aloqa, yuqori tezlikda ishlaydigan internet, kabelli telealoqa, elektron shakldagi bank xizmatlari kabi yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy xizmat turlari tobora ommalashib bormoqda.

Nafaqat Toshkent shahrida, balki butun O'zbekistonimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni dunyoning rivojlangan mamlakatlari, birinchi navbatda, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda yanada rivojlantirish masalasi bizning doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

* * *

Dunyo bozori bugungi kunda to'liq bo'lib olingan. Bu bozorning egalari kimlar ekanini yaxshi bilasiz.

Ular o'z bozoriga begonani kiritmaydi, kiritsa ham, og'ir shartlarni qo'yadi. Dunyo bozoriga chiqishning eng ma'qul yo'li chet ellardagi eng yirik va nufuzli firma va kompaniyalar bilan yaqindan hamkorlik qilib, qo'shma korxonalar tuzish hisoblanadi. Biznes olamida eng katta muammo nimada, deb so'rasangiz, mahsulot ishlab chiqarish emas, balki uni sotish, sotish, yana bir bor sotish, xaridor topish, deb aytgan bo'lardim. Qo'shma korxonalar bizga tashqi bozorga yo'l ochadi va biz ishlab chiqargan mahsulotni sotishda qiynalmaymiz.

* * *

Toshkent shahrida so'nggi yetti yilda 60 milliard 500 million so'm miqdorida investitsiya jalb qilinib, 8 ta ko'ptarmoqli shifoxona va oilaviy poliklinika qurildi, 9 ta shifo maskanida rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi.

Poytaxtdagi Ko'z mikroxirurgiyasi, Urologiya, Kardiologiya va Xirurgiya kabi ixtisoslashgan tibbiy markazlar nafaqat shahar aholisi, balki butun xalqimiz salomatligini mustahkamlashga katta hissa qo'shmoqda.

Bu markazlarda yuksak texnologiyalar asosida ultratovushli, lazer nuri bilan davolash, ko'krak qafasini ochmasdan, yurak-qon tomirlarini davolash kabi murakkab tibbiy operatsiyalar amalga oshirilayotgani-ning o'zi qancha-qancha yurtdoshlarimizga chet ellarga borib ovora bo'lmasdan, o'zimizda dardiga davo topish imkonini bermoqda.

Shuning hisobidan minglab odamlar shifo topib, oilasi bag'riga, jamoasiga qaytib kelganini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, el-yurtimizni, aholimizni rozi qilish uchun qanday katta savobli ishlarni ado etayotganimiz ayon bo'ladi.

Bizning maqsadimiz eng rivojlangan davlatlardan zamonaviy asbob-uskunalarni olib kelish va o'zimizda eng murakkab operatsiyalarni amalga oshirishdan iborat ekani haqida men ilgari ham ko'p aytganman. Bunday asbob-uskunalarni sotib olish emas, ishlatish muhim. Shifo istaganlarni, farzandlarimizni, qariyalarimizni Germaniya yoki Janubiy Koreyaga yubormasdan — bilasiz bu qancha mablag' va ovoragarchilik degani — o'zimizda davolab, og'irini yengil qilishimiz kerak. Shunda ular hayotdan, bizdan rozi bo'ladi, qancha-qancha duo olamiz. Bu borada ham maqsadni, marrani baland qo'yishimiz lozim. Toki Germaniya va Janubiy Koreyadan shifo istaganlar endi bizga kelsin, bizning klinikalarimizda o'zlariga davo topsin!

Shuning uchun ham bu yo'ldagi ishlarimizni hech qachon susaytirmasdan, yangi bosqichda davom ettiramiz.

* * *

Ma'lumki, «Oltin vodi» deb nom olgan go'zal mintaqaning yuragi bo'lgan Farg'ona viloyati o'zining yer osti va yer usti boyliklari, rivojlangan sanoat va kommunikatsiya tarmoqlari, boy mehnat resurslari bilan mamlakatimiz taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. Butun yurtimizda bo'lgani kabi bu hududda ham keyingi

yillarda barqaror o'sish sur'atlari ta'minlanib, turli sohalarda salmoqli natijalarga erishilmoqda.

* * *

Bu zalda o'tirganlarning ko'pchiligi yaxshi eslaydi, biz yangi tariximizning o'ta murakkab bir davrida mamlakatimiz uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan Qamchiq dovonida zamonaviy avtomobil yo'lini bunyod etishga erishdik. Aytish kerakki, bu yo'l Farg'ona vodiysi viloyatlarini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Hozirgi kunda bu yo'ldan kuniga 20 ming avtomobil qatnamoqda, yiliga 103 million tonna yuk tashilmoqda.

Shu borada yana bir o'ta muhim loyiha – 123 kilometrlik «Angren – Pop» elektrlashtirilgan temiryo'l tarmog'i qurilishi jadal olib borilayotganidan barchangiz xabardorsiz. Bu temiryo'lning 19 kilometri dengiz sathidan 1 ming 465 metr balandlikda joylashgan murakkab tog' tizmalarini kesib o'tadigan tonneldan iborat. Bu O'rta Osiyoda va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida eng uzun zamonaviy tunnel hisoblanib, dunyo miqyosida esa 13-o'rinda turadi.

Ushbu temiryo'l Yevropa bilan Osiyo qit'alarini o'zaro bog'laydigan transmilliy transport yo'lagingining o'ta muhim uzviy bo'g'iniga aylanadi. Shu tariqa Toshkentdan Farg'ona vodiysi viloyatlariga yuk tashish vaqti 2 barobar qisqaradi, yuk tashish tariflari, ya'ni qimmatligi esa salkam to'rt marta kamayadi. Yana bir muhim jihati – 1,5 mingdan ortiq yangi ish o'rnini yaratiladi.

* * *

Xorazm viloyati o'zining iqtisodiy salohiyati, mehnat resurslari, intellektual va ma'naviy imkoniyatlari bilan mamlakatimiz rivojida muhim o'rin tutishini qayd etish joiz.

Viloyatda so'nggi yillarda barqaror rivojlanish sur'atlari ta'minlanib, yalpi hududiy mahsulotning 1,8 barobar, sanoat mahsulotlari hajmining 2,3 marta o'sishiga erishildi. Boshqacha aytganda, bu borada viloyat mamlakatimizning o'sish sur'atlari bilan hamqadam bo'lib borayotganini ta'kidlash lozim.

* * *

Tadbirkorlikni izchil rivojlantirish maqsadida yaratilayotgan imtiyoz va preferensiyalar Xorazm viloyatida ham o'zining amaliy samaralarini bermoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi qariyb 74 foizni tashkil etmoqda. Ish bilan band aholining 79 foizdan ortig'i yoki 540 mingga yaqin kishi ushbu sohada mehnat qilmoqda.

Agar bu raqamlarni mamlakatimiz ko'rsatkichlari bilan solishtiradigan bo'lsak, Xorazmda bu borada e'tiborga loyiq natijalarga erishilgani ayon bo'ladi.

Bunga to'liq baho beradigan bo'lsak, buning ortida ming-minglab odamlarning roziligi va minnatdorligi yotganini hisobga olsak, adolatdan bo'ladi.

* * *

O'zingiz faraz qiling, biz o'z vaqtida xususiy mulk rivojiga ustuvor masala deb qaramaganimizda, kichik

biznes va tadbirkorlik sohasi uchun qulay sharoitlar yaratib bermaganimizda, shu asosda ming-minglab korxonalar tashkil qilmaganimizda, mehnatga yaroqli aholining 75 foizi, avvalambor, yoshlarimizni qanday ish bilan band qilar edik? Ma'lumki, katta-katta zavodlar barpo etish hisobidan bu muammoni hal etib bo'lmaydi. Nega deganda, bunday korxonalarining faoliyati avtomatlashtirilgan va ko'proq texnika kuchi bilan bog'liq bo'ladi. Korxonalar qanchalik yirik bo'lmasin, asosiy ishni texnika bajaradi.

Kichik biznesda esa harakatlantiradigan, unga kuch-quvvat beradigan omil – bu, birinchi navbatda, inson, uning tashabbuskorligi. Tashabbus bo'lmagan joyda kichik biznes o'ladi.

Agar tashabbus bo'lmasa, yangi tashkil etilgan korxonalar bozordagi talab va taklif tez o'zgarayotgan bugungi kunda bir yil, oshib borsa, bir yarim yil yashaydi, keyin tamom, faoliyatini to'xtatishga majbur bo'ladi. Nega deganda, uning mahsulotlarini bozorning o'zi qabul qilmay qo'yadi.



Shuning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni zamon talablari asosida taraqqiy ettirish O'zbekiston uchun doimo hal qiluvchi o'rinda bo'lib qoladi.

* * *


Bugun bizning demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, zamonaviy iqtisodiyot tizimini barpo etish, dunyoda o'zimizga munosib o'rin egallash yo'lida erishayotgan yutuqlarimizni va barqaror natijalarimizni jahon jamoatchiligi tan olayotgan ekan, buning boisi nimada, degan tabiiy savol tug'iladi.

Buning boisi – avvalo, el-yurtimizning qanday boy tarix va madaniy-ma'naviy merosga ega ekanida, uning intellektual salohiyati va ildizlari naqadar chuqur ekanida, xalqimizning o'z oldiga qo'ygan yuksak maqsadlarga erishish yo'lida qanday buyuk ishlarga qodir ekanidadir.

Buning boisi – biz hech qachon hech kimdan kam bo'lmaganmiz va ezgu maqsad-muddaomiz bo'lmish erkin, ozod va obod hayot bunyod etishda ham hech kimdan kam bo'lmaymiz.



**QISHLOQ TARAQQIY TOPSA,
YURTIMIZ OBOD, HAYOTIMIZ
YANADA FAROVON BO‘LADI**



THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY
540 EAST 57TH STREET
CHICAGO, ILL. 60637

Barchamizning ildizimiz, tomirimiz avvalambor qishloq zaminiga borib taqaladi. Ona Vatan degan ulug' va muqaddas tushuncha odamzod uchun go'yoki qishloq timsolidan boshlanadi.

... Xalqimizning rizqi ro'zi, nasibasi avvalo dalalarimizda zahmatkash dehqonlarimiz tomonidan yetishtiriladigan mahsulotlar, oziq-ovqat va noz-u ne'matlar bilan o'lchanadi. Lo'nda qilib aytganda, har bir ongli inson qaysi joyda, yurtimizning qaysi chekkasida yashamasin, albatta o'zining, oilasining hayoti qishloq zamini bilan chambarchas bog'langanini sezishi, tushunishi tabiiy deb o'ylayman.

* * *

Vatanimiz taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyati beqiyos bo'lgan qishloq ahlining hayotini zamonaviy mezonlarga javob beradigan darajaga ko'tarish va umuman, qishloq xo'jaligi sohasi rivojiga rivoj qo'shish, uning samaradorligini oshirish bugungi kunda eng dolzarb, hayotning o'zi talab qilayotgan muhim bir vazifaga aylanmoqda.

* * *

Yurtimizning yanada obod, xalqimiz hayotining yanada farovon bo'lishi va oldimizda turgan yuksak vazifalarning bajarilishi, hech shubhasiz, qishloqlarimizning taqdiri va kelajagi bilan bog'liq.

* * *

Yerni qancha qadrlab, qancha e'zozlasak, u bizga shuncha ko'p rizq-u nasiba va ne'mat beraveradi.

* * *

Biz yerga qanchalik mehrlil, saxovatli bo'lsak, yer ham bizga shunchalik saxovat ko'rsatadi. Chunki Sharqda azaldan yaxshilikka yaxshilik bilan, saxovatga saxovat bilan javob berish elning ham, erning ham, yerning ham udumi bo'lgan.

* * *

Men o'zbek dehqonining mehnati – bu haqiqiy qahramonlikdir, deb aytishdan hech qachon charchamayman.

O'zbek dehqoniga teng keladigan zahmatkash va mirishkor insonlarni dunyoda topishning o'zi qiyin.

* * *

Qishloq xo'jaligini tubdan o'zgartirish – butun hayotimizni o'zgartirish demakdir.

* * *

Oldimizda turgan muhim vazifalardan biri – bu yerimiz, tuprog'imiz unumdorligini doimiy ravishda oshirish bilan bog'liq ekani barchamizga yaxshi ayon. Bu maqsadga erishish uchun yerning meliorativ holatini yaxshilashdek o'ta dolzarb masalalarga e'tiborni yanada kuchaytirish talab etiladi. Ya'ni, yer dehqonni boqadi, dehqon esa elni boqadi, degan hikmat hamisha diqqatimiz markazida turishi, qishloq xo'jaligi sohasidagi faoliyatimiz mezoniga aylanishi darkor.

* * *

Bugun hech kimga sir emas, barchamizning rizq-u ro'zimiz, qishloq xo'jaligimizning rivoji yerimiz, tuprog'imiz unumdorligiga, avvalambor, uning sho'rlanishini pasaytirishga bog'liq. Agar 6 yil oldin – 2009-yilda mamlakatimiz miqyosida yerlarimizning meliorativ holatini yaxshilashga qaratilgan, juda katta mablag'ni talab qiladigan maxsus loyihani amalga oshirishni boshlamasak, bugungi kunda yerlarimiz qanday holatda bo'lar edi?

Buni o'zimizga tasavvur qilish qiyin emas. Yana bir shartni tushunib olishimiz darkor. Bunday ulkan, juda katta sarmoya va maxsus texnikani o'ziga talab qiladigan loyihani xo'jaliklar yelkasiga yuklab qolmasdan, bu ishni faqatgina davlat o'z zimmasiga olishi zarurligini barchamiz anglab oldik.

* * *

O'zbekistonda 4 million 300 ming gektar sug'oriladigan yer bor. Uning katta qismi – 80–85 foizi sho'rlangan, 60 foizi kuchli darajada sho'rlangan. Biz trillion-trillion, milliard-milliard so'm mablag'larni shu muammoni yechishga sarflamaganimizda, aytinglar, nimaning hisobidan o'zimizni boqar edik? Eng muhimi, biz bu borada ushbu muammoni xo'jaliklarning o'zi hal qilsin, degan noma'qul qarashga mutlaqo chek qo'yishga harakat qildik. Haqiqatan ham, katta-katta mablag'larni, eng zamonaviy texnikani talab qiladigan bu ishni xo'jaliklar o'zicha hal qila oladimi? Albatta, yo'q. Shuning uchun ham biz bu borada, avvalo, ey, baraka topkur, bunday ulkan loyihalarni faqatgina

davlatning kuchi, qo'llab-quvvatlashi bilan amalga oshirish mumkin, deb, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirishga erishdik.

* * *

Qoraqalpog'iston Respublikasida keyingi yillarda davlat budjetidan ajratilgan 132 milliard so'm hamda 60 million dollarlik xorijiy investitsiyalar hisobidan 300 ming gektardan ziyod yerning, ya'ni respublikadagi qariyb 60 foiz sug'oriladigan maydonlarning meliorativ holati yaxshilandi. Buning natijasida o'rta-cha hosildorlikni paxta bo'yicha ikki sentnerga, g'alla bo'yicha uch sentnerga oshirishga erishildi. Agar bu raqamlarni ming-ming gektar miqyosida hisoblaydigan bo'lsak, ana shu ishlarimizning salmog'i va samarasi yaqqol ayon bo'ladi...

* * *

Mamlakatimiz bo'yicha kelgusi besh yilda yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga 1 trillion 860 milliard so'm, irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish uchun 3 trillion 144 milliard so'm va 584 million dollarlik xorijiy investitsiyalarni yo'naltirish rejalashtirilgani bu masala doimo e'tiborimiz markazida bo'lib qolishini ko'rsatadi.

Buxoro dehqonlari qanday og'ir va murakkab iqlim sharoitida mehnat qilishini barchamiz yaxshi bilamiz. Ekin maydonlarining aksariyat qismi kuchli sho'rlangan, yozning jazirama issig'i, garmsel va qum bo'ronlari – bunday sinovlarga hamma ham chidolmaydi. Buxoroning mirishkor dehqonlari ana shunday qiyin-

chiliklarni yengib, mo'l hosil yetishtirib, bozorlarimiz, el-yurtimiz dasturxonini to'ldirib kelayotgani – haqiqiy mehnat jasoratining namunasidir.

Kerak bo'lsa, bunday insonlar bizning hayotimizning ayni tayanch ustunlari, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

* * *

Bu zalda o'tirgan hurmatli oqsoqollarimiz yaxshi biladi, bir vaqtlar melioratsiya va irrigatsiya masalalari haqida har qadamda gapirardik. O'zbekistonda alohida melioratsiya vazirligi ham bor edi. Bu idorada ishlaydigan mutasaddi rahbarlar og'zini ko'pirtirib maqtanishdan nariga o'tmasdi. Demogchimanki, muammoning, masalaning tub ildiziga yetib borish va uni hal qilish o'rniga ishga yuzaki qarash, hisobotbozlik ustunlik qilar edi. Lekin bu sohadagi ishlarni aslida qanday tashkil qilish, ularning O'zbekiston uchun, qishloqda yashaydigan millionlab odamlar uchun naqadar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini hech kim ochiq aytmasdi. Hammasi xo'jako'rsinga edi. Aks holda, o'zingiz ayting, yurtimizdagi sho'rlangan yerlardan besh-olti million tonna paxta berasan, hosildorlikni 28–30 sentnerga yetkazasan, degan talablarni qanday qo'yish mumkin edi?

Moskvaga borib, O'zbekistonda suv masalasini yechmasak, avvalambor, irrigatsiya va melioratsiya sohalaridagi muammolarni hal qilmasak, hosildorlikni oshirib bo'lmaydi, nafaqat dalalarimizni, balki hayotimizni ham sho'r bosib ketdi, qulog'imizgacha tuzga botib qolganmiz, degan masalani o'rtaga qo'yadigan

bo'lsak, «Sizlarga shuncha pulni kim topib beradi?» degan gapni eshitardik.

O'zimizning ba'zi rahbarlar nima qilardi? Irrigatsiya va melioratsiya ishlarini kolxoz va sovxozlarning yelkasiga tashlab qo'yardi. O'zingiz ayting, kollektor va drenaj tarmoqlarini, ayniqsa, gorizontaal va vertikal drenajlarni e'tiborga oladigan bo'lsak, bu ishlarni tashkil qilishga xo'jaliklarning kuchi va imkoniyati yetarmidi?

Shu bois biz bugun bu masalada tamoman boshqacha yo'l tutyapmiz. 2009-yilda bu masalani kun tartibiga qat'iy qilib qo'yib, amaliy ishlarga kirishdik, qaysi viloyatda qachon va qanday, qancha hajmda ish bajarilishini aniq belgilab oldik. Nega deganda, bu borada Xorazm viloyati yoki Qoraqalpog'istondagi ahvol bilan, deylik, Farg'ona vodiysi viloyatlarining ahvolini solishtiradigan bo'lsak, ular o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor.

Shu ma'noda, bizning bu sohada qo'ygan amaliy qadamlarimiz butun mamlakatimiz dehqonlari qatori siz, Xorazm ahli uchun ham yangi imkoniyatlar tug'dirib berdi, kerak bo'lsa, oldingizda yangi, yorug' ufqlarni ochib berdi, desam, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

* * *

Ekin maydonlarining asosiy qismi kuchli darajada sho'rlangan, sizot suvlari ko'tarilib ketgan g'oyat murakkab sharoitda xorazmlik dehqon va fermerlar qo'lga kiritayotgan yutuq va marralar mashaqqatli, aytish mumkinki, qahramonona mehnat evaziga erishilmoqda.

* * *

Hammamizga ayonki, yer ham bamisoli tirik jon, unga ham qarash, parvarish qilish kerak. O'zingiz ayting, biz bu masalaga katta e'tibor berib, mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirmasak, aholimizni boqish, bozor va do'konlarimizdagi to'kinchilikni, narx-navoning barqarorligini ta'minlay olarmidik? Bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlarining narxi ko'p mamlakatlarda qanday o'sib borayotganini hammamiz matbuot, televideniye orqali ko'rib-bilib turibmiz.

* * *

Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash, moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, ularga yanada keng yo'l ochib berish, bu borada yangi imtiyoz va imkoniyatlarni tug'dirish, qisqacha aytganda, qishloqda paydo bo'layotgan mulkiy munosabatlarni, yangi o'rta sinf vakillari – mulkdorlar, tadbirkor va ishbilarmonlarning manfaatlarini himoyalash bugungi kunda eng katta ahamiyatga ega.

* * *

Fermer – bugungi jamiyatning nafaqat eng faol, kerak bo'lsa, eng ishonchli a'zosi. Fermer – farovon hayot bunyodkori.

* * *

Fermer – bu avvalo universal qobiliyatga ega bo'lgan inson ekanini ko'p-ko'p misollarda ko'rish mumkin.

Fermer birinchi navbatda yerning, dehqonchilikning sir-asrorini puxta bilishi kerak. Tabiatan dehqonchilik ilmidan uzoq bo'lgan, bilimi va tajribasi yetmaydigan odam o'zini ham, boshqalarni ham qiynaydi.

* * *

Bugungi kunda hayot, zamonning tez o'zgarishi bilan fermerlik harakati oldida yangi-yangi vazifalar paydo bo'layotganini hammamiz yaxshi bilamiz. Ayni shu yo'lda fermerlik kengashlari dehqonlarimizga eng yaqin ko'makchi va maslahatchi bo'lishi lozim. Hududlarimizning tabiiy iqlim sharoitiga mos serhosil, kasalliklarga chidamli, tezpishar navlarni yaratish, suvdan tejab foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ko'ptarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, yangi avlod fermerlarini tayyorlash kabi dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratish – bularning barchasi asosiy vazifamiz bo'lishi kerak.

Fermerlarning yangi avlodi to'g'risida gapirganda, mening fikrim shuki, har qaysi viloyatning ertangi egalarini biz bugun tarbiyalashimiz kerak. Garchi barcha hudud va mintaqalarimiz o'zaro yaqin masofada joylashgan bo'lsa ham, ular iqlimi, ob-havosi, tuproq va suv sharoiti bilan bir-biridan farq qiladi. Shularning barchasini hisobga olib, har qaysi viloyatning o'ziga xos xususiyatlarining sirlarini har tomonlama chuqur biladigan, yuragi, qalbi bilan shu zaminda mehnat qilishga bel bog'lagan yoshlarni – zamonaviy fermerlarni tayyorlaydigan bo'lsak, o'ylaymanki, hech qachon kam bo'lmaymiz. Nega deganda, o'z yurti,

o'z yeriga ko'ngil qo'ygan odam hech qachon hech qayerga ketmaydi, o'zi tug'ilib o'sgan makonni obod va farovon qilishga intilib yashaydi.

* * *

Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va fermerlarni yuqori unum bilan ishlaydigan qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash hisobidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida intensiv usullarga o'tish ushbu sohani barqaror va samarali rivojlantirishda eng muhim yo'nalish hisoblanadi.

* * *

Men yuragimdan, qalbimdan chiqadigan bir fikrni, shu fursatdan foydalanib, yana bir bor ta'kidlab aytmoqchiman. Tabiiy va iqlim sharoiti, ekologik holat og'ir bo'lgan Orolbo'yi mintaqasida qiyinchiliklarga mardona bardosh berib, paxta, g'alla, chorvachilik sohasida yuqori natijalarni qo'lga kiritayotgan qoraqalpog'istonlik dehqon va fermerlarning mashaqqatli mehnatini haqiqiy jasorat va qahramonlik namunasi, deb baholasak, o'z yeri, o'z yurtiga sadoqat bilan yashab, mo'l hosil yetishtirayotganingiz uchun siz, azizlarga har qancha tahsin va tashakkurlar aytsak, arziydi, albatta.

Qoraqalpoq dehqonining qanday katta matonat va jasoratga ega ekanini to'la anglash uchun hech bo'lmasa bir mavsum Qoraqalpog'istonda yashash kerak. O'ylaymanki, bir mavsum shu yerda yashagan kishi sizlarga tan berib, qoraqalpoq dehqoniga o'z qalbida bamisoli haykal qo'yadi, umr bo'yi sizlarning matonatingizni boshqalarga ibrat qilib ko'rsatadi.

* * *

Shu o'rinda har tomonlama e'tiborga loyiq bir misolga diqqatingizni qaratmoqchiman. Ma'lumki, yaqin-yaqingacha fermerlarimiz faqat dehqonchilik yoki chorvachilik bilan shug'ullanib kelardi. Bugungi kunda esa ular zamon talabini chuqur his qilib, davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan keng imkoniyat va imtiyozlardan samarali foydalanib, ko'ptarmoqli fermer xo'jaliklariga aylanib bormoqda.

Bunday yutuqlarni e'tirof etgan holda, fermerlik harakatini zamon talablari asosida yanada rivojlantirish, fermerlar kengashlarining faoliyat samaradorligini oshirish, serhosil, ertapishar, kasalliklarga chidamli, suvni kam iste'mol qiladigan ekin navlarini ko'paytirish, qishloq xo'jaligida zamonaviy texnika, resurslarni tejaydigan texnologiyalardan keng foydalanish, fermerlarning yangi avlodini tayyorlash kabi muhim vazifalarni samarali hal etishimiz lozim.

* * *

Andijon ahli o'zining asrlar davomida shakllangan betakror dehqonchilik an'analariga, shu zaminning o'ziga xos bo'lgan qishloq xo'jalik maktabiga ega. Andijonlik dehqonlarning yerga butun qalbini, mehrini berib, yer bilan tillashib yashashi hammamizga yaxshi ma'lum.

* * *

Navoiy viloyatida kelgusida ko'ptarmoqli fermer xo'jaliklari tarmog'ini kengaytirish, ularning samaradorligini oshirish, zamonaviy texnikalar, resurs tejay-

digan texnologiyalardan yanada unumli foydalanish, yangi avlod fermerlarini tayyorlash masalalari oldimizda muhim vazifa bo'lib turganini ta'kidlab o'tmoqchiman. Nega deganda, qishloq xo'jaligidagi o'zgarish butun hayotimizni o'zgartiradi. Men ilgari ham ko'p bor aytganman – qishloq taraqqiy topsa, mamlakatimiz taraqqiy topadi, hayotimiz yanada obod va farovon bo'ladi.

* * *

Bugungi kunda Sirdaryo viloyatida 6 mingdan ziyod fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda. Ular tomonidan o'tgan yili 580 ming tonna g'alla, 243 ming tonnadan ortiq paxta, qariyb 346 ming tonna meva va sabzavot mahsulotlari yetishtirildi. Sirdaryoning murakkab iqlim va tuproq sharoitida bunday natijalarga erishish oson emasligini, buning uchun qanday katta mehnat talab qilinishini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Fursatdan foydalanib, viloyatning fidoyi dehqon va fermerlariga, siz, muhtaram Sirdaryo ahliga mardona mehnatingiz uchun chin qalbimdan minnatdorlik bildirib, hech qachon kam bo'lmang, umringizdan baraka toping, azizlarim, deb barchangizga baxt va omad tilayman.

* * *

Mamlakatimizdagi mavjud bog' maydonlarining beshdan bir qismi aynan Farg'ona viloyati hissasiga to'g'ri kelayotgani va ulardan yiliga o'rtacha 370 ming tonna hosil olinayotgani ham bu saxovatli zamin

dehqonlarining mirishkorlik fazilatlaridan dalolat beradi.

* * *

Bizning ustuvor yo'nalishimiz – qishloqni shahar darajasiga ko'tarishdan iborat bo'lib, biz bu maqsadga albatta yetamiz.

* * *

Qishloq hayotini obod etishda ularning qiyofasini o'zgartirish, bugun qishloq joylarda yashayotgan odamlarning turmush sharoitini zamon talablariga moslashtirish, kerak bo'lsa, uni shahar sharoitiga yaqinlashtirish g'oyat muhim o'rin tutadi.

... Alohida diqqatga sazovor tomoni shundaki, bu boradagi rejalarimizda nafaqat shinam va obod uylar qurish, ayni paytda bolalar bog'chalari, umumta'lim va musiqa maktablari, sport inshootlari, tibbiyot muassasalari, maishiy xizmat obyektlari, ravon yo'llar, bir so'z bilan aytganda, qishloq ahlining har tomonlama munosib va qulay hayot kechirishi uchun zarur barcha sharoitlarni o'z ichiga oladigan zamonaviy turarjoy mavzellarini kompleks barpo etish aniq belgilab berilgan.

... Qishloqlarimizni har tomonlama rivojlantirish borasidagi ishlarimiz o'z ko'lami, ahamiyati va mohiyati bilan bugungi kunimiz va ertangi kelajagimizning nafaqat moddiy tomonlarini, ayni paytda, madaniy va ma'naviy saviyamizni oshirish, muxtasar aytganda, butun hayotimizni yuksaltirishga qaratilgan bo'lib,

hech shubhasiz, mamlakatimiz tarixida munosib o'rin egallashi muqarrar.

* * *

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylar qurish dasturi nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham katta qiziqish va e'tibor uyg'otmoqda.

Agarki hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 50 foizga yaqini, ya'ni 16 millionga yaqin odam qishloq joylarda istiqomat qilayotganini, qishloqlarimizda har yili 150 mingdan ziyod yangi oila vujudga kelayotgani va ular o'z uyiga ega bo'lishga ehtiyoj sezayotganini inobatga olsak, bu dasturning ahamiyati va mohiyati yaqqol ayon bo'ladi.

Shahar sharoitidan kam bo'lmagan bu shinam hovli-joylar aholining turmush tarzi yanada yaxshilanishi, qishloqlarimiz qiyofasi, odamlarimizning dunyoqarashi va madaniyati tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda.

Eng asosiysi, yangi, go'zal uy-joylar, zarur infrazuzilmalar barpo etilishi bilan birga, qishloqdagi oilalarga eng zamonaviy kompyuterlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy axborot tizimi, internet kirib bormoqda.

Qishloq aholisi uchun deyarli yangi bo'lgan bunday turdagi xizmatlar odamlar ehtiyojini ta'minlash bilan birga, kasb-hunar kollejlari ta'lim olgan va kasb egallagan minglab, o'n minglab yigit-qizlarni ish bilan ta'minlash imkonini bermoqda.

* * *

Men aminman – mana shunday zamonaviy uy qur-
gan odamlarning farzandlari, nabiralari ertaga ota-
onasiga rahmat aytadi. Eng muhimi, bunday shinam
uylarda tugʻilib, voyaga yetgan bolalarning sogʻligʻi
ham, fikri, dunyoqarashi ham, albatta, boshqacha
boʻladi.

* * *

Bugungi kunda aholini namunaviy loyihalar aso-
sida har tomonlama shinam va qulay uy-joylar
bilan taʼminlash, yangi turar-joy massivlari atrofida
infratuzilmalarni barpo etish, koʻcha va yoʻllarni obod
qilish yuzasidan olib borayotgan ulkan ishlarimiz
odamlarning kayfiyati va dunyoqarashiga qanday kuch-
li taʼsir koʻrsatayotgani haqida ortiqcha soʻz yuritish-
ning hojati yoʻq deb oʻylayman.

Men oʻtgan yili Andijon viloyatida boʻlganimda
Oltinkoʻl tumanidagi «Dalvarzin» massivida ana
shunday hovlilardan biriga kirib, u yerdagi sharoitlar
bilan tanishib, xonadon egalari bilan suhbatlashgan
edim. Ishonasizmi, ana shu samimiy uchrashuvlar,
bu xonadonlardagi baxtli hayot taassurotlari hali-beri
xayolimda xuddi kechagidek saqlanib turibdi.

Agar mana shunday shinam va zamonaviy uylardan
qurib bersangiz, men ham Andijonga kelib yashashga
tayyorman.

* * *

Oʻtgan yillarda Jizzax viloyatida jami 3 million
kvadrat metr uy-joy qurilganini qayd etish oʻrinlidir.

Ayniqsa, namunaviy loyihalar asosida qishloq joylarda 2 ming 292 ta uy-joy qurilib, o'z egalariga topshirilgani qancha-qancha xonadonlarga zamonaviy qulaylik bilan birga, quvonch va shodlik olib keldi.

Bu yo'nalishdagi ishlarimiz yurtimiz qiyofasini, odamlarimizning ong-u tafakkurini tubdan o'zgartirayotganini o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, bu raqamlarni yanada ko'paytirishga harakat qilishimiz tabiiy. Bu haqda gapirganda, men shu narsadan xursand bo'lamanki, bu zamonaviy uylar, avvalo, ayollarimizning og'irini yengil qilish, odamlarimizning hayotiga mazmun kiritishga xizmat qilmoqda.

* * *

Qishloqlarda namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylarning loyihalarini ishlab chiqishda, avvalo, xalqimizning tabiati, turmush tarzi, urf-odatlarini e'tiborga oldik. Bugungi kunda mamlakatimizning qaysi hududiga borsam, albatta ana shunday uylarda yashayotgan odamlarning hayoti bilan tanishishga harakat qilaman. Har safar biz bu ishni boshlab juda to'g'ri qilganimizga takror va takror iqror bo'lamen. Bu uylardagi tozalik va ozodalik, sarishtalik, xonalarining bezatilishini ko'rib, xursand bo'lamen. Ayniqsa, devorlardagi suratlar, bir paytlar biz faqat televizorda ko'rgan zamonaviy pardalar, bularning hammasini ko'rib, ey, mana, biz ham bor ekanmiz-ku, faqat ishlash emas, yaxshi yashash ham qo'limizdan kelar ekan-ku, deb odam o'z-o'zidan to'lqinlanib ketadi.

Ilgari bunday sharoitni o'zimizga tasavvur qila olarmidik? Uyimizga mehmon kelsa, qayerga o'tqazishni


bilmasdan, xijolat tortmasmidik? Bugungi uylarimizda oilaning barcha a'zolari, mehmonlarning ehtiyojlari hisobga olingan. Biz bularning hammasini, avvalo, ayollarimizning og'irini yengillashtirishni o'ylab qildik. Ular ham bu dunyoga kelgan ekan, odamdek yashasin, o'z imkoniyat va salohiyatini ro'yobga chiqarsin, vaqtida ishlab, vaqtida dam olsin.

* * *

Namangan viloyatida o'tgan davrda namunaviy loyihalar asosida 3 ming 179 ta ana shunday uy-joy va ko'plab ijtimoiy infratuzilma obyektlari barpo etilgani odamlarimizning o'sib borayotgan hayot darajasini o'ziga xos ko'zgusi bo'lmoqda, desak, yanglishmagan bo'lamiz.



**OBODLIK KO'NGILDAN
BOSHLANADI**



Ozod va obod yurtda yashaydigan, yangicha fikr-laydigan odamlarning uylari ham, ularning hayoti, turmushi ham go'zal va farovon bo'lishi kerak.

* * *

Qoraqalpog'iston Respublikasining markazi bo'l-mish Nukus shahri mustaqillik yillarida mamlaka-timizning jadal rivojlanib borayotgan eng go'zal, zamonaviy shaharlaridan biriga aylangani barchamizga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

Faqat o'tgan yilning o'zida 175 ta obyektida katta hajmdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari nihoya-siga yetkazildi. «Do'stlik» kanalining shahar markazi-dan oqib o'tadigan qismi betonlashtirilib, uning atrofi obodonlashtirildi va ko'rkam xiyobon barpo etildi.

* * *

Barchamizga ma'lum, keyingi yillarda Andi-jon shahrining qiyofasi butunlay o'zgarib, mamlaka-timizning eng go'zal va obod shaharlaridan biriga aylanmoqda.

Bu haqda qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, birgina Milliy tiklanish va Istiqlol ko'chalarida 96 ta obyekt barpo etilgani, yangi qurilgan O'zbekiston ko'chasidagi Bobur nomidagi viloyat teatri oldidagi katta maydon

tubdan ta'mirlanganini va boshqa ko'pgina ishlarni aytish lozim.

* * *

Keyingi yillarda «**Obodlik ko'ngildan boshlanadi**» degan olijanob da'vat xalqimiz qalbidan chuqur joy olganiga barchamiz guvohmiz. Ana shunday yondashuv asosida viloyatlarimiz markazlarini, barcha shahar va qishloqlarimizni zamonaviy talablar asosida tubdan qayta qurish, aholining yashashi, mazmunli dam olishi uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha Buxoroda ham katta ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, Buxoro shahrida barpo etilgan muhtasham San'at saroyi va amfiteatr, Yoshlar markazi, «Ko'hna va boqiy Buxoro» yodgorlik majmuasi shahar husniga zamonaviy va betakror chiroy baxsh etdi, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz.

* * *

So'nggi yillarda barcha viloyatlarimiz markazlari qatori Jizzax shahrining markaziy qismini tubdan qayta qurish, uni har tomonlama obod qilish, ijtimoiy infratuzilma va kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish borasida tasdiqlangan rejalarimiz asosida amalga oshirgan ishlarimizga qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, 10 ming tomoshabinga mo'ljallangan sport majmuasi bunyod etilgani, «Eski shahar» va «Ko'k bozor» dehqon bozorlarining rekonstruksiya qilingani, Navoiy va Mustaqillik ko'chalari, «Jizzax» maxsus

industrial zonasiga olib boradigan yo'llar to'liq ta'mirlanganini ta'kidlash lozim.

Ayniqsa, shaharda 14 ta bolalar xiyoboni barpo etilgani yozda – jazirama issiq sharoitida ota-onalarning o'z farzandlari bilan dam olishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi uchun keng imkoniyat yaratib bermoqda.

* * *

Namangan shahrini zamonaviy talablar asosida tubdan qayta qurish, aholi uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratish bo'yicha katta bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda.

So'nggi yillarda viloyatda ikkita madaniyat va istirohat bog'i barpo etilib, ularning soni 14 taga yetkazildi. Viloyat musiqali drama va komediya teatri to'liq rekonstruksiya qilindi. Namangan shahridagi «Yoshlar markazi» qayta ta'mirlandi.

* * *

Keyingi yillarda qadimiy Samarqandimizning qiyofasi qanday ochilib, chiroyiga chiroy qo'shilib borayotganini so'z bilan ifoda etishning o'zi qiyin. Nafaqat o'zimizning odamlarimiz, balki dunyoning turli o'lkalaridan kelayotgan sayyohlar ham buni e'tirof etmoqda.

So'nggi yillarda Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi kabi tarixiy obidalar, Samarqand davlat

muzey-qo'riqxonasi, shaharning markaziy ko'cha va xiyobonlari, maydonlar tubdan ta'mirlandi. Shaharda 47 ta ko'p qavatli uy-joy foydalanishga topshirildi. Rudakiy, Panjikent, Dahbed ko'chalari ta'mirlanib, aylanma yo'lning qo'shimcha yangi qismi foydalanishga topshirildi. Samarqand xalqaro aeroporti, temiryo'l vokzali tubdan rekonstruksiya qilinib, ularning yon-atrofidagi hududlar obodonlashtirildi.

Ana shunday keng ko'lamlı ishlarimiz natijasida qadimdan «Yer yuzining sayqali» bo'lib kelgan Samarqand shahri yana qaytadan ana shunday yuksak maqomga ko'tarilayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Bu haqda gapirganda, Amerika Qo'shma Shtatlaridagi nufuzli «Ze Haffington post» nashri Samarqandni jahondagi inson o'z umri davomida albatta borib ko'rishi zarur bo'lgan 50 ta shaharning ro'yxatiga kiritganini alohida mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardim.

* * *

Guliston shahri ham ismi jismiga mos bo'lib, tobora chiroy ochib borayotganini alohida aytib o'tmoqchiman.

So'nggi vaqtda bu yerda 380 milliard so'mlik qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Jumladan, 2 milliard 200 million so'm mablag' hisobidan 18 ta drenaj quduqlari rekonstruksiya qilingani, 15 kilometrlik ochiq va yopiq zovurlar tozalangani bu shahar uchun o'tkir muammo bo'lgan sizot suvlari sathini sezilarli

darajada, ya'ni 30 santimetrغا pasaytirish imkonini berdi.

Shular qatorida hozirgi kunda O'zbekiston, Mustaqillik, Sayhun kabi markaziy ko'chalarda ko'p qavatli uy-joylar va favvoralar barpo etish, savdo va xizmat ko'rsatish maskanlarining me'moriy qiyofasini o'zgartirish, unuman, shaharni har tomonlama obod qilish bo'yicha katta hajmdagi ishlar olib borilmoqda. «Yoshlar markazi» binosida rekonstruksiya ishlari amalga oshirilmoqda.

Eng muhimi, bunday bunyodkorlik va obo-donlashtirish ishlari boshqa shahar va tumanlarda ham faol olib borilmoqda va kelgusida ham izchil davom ettiriladi.

* * *

Viloyatlarimiz markazlarini zamonaviy me'morlik talablari asosida tubdan qayta qurish bo'yicha Qarshi shahrida ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Birgina 2015-yilda shu maqsadda 100 milliard 100 million so'mlik kapital mablag' yo'naltirish ko'zda tutilmoqda. Shaharda joriy yilda 32 ta ko'p qavatli uy-joy foydalanishga topshiriladi, 56 kilometrlik to'rt qatnovli halqa yo'lining 30 kilometrda qurilish ishlari yakunlanadi.

Bundan tashqari, shahar aeroporti, Baxt uyi, temiryo'l vokzali maydoni yangicha qiyofa kasb etadi. Kelgusi ikki yilda O'zbekiston, Mustaqillik va Amir Temur ko'chalarida rekonstruksiya ishlari

tugallanadi, ana shu ko'chalar bo'ylab zarur infratuzilma va boshqa muhandislik tarmoqlari barpo etiladi. Qashqadaryo ustidagi qadimiy ko'priknining ikki tomoniga to'g'on qurilib, ushbu hududda bolalar istirohat bog'i yaratiladi.

Bu haqda gapirganda, sizlar bilan bir fikrni maslahatlashib olmoqchiman. Qarshi shahri mamlakatimizdagi eng ko'hna shaharlardan biri ekanini, uning tarixiy qiyofasini saqlab qolish zarurligini hammamiz tan olamiz. Ayni vaqtda shahar markazini zamonaviy me'morlik talablari asosida yangilash masalasi hamon dolzarb vazifa bo'lib qolayotganini e'tirof etishimiz zarur. Qarshining eng katta muammosi – bu kanalizatsiya masalasi. Biz, shaxsan o'zim mana shu masalalarning hammasini bir necha marta ko'rib chiqib, eng maqbul yechim topishga harakat qildik. Jumladan, shahar atrofida halqa yo'l barpo etish loyihasini ishlab chiqdik. Bu yo'lning 10 kilometrlik tarmog'i joriy yilda yakuniga yetkaziladi. Halqa yo'l qurib bitkazilgach, yuk mashinalari Qarshi shahriga kirmasdan, uni aylanib o'tib, Surxondaryo va Buxoro tomonga o'tib ketadi.

Bir so'z bilan aytganda, Qarshini eng zamonaviy shaharga aylantirishga qaratilgan ishlarni hammamiz birgalashib oxiriga yetkazamiz.

* * *

Mamlakatimizning janubiy darvozasi bo'lmish Termiz shahrida yaqin uch yilda 16 kilometrlik halqa

yo'lini barpo etish, temiryo'l vokzalini rekonstruksiya qilish ko'zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, joriy yilda 16 ta ko'p qavatli uy-joy foydalanishga topshiriladi, shahar aeroporti, Baxt uyi, Termiz davlat universiteti va temiryo'l vokzali maydonlari zamonaviy arxitektura yechimlari asosida yangicha qiyofa kasb etadi.

Termiz shahrini nafaqat mamlakatimiz, balki mintaqamizdagi eng go'zal va obod shaharga aylantirish maqsadida bu yerda madaniyat va istirohat bog'lari, maktablar, musiqa va san'at maktablari, 500 kishiga mo'ljallangan teatr hamda madaniyat markazi qurish ham rejalarimizdan joy olganini sizlarga ma'lum qilmoqchiman.

* * *

Termiz shahri bir paytlar harbiy shaharcha bo'lgan. Sovet davrida shuni kimdir ma'qul topgan. Bu shahar Surxondaryoning markazi. Markaz deganda odam ishdan keyin ozgina bo'lsa ham dam oladigan, kayfiyatini ko'taradigan, farzandlari bilan hordiq chiqaradigan joy bo'lishi kerak. Sovet davrida faqatgina ertangi kun, ertangi kun deyilar edi. Yorug'kunni nafaqat bolalarimiz ko'rishi kerak, balki bugun yashab turgan zamondoshlarimiz, yaqinlarimiz, ota-onamiz, hozirgi avlod ham bunday hayotni ko'rsin, turmushimiz kundan kunga yaxshi bo'layotganini ko'rib, xursand yashasin.

Biz 24 yil davomida qancha ish qildik. Eski zamondan mutlaqo voz kechib, asosiy e'tiborni yangi hayot qurishga qaratdik.

Termiz shahrining tarixi 3000 yilga yaqin. Ana shu davrda ota-bobolarimiz qanday yashagan? Qanday buyuk zotlar bizning zaminimizdan yetishib chiqqan, degan iftixor bilan yashash bizga yarashadi. Ertangi kunimizni o'z qo'limiz bilan quramiz, degan yoshlarni ko'rganimda, menda xuddi qanot paydo bo'lgandek bo'ladi. Biz qurayotgan hayotni ertaga kimning qo'liga topshiramiz? Albatta, hech kimdan kam bo'lmaydigan yoshlarimizning, farzandlarimizning qo'liga. O'zbekistonda yangi avlod paydo bo'layotganini dunyo tan olyapti. Bunday avlod bilan ertaga albatta maqsadlarimizga yetamiz.

O'tgan yili Qashqadaryoda katta qurilishlarni boshlagan edik. Bu yil endi Termiz shahrini hech kimdan, hech qaysi shahardan kam bo'lmaydigan, haqiqatan ham Amir Temur ordeniga munosib shahar-ga aylantirsak, nima deysiz?

Albatta, shaharni qurish uchun qancha quruvchilar, turli loyihachilar keladi. Lekin baribir shaharni quradigan, shaharni shahar qiladigan kuch – bu mana shu shaharda umrbod yashaydigan xalq bo'ladi.

Termiz bu – janubiy chegaramizdagi mustahkam qal'a-qo'rg'on. Bunday markaz shaharda albatta odamlar madaniy dam oladigan teatr bo'lishi kerak. Shuning uchun men birinchi galda loyihachilarga aytdimki, bu yerda chiroyli bir teatr bo'lsin. U faqat Termizning emas, balki butun O'zbekistonning

qiyofasini ochadigan madaniyat maskaniga aylansin. Termiz chekka shahar emas, O'zbekistonning madaniy markazi bo'lishi kerak.

Shuni ham unutmaslik kerakki, Termizning yonidan azim Amudaryo o'tadi. Bu yerda yer osti suvlarining sathi baland. Shuni hisobga oladigan bo'lsak, Termiz shahri qaysi tomonga qarab o'sadi? Uning qaysi tomonga qarab kengayishi bizning istiqbolimizga mos keladi? Bularning hammasini hisobga olgan holda, yangi-yangi inshootlarni qurishda ayni markazni markaz qiladigan joylarni belgilab olishimiz zarur. Toki biz qurgan inshootlar xalqimizga asrlar davomida xizmat qilsin.

* * *

Keyingi ikki yilda Toshkent viloyatida tuman markazlarini zamonaviy me'morlik talablari asosida tubdan qayta qurish bo'yicha maxsus dastur asosida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyat bo'yicha faqat joriy yilning o'zida shu maqsadlar uchun 650 milliard so'm mablag' yo'naltirish ko'zda tutilmoqda. Ayniqsa, viloyat hududidagi Chirchiq, Angren, Bekobod, Olmaliq shaharlarida obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlariga alohida ahamiyat qaratiladi.

* * *

Toshkent shahri aholisining yashash sharoitini yanada yaxshilash maqsadida ko'p qavatli uylar

uchun kommunal xizmatlar sifatini yaxshilash, bizning tabiiy va iqlim sharoitimizga mos yangi turar-joylar barpo etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda Toshkent shahrida amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlarini sanashning o'zi ancha vaqtni oladi.

Bu borada ko'p to'xtalmasdan, oxirgi besh yilda bunyod etilgan – dong'i tobora kengayib borayotgan Toshkentdagi Xalqaro anjumanlar saroyi, Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona va Simpoziumlar saroyini o'z ichiga olgan Ma'rifat markazi, «Poytaxt» biznes markazi, Yoshlar ijod saroyi, Tasviriy san'at galereyasi, «Bunyodkor» sport-sog'lomlashtirish majmuasi, «Minor» masjidi kabi har biri milliy va zamonaviy me'morchilikning noyob namunasi bo'lgan o'nlab binolarni eslashning o'zi kifoya, deb o'ylayman.

* * *

Men Olohning o'zi insonni baxt uchun yaratgan, deb ko'p gapiraman. Yaratganimiz insonga hayot ato etibdimi, qolgani ko'p jihatdan insonning o'ziga bog'liq.

Mana, e'tibor bering, biz haqiqatan ham qanday go'zal bir yurtda yashayapmiz. Bugun mamlakatimizning barcha shahar va qishloqlarida, hatto, eng chekka joylarida ham katta-katta o'zgarishlar bo'lyapti. Misol uchun, azim poytaxtimizning Eski shahar qismida amalga oshirilayotgan ishlarni ko'z oldingizga keltiring. Endi bu hududni Eski shahar degan nom bilan atashning o'zi haqiqatga to'g'ri kelmay qolmoqda.

* * *

Biz Eski shaharning me'moriy xaritasi, ya'ni bosh rejasini tuzdik. Ana shu xaritani tuzganda avvalo bizning iqlim sharoitimizga mos uylar, infratuzilma obyektlarini yaratishga e'tibor berdik.

Mana, biz Toshkentning o'zida qancha favvoralar qurdik, havoni tozalaydigan, soya beradigan daraxtlar ekyapmiz, yashil maydonlarni ko'paytirypmiz. Maqsad – ozgina bo'lsa ham tabiatni o'zgartirish, oftobning taftini pasaytirish.

Ma'lumki, oftob Sharqdan ko'tarilib G'arbga qarab o'tadi. Toshkent tabiatini inobatga olib aytadigan bo'lsak, bu yerdagi iqlimga u qanday ta'sir ko'rsatadi? Oftob nuri – bu ertalab yoki kechqurun bo'ladimi – aksariyat hollarda ko'p qavatli binolarga ko'proq tushadi, ularni, aytaylik, chidab bo'lmaydigan darajada kuydirib yuboradi.

Biz shunday qildikki, yangi bosh reja bo'yicha quriladigan uylarda oftobning ko'tarilishi, tik kelishi, qishda pastroq yurishi, yozda esa balandroq yurishi, pastki qavatlarga qanday ta'sir qilishi – bularning hammasini hisobga olgan holda, uylarning maketini ishlab chiqdik.

Yozda, tushunasizlar, 9 qavatli uylarda yashash azob. Bu – birinchidan. Ikkinchidan, oftob tepadan yondirib tursa, balkon tandırdek qizib ketsa, yotadigan joyda shabada bo'lmasa, bu uydagi bechoralar qayerga chiqadi, qayerda dam oladi? Ko'chaga chiqib yerda uxlaydimi? Onalar chaqalog'ini qanday uxlatadi? Buni kim o'ylaydi?

Shu nuqtayi nazardan qarab, oftobni ham hisobga olib – albatta, oftobning yurishini o'zgartirib bo'lmaydi – uning doimiy yurishini aniqlab, biz Eski shaharda quriladigan uylarni quyoshga nisbatan shunday joylashtirdikki, toki oftob bu binolarga kamroq ta'sir qilsin.

Yana bir narsa. SSSR davrida ba'zi uylarni shunday qurganki, qilt etgan shabada o'tmaydi. Xadrani oladigan bo'lsangiz, hammasi ayon bo'ladi. Eski Jo'va bozorini olsangiz, uning tepasida «smog», ya'ni yerdan ko'tariladigan bug'lar shunday to'planib, qotib qoladi. Iyul, avgust oylarida qarasangiz, Eski shaharni shunday qurum buluti bosadi.

Uni yo'q qilish uchun nima kerak – shabada kerak. Shabada kirishi uchun Eski Jo'vada ochiq joy bormi o'zi? Hamma tomon o'ralib qolgan bo'lsa, aytinglar, shabada qayerdan kiradi? Shabada bo'lmasa agar yashab bo'ladimi o'zi O'zbekistonda?

Eski shaharda quriladigan yangi uylarda shularning barchasini hisobga olishga harakat qilyapmiz. Imorat qurganda, bir yil, ikki yil emas, yuz yil oldinni o'ylash kerak. Hech kimning keyin armoni qolmasin, demoqchiman. Hammasi o'z joyida bo'lishi kerak. Odamlar bilan maslahat, maslahat yana bir bor maslahat qilib, uy qurish kerak.

* * *

Farg'ona vohasidagi Marg'ilon, Qo'qon va boshqa shaharlar qatorida ikki og'iz Farg'ona shahrining qiyofasini tubdan o'zgartirish, bu yerda yashayotgan

odamlarimiz uchun munosib sharoit yaratish bo'yicha amalga oshirgan ishlarimiz haqida to'xtalishni zarur, deb bilaman. Viloyat markazi bo'lmish Farg'onaning qiyofasi qisqa muddatda tanib bo'lmas darajada o'zgarib borayotgani so'zsiz barchamizni quvontiradi.

Ayniqsa, shahar markazida barpo etilgan ming o'rinli muhtasham San'at saroyi san'atsevar Farg'ona ahli, avvalambor, yoshlarimiz uchun haqiqiy madaniyat va ma'naviyat koshonasiga aylandi.

Shular qatorida shaharda xalqaro standartlarga javob beradigan 20 ming o'rinli zamonaviy stadion barpo etildi, ravon yo'llar, muhtasham ko'priklar, yangi maydon va xiyobonlar, favvoralar, turar-joylar, ta'lim va tibbiyot maskanlari qurildi. Bularning barchasi Farg'onani haqiqiy go'zal Farg'ona darajasiga ko'targanini bugun mamnuniyat bilan ta'kidlash barchamizga xursandchilik yetkazadi.

* * *

So'nggi ikki yilda Xorazm viloyati markazi bo'lmish Urganch shahrida 846 milliard so'm hajmidagi bunyodkorlik ishlari bajarilib, yangi turar-joy mavzelari, keng maydon va xiyobonlar, magistral yo'llar, xizmat ko'rsatish obyektlari barpo etildi. Birgina 2014-yilning o'zida Urganch shahrida 25 ta ko'p qavatli turar-joy, 100 dan ortiq ikki qavatli uy foydalanishga topshirildi.


Ayniqsa, shahar ichidan o'tadigan Shovot kanalida 76 milliard 400 million so'm mablag' hisobidan

keng miqyosdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilganini alohida ta'kidlash lozim. Kanal qirg'og'ida 14 kilometr masofa bo'ylab 90 gektar maydon obodonlashtirilib, yashil hududlar, xushmanzara sayilgohlar, xizmat ko'rsatish obyektlari, sport maydonchalari tashkil etildi, qayiqlar qatnovi yo'lga qo'yildi.

Shaharning butun qiyofasini tubdan o'zgartirib yuborgan bu go'zal maskan endilikda Xorazm ahli va mehmonlarning eng sevimli madaniyat va istirohat go'shasiga aylandi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Bunday katta ishlar Xiva shahrida, barcha tumanlar markazlarida ham amalga oshirilayotgani ayniqsa e'tiborlidir.

Siz, azizlar, mening qadrdonlarim qatorida bu ishlarda qatnashganim uchun o'zimni baxtiyor, deb his qilaman.



**ZAMONAVIY RAHBAR DOIMO
OLDINGA INTILIB
YASHASHI KERAK**

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY
540 EAST 57TH STREET
CHICAGO, ILL. 60637

El-yurt ishonchiga munosib bo'lib, oldimizda turgan buyuk maqsadlar uchun, O'zbekistonimizning dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishi, xalqimiz farovonligini yanada oshirish, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'si va nufuzini yuksaltirish yo'lida o'zini baxshida qilish, vaqti kelganda, Vatanimizni yanada ravnaq toptirishda mening ham qo'shgan hissam bor, deb mamnun bo'lib, rozi bo'lib yashash – bu chinakam baxtdir.

* * *

Rahbarman, yetakchiman degan inson, avvalo, o'z oldiga, xalqim ertaga birovning qo'lga qarab qolmasligi uchun men o'zim nima ish qildim, bugun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirmoqdaman, deb savol qo'yishi va shu savolga javob topishi kerak.

* * *

Yangi rahbarni saylamoqchi bo'lsak, avvalo, uning qaysi xususiyat va fazilatlariga e'tibor berish kerakligi haqida men o'z fikrimni bildirmoqchiman.

Birinchiidan, o'zini boshqalar bilan teng olib gaplashadigan, boshqalarning dard-u tashvishlarini baham ko'rishga tayyor bo'lgan insonni o'z nomzodi sifatida qabul qilish kerak. O'ziga bino qo'ygan,

manmanlikka berilgan, kekkayib yuradigan odamdan qoʻrqish kerak. Bunday odam hozirning oʻzida oʻziga shuncha bino qoʻysa, ertaga koʻpchilik unga ishonch bildirib, lavozimga oʻtirganidan keyin avval koʻrsatmagan qiliqlarini darrov koʻrsatadi.

Xalqimizda «Odamning kimligini bilmoqchi boʻlsang, amal berib koʻr» degan dono maqol bor. Amal koʻrmagan odam tasodifan mansabga oʻtirib qolsa, oʻz vazifasini tushunib olish uchun unga, birinchidan, vaqt kerak, ikkinchidan, u lavozimni egallaganidan soʻng oʻziga oʻxshagan odamlarni atrofiga toʻplab oladi, keyin ularni almashtirishning oʻzi juda azob. Shuning uchun rahbarni saylayotgan paytda yetti marta oʻlchab, bir marta kesish kerak.

Agar rahbarlarning oddiy vazifada ishlayotgan kishilardan nima farqi bor, deb soʻrasa, men, avvalambor, rahbar odam boshqalardan koʻra uzoqni koʻrishi va chuqurroq oʻylab ish olib borishi kerak, deb aytgan boʻlardim. Yaʼni, rahbar ertangi kunimizni bir qadam emas, ikki qadam uzoqroq koʻrishi lozim.

Rahbarga xos boʻlgan ikkinchi fazilat shuki, oʻzini oʻylamasdan, avvalambor, oʻziga ishongan xalqning dard-u gʻamini, uning taqdiri, ertangi kunini oʻylab yashashi lozim.

Uchinchi fikr shuki, sinovdan oʻtgan odamlarni rahbar qilib saylash zarur. Nega deganda, bu dunyoda katta aql-zakovat bilan birga, koʻpni koʻrgan, uzoqni koʻzlaydigan, irodasi mustahkam, kerak boʻlsa, turli-turli murakkab sinovlardan oʻtgan odamlarni biz oʻzimizga rahbar qilib tanlashimiz kerak. Uzoqni

ko'ra olmaydigan odamning rahbar bo'lishga mutlaqo haqqi yo'q.

Sinovlardan o'tish degani – o'z xalqini yangi hayot yo'liga olib chiqishda o'zining aql-zakovati, qat'iyati, azm-u shijoatini to'la safarbar etish, og'ir va keskin vaziyatlarda yetti marta o'lchab, bir marta kesish degani. Soxta usul bilan siyosat olib borish, odamlarni aldab yashash – bu faqat turli o'yinlar bilan yurgan rahbarlarning ma'naviy qiyofasini ko'rsatadi.

Zamon gardishi shunday bo'ldiki, SSSR parchalanib ketganidan keyin ba'zi davlatlarda umrida biron jiddiy sinovni ko'rmagan odamlar maydonga, kerak bo'lsa, hokimiyat tepasiga chiqib qoldi. Agar bunday odamlar rahbar bo'lib qolsa, bilib qo'yinglar, bu xalq uchun azob-uqubatdan boshqa narsa emas. Eng yomonni, bunday odamlar men shunday aqlli ekanman, axir, meni bejiz rahbar etib saylamadi-ku, deb keyin o'ziyam ishonib qoladi. Shunday odamlarga ishonib bo'ladimi?

Aqlli odam hayotdan to'g'ri xulosa va saboq chiqaradi. Shu ma'noda, hayot biz uchun doimo saboq maktabi desak, yanglishmagan bo'lamiz.

* * *

Dunyoda qancha odam bo'lsa, hech biri ikkinchisiga o'xshamaydi. Har bir odamning o'ziga yarasha qadr-qimmat bor. Ayni jihatni, avvalo, rahbarlar hisobga olsa, hech qachon kam bo'lmaydi. Odamni mensimaslik hech qachon yaxshilikka olib kelmaydi.

* * *

Agar sen odamlarni sevmasang, xalqingni, senga ishonch bildirgan odamlarni yuragingga yaqin olmasang, rahbar bo'lishga umuman haqqing yo'q.

* * *

Xalqimiz manfaati, uning ertangi taqdiriga daxldor bo'lgan har qanday qarorni qabul qilishda yetti o'lchab, bir kesishimiz zarur.

* * *

Shoshma-shosharlik bilan, orqa-oldini o'ylamasdan, turli shiorlarni o'rtaga tashlab, o'zini, xalqini aldab gapirgan rahbarlarning qanchasi o'zgarganini bilasiz.

Rahbar hech qachon oldi-qochdi, tagi puch, har tomonlama chuqur va puxta o'ylanmagan gaplarga berilmasligi kerak.

* * *

Rahbar kim, deb so'rasangiz, uning eng muhim xususiyati shuki, rahbar nafaqat o'z va'dalarini yodda tutishi, balki, avvalo, ularni bajarishi shart. Rahbar boshqalardan ko'ra uzoqni ko'radigan, boshqalardan chuqurroq o'ylaydigan, mulohaza qiladigan, eng muhimi, oyog'i yerdan uzilib qolmaydigan inson, xalqparvar shaxs bo'lishi kerak. Rahbar doimo xalqning dardi bilan yashashi, uning kelajagi uchun o'zini mas'ul deb bilishi talab qilinadi.

* * *

Xalqning ishonchini qozonib, katta vakolatga ega bo'lishni istagan odam boshqalardan ko'ra chuqurroq o'ylashi, uzoqni ko'ra bilishi kerak.

Shunday odamlar bo'ladiki, ular bilan tanishib, muloqotda bo'lganda, ularni yaqindan taniganda shunga iqror bo'lasizki, shu insonning salohiyati ancha baland, u o'qimishli, aqlli, eng muhimi, tajribali bo'lib, ko'p narsani chuqurroq biladi, uzoqroqni ko'radi.

* * *

Afsuski, ayrim joylarda hali-beri eskicha fikrlaydigan rahbarlar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Lekin ular ishida o'zgarish qilmasa, vaqti-soati kelib, albatta, ularning joyi yoshlarning qo'liga o'tadi. Tuman va shahar hokimlari, viloyatlar hokimlari agar el-yurt ishiga e'tiborsiz qaragan bo'lsa, buni har qaysi oilaga e'tiborsiz qarash, yurtimizga e'tiborsiz qarash, deb qabul qilish, buni yoshlarimizning orzu-niyatlari ro'yobga chiqishiga qarshi qaratilgan harakat deb tushunish zarur.

* * *

Bugungi kunda O'zbekistonni boshqarish, uni himoya qilish, xalqimizning ertangi kunini o'ylab, mustahkam siyosat olib borish va eng muhimi, mustaqillik degan, Xudoning o'zi bizga buyurgan muqaddas ne'matni mana shunday asrab-avaylashda,

yaqin va uzoq kelajakni barpo etishda butun borlig'ini bag'ishlab yashaydigan odamlarning safi tobora kengayib bormoqda. Lekin, afsuski, shular qatorida, quruq gap bilan yashaydigan odamlar ham uchrab turadi.

Bu dunyoda quruq gapga emas, balki, avvalo, har tomonlama ishonchli, sinalgan, hayot sinovidan o'tgan odamlarga ishonish kerak. Ba'zilar juda chiroyli gapirib, odamning boshini shunday aylantiradiki, hatto, ertaga hayotimiz butunlay gul-u gulzorga aylanadi, hammamiz jannatda yashaymiz, degan gaplarga ham sizni ishontirib qo'yishi mumkin. Ana shundan ehtiyot bo'lish kerak.

* * *

Eski mustabid zamonning qanday qaltis bo'lganini bu yerda o'tirgan yoshi katta insonlar yaxshi biladi. Mana shu Qashqadaryo viloyati hokimligi binosining o'zida to'qnashuvlar bo'lardi. Esingizda bo'lsa kerak, SSSR Oliy Sovetiga saylov paytida Chiroqchi tumanida norozilik chiqib, odamlar saylovga borishdan bosh tortgan.

O'sha vaziyatda menga hali u idoradan, hali bu idoradan telefon bo'laverdi. Bir saylov uchastkasida 500 yoki 600 nafar odam saylovga chiqmaganini aytib, nima uchun chora ko'rmading, degan do'q-po'pisalar bo'lganini ham yaxshi eslayman. Bu bo'yicha, hatto, Moskvadan, Markazqo'mdan ham telefon qilishgan. Tezda Toshkentdan Markazqo'm xodimlari yetib kelib, yuring, endi, ularni ko'ndiraylik, deb, «RAF»

mashinasiga o'tirib, hammamiz Chiroqchidagi qishloqqa yetib borganmiz.

Toshkentdan kelganlar quruq rasmiy gaplarni gapirgani uchun ularga hech kim ishonmadi. Qarasam, norozilik pasayish o'rniga kuchayib boryapti. Odamlarning hafsalasi pir bo'lib, tarqalib ketishga chog'lanib turgani shundoq sezilib turardi. Vaziyat shunday davom etsa, saylov barbod bo'lishi hech gap emasdi.

Shu payt Markazqo'mdan kelgan guruhning kattasi kelib, siz bularning tilini yaxshi tushunasiz, o'zingiz bir gaplashib ko'ring, o'zingiz ko'rdingiz, bizning gaplarimizdan bir ish chiqmadi, deb, ojizligini tan olib, mendan iltimos qildi.



Shu nuqtayi nazardan qaraganda, odamlarni ishontirish – bu oson ish emas, bu o'yin emas. Men Qashqadaryoda bunday vaziyatlarga keyin ham duch kelganman. Sizlar bilan ham bunday holatlarda necha bor yuzma-yuz uchrashganmiz.

O'sha paytda Chiroqchida men odamlarga muam-molaringizni shu haftaning o'zida hal qilamiz, deb va'da bergan edim. O'shanda ular ham mening gapimga ishonib, «Bo'ldi, gap bitta, biz ham ortiqcha janjal qilib o'tirmaymiz», deb, saylovga borib, qonun talablarini bajargan. Janjalning sababini so'rasangiz, bir sovxoz bilan bir kolxoz odamlari o'rtasida taxminan 300 gektar yer talash bo'lgan. Biz o'shanda kayvonilar, oqsoqollar bilan fikrlashib, maslahat qilib, bu masalani aytilgan muddatda hal qilganmiz.



Shu ma'noda, rahbar uchun xalq ishonchi – bu juda muhim narsa.

* * *

Har qaysi inson uchun el-yurt ishonchi va hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lishdan, eng muhimi, ana shu ishonchga har tomonlama munosib bo'lib, uni amaliy ishlar bilan oqlashdan ortiq baxt yo'q, desam, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz, degan umiddaman.



**KEKSALAR –
XONADONLARIMIZNING
FAYZ-U FARISHTASI**



Faint, illegible text at the top of the page, possibly a header or introductory paragraph.

RECEIVED
GENERAL INVESTIGATIVE
DIVISION - FBI
MAY 15 1964

2015-yilda keksa avlod vakillariga e'tibor va g'am-xo'rlik ko'rsatish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga, muhtaram faxriylarimiz hayotiga daxldor muammolarni hal etishga alohida ahamiyat qaratiladi.

Mamlakatimizda joriy yilga «Keksalarni e'zozlash yili» deb nom berganimiz zamirida ham mohiyat e'tibori bilan ana shunday ezgu maqsadlar mujassam ekani, o'ylaymanki, barchamizga yaxshi ma'lum.

* * *

Hayotimizga, xonadonlarimizga fayz va baraka beradigan faxriylarimizning ko'nglini ko'tarish, ularning hayotini uzaytirishga, umrini mazmunli qilishga qo'limizdan kelgancha hissa qo'shish, ularga g'am-xo'rlik va mehribonlik ko'rsatish bizning insoniy burchimiz ekanini unutmasligimiz kerak, desam, o'ylaymanki, barchamizning fikrimizni bildirgan bo'laman. Ya'ni, aytmoqchimanki, ularni haqiqatan ham qadrlash, bu hayot g'animat, deb, ularga eng zarur, shirin so'zlarni aytish, kerak bo'lsa, ularning qilgan mehnati, Vatan uchun, yurt uchun qancha-qancha qiyinchiliklarni, musibatlarni boshidan kechirganini yana bir bor eslab, ayni o'sha og'ir kunlarda xalqimizning mana shunday yetakchi odamlari jon berishga tayyor bo'lib, urushga otlanganini yodga olib, ularning oldida ham ta'zim qilamiz.

Bunday tabarruk insonlar bilan tez-tez uchrashib turish, ularning holidan xabardor bo'lish bu odamlar uchun katta madad bo'ladi. Biron-bir shirinlik bo'ladimi, ikkita non bo'ladimi, ularni nima bilandir yo'qlab borish, xuddiki ular hozir ham bizning safimizda bo'lib, biz bilan birga el-yurtga xizmat qilayotganini har doim esimizdan chiqarmaslik, kimki bo'lmasin, qayerda ishlamasin, juda kattakon vazifada o'tirgan bo'lsa ham, bu – uning burchi. Nega deganda, keksa odamlar hayotdan qachon rozi, qachon minnatdor bo'ladi? Qachonki, turli-turli soxta, balandparvoz gaplarni ko'p gapirmasdan, avvalambor, eng kerakli paytda ularning holidan xabar olib tursa. Ey otaxon, ey onaxon, qanday yashayapsiz o'zi, deb ularga mehr ko'rsatsa. Sizga nimalar yetishmayapti, nimaga muhtojisiz, qanday yordam kerak, deb so'rash, keksalarga mana shunday munosabatda bo'lish – bu ham bizning burchimiz. Men istardim – avvalambor rahbarlar shu borada ibrat bo'lsin.

* * *

Bugungi tinch va obod hayotimizni barpo etishga beqiyos xizmatlari singgan, xonadonlarimizning fayzi bo'lgan mo'tabar keksalarimizning farovon va munosib umr kechirishlari uchun keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimiz, deb qabul qilishimiz darkor.

Shu borada mahallalar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining keksalar va nogironlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatadigan tuzilmalarini mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Bunda turli muassasa va xizmatlar, birinchi navbatda, pensiya, ijtimoiy ta'minot va tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va zarur darajada nazorat qilish masalalari nazarda tutilishi kerak.

* * *

Bizning qariyalarimiz qachon duoga qo'l ochmasin, Yaratganimizdan el-yurtimizga tinchlik va omonlik, farovonlik va ravnaq so'raydi. Mana shunday hayotiy, hikmatga to'la gaplarni takrorlashdan charchamaydigan qariyalarimiz xonadonlarimizning fayzi va barakasi, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi. Agar kimning uyida mana shunday qariyalar bo'lsa, ular — baxtli insonlardir.

Shu o'rinda biz bu tabarruk zotlar oldida umrbod qarzdor ekanimizni unutmasligimizni istardim. Nega deganda, bu hayot, uning har kuni, har daqiqasi g'animat. Mendan bu so'zning zamirida qanday ma'no bor, deb so'rasa agar, kelajakda pushaymon bo'lmaslik uchun bizni asrab-avaylab voyaga yetkazgan keksalarimiz hayot bo'lgan paytida ularning oldidagi burchingni bajar, degani bu, deb javob bergan bo'lardim.

Afsuski, biz ko'p hollarda ota-onalarimizga, qariyalarimizga ular hayot bo'lganida qandaydir e'tiborsizlik, bepisandlik bilan qaraymiz. Hali onamning yonida bo'lishga vaqt, imkoniyat bo'ladi, deb o'ylaymiz. Biz xom sut emgan bandalar ana shunday fikrda bo'lib, g'animat damlarni o'tkazib yuboramiz. Boshimiz devorga taq etib urilganida esa kech bo'ladi. Shu ma'noda, ota-onalarimiz bilan ko'proq suhbatlashish,

ularning ko'nglini ko'tarish, maslahatini, duosini olish – bu bizning nafaqat burchimiz, balki bu biz uchun ulkan baxt, desak, to'g'ri bo'ladi.

* * *

Qaysi uyda keksa inson bo'lsa, u yerda o'zgacha fayz va baraka bo'ladi. Bolalarning tarbiyasi ham, odobi va axloqi ham umuman boshqacha bo'ladi. Biz bugun qariyalarimizni qanday qadrlasak, qanday e'zozlasak, kelgusida bolalarimiz ham bizni xuddi shunday e'zozlaydi. Kimki shu hayot haqiqatini tushunmasa, ming afsuski, kelajakda taqdiri havas qiladigan darajada bo'lmaydi.

Keksalarimizning duosini olib, bu hayotda baxtli va farovon yashaylik, o'z murod va maqsadlarimizga yetaylik, ularning roziligini olsak, Yaratganimiz ham bizga barcha ishlarimizda madadkor bo'ladi, inshoollo.

* * *

Hammamiz yaxshi bilamiz, xalqimizning o'ziga xos betakror xususiyati va fazilatlari borki, ularni hech qachon boshqa o'lkalarda topib bo'lmaydi. Masalan, ota-onaga, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat tuyg'usini hamma joyda ham uchratish qiyin.

G'arb mamlakatlarida bola ozgina oyoqqa turib, o'zining ishlarini yo'lga qo'yib olsa bo'ldi, u darrov ota-onadan alohida bo'lib, o'z bilganicha yashashga harakat qiladi. Bizda esa ota-ona bilan qancha ko'p birga yashasa, ularning qancha duosini olsa, shuncha o'zini baxtli deb hisoblaydi.

Bizda oilada farzand dunyoga kelsa, bu katta boylik sifatida qabul qilinadi. Biroq, bu boylikni e'zozlash, ardoqlash, tarbiyalash kerak. Bizning momolarimiz, ota-bobolarimiz hayotiy o'g'itlari, pand-nasihatlari, shaxsiy ibrat bilan o'z oilalariga ko'rsatayotgan yordamini nima bilan o'lchab bo'ladi? O'z farzandining bolasiga, nevara-yu evarasiga ular ko'rsatayotgan mehr va e'tiborni nima bilan o'lchab bo'ladi?

Yangi avlodni o'stirish, uning bugungi avloddan ham ko'ra aqlli, bilimli, kuchli va, albatta, baxtli bo'lishi, avvalo, bola tarbiyasiga bog'liq. Biz bu borada jiddiy o'ylashimiz kerak.

Biz nima uchun yashayapmiz, kim uchun yashayapmiz? Albatta, faqat kimdandir o'zib ketish uchun emas. Lekin biz davlat va jamiyat barpo etishda ishni, birinchi navbatda, nimadan boshladik, degan savolni o'rta qo'yadigan bo'lsak, biz buni, avvalo, oiladan boshladik.

Iymonli, irodali xalq hech qachon o'z tarixi, o'z Vataniga beparvo bo'lmaydi. Hech qachon o'z ota-onasi, avlod-ajdodlaridan qolgan fazilatlarni unutmaydi. Shunday oliy maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan har qaysi xalq hech kimdan, hech qachon kam bo'lmaydi.

* * *

Ikkinchi jahon urushida O'zbekistondan taxminan 500 ming odam halok bo'lgan va bedarak ketgan. Endi esa ba'zi davlatlarda shunday gaplar, tashviqotlar paydo bo'lyaptiki, go'yo bu urushda faqat bitta katta millat g'alaba qozongan emish. Shu gaplarni eshitganda, odam xijolat tortib ketadi. Agar, o'sha paytda butun SSSRda

yashayotgan hamma xalqlarning farzandlari qo'liga qurol olib, jangga kirmaganida, bu urushda kim g'alaba qilardi?

Bu urushda SSSRdan 27 million odam halok bo'lgan. Hademay o'sha urushda qozonilgan g'alabaning 70 yilligi tantana qilinadi. Lekin urushni tantana qilish to'g'rimi? Biz bu kunni Xotira va qadrlash kuni sifatida o'tkazamiz. Urushda halok bo'lganlarni eslash, bugun oramizda yashayotgan faxriylarimizni qadrlash – insoniy nuqtayi nazardan eng to'g'ri yo'l aslida shu emasmi?

Yoshi katta odamlar yaxshi eslaydi, bir vaqtlar 9-may kuni harbiy paradlar bo'lardi, zambaraklardan gumburlatib o'qlar otilardi. Lekin mustaqil bo'lganimizdan keyin hayot bizga shuni o'rgatdiki, bu urushda halok bo'lganlarni, ularning oilalarini eslash, avvalambor, har bir musulmon inson uchun ham qarz, ham farz.

* * *

Bugun uzoq va yaqindagi xorijiy davlatlarni kuzatadigan bo'lsak, ularda ham, mana, asta-sekinlik bilan «xotira» degan so'z ishlatila boshlandi. Lekin ular «qadrlash» degan so'zni esidan chiqarganga o'xshaydi. Demoqchimanki, bizning bu boradagi sa'y-harakatimiz, ishlarimizni boshqalar ham namuna sifatida ko'rib, buning ma'nosini anglamoqda, mazmun-mohiyatini tushunib, mag'ziga, tomiriga yetib bormoqda.

Yillar o'tadi, zamonlar o'tadi, lekin xotira va qadrlash degan ibora xalqimiz hayotida abadiy qoladi.

Har qaysi inson, xalq, millat o'zining tirikligi, barhayotligini xotira bilan o'lchaydi. Barchamiz xotira bilan yashaymiz, xotira bilan tirikmiz. Xotirasini, o'tmishini esidan chiqargan inson, qo'pol bo'lsa ham aytish kerak, hayvonga aylanadi.

* * *

Biz bugun tirik bo'lgan, oramizda hayot bo'lib yurgan urush qahramonlari oldida bir umr qarzdormiz, ularning oldida bosh egib ta'zim qilamiz. Shu bilan birga, ularning umrini uzaytirish uchun nima kerak bo'lsa, hammasini qilishimiz lozim. Xalqimiz «Hayot – bu oqar daryo», deydi, ya'ni hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi. Hayotning qonuni shundayki, tug'ilish bor ekan, o'lim ham haq. Bu narsa insonning ixtiyoriga bog'liq emas. Demoqchimanki, bu dunyoga hech kim ustun bo'lmagan. Lekin Xudo odamga bu hayotni, bu umrni insoniy burchini ado etish uchun buyurgan. Umr mazmuni qilingan ezgu ishlar va yaxshiliklar bilan o'lchanadi. Ey inson, hayoting davomida bu burchingni qanday bajaryapsan, bu dunyoda sendan qanday iz qolyapti, degan savollarga biz har kuni, har daqiqa javob izlashimiz, xayolimizning bir chekkasida doimo shu masala turishi kerak.

«Hayot – bu oqar daryo» degan iboraning juda katta ma'nosi, to'g'rirog'i, da'vati bor. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, urushda qatnashgan, bugun hayot bo'lgan insonlarning soni ham kamayib borayotganini katta afsus bilan aytishga majburmiz. Lekin, nachora,

oqadigan daryoni to'xtatib bo'lmas ekan. Bu achchiq haqiqatni ongli yashaydigan har qaysi odam chuqur anglashi va yaxshilik qilishga shoshilishi kerak.

* * *

Biz, odatda, ona tuprog'imizda mangu orom topgan ota-bobolarimizning qabri oldiga borib, ularning ruhiga tilovat qilamiz, ular bilan ruhan suhbat quramiz, ulardan xuddiki maslahat olgandek bo'lamiz. Aziz otajonim, mehribon onaginam, sizlar uchun armon bo'lib qolgan baxtli hayot mana, bizga nasib etdi, sizlar ezilgan, tahqirlangan zamonlar endi ortda qoldi. Ozod va obod yurtimizning bugungi rivoji, farzand va nabiralaringizning yorug' va baxtli hayotining guvohi bo'lib, aziz ruhingiz shod bo'layotganiga ishonchim komil. Siz, azizlarning duosi bilan ana shunday buyuk baxtga, tolega sazovor bo'lyapmiz, Vatanimiz yanada ravnaq topmoqda, dunyodagi eng rivojlangan davlatlar qatoriga chiqyapmiz, deb yaxshilik, ezgulik, xayrli va savob ishlar haqida suhbat quramiz.



AYOL BAXTI – JAMIYAT BAXTI

Faint, illegible text, possibly bleed-through from the reverse side of the page. The text is arranged in several paragraphs within a rectangular border.

Ayollarimizning turmush sharoitini yengil qilish borasida biz uchun mayda narsaning o'zi yo'q va bo'lmaydi ham. Ayolning kayfiyati yaxshi bo'lsa, ayol hayotdan rozi bo'lsa, oila hayotdan rozi bo'ladi. Agar oila rozi bo'lsa, mahalla, butun el-yurt rozi bo'ladi.

* * *

Har yili 8-mart bayrami yaqinlashishi bilan yurtimiz ayollarini, muhtarama onaxonlarimiz, opa-singillarimizni dunyodagi qanday eng go'zal so'zlar bilan ta'riflasam, ularga qalbimda, yuragimda bo'lgan eng samimiy tilaklarimni qanday ifoda etsam ekan, deb o'ylayman, to'g'risi, ular uchun munosib so'zlarni topolmasdan qiynalaman.

Men nima uchun ayollar haqida gapirishdan hech qachon charchamayman? Negaki, ular to'g'risida so'zlaganda, mo'tabar, nurli siymosi doimo mening qalbimda, yuragimda yashab kelayotgan munis onamni eslayman, ko'nglimga yaqin boshqa opa-singillarimizni xotirlayman, Qashqadaryoda o'z farzandi, turmush o'rtog'i uchun qanchalar azob chekkan ayollar, nohaq qamalganlarning qizlari ko'z o'ngimga keladi.

Men Qashqadaryoda rahbar bo'lib ishlaganimda viloyatda qancha odam qamalgan bo'lsa, barchasining onasi, xotini, opa-singillari, qizlari bor edi. O'sha og'ir damlarda o'zbek ayolining o'z oilasi, sevimli yoriga sadoqati naqadar buyuk ekanini ko'p-ko'p misollarda o'z ko'zim bilan ko'rganman va ayol zotining irodasi,

mehr-u muhabbatining kuchiga, uning ma'naviy jasoratiga tan berganman. Va shunday go'zal va olijanob, muqaddas ayollarimizni e'zozlash, ardoqlash, ularning hayotdan rozi bo'lib yashashi uchun barcha-barcha ishlarni qilish bizning asosiy vazifamiz bo'lishi kerak, deb hisoblayman. Chunki, buyuk Alisher Navoiy aytganlaridek, jannat onalarning oyog'i ostidadir.

* * *

Ortda qolgan og'ir yillarda men o'zbek ayollarining o'z yori, o'z oilasiga bo'lgan beqiyos vafo va sadoqatini aynan qashqadaryolik opa-singillarimiz timsolida o'zim uchun qaytadan kashf qildim. Turmush o'rtoqlari, farzandlari yoki aka-ukalari nohaq qamalib yotganida, bu mushtipar ayollar yordam so'rab obkom binosiga bosh urib kelardi. Ularning ulkan sabr-bar-doshi va chidamini, boshiga qanday og'ir musibat tushgan bo'lmasin, Xudo bor, haqiqat bor, degan umid bilan yashagani, adolatga ishonchi, oilasiga mehri, sadoqati naqadar kuchli bo'lganini o'z ko'zim bilan ko'rganman va ularning insoniy fazilatlariga tan berganman...

Balki ular umid bilan bir yostiqa bosh qo'ygan umr yo'ldoshiga hech qachon «Men sizni sevaman, yaxshi ko'raman», deb aytmagandir, lekin butun qalbi, vujudi bilan o'z yoriga fidoyi bo'lgan ana shu ayollar timsolida men haqiqiy sevgi va sadoqat namunasini ko'rganman, desam, ishoninglar, bu – ayni haqiqat.

Yuzlari oftobda qorayib ketgan, qo'llari mehnatda qadoq bo'lgan bu ayollarning qalbi, yuragi shunchalar go'zal, shunchalar beg'ubor ekanini ko'rib, dunyoda

haqiqatan ham o'zbek ayoliga teng keladigan ayol yo'q, degan fikrga yana va yana bir bor ishonch hosil qilganman. Shu ma'noda, erkaklarga qarata aytmoqchiman: shuni bilib qo'ying, bunday ayollarni boshqa hech joyda topolmaysiz.

* * *

Men qachon va qayerda bo'lmasin, hurmatli opa-singillarimizning sha'niga eng samimiy so'zlarni aytish, ularning hurmat-e'tiborini joyiga qo'yishga, ularning og'irini yengil qilishga da'vat etishdan, shu maqsadda qo'limdan kelgan barcha ishlarni amalga oshirishdan hech qachon charchamayman.

Qarshi shahrining 2700 yillik bayrami munosabati bilan bunyod etilgan «El-yurt tayanchi» haykali timsolida ham avvalo ana shunday ezgu fikrlarni mujassam etganimiz, o'ylaymanki, sizlarga yaxshi ma'lum.

Bunday jonkuyar, mehnatkash va fidoyi opa-singillarimiz bugungi kunda ham turli sohalarda samarali mehnat qilib, oila, mahalla, el-yurt o'rtasida tinchlik, o'zaro hamjihatlik va mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga katta hissa qo'shayotganini barchamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

* * *

Agar bizning ayollarimiz boshqa davlatlarda bo'ladigan go'zallik tanlovlarida qatnashgudek bo'lsa, bilib qo'yinglar, birinchi-ikkinchi o'rinlar, albatta, bizning ayollarimizniki bo'ladi. Bu mana shunday mehnat, mana shunday tinimsiz harakat hisobidan. Avvalambor, bizning naslimiz, palagimiz toza.

Ayollarning niyati xolis, yuragi, qalbi toza. Chindan ham eng ko'p mehnat qiladigan, oilani eng sevadigan, oilani haqiqiy oila, erkaklarni erkak qiladigan ham ayollarimizdir.

* * *

Nafaqat uyda, daladagi ishlarning ham katta qismi ayollarimiz yelkasiga tushayotganini qo'limizni ko'ksimizga qo'yib aytishimiz kerak. Ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash sohasida ham, birinchi navbatda, kim xizmat qilyapti – ayollar.

* * *

Odatda, biz go'zal degan so'zni ko'p ishlatamiz. Har kim bu so'zning mazmun-mohiyatini o'zicha tushunadi. Lekin go'zal deganda men, avvalambor, ayollarni tushunaman. Agarki shoir bo'lsam, sizlarga atab, albatta, eng go'zal she'ni yozgan bo'lardim.

* * *

Ayollarning og'ir mehnati nafaqat ishxonada, avvalo, uyda, ro'zg'orda bo'ladi. Agarki kimdir ayol kishining bir kunda uyida necha kilometr yo'l bosishini hisoblasa, stadionlarda yuguradigan sportchilar ham ularning oldida hech narsa bo'lmay qoladi.

Haqiqatan ham, ayollarimiz dalada yoki korxonada ishlasa, undan keyin uyida undan ham ko'proq harakat qilishiga to'g'ri kelsa, ularning og'irini yengil qilish barchamizning, avvalo, erkaklarning vazifasi emasmi?

* * *

Bir paytlar biz qishloqlarimizda go'zallik salonlarini qurish tashabbusini boshlagan edik. Bu tashabbus barcha viloyatlarda keng qo'llab-quvvatlanayotgani e'tiborga loyiq. Joylarda bu ishlarni, albatta, davom ettirishimiz kerak. Nega deganda, ayol go'zal bo'lsa – olam go'zal, ayol baxtli bo'lsa – oila, butun jamiyat baxtli bo'ladi.

* * *

Agar ayollar uchun, ularga alohida e'tibor qaratishimiz uchun bayram bo'lmaganida, uni, albatta, o'ylab topishimiz kerak bo'lar edi.

* * *

Biz hech qachon unutmashimiz zarur – ayolini e'zozlagan erkak baxtli bo'ladi, ayolini hurmat qilgan millat kam bo'lmaydi.

* * *

Ayolni hurmat qilsak, millatni hurmat qilgan bo'lamiz. Faqat bayram kuni emas, bir yilda 365 kun bo'lsa, shuning juda bo'lmasa 50 foizini ayoliga bag'ishlagan erkakning o'zi ham, ayoli ham baxtli bo'ladi.

* * *


Qiz bolani kollejni bitirmasidan, hunar egallasidan kimki turmushga bermoqchi bo'lsa, bilib qo'yinglar, men bunga mutlaqo qarshiman. Qiz bola, avvalo, kasb egallasin, o'z fikriga ega bo'lsin, hayotni

anglasin. Shundan keyin u hayotda o'z o'rmini topadi, yo'lini yo'qotmaydi.

Yurtimizdagi har bir qiz bola – bu mening qizim, mening nabiram va ularni xafa qilishlariga men hech qachon yo'l qo'ymayman.

* * *

Qiz bola – bu bo'lg'usi ona, farzandlarimizning tarbiyachisi. Ertangi avlod – bu O'zbekistonning kelajagi degani. Qishloqlarimizda agar qiz bola o'ziga munosib ish topa olmasa, dardini hech kimga aytolmasa, o'z orzu-niyatlarini amalga oshira olmasa, bu hokim bo'ladimi, prokuror bo'ladimi, boshqa mutasaddilar bo'ladimi, shuni bilib qo'yishi kerak, bu xuddiki qonunga mensimay qaragandek qabul qilinishi zarur. Ana shu yosh qizlarimizning niyatlarini, albatta, ro'yobga chiqarish kerak, ular, albatta, baxtli bo'lishi kerak.



**FARZANDLARIMIZ BIZDAN KO'RA
KUCHLI, BILIMLI, DONO
VA ALBATTA BAXTLI
BO'LISHLARI SHART**

Faint, illegible text, possibly bleed-through from the reverse side of the page. The text is arranged in several paragraphs within a rectangular border.

Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan, o'z yurti, o'z xalqiga fidoyi, biz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlama sog'lom avlodni yengib bo'ladimi? Bugun biz o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarga yetishda ana shu navqiron avlodimiz hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Yana bir bor ta'kidlayman, doimo o'rganish, izlanish, yangilikka intilib yashash kerak. Bugungi kunda qaysi davlat yuksak taraqqiyotga erishgan bo'lsa – bu Janubiy Koreya yoki Yaponiya bo'ladimi, Yevropa davlatlari bo'ladimi – bularning barchasidan o'rganish kerak. Bu borada biz uchun hech qanday mafkuraviy cheklashlar yo'q. Biz uchun yagona mafkura – bu O'zbekistonning taraqqiyoti, O'zbekistonning ravnaqi, O'zbekistonning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligidir.

* * *

Bugungi kunda katta umid, orzu-maqsadlar bilan, Vatanim taraqqiyotiga hissa qo'shaman, deb belini mahkam bog'lab maydonga chiqayotgan, azm-u shijoatli yoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash barchamizning nafaqat vazifamiz, balki burchimizga aylanishi kerak.

* * *

Yangi avlodni tarbiyalash – xalqni tarbiyalash deganidir.

Yurtimizda ta'lim sohasida o'quv muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. 2014-yilda hammasi bo'lib 540 dan ziyod obyekt, shu jumladan, 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so'm sarflandi. Ushbu mablag'larning 120 milliard so'mdan ortig'i ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta'minlash uchun ajratildi.

2011–2016-yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta'lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash bo'yicha qiymati 230 milliard so'mlik ishlar bajarildi. Andijon davlat universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, O'zbekiston Milliy universitetida yangi o'quv binolari barpo etildi.

2014-yilda bir qator yangi institut va fakultetlar, o'quv-ilmiy markazlar ochildi. Toshkent tibbiyot akademiyasining stomatologiya fakulteti va hududlardagi tibbiyot oliy o'quv yurtlari negizida Andijon, Buxoro, Samarqand va Nukus shaharlarida filiallariga ega bo'lgan Toshkent davlat stomatologiya instituti tashkil etildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik institutida xitoyshunoslik fakulteti ochildi, shuningdek, ushbu institut qoshida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'l-yozmalari markazi tashkil qilindi.

Janubiy koreyalik sheriklar bilan hamkorlikda Toshkent shahrida Inxa universiteti tashkil etildi. Mazkur oliy o'quv yurtida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida, birinchi navbatda, dasturiy ta'minot mahsulotlari ishlab chiqarish, axborot tizimlari va kompyuter tarmoqlarini boshqarish bo'yicha xalqaro standartlar darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi.

O'tgan yili oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishning takomillashtirilgan tizimi joriy etildi, ya'ni test sinovlariga informatika bo'yicha savollar kiritildi, mutaxassislikka oid fanlar bo'yicha baholash ballari oshirildi. Bu esa oliy o'quv yurtlariga tanlagan kasbini hisobga olgan holda, eng yaxshi tayyorgarlik ko'rgan abituriyentlarni saralab olish imkonini beradi.

* * *

Ta'lim-tarbiya va tibbiyot muassasalarini yanada rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va bugungi kun talablari asosida jihozlash darajasini oshirish, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini jadal rivojlantirish, aholini sifatli ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya tozalash tizimlari bilan ta'minlash biz uchun ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Ushbu maqsadlar uchun 2015-yilda davlat budjeti jami xarajatlarining qariyb 60 foizi yo'naltiriladi. Bu o'tgan yilga nisbatan 4 trillion 100 million so'm yoki 22,5 foiz ko'p demakdir. Jumladan, ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishga 34,3 foiz, sog'liqni saqlash tizimiga 14,2 foiz mablag' sarflanadi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish aholimiz, avvalo, yosh avlodimizning sog'lig'ini mustahkamlashda muhim o'rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Bu borada sport inshootlarini har tomonlama rivojlantirish va ularni zamonaviy inventarlar bilan jihozlash uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda.

2014-yil mobaynida faqat Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari hisobidan 18 ta namunaviy sport obyekti va 73 ta maktab sport zali barpo etilgani, 24 ta obyektida qariyb 100 milliard so'mlik rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilganini qayd etish lozim.

Bugungi kunda O'zbekistonda 2 millionga yaqin farzandlarimiz, shu jumladan, 840 mingdan ortiq qiz bolalar sportning 30 dan ziyod turi bilan muntazam shug'ullanmoqda.

Nufuzli xalqaro musobaqalarda mamlakatimiz sportchilari erishayotgan g'alabalar tobora ko'payib bormoqda. 2014-yilda sportchilarimiz 849 ta medalni qo'lga kiritdi, ularning 266 tasi oltin medallardir.

Bu haqda gapirganda, o'tgan yilning kuzida Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan, 45 davlatdan 13 ming sportchi qatnashgan XVII Osiyo o'yinlarida sportchilarimiz 61 ta, jumladan, 12 ta oltin medalni qo'lga kiritib, O'zbekiston terma jamoasi eng kuchli o'nta mamlakat qatoridan joy olganini mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardim. Sportchilarimiz ana

shunday yutuqlari bilan Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etishga munosib hissa qo'shdilar va ularning qo'lga kiritgan marralari bilan har qancha faxrlansak arziydi, albatta.

* * *

Odamlar adolat uchun jon beradi, adolat uchun kurashadi, adolat uchun o'zini ham ayamaydi. Hozirgi kunda O'zbekistonda ana shunday mardlar o'sib, voyaga yetmoqda. Men bugungi yoshlarimizni ko'rsam, xayolimga shunday fikrlar keladiki, ey, sizlar boshqacha tarbiya olyapsizlar! Mutlaqo boshqacha! Bizning yoshligimizda bunday imkoniyat va sharoitlar yo'q edi. Chunki biz boshqacha davrda yashaganmiz, boshqacha mafkuraning mahsuli bo'lganmiz.

* * *

Faraz qiling, mana shu 24 yilda tug'ilib voyaga yetganlar eski zamonni bilmaydi. Ularning hammasi, aytaylik, hozirgi kunda kompyuterda ishlash bo'ladimi, ingliz tilini o'rganish bo'ladimi, chet mamlakatlardagi o'z tengdoshlari bilan bellashish bo'ladimi, sport, ilm-fan, madaniyat sohalarida o'zini shunday ko'rsatyaptiki, bularning barchasini ko'rganda, odam beixtiyor g'ururlanib ketadi. Shaxsan menga shunday paytda bamisoli qaddim ancha o'sgandek tuyuladi. Kerak bo'lsa, devor yoniga borib, qanchalik o'sganimni o'lchab ko'rishga ham tayyorman. Balki kimgadir kulgili ko'rinadi, lekin bilasizmi, haqiqatan ham odam shuni his qiladi. Bunday ishlarda mening ham mehnatim,

hissam bor, degan hissiyot odamning ko'nglini ham, qaddini ham ko'taradi.

Bugun O'zbekistonda 31 million xalq yashayapti. Yoshlarning, misol uchun 30 yoshga kirganlarning ulushi taxminan 60 foizni tashkil etadi. Bu avlodni, o'zingiz tasavvur qiling, mana shunday xislatlarga, mana shunday fazilatlarga, xususiyatlarga ega bo'lgan va katta-katta marralarga intilayotgan bolalarni to'xtatib bo'ladimi?

* * *

Birovga yaxshilik qilgan odamga, albatta, yaxshilik qaytadi, o'ziga qaytmasa bolasiga, nabiralariga qaytadi. Bu fikr, bu g'oyani ayniqsa endi katta hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz unutmasdan, umr bo'yi bunga amal qilib yashasa, hech qachon kam bo'lmaydi.

* * *

Men yoshlarimizga, mening bolalarimga qarata, o'rganishdan hech qachon charchamanglar, deb aytmoqchiman. O'rganish, intilish hech qachon ayb sanalmaydi. Nimanidir bilmasang, uni o'rganish zarur. Avvalambor, endi hayotga kirib kelayotgan yoshlarga nima lozim? O'rganish, o'rganish va yana bir bor o'rganish kerak. Kasb o'rgangan, ilm o'rgangan kishi, o'zbekona aytganda, hech qachon kam bo'lmaydi.

* * *

Bu dunyoda odam faqat qorin to'ydirish uchun yashamaydi. Odam avvalo odam ekanini amalda

namoyish qilishi kerak. Shunday ekan, biz o'z tariximiz bilan, buyuk ajdodlarimiz bilan g'ururlanishimiz lozim. Shunga tayanib, yangi-yangi ufqlarga o'tlanish zarur. Belni mahkam bog'lab – «mana, men borman», deb maydonga chiqishga tayyor bo'lib turish kerak. Mana shunday hissiyot bilan yashaydigan bolalarni men o'zimning farzandlarim deb gapirishdan hech qachon charchamayman.

* * *

Aholi bandligini ta'minlash, birinchi navbatda, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotimizning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, biz uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan aholi bandligini oshirishga qaratilgan dastur asosida har yili mamlakatimiz bo'yicha salkam 1 millionta ish joyi tashkil etilmoqda.

Andijon viloyati misolida ko'radigan bo'lsak, o'tgan yili 80 mingdan ziyod yangi ish o'rni yaratilgani, jumladan, qariyb 41 mingga yaqin kollej bitiruvchisi ishga joylashtirilganini qayd etish o'rinlidir.

* * *

Andijon o'zining dunyo miqyosida nom qozongan sportchilari va ularning minglab izdoshlariga, ayniqsa, mashhur boks maktabiga ega viloyat hisoblanadi. Bunday natijalarga erishishda bu yerda jismoniy tarbiya va sport sohasiga berilayotgan katta e'tibor mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Ana shunday ishlarimizni kuchaytirish maqsadida viloyatda kelgusi 5 yilda Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 65 ta obyektida qurilish, ta'mirlash va jihozlash ishlarini amalga oshirish mo'ljallanmoqda.

Shu borada men yaqinda Toshkentda bo'lib o'tgan Jamg'arma Homiylik kengashining yig'ilishida aytilgan muhim bir fikrni sizlarga yetkazmoqchiman. Biz ana shu majlisda mamlakatimizning barcha 14 ta subyektida, jumladan, Andijon viloyatida ham xalqaro miqyosdagi sport ustalarini tayyorlash bo'yicha maxsus sport majmualarini barpo etish haqida kelishib oldik.

* * *

Hammamiz yaxshi bilamizki, oddiy gimnastika zali yoki maktab sport zalida Olimpiada g'olibi, jahon chempioni yoki qit'ada yetakchi bo'ladigan sportchilarni tarbiyalashni o'ylash xomxayoldan boshqa narsa emas. Nega deganda, bugun zamon, hayot shunday tez o'zgaryaptiki, chempionlar yetishtirish uchun ko'proq e'tibor va shart-sharoit talab qilinmoqda. Mana, Xitoyni oling, bu mamlakatda 5-7 yoshdan boshlab iqtidorli bolalar saralab olinadi va tarbiyalanadi. Maqsad – ularning orasidan Olimpiya chempionlarini tayyorlash. Agar yigit-qizlar bolaligidan boshlab o'z sevgan sport turi bilan shug'ullansa, malakali murabbiyning qo'lga tushsa, bu yo'lda uning uchun hamma imkoniyatlar yaratilsa, albatta, natija ham shunga yarasha bo'ladi.

Biz ham sportchi yoshlarni tayyorlashda shu yoʻldan borishimiz kerak, bizga ham jahon miqyosida eng yuksak shohsupalarga koʻtariladigan, hammani qoyil qiladigan chempionlar kerak. Andijonlik Muhammadqodir Abdullayev 2000-yili Sidney Olimpiadasi chempioni boʻlganida, men xuddiki oʻzimning bolam chempion boʻlganidek xursand boʻlganim hali-beri xayolimda turadi.

Ana shu fikrlarning barchasini hisobga olib, aytmoqchimanki, Andijonda ham zamonaviy sport majmualari qurishimiz kerak va eng malakali, fidoyi sport ustalarini bolalarimiz bilan ishlashga jalb qilsak, kerak boʻlsa, chet eldan mohir trenerlarni olib kelsak, chempionlarimiz, albatta, yanada koʻpayadi.

* * *

Sizlarga maʼlumki, mustaqillik yillarida yurtimizda sogʻlom va barkamol avlodni voyaga yetkazish yoʻlida amalga oshirgan ulkan, tom maʼnoda tarixiy ishlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni jadal taraqqiy toptirish, boshqalar havas qilayotgan yuksak marralarga erishishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Buxoro viloyatida kelgusi besh yilda 95 milliard soʻm mablagʻ hisobidan oʻnlab yangi maktablar, litsey va kollejlarda, madaniyat va sanʼat, sport maskanlarida yangi qurilish va rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish belgilangani ana shu ezgu ishlarimiz davom etayotganining dalilidir. Shular qatorida Buxoro davlat universitetining oʻquv binosini kapital rekonstruksiya qilish ishlari 2016-yilda yakunlanadi.

Biz ta'lim-tarbiya sohasidagi keng ko'lamlı islohotlarimizni, albatta, oxiriga yetkazishimiz, bunday ta'lim dargohlarini nafaqat qurish, ta'mirlash va jihozlash, balki farzandlarimizni zamon talablari asosida kamol toptirish uchun eng yuksak malakali o'qituvchi va domlarni jalb etish, ularning bilim va tajribasini muntazam oshirib borishga eng muhim, g'oyat mas'uliyatli vazifa deb qarashimiz zarur.

* * *

Hammamizga yaxshi ma'lumki, xalqaro musobaqalarda, bu Olimpiya o'yinlari bo'ladimi, jahon chempionatlari bo'ladimi, bunday murosasiz bellashuvlarda shohsupaga chiqish, medallarni qo'lga kiritish oson emas.

Mamlakatimizda Olimpiya chempionlarini ko'paytirmoqchi bo'lsak, umuman, nufuzli musobaqalarda O'zbekistonning bayrog'ini baland ko'tarishni istasak, yosh sportchilarni tayyorlash tizimini mutlaqo o'zgartirishimiz kerak. Biz tashkil qiladigan xalqaro miqyosdagi sport ustalarini tayyorlash bo'yicha maxsus majmualar ana shu maqsadga xizmat qilishi kerak. Ana shundan keyin mana shu Jizzax viloyatidan bitta-ikkita emas, balki o'nlab Olimpiya chempionlari yetishib chiqishi mumkin. Mana, shaxmat bo'yicha chiqyapti! Bunday sportchilarni qancha ko'p yetishtirsak, millatimizning salohiyatini shuncha yuksaltirgan bo'lamiz.

* * *

Bugun xorijiy hamkorlarimiz bizning yoshlarimizni ko'rib, ularga har tomonlama qoyil qolmoqda. Ular

bizning yoshlarimiz bilan suhbatlashib, qani endi, o'z kasbini puxta egallagan, xorijiy tillarda bimalol gaplasha oladigan bunday yoshlarni boshqa mamlakatlarda ham ko'rsak va ular bilan ishlasak, deb orzu qiladi. Bir so'z bilan aytganda, ular O'zbekiston yoshlarining salohiyatini yuksak baholaydi.

Bugungi kunda xorijiy hamkorlarimizning, «Sizlarning yoshlaringiz, bolalaringizning ko'zi yonib turadi» degan so'zlarini har qadamda eshitish qiyin emas.

Mana yaqinda AQSHning «Jeneral motors» kompaniyasi rahbarlari bilan uchrashuvda – sizlar yaxshi bilasiz, butun dunyoga mashhur bu kompaniya bilan hamkorlikda Asakada avtomobil ishlab chiqaryapmiz, Toshkent viloyatida motor zavodini barpo etib, ishga tushirdik – ular ayni shu gaplarni menga aytdi.

Haqiqatan ham, bu biron-bir sohada hech kimdan kam bo'lmagan, yangicha fikrlaydigan yangi avlodning maydonga chiqayotganidan dalolat beradi. Bunday ming-minglab, sof niyat bilan oldinga intilishga, o'zining Olloh bergan imkoniyat va salohiyatini O'zbekistonimiz ravnaqi uchun safarbar qilishga, shuning hisobidan, avvalambor, uning o'zi rozi bo'lib, hayotda o'rmini topib yashashga bel bog'lagan yigit-qizlarimizga nisbatan ana shu iborani ishlatish har tomonlama o'rinli bo'ladi. Ya'ni, bunday yoshlarning ko'zi ham yonib turadi, harakati, intilishi ham shunday qat'iy va dadilki, menga imkoniyat beringlar, men o'zimni ko'rsataman, deb g'urur bilan yashaydigan bunday bolalarni,

qani, aytinglar, sevmaslik, yaxshi ko'rmaslik, ular uchun barcha-barcha shart-sharoitlarni yaratib bermaslik mumkinmi, deb men o'zinga o'zim savol beraman.

* * *

Men doim bir narsaga e'tibor beraman: bolalarimiz, qizlarimizning kiyinishiga qaranglar, ular qanday kiyinadi? Qaranglar, kim bizning bolalarimizdek chiroyli kiyinadi? Bu bir qarashda mayda narsa bo'lib tuyulishi mumkin. Aslida bu mayda gap emas. Mana, kollejlarga, litseylarga qatnaydigan bolalarning kiyinishiga qaranglar, galstukni shunday boplab bog'laydiki, men goh-goh oynaning oldiga kelib, ular qanday bog'lar ekan, deb mashq qilaman. Kollejda o'qiyotgan, endigina 16 yoshga kirgan bola mana shunday bejirim kiyinadi.

Qizlar-chi? Bizning chiroyli qizlarimizni boshqalar bilan solishtirishning hojati yo'q. Ular baribir birinchi o'rinda turadi, dunyoda bizning qizlarimizga teng keladigani yo'q.

Men oxirgi chiqishlarimdan birida, «Aytinglar, bunday olijanob, bunday bag'rikeng, bunday mehr-oqibatli xalq yana qayerda bor?» degan savolga javob berib, aminman, bunday xalqni qidirib-qidirib hech joydan topolmaysiz, deganim esimda. Shu fikrni g'urur bilan takrorlashga doimo tayyorman. Bizning 24 yillik mustaqil hayotimiz shuni ko'rsatdiki, biz to'g'ri yo'lni tanlashda shoshilmadik.

Men shu haqda ko'p o'ylayman, kechalari uyqu bilmasdan, qayerda biz nimani hisobga olmadik, qaysi

masalaga yetarli e'tibor bermadik, degan savollar doimo odamni qiynaydi. Shularni umumlashtirib, takror aytmoqchiman, biz to'g'ri yo'lni tanlashda shoshilmadik. Ba'zilar, ey, mana, biz unga yetib bordik, biz bunga yetib bordik, degan baqir-chaqirlarni ko'p gapiradi. Biz hech qachon shoshilmadik. Endi bizga havas qiladigan payt keldi. Hatto dunyodagi eng rivojlangan, manaman degan davlatlarning vakillari ham kelib bizdan nimani so'raydi? Bu bolalarni qayerdan topdinglar, deb so'raydi.

Men shu haqda alohida aytmoqchiman, yurtimizdagi butun borlig'i bilan ishga berilib, ertangi kunga ishonib, astoydil mehnat qiladigan odamlarni, ayniqsa yoshlarni ko'rib, xorijlik hamkorlarimiz bizga katta ishonch bilan qaramoqda.

Haqiqatan ham, biz yoshlarimiz, farzandlarimizning yonib turgan ko'zlari, g'ayrat-shijoati, bilimga intilishi, dunyoda hech kimdan kam bo'lmayman, degan harakatini yorug' kelajagimizning, ezgu maqsadlarimizga erishishning asosiy omili va garovi sifatida ko'ramiz.

* * *

Albatta, yoshlarimizning nimalarga qodir ekani, qanday imkoniyatlarga ega ekani, hayotga qanday tayyor bo'layotgani, kerak bo'lsa, qanday bosqichlardan o'tayotganini men yaxshi bilaman. Mana endi turli davlatlarning mutaxassislari bilan, tengdoshlari bilan bahslashishga, bellashuvga tayyor bo'lgan yoshlarimiz dunyoni ko'ryapti. Endi ular boshqalardan o'mak olib, kuchiga kuch qo'shilyapti. Endi ularni to'xtatadigan

biron to'siq degan narsani topish qiyin. Faqatgina to'g'ri yo'lni ko'rsatsak, bolalarimiz bosadi. O'zbekcha aytganda, mahalliy shevada aytganda, bosadi. «Bosadi» deganim – yangi-yangi marralarni egallaydi, deganim.

Avvalambor, bilimga intilish, ikkinchidan, hech tortinmasdan boshqalardan o'rganish kerak. Men bolalarimga aytmoqchiman: aziz farzandlarim, hech qachon o'qish-o'rganishdan, izlanishdan uyalmanglar. Odamzod bor ekan, umrining oxirigacha o'rganadi. Men hamma narsani bilaman, deb boshqalarni pisand qilmasdan yuradigan odamning hech qachon biri ikki bo'lmaydi.

Men bolalarimizni shuning uchun ham yaxshi ko'ramanki, ularda g'o'dayish, osmonda parvoz qilish degan narsalar yo'q. Xudodan so'rayman, bunday holatlar ularda bo'lmasin ham. Biz doim o'rganishga, tinchlikni qadrlab, tarixdan saboq chiqarib yashashga tayyor bo'lgan xalqmiz. Bugun biz ayni shunday yoshlarni, hammani hayratda qoldiradigan yosh avlodni tarbiyalayapmiz.

* * *

Jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom avlod bizning eng katta boyligimiz. Yaqin qo'shnilarimiz bo'lgan ayrim davlatlarda yoshlarning 50–60 foizi savodsiz. Ertaga ulardan nima kutish mumkin? Ular ertangi kunini nimaning hisobidan quradi? Shu ma'noda, O'zbekistonning eng katta boyligi nima desa, hech ikkilanmasdan aytishga haqlimiz – eng

katta boyligimiz bizning yoshlarimiz, bolalarimiz. Bugungi avlod biz bundan 18 yil oldin qabul qilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mevasi bo'lib, o'sha paytlar biz maqsad qilgan «portlash effekti» ro'y bermoqda.

Bugun yurtimizda barpo etilgan eng zamonaviy korxonalarda o'zimizning farzandlarimiz ishlayapti, ular eng murakkab texnologiyalarni boshqarmoqda. Asakadagi avtomobil zavodimizda hozir birorta chet ellik mutaxassis bormi? Yo'q, hammasi o'zimizning qorako'z bolalarimiz. Bundan faxrlanmay, g'ururlanmay bo'ladimi axir?

* * *

O'z hayoti, o'z taqdirini ona O'zbekistonimiz bilan chambarchas bog'lab, kelajak sari katta ishonch bilan intilayotgan bolalar – bu mening bolalarim.

Bunday azm-u shijoatli, ko'zlari yonib turadigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarga ega, dunyo maydonida o'z tengdoshlari bilan bellashuvga qodir bo'lgan yoshlarni himoya qilishga, ularga madad berishga, ularga har qanday amaliy sharoit va imkoniyat tug'dirib berishga men doimo tayyorman.

Aziz farzandlarimizni hech kimdan kam bo'l-maydigan, sog'lom va barkamol insonlar etib tarbiyalash maqsadida kelgusi 5 yilda Navoiy viloyatida o'nlab maktablar, maktabgacha ta'lim maskanlari, litsey va kollejlari, bolalar sporti obyektlari, musiqa va san'at maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish,

ta'mirlash va jihozlash ko'zda tutilmoqda. Shular qatorida, Navoiy shahri markazida Navoiy davlat konchilik instituti uchun muhtasham o'quv binosi barpo etiladi.

* * *

Mamlakatimizda 2009–2014-yillarda 136 ta yangi musiqa va san'at maktabi qurildi. Ayni vaqtda 142 ta ana shunday maktab kapital rekonstruksiya qilinib, qayta jihozlandi. Miqyosi va ko'lamiga ko'ra g'oyat ulkan bo'lgan ushbu ishlarni amalga oshirish uchun 634 milliard 4 million so'm hajmida mablag' sarflangani bu sohaga qanday katta e'tibor qaratayotganimizni ko'rsatadi.

Namangan viloyatida keyingi yetti yilda 27 milliard 2 million so'm mablag' evaziga 15 ta zamonaviy bolalar musiqa va san'at maktabi foydalanishga topshirilgani ham shu yo'lda katta qadam bo'ldi.

Shu borada muhim bir masalaga e'tiboringizni jalb etmoqchiman.

Musiqa maktabining vazifasi – deylik, faqat bir asbob chalishni yoki nota savodini o'rgatish degani emas. Bu maktablarning bosh vazifasi – avvalambor, bolalarimiz, yosh avlodimizning musiqa va san'atga bo'lgan mehr-muhabbatini uyg'otish va rivojlantirishdan iborat.

Maqsadimiz – bolalarimiz jahon san'at olamiga chuqurroq kirib borsin, uning sir-asrorini, buyuk musiqa ijodkorlarining o'lmas merosini – bu Betxoven bo'ladimi, Shopen bo'ladimi, Motsart bo'ladimi, har

tomonlama anglab yetsin, yuksak madaniyatli insonlar bo'lib kamol topsin.

* * *

Bugungi kunda Yer yuzining ayrim nuqtalarida qanday siyosiy mojarolar, urush va qonli to'qnashuvlar sodir bo'layotganidan barchangiz xabardorsiz, albatta. Misol uchun, Iroq, Suriya va boshqa mamlakatlarda xalifalik tuzishga qaratilgan harakatlar amalga oshirilmoqda. Chet davlatlarda siyosiy vaziyat shunday qaltis bo'lib turgan bir paytda, bolalarimizni yo'ldan urib, xorijiy mamlakatlarga olib chiqish uchun harakatlar bo'lishi – biz uchun juda katta xavf. Bunday makkor ishlarning ham tashkilotchilari bor. Ularning turli aldovlar, yolg'on va'dalar bilan bolalarimizni chalg'itishlariga hech qachon yo'l qo'ymasligimiz kerak.

* * *

Bugungi kunda inson, davlat va jamiyat hayotiga eng katta ziyon yetkazadigan narsa bu – soxta va yolg'on informatsiya. Bu – odamlarni yo'ldan urishning eng xavfli usuli. Ayniqsa, yoshlarni chalg'itish, kerak bo'lsa, oyog'ini yerdan uzib, turli cho'pchak va afsona gaplarni ularning ongiga quyishda bu usul keng qo'llanmoqda.

* * *

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishning eng muhim sharti bo'lgan ta'lim-

tarbiya masalasi haqida soʻz borganda, biz koʻpincha sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi maktablar, litsey va kollejlar, oliy oʻquv yurtlari barpo etish, ularni zamonaviy jihozlash haqida koʻproq gapiramiz. Holbuki, ayni shu ishlarimiz bilan birga, taʼlimning mazmuni, sifati ham tubdan oʻzgarmoqda.

* * *

Bugungi kunda Sirdaryo viloyatida yashayotgan 780 mingga yaqin aholining qariyb 300 mingini yoki 38 foizdan ortigʻini 18 yoshgacha boʻlgan yoshlar tashkil etmoqda. Bu esa, tabiiyki, ana shu farzandlarimizni sogʻlom va barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotda munosib oʻrin topishini taʼminlash uchun oldimizga koʻp-koʻp dolzarb vazifalarni qoʻyadi. Shu koʻz bilan qaraganda, viloyatda taʼlim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan katta ishlar, ayniqsa, eʼtiborlidir.

Bu haqda soʻz yuritganda, soʻnggi yetti yilda 8 ta yangi maktab qurilib, 140 ta maktabda kapital rekonstruksiya va taʼmirlash ishlari amalga oshirilganini aytish oʻrinlidir. Kelgusida ham yana koʻplab zamonaviy maktablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, madaniyat va sanʼat, sport maskanlarini qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash ishlari davom ettiriladi.

* * *

Biz farzandlarimizga chet tillarni oʻrgatishni takomillashtirish boʻyicha qamrovi va mazmun-mohiyati boʻyicha katta ishlarni boshladik. Jumladan,

2012-yilda shu borada maxsus qaror qabul qildik. Shu qisqa davrda bu ishlarimiz o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirsak, nasib etsa, bu borada ham «portlash effekti»ga erishamiz. Shunda dunyoda bizning farzandlarimizning oldiga tushadiganning o'zi bo'lmaydi. Ishoninglar, bu shunchaki havoyi, balandparvoz gap emas, biz boshlagan ish chuqur va mustahkam asosga ega bo'lib, u, albatta, ertaga yuksak natijasini ko'rsatadi.

Biz bugun erishayotgan muvaffaqiyatlarimizni davom ettirsak, amalga oshirayotgan ishlarimiz ertaga qanday samara berishini hisobga olib, shu yo'ldan qat'iyat bilan boradigan bo'lsak, O'zbekistonning kelajagi, albatta, buyuk bo'ladi.

* * *

Eng muhimi, zamonaviy bilim va tafakkurga, sog'lom dunyoqarashga ega, rivojlangan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga tayyor bo'lgan, ko'zi yonib turadigan navqiron avlodimiz katta ishonch bilan hayotga dadil kirib kelayotgani barchamizni quvontiradi.

Bu dunyoda har qaysi ota-ona, avvalambor, bolalarini o'stirish, voyaga yetkazish, uyli-joyli qilishdek ezgu niyatlar bilan yashaydi. Ayniqsa, o'zbek xalqining bolajonligi, o'z bolasini jonidan ham yaxshi ko'rishi, bu boradagi fidoyiligi har qanday tahsinga sazovordir.

Bugungi kunda yurtimizda ertangi kunimizni o'z qo'limiz bilan quramiz, degan yoshlarni ko'rganimda,

menda xuddi qanot paydo bo'lgandek bo'ladi. Biz bunyod etayotgan bu go'zal hayotni ertaga kimning qo'lga topshiramiz? Albatta, hech kimdan kam bo'lmaydigan yoshlarimiz, farzandlarimizning qo'lga! O'zbekistonda yangi avlod paydo bo'layotganini dunyo tan olyapti. Bunday avlod bilan ertaga, albatta, maqsadlarimizga yetamiz.

* * *

Bugun Surxon eli sportda o'zini ko'rsatmoqda. Surxonning nafaqat polvon yigitlari, hatto qizlari ham sportda birinchilar qatorida, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

Surxondaryolik yigit-qizlarning kiyinishi ham kishini o'ziga tortadi. Bu bizning qadimdan o'zimizga xos, o'zimizga mos milliy kiyimlarimizga ega bo'lganimizdan dalolat beradi. Bu shunchaki gap emas. Inson o'zini hurmat qiladigan bo'lsa, shundan keyin boshqalar ham uni hurmat qiladi...

Bizning ertangi avlodimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, aqlli, dono va albatta baxtli bo'lishi shart, degan shiorni men 90-yillarda aytgan edim. Mana, endi natijasini ko'ryapmiz. Bizning bolalarimizning ko'rinishi ilgari qanday edi-yu, hozir qanday?

Armiyadan muddatidan oldin ketishga majbur bo'lgan yigitlarni 80-yillarning oxirida men o'zim Toshkentda, Markazqo'm binosida kutib olardim. Qaddini ko'rsangiz, bir yarim metrdan baland emas. Qanday qilib ularni jazodan olib qolish, qanday qilib vaqtincha armiyadan ozod qilishni o'ylardim. Endi hozirgi

bolalarimizni ko'ring. Kecha Qashqadaryoda bo'lgan edik. Shunday kelishgan yigitlar, qizlar o'tiribdiki, ularning qaddi-qomatini ko'rib, havasingiz keladi.

Bizning farzandlarimiz har tomonlama sog'-salomat bo'lsa – bu, avvalo, xalqimizning baxti emasmi?

Shuning uchun, mana, Toshkentda qancha-qancha yangi klinikalar quryapmiz. Yaqinda yana kelishib oldik, turli tug'ma kasalliklari bor yoki shunday kasalga duchor bo'lgan bemorlarni davolash uchun hozir biz shunday zamonaviy shifoxonalarni quryapmiz va eng nozik operatsiyalarni ham o'zimizda o'tkazyapmiz. Bugungi kunda daromadimiz ham, hayot darajamiz ham o'sib bormoqda, odamlarimiz yaxshi yashayapti. Yaxshi yashash o'z yo'li bilan, lekin har qaysi oilada sog'lom hayot tarzi hukmron bo'lsa, bola ham sog'lom bo'lib tug'iladi. Bundan katta baxt bormi o'zi?

* * *

Barchamiz bugun chuqur anglab oldik – faqatgina zamonaviy asosda ta'lim-tarbiya olgan, jahonning manaman degan mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bellasha oladigan, jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko'tarishga qodir bo'ladi.

Shu sababli yurtimizda yangi-yangi maktablar, litsey va kollejlarni, madaniyat, san'at va sport obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, zamonaviy talablar asosida jihozlash ishlariga bundan buyon ham ustuvor e'tibor qaratiladi.

Toshkent viloyatida 2015-yilda 23 milliard 500 million so‘m mablag‘ hisobidan o‘nlab bolalar sporti obyektlarini yangitdan qurish, rekonstruksiya qilish va zamonaviy jihozlash bo‘yicha katta ishlar olib borilayotgani ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Kelgusi besh yilda yangi maktablar, sport zallari, basseynlar, madaniyat va san‘at maskanlarini barpo etish ham shu boradagi rejalarimizdan o‘rin olgan.

* * *

Yoshlar haqida men boshqa viloyatlarda ham ko‘p gapiraman. Bugun Toshkent viloyatining yoshlariga qarata, bolalarim, siz shunday bir zamonda yashaysizki, o‘zingizni ko‘rsatishingiz, bor imkoniyat va salohiyatingizni ishga solishingiz mumkin, deb aytmoqchiman. O‘zingiz qarang, sizlarning bugun har qadamda tashabbus ko‘rsatishingiz uchun qanday imkoniyatlar yaratilgan. Ya‘ni, sizning qalbingizda o‘z yurtini sevish, shu yurt uchun yonib yashash tuyg‘usi boshqacha bo‘lib, bu – sizlarning baxtingiz, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Yurtimizdagi keng ko‘lamli yangilanishlar, bunyodkorlik va obodonchilik ishlarida siz, aziz farzandlarimiz uzoqdan kuzatuvchi emas, balki bu jarayonlarning faol ishtirokchisi bo‘lmoqdasiz.

* * *

Men viloyatlarda bo‘lganimda jismonan baquvvat, kelishgan, chiniqqan bolalarimizni ko‘rib, juda faxrlanaman. Ular, menga fотиha bering, Braziliyada

champion bo'lmog'chiman, degan ko'tarinki fikrlarni bildirdi. O'zbekiston zaminida chempionlikka tashna bunday yigit-qizlarimiz kam emas. Ularga xalqaro me'yorlar asosida shart-sharoit yaratib bersak, ularni yuqori malakali chet ellik trenerlar, mutaxassislar bilan ta'minlasak, yurtimizdan yana ko'plab chempionlar, xalqaro musobaqalar g'oliblari chiqadi. Biz shunga harakat qilishimiz kerak.

E'tibor bersangiz, hozirgi kunda onalar o'z farzandlarini sport zallariga, musiqa maktablariga yetaklab kelmoqda. Farzandining ana shu maskanlarda ta'lim olishi va kamol topishi uchun vaqtini ham, mablag'ini ham ayamayapti. Bu O'zbekistonda ilgari kuzatilmagan holat. Sizlarga aytsam, bu – yurtimizda yangicha fikrlaydigan avlod paydo bo'layotganining ifodasi emasmi? Men ishonaman, bunday avlodni hech qanday kuch o'z yo'lidan to'xtata olmaydi. Bizning, albatta, buyuk davlat qurishimizning asosiy sharti va garovi aslida shu emasmi?

* * *

Xalqimiz kechagi tariximizda qanday og'ir kunlarni ko'rganini yoshlarimizga kim tushuntirib beradi? Agar bu haqiqatni bolalarimizga biz yetkazmasak, kim yetkazadi?

Avvalambor, yon-atrofga ochiq ko'z bilan qarab xulosa chiqarish, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lish, kerak bo'lsa, haqiqatdan doim ruhlanib yashash zarur. Haqiqatni qidirish va haqiqatdan kuch olib yashash kerak.

Faqat o'z kuch va salohiyatiga tayanib, o'zligini anglab, boshini baland ko'tarib yashaydigan xalqni dunyo ahli hurmat qiladi.

Mening istagim bitta – yoshlarimizga, farzandlarimizga shuni yetkazsak bo'ldi. Mening armonim qolmaydi. Nega deganda, har qaysi millat, har qaysi xalq o'zidan bilimlir, kuchli, qudratli va baxtli avlodni tarbiyalashga harakat qiladi. Bugungi kunda bolalarimiz shunday ruhda, shunday darajada tarbiyalanyapti, shunday darajaga ko'tarilyapti.

Farzandlarimiz ilm-fan sirlarini o'rganish bo'ladi-mi, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallash bo'ladimi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internetdan foydalanish bo'ladimi, barcha-barcha sohalarda yuksak cho'qqilarni egallamoqda. Bugun besh yoshli bola internetning u yog'idan kirib, bu yog'idan chiqadiki, shaxsan men ularning hayotini o'zimning shu yoshdagi hayotim bilan solishtirib, hayratda qolaman. Bir so'z bilan aytganda, bugungi avlod juda tez o'syapti. Buni tan olishimiz va ayni shunday natijalarga erishganimizdan faqat xursand bo'lishimiz kerak. Bugun talabalarimiz ko'pgina sohalarda professor va o'qituvchilarimizdan ancha ilg'or ekanini hech kim inkor eta olmaydi. Hozir domlalarimizda o'z ustida tinimsiz ishlashi uchun yana bitta turtki – men bolalardan, talabalardan orqada qolayotgan bo'lsam, ularga dars berishga haqqim yo'q, o'z ustimda yanada ko'proq ishlashim kerak, degan fikr paydo bo'lyapti.

Shu haqda soʻz borar ekan, hayotda koʻp narsani koʻrgan inson sifatida aytmoqchimanki, professor faqat sinov daftarchasiga baho qoʻyish, imzo chekish bilan oʻziga haqiqiy obroʻ topa olmaydi. Professor va oʻqituvchining obroʻsi – bu uning bilimi va salohiyati, talabalar yuragida, qalbida qoldirgan oʻchmas izi, yaxshi mutaxassis va shogirdlarni tarbiyalashi bilan oʻlchanadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugun bolalarimiz ana shunday darajaga koʻtarilayotgan ekan, bu bizning katta yutugʻimiz boʻlib, haqli ravishda barchamizga gʻurur bagʻishlaydi.

* * *

Men tushunaman – yosh yigit-qizlarga yoqadigan, ularning koʻngliga mos tushadigan zamonaviy ish topib berish oson emas, lekin ayni shu masala uchun mutasaddi boʻlgan rahbarlar masʻuliyatni chuqur his qilib, astoydil ishlaydigan boʻlsa, koʻp narsaga erishish mumkin.

Hozirgi kunda biz kasb-hunar kollejlarini bitirib chiqayotgan baʼzi yigit-qizlarni, ularning istagiga qaramasdan, boʻsh turgan joylarga ishga qoʻyishga majbur boʻlyapmiz. Men bunday bolalarga ular qanday kasbni egallagani va intilishiga qarab ish topib berishni oʻzimning, davlatning eng asosiy vazifasi deb bilaman. Haqiqatan ham, farzandlarimiz qaysi soha boʻyicha oʻqigan boʻlsa, shu yoʻnalishda oʻz ishini davom ettirishi uchun ularga zarur sharoit tugʻdirib berish lozim.

Xorazm viloyatining imkoniyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, nafaqat qishloq xo'jaligi, balki sanoatni, xizmatlar sohasini rivojlantirish hisobidan bu masalani yechishimiz kerak. Misol uchun, turizmni taraqqiy ettirish borasida Xorazm viloyatida katta yutuqlarga erishilmoqda. Xorazmlik yoshlarning bir emas, ikki emas, uch-to'rtta tilda bemalol gaplashishi chet ellik mehmonlarni Xivanning tarixiy obidalaridan kam hayratda qoldirayotgani yo'q. Ularning shirin tili va muomalasi xorijlik mehmonlarga manzur bo'layotganini Samarqandda sayyohlikka bag'ishlangan xalqaro anjumanda Jahon sayyohlik tashkiloti rahbarining o'zi shaxsan e'tirof etganini eshitib, bilasizmi, quvonchim, g'ururim ichimga sig'may ketgan edi.

* * *

Ertangi kunimizning eng katta kuchi, kerak bo'lsa, zamini nimaga asoslanadi, degan savolga men yoshlarimiz, yoshlarimiz va yana bir bor yoshlarimizga, deb javob beraman. Ana shu fikrni, bu borada biz joylarda amalga oshirayotgan ishlarni qo'llab-quvvatlashingizni so'rayman.

Hozirgi kunda yurtimizning qaysi shahar yoki qishlog'iga bormang, eng muhtasham, eng ko'rkam binolar bu maktablar, litsey va kollejlari, madaniyat, san'at va sport maskanlari emasmi?

Ilgari bunday imoratlar qayerda edi? Biz, aytaylik, kimnidir hayratda qoldirmoqchi bo'lsak, mehmonlarni qayerga olib borar edik? Qoramollar boqiladigan fermaga. Shuncha sigirimiz bor va ulardan yiliga bun-

cha sut olinadi, deb maqtanar edik. Bugun biz nima bilan maqtanyapmiz, maqtanish obyekti va subyekti kim bo'ldi? Bizning ta'lim-tarbiya maskanlarimiz va ularda o'qiyotgan bolalarimiz emasmi?

Ayni shu yo'lni tanlaganimiz eng to'g'ri, tarixiy qadam bo'ldi. Chunki bizning ertangi kunimizni kim quradi – bolalarimiz quradi, indingi kunimizni kim quradi – nevaralarimiz quradi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, eng to'g'ri yo'l – ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, yanada mustahkamlash yo'lidir. Biz bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz. Yangi-yangi maktablar qurish, zamonaviy o'quv laboratoriyalarini tashkil etish, kollejlarni bitirib chiqayotgan bolalarimizni to'liq ish bilan ta'minlash masalalari doimo e'tiborimiz markazida turadi.

* * *

Ayni vaqtda hammamizga ayonki, aholi soni o'syapti, ming-minglab farzandlarimiz hayotga kirib kelyapti, ularning talab va ehtiyojlarini qondirish, ayniqsa, zamonaviy ish bilan ta'minlash – nafaqat bizda, aytish mumkinki, butun dunyoda eng dolzarb, kerak bo'lsa, hal qiluvchi muammoga aylanmoqda.

Hech kimga sir emas, ishsiz, daromadsiz odam turli noma'qul ko'chalarga kirib ketishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Qashqadaryo viloyatida o'tgan yili 89 mingdan ziyod ish o'rni yaratilgani, jumladan, qariyb 45 ming nafar kollej bitiruvchisi ishga joylashtirilganini ta'kidlash lozim.

Men ayni shu masalaga alohida e'tiboringizni qaratmoqchiman. Endigina katta hayotga qadam qo'yayotgan bolalarimizni, o'zimizning farzandlarimizni ishga joylashtirish degani nimani anglatadi? Bu – faqat quruq raqam emas.

Bu raqamlar ortida qancha-qancha odamlar, yoshlarimizning taqdiri, ularning ertangi kuni, baxt-u saodati, quvonch va orzulari mujassam. Bu bolalar ishga joylashgan bo'lsa, bir oydan keyin ota-onasiga, mana, sizlarga birinchi maoshimni olib keldim, deb aytsa, oilada bundan ortiq xursandchilik bo'lishi mumkinmi o'zi?

Men buni tasavvur qilar ekanman, xuddiki o'zimning hayotimda shunday voqea yuz bergandek quvonib ketaman. Bizning har birimiz bu hayotda turli sinovlarni boshimizdan kechirganmiz. Lekin davlat nuqtayi nazaridan, jamiyat nuqtayi nazaridan, ota-onalik nuqtayi nazaridan bolalarimizga ayni shunday sharoitlar yaratib berish bu – bizning, davlatimiz, ota-onalarning burchidir va biz bu burchni, albatta, ado etamiz.

* * *

Men qachon va qayerda, qanday masalada chiqish qilmayin, avvalambor, yoshlarimizning chaqnab turgan ko'zlarini, ochiq chehrasini ko'rib, doim bir fikrni ta'kidlayman: ming shukronalar bo'lsinki, Yaratganimiz sizlarga shunday erkin va ozod zamonda yashash imkonini berdiki, sizlar eski mustabid, sovet tuzumini ko'rmagansiz.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, sizlar juda baxtli avlodsiz. Mana, oradan qancha vaqt o'tdi, kechagi

tariximizdagi fojialarni «o'zbeklar ishi», «paxta ishi» degan fitna va o'yinlarni eslamaslik, bugun yoshlarimizning bunday nohaqliklarni ko'rmasdan o'sayotgani – bir tomondan juda yaxshi.

Farzandlarimizning biz mustaqillik davrida, tinch-osoyshta sharoitda o'sib katta bo'lganmiz, ota-bobolarimiz ko'rgan qiyinchiliklarni ko'rmadik, buning uchun Xudoga har qancha shukronalar aytsak, arziydi, degan fikr bilan yashashi – bu, tabiiyki, quvonchli hol.

* * *

Yana bir bor aytaman, bolalarimiz, farzandlarimiz asl tarixni, haqiqatni bilishi kerak. Ular ana shu asosda tarbiya topishi lozim va ana shunda xalqimiz, yosh avlodimiz hech qachon kam bo'lmaydi.

Ma'lumki, Sohibqiron Amir Temur bobomiz mana shu yurtda tug'ilgani, mana shu yurtda yashab, uni yovdan ozod qilgani, buyuk davlat barpo etgani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz. Bu ulug' zotni bizga Xudoning o'zi bergan. Amir Temur bizga qoldirgan meros – bu barcha avlodlarimizga xizmat qiladigan abadiy merosdir.

Demoqchimanki, mana, bugun yoshlarimiz o'syapti, ularni haqiqat va yana bir bor haqiqat bilan qurollantirishimiz kerak.

* * *

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan eng katta ish haqida so'rsa, men hech ikkilanmasdan Kadrlar tayyorlash dasturini qabul

qilganimiz va amalga oshirganimiz, deb javob bergan bo'lardim. Mazkur dastur ustida men juda ko'p ishladim. Mana, bugungi kunda u o'z hosilini beryapti, desak, to'g'ri bo'ladi. Men hozirgi vaqtda zamonaviy maktablarimiz, litsey va kollejarimiz, oliy o'quv yurtlarimizda ta'lim-tarbiya olib, ilm-fan, kasb-hunar cho'qqilarini egallab, hayotga hal qiluvchi kuch bo'lib kirayotgan bolalarimiz timsolida buning amaliy tasdig'ini ko'raman va bunday farzandlarimga ishonaman. Ular bugun zamonning o'zi oldimizga qo'yayotgan talablarni bajarish uchun butun borlig'ini baxsh etishga tayyor bo'lib maydonga chiqmoqda, desam, bu fikrga sizlar ham qo'shilasiz, deb o'ylayman.

Bir paytlar xalqimiz, Vatanimizga nisbatan bo'lgan zulm va zo'ravonlik, kamsitishlar haqida gapirar ekanmiz, men bir fikrni ta'kidlab aytmoqchiman: biz alamzada emasmiz, kechagi hayotdan norozi bo'lib, kimgadir qandaydir talab qo'yishdan ham yiroqmiz. Kimlardir bir vaqtlar yurtimizdan ulkan boyliklarni olib ketgan bo'lsa, mayli, boylik topiladi. Ammo shuni bilib qo'yinglar, bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimiz, yoshlarimizdir.

* * *

Bugungi kunda hayotimizda tom ma'noda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan, dunyo jamoatchiligi haqli ravishda e'tirof etayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi keng ko'lamlı islohotlarimiz qanday katta natijalar berayotgani haqida har qancha faxrlanib, g'ururlanib gapirsak arziydi, albatta.

Haqiqatan ham, bundan 18 yil oldin boshlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va 2004-yilda uning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi ijtimoiy hayotimizda tub burilish yasadi.

Bu dasturlar doirasida yurtimizda ming-minglab litsey va kollejlarda, maktablar qurish va ularni rekonstruksiya qilish, eng yuksak talablar asosida jihozlashdek keng ko'lamli vazifani qo'yganimizda, bu ishlarning qanday ulkan, aytish mumkinki, beqiyos maqsadlarni ko'zda tutishini kamdan kam odam o'ziga tasavvur qilardi.

* * *

Men joylarda bo'lib, odamlar bilan, fermer va dehqonlar bilan uchrashganimda, qishloq hayotida bo'layotgan o'zgarishlar haqida, paxta, g'alla haqida gaplashamiz, bular albatta kerak. Lekin, e'tibor bergan bo'lsangiz, bunday muloqotlarda yosh-u qari o'z qishlog'i yoki tumanida qurilayotgan maktab, litsey va kollejlarda qishloq hayotini tubdan o'zgartirib yuborgani haqida to'xtalib, gapni avvalambor shundan boshlaydi.

Men yurtdoshlarimizning bunday to'lqinlanib, quvonib gapirishini tabiiy, deb o'ylayman. Chunki xalqimizning qonida, tabiatida bo'lgan ezgu fazilatga ko'ra odamlarimiz ko'proq o'zini emas, balki farzandlarini, ularning kelajagini, baxt-u saodatini o'ylab yashaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, biz tanlagan taraqqiyot yo'lining tarkibiy qismiga, aniqroq aytadigan bo'lsak, kelajagimizning mustahkam poydevoriga

aylanib borayotgan ta'lim sohasidagi buyuk dasturlarimizni o'z vaqtida, uzoqni ko'zlab ishlab chiqqanimiz va amalga oshirganimiz naqadar to'g'ri bo'lganini bugun mamlakatimiz erishgan yuksak marra va natijalar yaqqol namoyon etmoqda.

* * *

Biz, ya'ni xalqimiz va davlatimiz, har qaysi inson nimaniki o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan bo'lmaylik, qanday buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmaylik, barcha olijanob harakatlarimizning negizida nima turadi?

Bu savolga hammamiz, tabiiyki, barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxt-u saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi, deb javob beramiz.

Haqiqatan ham, hayotimizning ma'no-mazmuni shunda emasmi?

* * *

Agar biz o'z vaqtida uzoqni ko'zlab, katta umid bilan hayotga kirib kelayotgan yoshlarimizning chuqur bilim va kasb-hunar egallashi uchun zamin yaratmasak, ularni zamon talab qiladigan mutaxassis kadrlar etib tayyorlamasak, bugungi kunda butun dunyoni qamrab olgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida yurtimizda tinchlikni saqlab, iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga, ayni shunday og'ir sharoitda

xalqimiz hayotining tobora yuksalishiga erisha olarmidik?

Yo'q, albatta.

Hammamizga chuqur bir haqiqat ayon bo'lishi kerak – biz yurtimizning ertangi rivoji yo'lida qanday chuqur o'ylangan dasturlarni tuzmaylik, bu rejalarni bajarish uchun qanday moddiy baza va imkoniyatlarni yaratmaylik, buning uchun qancha ko'p sarmoya safarbar etmaylik, ularning barchasini amalga oshiradigan, ro'yobga chiqaradigan qudratli bir omil borki, u ham bo'lsa, yuqori malakali ish kuchi va yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassis yoshlarimiz, desak, o'ylaymanki, hech qanday xato bo'lmaydi.

Shuning uchun ham bu o'ta muhim masalani doimo davlatimiz, jamiyatimizning asosiy vazifasi sifatida ko'rishimiz darkor.

* * *

Bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada hushyor va ogoh bo'lishga da'vat etishi tabiiydir.

Shu sababli yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta'sirlardan, «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi tahdid va xatarlardan asrash masalalari bir zum ham e'tiborimizdan chetda qolmasligi darkor.

* * *

Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr.

Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa – bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar. Buni chuqur anglab olgan davlat, bunday xulosani chiqargan, xalqaro hamjamiyat va taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga ko'tarilish uchun harakat qilayotgan jamiyat, birinchi navbatda, bugun unib-o'sib kelayotgan farzandlarining har tomonlama barkamol avlod bo'lib hayotga kirib borishini o'zi uchun eng ulug', kerak bo'lsa, eng muqaddas maqsad, deb biladi.

* * *

Bugungi uchrashuvimizda men yoshlarimizga qarab aytmoqchiman: agarkı qachon biz xohlagan zamon kelsa, ana o'shanda murodimizga yetamiz, degan fikr bilan bemalol yuradigan bo'lsak, bilib qo'yinglar, bunday zamon hech qachon o'z-o'zidan kelmaydi. O'zimiz istagan zamon uchun kurashish, kerak bo'lsa, o'zimizni,

butun borlig'imizni berishimiz lozim. Shunday intilish bilan yashasak, nafaqat o'z hayotimiz, balki kelajak avlodlarimiz hayotini, ularning ertangi yorug' kunini o'zimiz, o'z qo'limiz bilan barpo etgan bo'lamiz.

Haqiqatan ham, hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi va hammamiz buni xayolimizdan chiqarmasligimiz kerak. Biz ertangi kun uchun butun kuch-g'ayratimiz bilan harakat qilsak, o'zimiz orzu qilgan hayot shunchalik tez keladi. Bugungi kunda hayotimizning mana shunday tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgani, turmushimiz tobora farovon, odamlarimizning badavlat bo'layotgani bu fikrning amaliy tasdig'i emasmi?

* * *



Bolalarimizning tarbiyasini mahkam ushlashimiz lozim. Yo'q, bolam, bunday emas, mana bunday, sen kimning, qanday buyuk zotlarning avlodisan, qanday bebaho ma'naviy merosning vorisisan, degan gaplarni ularning qulog'iga quyish kerak. Bugun yaxshi yashayapmiz, deb taltayib ketmasligimiz, oyog'imiz yerdan uzilmasligi zarur. Aslida bu ham jiddiy bir xavf.

Shu bois men hamisha ta'lim-tarbiya sohasida ishlaydigan yurtdoshlarimizni o'zimga yaqin tutaman, ularning mashaqqatli mehnatini qadrlashni hech qachon esimdan chiqarmayman.

Davlatimizning mukofotlarini berishda, avvalambor, o'qituvchi va murabbiylarga e'tibor qarataman. O'zbekiston Qahramoni unvonini olganlar orasida aynan o'qituvchilar ko'pchilikni tashkil qilishi buning tasdig'i emasmi?

* * *

Ota-onasi, farzandi uchun, el-yurt, ona Vatan uchun o'zini fido qilishga tayyor bo'lgan insonni haqiqiy o'g'lon deyilar. O'g'lon degan so'z bilan o'g'il degan so'zning farqi bor. O'g'lon degan so'zning ma'nosi juda katta. Ya'ni, o'g'illarning eng sarasini, mard yigitlarni xalqimiz o'g'lon deydi. Shu ma'noda, bugun unib-o'sib kelayotgan yoshlarimiz ham o'z yurtini mana shunday sevsa, unga fidoyi bo'lib yashasa, biz bugun ham, kelajakda ham hech qachon, hech kimdan kam bo'lmaymiz, o'z maqsad-muddaolarimizga albatta yetamiz.



XALQIMIZGA TINCHLIK VA OMONLIK KERAK

THE UNIVERSITY OF CHICAGO
LIBRARY

Bugun biz g'oyat murakkab, tahlikali va qaltis bir zamonda yashayotganimizni barchangiz yaxshi bilasiz.

Hozirgi vaqtda dunyoning uzoq-yaqin turli hududlarida yuz berayotgan tashvishli voqealar, jumladan, bizning mintaqamizda, yon-atrofimizda kuchayib borayotgan xavf-xatarlar, qonli to'qnashuvlar, siyosiy va iqtisodiy qarama-qarshiliklar, terrorizm, radikalizm, narkotrafikning tobora avj olayotgani tinchlik va barqarorlikka qanday katta tahdid tug'dirayotgani haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirib o'tirishning hojati yo'q.

Mana shunday tobora keskinlashib borayotgan bir vaziyatda, biz hushyorlik va sergakligimizni yo'qotmasdan, kimlar bizga xayrixoh, kimlar g'arazli ko'z bilan qarayotganini, bugungi hayot, bugungi davr bizning oldimizga qanday o'tkir talab va vazifalarni qo'yayotganini chuqur anglab, ogoh, sezgir va safarbar bo'lib yashashimiz talab qilinmoqda.

* * *

Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan voqealarni xolisona baholar ekanmiz, keskinlik va xavf-xatarlarning tobora o'sib, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, o'z ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan kurashning, radikalizm, terrorizm va ekstremizm kabi tahdidlarning kuchayib borayotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmasdan qo'ymaydi, albatta.

Ko'pchilik davlatlar qatorida O'zbekistonimizda ham ayni mana shunday tahlikali vaziyatning oldini

olish, ostonamizga qo‘ymaslik, yurtimizda bugun hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, mehr-oqibat muhitini asrash, shu bilan birga, yuz berishi mumkin bo‘lgan har qanday xatarli burilishlarga tayyor bo‘lish maqsadida o‘zimizning qat’iy pozitsiyamiz va siyosatimizni aniq belgilab olganmiz.

Shular qatorida 2012-yili qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonunda belgilab berilgan, bizning xavfsizligimiz bilan bog‘liq bo‘lgan prinsiplar va pozitsiyalarimiz bugungi kunda jahon jamoatchiligiga yaxshi ayondir.

Avvalambor, uzoq va yaqin qo‘shnilarimiz bilan til topishib, ular bilan o‘zaro hamkor va hamjihat bo‘lib yashash va, eng muhimi, hech qanday harbiy bloklarga qo‘shilmaslik, muqaddas yurtimiz tuprog‘ida chet mamlakatlarning harbiy bazalarini joylashtirishga va harbiylarimizning chegaralarimiz tashqarisiga o‘tishiga yo‘l qo‘ymasligimiz shular jumlasidandir.

Bugun yuzaga kelayotgan xalqaro vaziyatda ayni shu yo‘l, shu siyosat biz uchun maqbuldir.

* * *

Bizga uzoq va yaqin joylarda paydo bo‘layotgan ziddiyat va muammolarni qanday yechish kerak, degan masalada hozirgi vaqtda ko‘p gapirilmoqda.

Bunday tahlikali vaziyatda bizning yondashuvimiz va qarashlarimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida, xalqaro qonun va normalarda belgilab, muhrlab qo‘yilgan asosiy prinsiplarni so‘zsiz bajarishdir, zo‘ravonlikka, kuch ishlatishga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Yuzaga keladigan qarama-qarshilikni, nizolarni faqatgina siyosiy yo‘l, tinch vositalar bilan hal etish, davlatlarning siyosiy suvereniteti va chegaralarning daxlsizligini buzishga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Har qanday to‘qnashuv, har qanday qarama-qarshilik, har qanday ziddiyat, avvalambor tinchlik yo‘li bilan, siyosiy muzokaralar yo‘li bilan hal etilishi kerak. Mustaqil davlatlarning mustaqilligiga ziyon yetkazmaslik kerak. Zo‘ravonlik yo‘li bilan, kuch ishlatib, bu masalalarni hal qilib bo‘lmaydi. Agar urush-janjal boshlanadigan bo‘lsa, uning oxiri ko‘rinmasdan qoladi.

Xalqimiz xotirjam bo‘lsin – O‘zbekiston bunday bahslar, qarama-qarshilik va ziddiyatlar, qon to‘kishga qaratilgan urinishlarga aslo qo‘shilmaydi va bunday harakatlar ostonamizga yetishiga biz aslo yo‘l qo‘ymaymiz. Buning uchun kuchimiz ham yetadi, qudratimiz ham yetadi, kerak bo‘lsa, aqlimiz ham yetadi, desam, o‘ylaymanki, odamlarimiz mening gaplarimni to‘g‘ri tushunadi va to‘g‘ri anglaydi.

* * *

Yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik, o‘zaro hurmat muhitini saqlash, huquqiy savodxonlikni, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning siyosiy madaniyati va faolligini oshirishni ta‘minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada kuchaytirish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

* * *

Biz uchun tinchlik va omonlik kerak. Haqiqatan ham, yurtimizdagi qaysi xonadonga kirmang, qa-

riyalarimiz duoga qo‘l ochib, Yaratgandan, avvalo, el-yurtimizga tinchlik va omonlikni so‘raydi. Tinchlik bo‘lsin, xotirjamlik bo‘lsin deydi. Turli balo-qazolar bizga yaqin kelmasin, ostonamizga yo‘lmasin deydi. Farzandlariga, nabiralariga uzoq umr va baxt tilaydi. Chunki xalqimiz tinchlik bo‘lsa, farovonlik va taraqqiyot bo‘lishini yaxshi biladi, tinchlikning qadri-qimmatini yaxshi anglaydi.

* * *

Men har yili 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlab o‘tkaziladigan marosimda xalqimiz o‘rtasida mashhur bo‘lib ketgan «O‘zbekistonga tinchlik va omonlik kerak» degan iborani takrorlayman. Biz bugungi kunda ayni shu maqsadga javob beradigan siyosatni olib bormoqdamiz va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz.

Agar davlat kimningdir ishorasiga yo buyrug‘iga qarab yoki uning siyosatini o‘ziga ma‘qul topib, o‘zinikini emas, aynan uning manfaatlarini ko‘zlab siyosat olib boradigan bo‘lsa, xato qiladi. Bunday biryoqlama siyosatni sovet davrida, kerak bo‘lsa, undan keyingi davrlarda ham ko‘pgina qo‘shni davlatlar misolida ko‘rdik.

* * *

Dunyoda yashayotgan ko‘pchilik xalqlar qatori bizning xalqimiz ham urush qaytarilmasligini istaydi. Urush hech qachon qaytmasin, deb barcha-barcha momolarimiz, bobolarimiz ham, opalarimiz, akalarimiz, bolalarimiz ham – hamma bitta narsani istaydi: ey

odamzod, bu mash'um urush boshqa qaytmasin, ostonamizga bu balo yaqin yo'lmasin, deb har safar duoyi fotihani shundan boshlaydi. Shuning uchun bizning qilayotgan barcha-barcha harakatlarimiz, davlatimiz, hukumatimiz, rahbariyat amalga oshirayotgan ishlar, albatta, nimaga qaratilgan, deb so'rasak, mana shu tinchlikni saqlash uchun, deb javob berish har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

* * *

Agar tinchlik-osoyishtalik bo'lmasa, mehr-oqibat bo'lmasa, biz orzu qilgan va intilayotgan erkin va farovon hayotni qurib bo'lmaydi.

* * *

Hammamizning niyatimiz yanada yorug' kunlarni ko'rish, bolalarimizning, nevaralarimizning baxtini ko'rish. Bizga avvalo ana shu oddiy-oddiy narsalar kerak.

* * *

Men bugungi imkoniyatdan foydalanib, butun xalqimizga qarata aytmoqchiman: mana shunday o'ta tahlikali zamonda biz tashqi siyosatimizni o'tkazishda ogoh va sezgir bo'lib, shu yo'lda bir musht bo'lib harakat qilishimiz har qachongidan ham muhimdir. Chunki yon-atrofimizda bo'layotgan voqealar bizdan shuni talab qilmoqda. Mana, Afg'onistonda hali-beri tinchlik o'rnatilgani yo'q. Bu mamlakatda o'tgan yili saylov o'tdi-yu, uning ijobiy natijalari amalda ko'rinmayapti. Iroq va Suriyada Iroq va Shom islom

davlatini o'rnatamiz, degan g'oya bilan yovuz, vahshiy bir kuch paydo bo'ldi. Ularning jirkanch qiyofasini ommaviy axborot vositalarida berilayotgan lavhalar orqali ko'rib turibmiz. Ular muqaddas islom dinining butun dunyoda obro'sini to'kmoqda. Aslida bu yovuz kuchlarning musulmonchilikka hech qanday aloqasi yo'q. Vahshiylik, odam o'ldirish, odamlarni qo'rqitish, garovga olish islom diniga tamoman yot narsalar.

Bunday kuchlarning yoshlarimizni aldab, o'z qarmog'iga ilintirishiga hech qanday imkoniyat bermasligimiz kerak. Mana, qo'shni mamlakatlardan ko'plab yoshlar bilib-bilmay ularga qo'shilib, mana shunday «o'yin»larda qatnashyapti. «O'yin» deb mana shu vahshiyliklarni aytayapman. Biz bundan doimo ogoh bo'lib, masalaning mohiyatini, birinchi navbatda, onalarga yetkazishimiz muhim. Onalarimiz o'z bolalariga to'g'ri yo'l ko'rsatishi, men senga oq sut berib katta qilganman, meni rozi qilishni istasang, bunday yo'llarga yurmaysan, degan gaplarni aytib, yoshlarning ko'zini ochib berishi kerak. Ana shunda bizning yoshlarimiz hech qachon bunday yo'llarga kirmaydi.

Lekin vaqtni yo'qotib, loqaydlik va beparvolik kayfiyatiga beriladigan bo'lsak, biz ko'p narsani boy beramiz.

Mana, qarang, qanday erkin va obod Vatanda qanday go'zal va shirin hayot kechiryapmiz. Oldimizda yana ko'plab yangi imkoniyatlar ochilayapti. El-yurtimiz tinchligini, musaffo osmonimizni himoya qilishda, yurtimizni yanada taraqqiy ettirish va islohotlarimizni izchil amalga oshirishda men, avvalambor, kimga

suyanaman? Ona xalqimga suyanaman, ko'pni ko'rgan muhtaram qariyalarimizga, birinchi navbatda, yoshlarimiz, mening farzandlarimga tayanaman.

* * *

Biz nimani istaymiz – ona Vatanimizda tinchlik va omonlik bo'lishini istaymiz. Boshqalarga ham shuni tilaymiz.

* * *

Xalqimizning «Yemagan somsaga pul to'lashning nima keragi bor?» iborasini eslash har tomonlama o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman. Ba'zan qo'poldek bo'lib tuyulsa-da, bu ibora zamirida chuqur hayotiy ma'no, katta asos bor.

Ey, baraka topkur, bizning mamlakatimizda tinchlikni himoya qilish kerak bo'lganda, kim bizga yordamga keldi, kim bizga madad berdi?

Eng muhimi, kimdadir ana shunday xohish bo'lgan, O'zbekistonga kelib yordam beraman, degan taqdirda ham, O'zbekiston, o'zbek xalqi hech qachon, hech kimning yordami, ko'magiga muhtoj emas.

* * *

Ayrim siyosiy kuchlar va katta davlatlarning ba'zi bir rahbarlari shunday niyat bilan yuradiki, qanday qilib bo'lsa-da, o'ziga obro' topish, kerak bo'lsa, qanday qilib, kimlarning hisobidan o'ziga manfaat topish va yanada ko'proq kuch-qudratga ega bo'lish. Bunday «musobaqa» kimga kerak, bilmadim, lekin shunday harakatlar hali-beri davom etmoqda.

* * *



Men O'zbekiston uchun, uning siyosati uchun javobgarman. Kimdir bizni o'z to'dasiga olib, yetakchilik qilmoqchi bo'lsa, adashadi. Biz u yoqqa boramiz, bu yoqqa boramiz, degan gaplarni sovet davrida ko'p eshitganmiz. Lekin bu gaplarning nimalarga olib kelganiga hammamiz guvohmiz. Shundan xulosa qilib, biz faqat o'z aqlimiz bilan yashaymiz, bizga manfaat beradigan ishlarni qilamiz. Biz atrofimizdagi davlatlar bilan faqat do'stona aloqalarni bog'lashga tayyormiz.

* * *



Bizning qariyalarimiz, yuzdan oshgan mo'tabar otaxon va onaxonlarimiz – yurtimiz tinch va osoyishta, hayotimiz farovon bo'lsin deb, bugungi kunimizga shukronalar aytadi. Chunki o'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak.

* * *

Biz boshimizdan kechirayotgan zamon barchamizdan, har birimizdan ogoh va sezgir bo'lib yashashimizni, bugungi va ertangi kunimizni, tinch hayotimizni o'zimiz asrashimizni talab etadi. Faqatgina tinchlikni niyat qilish, orzu qilish emas, balki tinchlik, osuda hayot uchun, musaffo osmon uchun albatta baholi qudrat kurashishimiz darkor.



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI LAVOZIMIGA
KIRISHISH TANTANALI
MAROSIMIGA BAG‘ISHLANGAN
OLIY MAJLIS
PALATALARINING QO‘SHMA
MAJLISIDAGI NUTQ**



THE UNIVERSITY OF CHICAGO
PRESIDENTIAL LIBRARY
CHICAGO, ILLINOIS
1954

Aziz vatandoshlar, muhtaram Oliy Majlis deputatlari!
Qadrli mehmonlar!

Avvalo, siz, hurmatli Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolariga, sizlarning tim-solingizda butun xalqimizga murojaat qilib, mening O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bo'lib saylanishimga o'z ishonchini bildirgan yurtdoshlarimga o'zimning samimiy minnatdorligimni izhor etishdan baxtiyorman.

Ayni shu fursatdan foydalanib, siz, azizlarimga o'zimning chuqur hurmat va ehtiromimni bildirib, hammangizga sog'lik-omonlik, baxt-saodat tilayman, qalbimdagi eng ezgu orzu-tilaklarimni qabul qilishingizni so'rayman.

Menga bildirilgan ishonchni o'zim uchun, avvalo, ulkan mas'uliyat va katta sharaf deb bilaman va yana bir bor aytmoqchiman – bunday yuksak, hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan xalq ishonchini oqlashga, bajo keltirishga butun borlig'imni safarbar qilaman.

Qadrli do'stlar!

Biz eski, o'zini oqlamagan mustabid, zo'ravon tuzumdan butunlay voz kechib, taqdirimizni o'z qo'limizga olib, biz uchun yangi demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish, hech kimdan kam bo'lmaydigan ozod va obod hayot qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yib, amalga oshirayotgan qat'iy o'zgarish va islohotlar natijasida **bugun erishayotgan**

yuksak marra va yutuqlarimizni hech kim inkor etolmaydi.

Bularning asosiy omili va mezoni sifatida, hech shubhasiz, biz tanlagan va dunyoda «o‘zbek modeli» deb nom olgan, mashhur besh tamoyil – prinsipga asoslangan, tadrijiy – evolutsion, bosqichma-bosqich rivojlanishning O‘zbekiston yo‘li naqadar to‘g‘ri ekanini hayotning o‘zi bugun tasdiqlab bermoqda.

Bu modelning afzalligi va bugun o‘zini butunlay oqlaganini O‘zbekistonga xos bo‘lgan turli tabiiy, tarixiy, milliy, demografik va ekologik xususiyatlarni to‘la hisobga olganida ko‘ramiz.

Misol uchun qishloq xo‘jaligini oladigan bo‘lsak, bu sohada arenda – ijara mulkiga asoslangan fermerlik harakatini rivojlantirishga katta e‘tibor berganimiz, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaganimiz evaziga bu harakat, hech shubhasiz, yaqin tariximizda o‘chmas iz bo‘lib qoladi, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman. Fermer xo‘jaliklarimiz bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining nafaqat 90–92 foizini ishlab chiqarmoqda, balki qishloq hayotining taraqqiyotini o‘z zimmasiga olgan ijtimoiy-siyosiy harakatga aylanib bormoqda.

Yoki bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 56 foizini ishlab chiqarayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik haqida gapiradigan bo‘lsak, hozirgi vaqtda ish bilan band aholimizning 75–77 foizi bu sohada mehnat qilmoqda.

O‘z-o‘zidan ayonki, ko‘p narsadan dalolat beradigan ana shunday ko‘rsatkich va raqamlar biz olib borayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ertangi kunimiz,

taraqqiyotimiz yo‘lida mustahkam poydevor bo‘lishi muqarrar.

Shuni to‘liq asos bilan aytishimiz mumkin – ayni shu kabi islohotlarni amalga oshirish hisobidan biz O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashga erishmoqdamiz. Ya‘ni, oxirgi 10 yil davomida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘atlari 8 foizdan oshib kelayotgani va 2015-yilda ham – shunga ishonchimiz bor – bundan kam bo‘lmasligini inobatga olsak, barcha narsa o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi.

Albatta, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining ana shunday yuksak sur‘atlar bilan o‘shishi o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Bu mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlangan chuqur tayyorgarlik ishlarimiz, avvalo – shuni yana bir bor aytishga to‘g‘ri keladi – taraqqiyotning «o‘zbek modeli»ning samarasidir. Biz yon-atrofimizdagi ba‘zi mamlakatlar kabi, mana, o‘z yo‘limizni tanlab oldik, falon yilga borib, eng rivojlangan davlatlar ro‘yxatining boshiga chiqamiz, deb katta-katta minbarlardan maqtanganimiz yo‘q va hech qachon bunday qilmaymiz.

Bunday yutuqlarning sabablarini biz, avvalo, mard va matonatli, ko‘pni ko‘rgan xalqimizning, odamlarimizning dunyoqarashi, siyosiy ongi va saviyasi tobora yuksalib borayotganida ko‘ramiz. Va eng muhimi, buning sababi bugungi kunda hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqayotgan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, **mustaqil va yangicha fikrlaydigan, Vatanimizning ertangi kuni uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan**

navqiron yoshlarimizni biz o'zimizning ishonchimiz, tayanchimiz va suyanchimiz deb bilganimizdadir.

O'zingiz ayting, azizlarim, qadrdonlarim, agar biz o'z vaqtida, bundan 18 yil oldin Kadrlar tayyorlash milliy dasturini qabul qilib, uni hayotga joriy etishga kirishmaganimizda, yoshlarimizning taqdiri, bugungi va ertangi kunimiz nima bo'lar edi? Milliy taraqqiyotimiz yo'lida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan bu buyuk ishimiz umummilliy harakatga aylanib, shu asnoda o'z kelajagimizni ko'rganimiz eng katta yutug'imiz bo'ldi. Agar biz yoshlarimizni ana shunday yuksak darajada katta hayotga tayyorlab bormasak, hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlardan yurtimizga kelgan mehmonlar, yirik firma va kompaniyalarning vakillari «o'zbek yoshlarining ko'zi yonib, chaqnab turadi, ular har qanday murakkab vazifani bajarishga qodir» deb, bolalarimizga tan berarmidi? Har bir ota-ona, butun xalqimizga yuksak g'urur bag'ishlaydigan bunday gaplar qulog'imiz ostida doimo jaranglab tursa va Vatanimiz kelajagi yoshlarimiz qo'lida, degan shiorimiz qancha ko'p amalga ohsa, haqiqatan ham, hech kimdan kam bo'lmaymiz.

Ammo shular haqida so'z yuritar ekanmiz, bir achchiq haqiqatni esimizdan chiqarmasligimizni istar edim. Agarki biz erishgan yutuq va marralarimiz bilan chegaralanib, xotirjamlik, havolanish va beparvolik kayfiyatlariga berilib ketsak, bunday holat barchamiz yo'l qo'ygan, kechirib bo'lmaydigan katta xatoga aylanib ketishi mumkin.

Biz XXI asrda – intellektual mehnat va Internet davrida, globallashuv zamonida yashayotganimizni,

hayot taraqqiyoti hech qachon bir joyda to'xtab turmasligini unutmashimiz zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Buning ustiga, jahon miqyosida iqtisodiy-moliyaviy inqiroz davom etayotgani, raqobat, qarama-qarshilik tobora beshafqat tus olayotgani, radikalizm, terrorizm, ekstremizm kabi tahdidlar kuchayib borayotgani **barchamizdan, avvalo, bir yoqadan bosh chiqarib, safarbarligimizni yanada oshirishni talab qiladi.**

Shu borada amalga oshirayotgan ishlarimiz qatorida hayotimizni keskin o'zgartirayotgan demokratik islohotlarni tezlashtirish, ularning samarasini oshirish bugungi kunda, hech shubhasiz, eng dolzarb vazifamizga aylanmoqda, desam, yanglishmagan bo'laman.

Xorijlik hamkorlarimiz, dunyodagi eng taraqqiy topgan davlatlarning vakillari, bugungi majlisimizda ishtirok etayotgan chet mamlakatlarning muhtaram elchilari mustaqillik yillarida O'zbekiston barcha sohalarda ulkan muvaffaqiyatlarga erishganini, ayni paytda oldimizda bundan ham katta vazifalar turganini o'zaro muloqot va suhbatlarda doim e'tirof etishadi.

Mana, yaqinda AQSH Prezidenti janob Barak Obamaning mening O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga qayta saylanganim munosabati bilan yo'llagan qutlov telegrammasi bilan butun xalqimiz ommaviy axborot vositalari orqali tanishdi. Ana shu telegrammada ayni shu mavzu haqida ham so'z yuritilgan.

Chindan ham, agar biz dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirish yo'lida yanada yuksak marralarni egallamoqchi, hayotimizni yangi bosqichga ko'tarmoqchi, avvalambor, erkin, ozod va farovon

yashamoqchi bo'lsak, demokratiyani hayotimizga tatbiq etishda hech kimdan, hech qachon orqada qolmasligimiz kerak.

Men shuni istayman va barchangizni shunday maqsadlar sari da'vat etaman.

Shular haqida gapirar ekanmiz, eng avvalo, biz uchun to'siq bo'lib turgan, eski mustabid tuzumdan qolgan asoratlarga barham berish va bugun hamon o'z yechimini kutayotgan turli muammolarni hal qilishimiz, qabul qilgan qonunlarimizni izchil amalga oshirish, olib borayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, birinchi navbatda, axborot va so'z erkinligi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va himoyalash kabi islohotlarni yangi, yuksak bosqichga ko'tarish – aytish mumkinki, bu sohalarda hali qiladigan ishlarimiz ko'p.

Hech kimga sir emas, iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini ta'minlamasdan turib, ya'ni ishlab chiqarish soha va tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilmasdan, texnologik va texnik nuqtayi nazardan yangilamasdan turib, biz ishlab chiqaradigan mahsulotlarni jahon bozori, ertaga esa ichki bozorimiz ham qabul qilmaydi.

Bu haqiqat hammamizga ayon bo'lishi kerak. Bu haqiqatdan biz hech qachon ko'z yuma olmaymiz.

Bugungi kunda dunyoda shafqatsiz kurash ketyapti. Shunday ekan, hayotning o'zi talab qilayotgan, har tomonlama asoslangan yangi strategik yo'lni

hayotimizga joriy qilmasdan, barcha jabhalarda yangi g'alabalarni qo'lga kiritmasdan turib, bu kurashda yutib chiqa olmaymiz. Agar bizga bo'laveradi, degan kayfiyat bilan yashaydigan bo'lsak, juda katta xatoga yo'l qo'yamiz va kelajak avlodlarimiz bizni hech qachon kechirmaydi.

Shuning uchun ham ertangi kunni, kelajak istiqbolimizni o'ylaydigan bo'lsak, bugun iqtisodiyotimizda amalga oshirayotgan keng ko'lamlı islohotlarni, avvalambor, tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yangi, zamon talab qiladigan darajaga ko'tarish masalasini hal qilmasdan turib, ochiq aytishimiz kerak, biz o'z maqsadlarimizga – taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoriga ko'tarilishimiz haqida gapirishning hojati qolmaydi.

Birinchi navbatda, Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilgan ko'ptarmoqli iqtisodiyotimizning ustuvor sohasi bo'lmish xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik yo'lidan barcha g'ov va to'siqlarni yo'q qilish – biz uchun hal qiluvchi, ustuvor vazifaga aylanishi darkor.

Aytish kerak – o'tgan yillar davomida mamlakatimizda xususiy mulk va mulkdorlarni himoyalashga qaratilgan ishonchli me'yoriy-huquqiy asos va kafolatlarni, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka zarur sharoit va imtiyozlarni yaratib berish bo'yicha ko'pgina ishlar bajarildi va bajarilmoqda. Lekin ming afsuski, xususiy mulkning davlat mulkiga nisbatan ustuvorligi barchamiz uchun ayon bo'lishiga qaramasdan, bu yo'nalishda amalga oshirayotgan ishlarimiz, avvalo, mulkdorlarga erkinlik berish

masalalari to'la yechilmayapti, o'zining kutilgan samarasini bermayapti.

Erkinlik deganda, biz nafaqat insonning ozod yashashi, erkin nafas olishini, balki, avvalo, mulkdorlar va tadbirkorlarga haqiqiy erkinlik berishni, faoliyat erkinligini tushunamiz. Mulk egasi va tadbirkorlarning qo'l-oyog'iga turli bahonalar bilan kishan kiydiradigan zo'ravonlar – bu nazorat qiladigan vazirlik va idoralar bo'ladimi, ruxsat beruvchi, bank, moliya hamda boshqa xizmatlar ko'rsatadigan tuzilmalar bo'ladimi, yer ajratish, zarur resurslarni olish yo'lidagi hali-beri o'z yechimini topmagan muammolar bo'ladimi – bunday g'ov va to'siqlar bu sohaga faqat zarar keltiradi, uning rivojini bo'g'ib, erkin harakat qilishiga qo'ymaydi. Bunday adolatsizlikka endi chidash mumkinmi? Yo'q, hech qachon.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi vakillari, mulkdorlar sinfi nafaqat o'zini, oilasini boqayotgan, ayni paytda xalqimiz farovonligini ta'minlashga, milliy armiyamizni qo'llab-quvvatlashga, bir so'z bilan aytganda, milliy taraqqiyotimizga hissa qo'shayotgan ekan, ular, avvalambor, erkin va yana bir bor erkin bo'lishi shart. Bundan keyin mutasaddi vazirlik va idoralar, joylardagi boshqaruv idoralari faoliyatiga ayni shu talab va mezon asosida baho beramiz. Agar qayerda kimdir o'z ishini halol va vijdonan bajarayotgan tadbirkorlarga ishonch bildirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash o'miga, ularga ola ko'z bilan qaraydigan bo'lsa, bilib qo'yinglar, biz bunga boshqa toqat qilmaymiz. Ba'zi bir odamlarning ongida shunday bir bema'ni tushuncha va tasavvur

qotib, o‘rnashib qolganki, undan hanuzgacha qutula olmayapmiz. Ya’ni, tekshiruvchi, albatta, xato va kamchilik topishi va kimnidir, albatta, jazolashi kerak. Baraka topkur, bu – eski mustabid tuzumdan qolgan soxta qarash emasmi?

Aslida, tekshirishdan asosiy maqsad shunday bo‘lishi kerakki, u, avvalambor, kamchilikni topish va uni bartaraf etish, kelgusida bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun xizmat qilishi kerak.

Mutasaddi idoralar ayni shu fikrni o‘ziga shior qilib olishini istardim. Agar kimda-kim tekshirishlarni o‘zining shaxsiy manfaatini ko‘zlab tashkil qilayotgan va amalga oshirayotgan bo‘lsa, bunday odamlar bilan biz – rahbarlar, ya’ni davlat kurashishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, **iqtisodiyotimizda davlatning ulushi va o‘rnini strategik hamda iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirishimiz darkor.**

Yana bir bor aytaman, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini sezilarli darajada qisqartirishimiz kerak. Nega deganda, iqtisodiyotda davlatning ulushi ko‘p bo‘lsa, bu faqat ziyon keltiradi. Men o‘zim davlat rahbari, davlatning vakili bo‘lib, shu gapni aytayotgan ekanman, buning uchun barcha asoslarim, ilmiy va amaliy jihatdan mustahkamlangan xulosalarim bor.

Bugun kim foydali ish qilyapti-yu, kimdir esa nomiga ishlab, buning uchun oylik olyapti – biz hammasini yaxshi bilamiz. Mansabdor odamlar orasida o‘z manfaatini davlat manfaatidan, xalqimiz manfaatidan ustun qo‘yayotgan odamlar bor ekan, ularni mas’ul lavozimga, vazifaga qo‘yib, biz xato qilganmiz. Hali

ham kech emas, biz bu boradagi ishlarni, albatta, tartibga olib, joyiga qo'yamiz. Kim yangicha ishlashni xohlamayotgan, kun o'tsa bo'ldi-da, deb yurgan bo'lsa, shuni bilsinki, ularning o'rniga intiluvchan, ishga, mehnatga chanqoq yoshlarimiz keladi.

Farzandlarimiz – bizning ertangi kunimiz, deb ko'p gapiramiz. Haqiqatan ham, qayerda, qaysi sohada, mana, men borman, bu ishni, bu mas'uliyatni o'z zimmamga olaman, deb maydonga otilib chiqadigan yoshlar bo'lsa, ular – ertangi kunimiz, ular – mening bolalarim. Agar shunday g'ayrat-shijoat bilan o'zingizni namoyon etmasangiz, o'ylaymanki, vaqtingiz bekor ketayapti, aziz bolalarim. Sizlarga, mana, men Prezident sifatida aytyapman: siz – mening suyanchim va tayanchim, hech qachon qo'rqmang, marrani baland olib, oldinga bosing.

Albatta, bugun bizning yanada jadal oldinga borishimizga xalaqit berayotgan, yo'limizda to'siq bo'layotgan g'ovlar ko'p. Ayniqsa, korrupsiya degan baloning oldini olish va unga qarshi qat'iy kurashish lozim. Dunyoda korrupsiyani yengib bo'lmaydi, degan gap keng tarqalgan. Men bunga qo'shilmayman. To'g'ri, korrupsiyani oxirigacha yengib bo'lmaydi, degan gapda jon bor. Lekin hammamiz, butun xalqimiz bir yoqadan bosh chiqarib, bir tan-u bir jon bo'lib kurashsak, uni yengish mumkin.

Davlat idoralarida lavozimda o'tirganlar, avvalambor, o'zining manfaatini emas, balki davlat manfaatini o'ylashi kerak. Ammo sovet davridagi xususiy mulkni butunlay rad etgan mafkuraviy qarash ham qaytmasligi kerak. O'sha mustabid tuzum davrida davlat manfaati

uchun ming-minglab odamlarning nafaqat mol-mulki, balki hayoti ham barbod qilingan. Bugun bu haqda misol keltirishning hojati yo'q deb o'ylayman.

O'zbekiston Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekani mustahkamlab qo'yilgan. Davlat manfaati yoki davlat mulkining hukmronligi belgilab qo'yilmagan. Davlat, avvalo, inson manfaati, uning huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun xizmat qilishi lozim. Boshqacha aytganda, birinchi navbatda, odamlar rozi bo'lsa, boy bo'lsa, shundan keyin davlat manfaati ham ta'minlanadi, davlat ham boy bo'ladi.

Oldimizda turgan yana bir muhim vazifa – ma'muriy buyruqbozlik tizimining hamon saqlanib qolayotgan har qanday shakllaridan voz kechib, davlat organlari, biznes va xususiy sektor o'rtasidagi vazifa va vakolatlarni aniq belgilab qo'yishimiz, savdo operatsiyalarini, chakana savdodan tashqari, asosan, birja orqali amalga oshirish tizimiga o'tishimiz kerak.

Biz bu borada ko'p-ko'p yutuqlarni qo'lga kiritganimiz barchamizga qanot beradi, albatta. Shu yo'lda boshlagan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarib, birja savdosini rivojlantiradigan bo'lsak, byurokratiya, kerak bo'lsa, korrupsiyaning payi ancha qirqiladi.

Aksincha bo'lsa, deylik, xaridor va o'z mahsulotini taklif etayotgan tomonning vakili uchrashib, shaxsiy manfaati yo'lida o'zaro kelishishi mumkin. Birjada esa bunday o'zboshimchalik bo'lmaydi, faqat qonun asosida ish yuritiladi. Shunday ekan, biz bu boradagi ishni yana rivojlantirishimiz kerak, albatta.

Ayniqsa, kichik biznes sohasida bu o'zini to'liq oqlamoqda. Bugungi kunda kichik biznes subyektlarining kamida 50 foizi birja savdolarida qatnashib, zarur resurslarga ega bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan qarab, biz bu masalada kichik biznesga bu borada yanada keng yo'l ochib berishimiz kerak.

Shular qatorida korporativ yoki aksiyadorlik birlashmalari faoliyatiga ham ko'pgina xorijiy firma va kompaniyalar tajribasi asosida tegishli o'zgartirishlar kiritish zarur.

Bu boradagi amaliy tajribamiz shuni ko'rsatadiki, **O'zbekistonda mahalliy aksiyadorlar bilan birga, chet elik investorlarning ham aksiyalarga ega bo'lishi mulkchilikning eng ma'qul, samarali, o'zini oqlayotgan yo'lidir.** Buning afzalligi, avvalambor, shundaki, xorijlik aksiyadorlar – muassislar qo'shma korxonalariga, avvalo, ilg'or, yuqori texnologiyalarni olib kelish bilan birga, ishlab chiqarishni zamonaviy asosda tashkil etish va boshqarishni joriy etadi.

Shu asnoda biz xorijiy davlatlar va kompaniyalar bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun ochiqligimizni bildirib, bu borada yangi yo'l va imkoniyatlar ochib berishga tayyormiz, desam, o'ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo'shilasiz.

Ayni shu yo'lni biz o'zimizga ma'qul, deb bilamiz va bu borada amaliy ishlarni boshlaganmiz. Mamlakatimizda bu sohadagi hozirgi holat, afsuski, qoniqarli emas. Ko'pchilik kompaniya va birlashmalar nomigagina aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilgan. O'ylaymanki, o'z vaqtida bu masalaga yuzaki qaralgani

va chuqur tekshirmasdan turib ruxsat berilgani bunga sabab bo'lgan.

Shunday ekan, mutasaddi vazirlik va idoralarning bu boradagi faoliyatini yana bir bor tanqidiy baholab, aybdorlarni, kerak bo'lsa, javobgarlikka tortish kerak. Chunki O'zbekistonda bunday o'yinlar ketmaydi. Afsuski, biz bu masalada pala-partish ishlarga yo'l qo'ydik. Aksiyalar ham nomiga chiqarilgan, ular deyarli ish bermayapti.

Bu boradagi amaliy tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy aksiyadorlar bilan birga chet ellik investorlar ham aksiyalarga ega bo'lgan kompaniyalar o'zini oqlayapti.

Shuning uchun biz barcha kompaniyalarni ana shunday shaklga o'tkazishni eng to'g'ri yo'l deb bilamiz. Chet mamlakatlarning vakillari o'z sarmoyasi bilan kelib, kompaniyalarimizning aksiyalarini sotib olsa, aksiyador bo'lsa, buning nimasi yomon? Shunday yo'l tutsak, avvalambor, yurtimizga zamonaviy texnologiya keladi, ikkinchidan, mahsulotlarimizni jahon bozoriga chiqarish osonroq bo'ladi.

Bugungi kunda dunyo bozorida raqobat shu darajada shafqatsiz tus olmoqdaki, unda mustahkam o'rin egallash oson emas. Mayli, eng yuksak texnologiyani yurtimizga olib kelib, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqardik ham deylik. Lekin ularni ertaga qayerda sotamiz? Jahon bozorida bizni hech kim, keling, marhamat, deb kutib olmaydi. Bu bozor to'liq bo'lib olingan, unda bo'sh joyning o'zi yo'q. Ammo biz bu bozorda o'zimizga xos va o'zimizga mos o'rin egallab, shuning hisobidan mahsulot sotib, valuta ishlashimiz

zarur. Biz bunga qanday erishishimiz mumkin? Qachonki mahsulotimizga talab katta va u yuqori sifati bilan boshqalardan ustun bo'lsagina jahon bozorida o'z o'mimizni topishimiz mumkin. Sifatli mahsulot chiqarish uchun esa eng zamonaviy texnologiyalar kerak. Shu ma'noda, ana shunday texnologiyalarga ega bo'lgan xorijlik investorlarni korxonalarimizga sherik sifatida jalb qilsak, ular aksiya egasi bo'lsa, biz ko'p narsa yutamiz.

Shular qatorida Internetning imkoniyatlaridan keng foydalanishimiz zarur. Bugungi kunda dunyo bozorida nima yangilik bo'lyapti, qaysi mahsulotga qancha talab bor, narx-navo qanday, ertaga nima bo'lishi kutilmoqda, degan savollarga javob berishga har birimiz – katta kompaniyalar rahbarlaridan tortib, menejerlar, fermerlar, har bir ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi tayyor bo'lishi lozim. Bu – hayot talabi.

Ayni vaqtda shuni ham yaxshi bilib olish kerakki, jahonda yuksak texnologiyalarga ega bo'lgan davlatlar ko'p emas. AQSH, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi bu sohada katta salohiyatga ega bo'lgan davlatlar bilan yaqin bo'lib, ular bilan hamkorlikda qo'shma korxonalarni ko'paytirsak, faqat foyda ko'ramiz. Bu borada har qanday mafkuraviy qarashlarni chetga surib qo'yishimiz kerak.

Ruxsatingiz bilan yana bir muhim masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarimni bayon etmoqchiman. Hozirgi kunda jahonda iqtisodiy kurash bilan birga, mafkuraviy qarama-qarshilik ham kuchayib bormoqda. Mafkuraviy kurash – bu, avvalo, siyosiy kurash degani. Har bir mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy nuq-

tayi nazardan manfaati bo'lishi tabiiy hol. Bularning orasida ma'naviyat sohasidagi manfaat va kurash eng muhim jabha hisoblanadi. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli kitobimda bu masalalar haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Ma'naviyat aslida nima ekanini hammamiz chuqur anglab olsak, uni bolalarimizga ham o'rgatsak, biz kimmiz, qanday buyuk zotlarning avlodimiz, qanday bebaho ma'naviy merosning vorislarimiz, degan savollarni oldimizga qo'yib, ularga javob berib yashaydigan bo'lsak, hech narsadan qo'rqmasak bo'ladi. Chunki bunday ishonch va e'tiqod bilan yashaydigan xalqni hech kim yenga olmaydi.

Xalqimizning ezgu hayot talablariga javob beradigan, uning tub manfaatlari, orzu-intilishlarini har tomonlama aks ettiradigan milliy g'oya, millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir yurtdoshimizning o'z g'oyasiga aylansa, ularning qalbi va yuragidan chuqur joy olsa, – men ishonaman – ana shunda biz ko'zlagan yuksak maqsadlarimizga albatta yetamiz.

Bugungi kunda biz, ertaga nima bo'lishini oldindan aytib bo'lmaydigan, ko'p jihatdan noaniq, beqaror bir zamonda yashayotganimizni hisobga olgan holda, avvalo xalqimizning o'z kuchiga bo'lgan ishonchi, iymonirodasi yanada mustahkam qilish haqida o'ylashimiz kerak.

Bir haqiqatni barchamiz, birinchi navbatda yoshlarimiz aniq-ravshan tushunib olishini istardim: mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat qurish maqsadida boshlagan ishlarimizni mantiqiy yakuniga albatta yetkazish – bu biz uchun tariximizning o'zi isbotlab

berayotgan eng to'g'ri yo'l va biz shu yo'ldan hech qachon ortga qaytmasligimiz shart. Shuni unutmasligimiz kerakki, mustaqillik, bugungi erkin hayot, bugungi beqiyos imkoniyat har qaysi millat, har qaysi avlod tarixida faqat bir marta beriladigan ulug' va noyob ne'matdir.

Agarki biz uchun haqiqatan ham hayot-mamot masalasi bo'lgan ana shu imkoniyatni boy bersak, zimmamizga yuklatilgan buyuk tarixiy mas'uliyat hissini yo'qot-sak, o'z oldimizga qo'ygan oliy maqsadlarga yetish uchun yurtimizda yashayotgan har qaysi ongli inson bor kuch-g'ayrati, aql-zakovatini bag'ishlashiga erisha olmasak, ochiq aytish kerak, biz el-yurtimiz oldida, yosh avlodimiz, jondan aziz farzandlarimiz oldida xiyonat qilgan bo'lamiz. O'z-o'zidan ravshanki, bunga yo'l qo'yishga bizning hech qanday haqqimiz yo'q.

Bu fikrni barcha vatandoshlarimiz, yoshlarimiz ongiga chuqur singdirish avvalo biz – rahbarlar, yetakchilar uchun ham qarz, ham farz, deb hisoblayman.

Bugungi kunda amalga oshirayotgan va 2015-yil hamda kelgusi yillar uchun belgilab olgan islohotlarimizni ayni shu talablar asosida yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini davom ettirishimiz, hech shubhasiz, davlat boshqaruvi tarkibini va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini yangi bosqichga ko'tarishga, jahon miqyosida O'zbekistonimizning munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

Qadrli do'stlarim, yurtdoshlarim!

Ruxsatingiz bilan yana bir o'ta muhim va barchamizni o'ylantiradigan masalaga to'xtalib o'tishni zarur, deb

bilaman. Ya'ni, bugungi kunda barchamiz qanday o'ta tahlikali, tobora keskinlashib borayotgan, turli xavf-xatarlarni olib kelishi mumkin bo'lgan zamonda yashamoqdamiz.

Ayni shunday vaziyatni hisobga olib, bugun yurtimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalikni, xalqimizning osuda hayotini, chegaralarimizning daxlsizligini asrash maqsadida biz uzoq va yaqin atrofimizdagi barcha davlatlar bilan do'stona munosabatlarni va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning eng ustuvor vazifamiz, deb bilishimiz kerak.

Yana va yana bir bor aytishni o'zimning burchim, deb bilaman – **O'zbekiston hech qanday harbiy-siyosiy blokka qo'shilmaydi, o'z hududida chet el harbiy bazalarini joylashtirishga, bizning harbiylarimizning mamlakatimiz tashqarisida bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'ymaydi.**

Bugun yaqin atrofimizda vujudga kelayotgan o'ta murakkab vaziyatda ayni shunday yo'lni, shunday siyosatni biz uchun eng to'g'ri, eng ma'qul, deb bilamiz. **Ilgari ham aytganimdek, bizga, xalqimizga tinchlik va omonlik kerak, buning uchun kurashishimiz kerak.**

Fursatdan foydalanib, bizga yaqindan yordam va ko'mak berib, hamkorlik qo'lini uzatib, doimo xayrixoh bo'lib kelayotgan xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarga, ularning mana shu zalda o'tirgan vakillariga, barcha chet ellik mehmonlarimizga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiy tashakkur izhor etishga ruxsat bergaysiz.

Men chet davlatlardan kelgan hamkorlarimiz, avvalambor, diplomatik korpus, biznes vakillari bilan ko'p uchrashaman. Ular orasida urush haqida, qarama-qarshilik to'g'risida gapirgan bironta odamni uchratmadim.

Ayniqsa, diplomatlarga qoyil qolaman. Ular o'zini shunday tutadiki, hech qachon birortasi bilan yomon kayfiyatda xayrlashganimni eslay olmayman. Elchilarning vakolat muddati tugagach, ular bilan xayrlashayotganimda o'zimni bamisoli yaqin do'stimni kuzatayotgandek his qilaman.

Chunki xorijiy davlatlarning elchilari yurtimizda ishlagan vaqtlari mobaynida biz bilan shunday yaqinlashib, do'stlashib ketadiki, xayrlashishning o'zi og'ir bo'ladi. Bironta elchini ko'rmadimki, mana, men nihoyat ketyapman, bundan mamnunman, degan bo'lsa. Shu bois bugun yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet mamlakatlarning elchilariga butun xalqimizning hurmat va ehtiromini yetkazmoqchiman.

Menga qolsa, maxsus bir mukofot ta'sis etib, Vatanimizda o'z faoliyatini yakunlayotgan diplomatlarni u bilan taqdirlasak, ayni muddao bo'lardi.

O'ylaymanki, bu zalda o'tirgan katta-kichik barcha rahbarlar, parlamentimiz palatalari a'zolari muhtaram elchilar bilan uchrashsa, muloqotlar olib borsa yoki ular bilan hamkorlik to'g'risida kelishuvlarga erishish paytida ularning o'rtasida ayni shunday kayfiyat hukmronlik qilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Diplomatning eng katta yutug'i nima, deb so'rasangiz, men ular ko'p ishlatadigan ibora bilan, urushni boshlamasidan turib uni yutishida, deb javob bergan

bo'lardim. Mana shunday xususiyat va alomatlariga ega bo'lgan odamlar, albatta, tasodifan O'zbekistonga kelmaydi.

Shularni hisobga olib, markazda bo'ladimi, viloyatlarda bo'ladimi, barchamiz chet davlatlarning muhtaram vakillariga shunday hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lsak, bu bizning qoidamizga aylansa, hammamiz, avvalambor, O'zbekistonimiz uchun ma'qul ish bo'lardi.

Mening O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishim munosabati bilan o'z tabrik va qutlovlarini yo'llagan barcha davlat rahbarlariga, siyosat va jamoat arboblari chuqur minnatdorlik bildiraman.

Menga yuksak ishonch bildirgan ona xalqimga bosh egib, yana va yana bir bor ta'zim qilaman.

Mana shunday olijanob, bag'rikeng xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan xizmat qilish – men uchun eng yuksak sharaf, oliy saodatdir.

Doimo sog'-omon bo'linglar, qadrdonlarim!

MUNDARIJA

So'zboshi o'mida	3
Bizning maqsadimiz – erkin va farovon, demokratik hayot qurish (<i>Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining VII syezdidagi ma'ruza</i>)	37
Mustaqillik – tog'dek tayanchimiz, qudratli zaminimizdir	67
Kim edig-u kim bo'ldik? Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi marralarni egallashimiz kerak?.....	77
Saylov – demokratiyaning oliy shaklidir	97
Tarix – bamisoli ko'zgu.....	107
«O'zbek modeli» – amalda o'zini oqlagan, yorug' istiqbolimizni belgilab bergan taraqqiyot yo'li.....	123
Qishloq taraqqiy topsa, yurtimiz obod, hayotimiz yanada farovon bo'ladi	171
Obodlik ko'ngildan boshlanadi.....	189
Zamonaviy rahbar doimo oldinga intilib yashashi kerak.....	205
Keksalar – xonadonlarimizning fayz-u farishtasi	215
Ayol baxti – jamiyat baxti.....	225
Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart	233
Xalqimizga tinchlik va omonlik kerak.....	271
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq	281

Rasmiy nashr

Islom Abdug'aniyevich Karimov

**ONA YURTIMIZ
BAXT-U IQBOLI VA BUYUK
KELAJAGI YO'LIDA
XIZMAT QILISH –
ENG OLIY SAODATDIR**

Nashr uchun mas'ul *X. Sultonov*

Nashrga tayyorlovchilar: *S. Ashurov, M. Qarshiboyev, I. Bo'riboyev, O. To'raqulov*

Nashriyot muharrirlari: *I. Ahmedov, B. Akbarov*

Rassom *Sh. Xodjayev*

Badiiy muharrir *H. Qutluqov*

Texnik muharrir *L. Xijova*

Kichik muharrir *D. Xolmatova*

Musahhihlar: *S. Salohutdinova, N. Abdurahmonova*

Kompyuterda tayyorlovchi *K. Goldobina*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2015-yil 22-avgustda ruxsat etildi. Bichimi 60×90^{1/16}.

Ofset qog'ozi. «Times» gamiturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 19,0+0,13 frontis. Nashr tabog'i 16,70.

Adadi 25 000 nusxa. Buyurtma № 15-592.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

ISBN 978-9943-28-369-5



9 789943 283695

Karimov I.A.

K25

Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida
xizmat qilish – eng oliy saodatdir / I.A.Karimov; – Toshkent:
«O'zbekiston» NMIU, 2015. 304 b.

ISBN 978-9943-28-369-5

UO'K: 323(575.1)

KBK 66.3(50')